**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
QOZON (VOLGA VILOYATI) FEDERAL UNIVERSITETI**

bilan hamkorlikda

**O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASH BO‘YICHA
XALQARO FORUM
ITTE-2025: UZBEKISTAN**

“PEDAGOG-TALABALARNI AMALIYOTGA YO‘NALTIRILGAN O‘QITISH: OLIY O‘QUV YURTI VA MAKTAB HAMKORLIGI MODELLARI”

IFTE-2025:
O‘ZBEKISTAN PEDAGOGIK TA’LIM BO‘YICHA XALQARO FORUM

MATERIALLARI TO‘PLAMI

Samarqand shahri

2025 yil 3-5 iyun

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY-SIYOSIY FANLAR FAKUL’TETI

“PEDAGOG-TALABALARNI AMALIYOTGA YO‘NALTIRILGAN O‘QITISH: OLIY O‘QUV YURTI VA MAKTAB HAMKORLIGI MODELLARI”

IFTE-2025:
O‘ZBEKISTAN PEDAGOGIK TA’LIM BO‘YICHA XALQARO FORUM

2025 yil 3-5 iyun

Samarqand 2025

«**Pedagog-talabalarni amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish: oliy o‘quv yurti va maktab hamkorligi modellari**» // mavzusidagi **IFTE-2025: O‘ZBEKISTAN PEDAGOGIK TA’LIM BO‘YICHA XALQARO FORUM** (2025 yil 3-5 iyun) / Shaxzoda Axmedova, Obid Qodirov, Aktam Samadovlar tahriri asosida. – Samarqand: SamDU, 2025 – 421 b.

Mas’ul muharrirlar:
A.Q.Aymatov
O.S.Qodirov

Техническая редакция:
Sh.B.Axmedova
Sh.G‘.Ochilov

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash hamda pedagoglar, talabalarni amaliyotini metodologik qayta ko‘rib chiqish, oliy o‘quv yurti va maktab hamkorligi modellarini tahlil qilish va sohadagi yutuqlarini respublikamiz ta’lim sohasiga keng tatbiq qilish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti tomonidan 2025-yil 5-6 iyun kunlari **“Pedagog-talabalarni amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish: oliy o‘quv yurti va maktab hamkorligi modellari**” mavzusida **IFTE-2025: O‘zbekistan pedagogik ta’lim bo‘yicha xalqaro forum** o‘tkazildi. Ushbu anjuman materiallari to‘plam holida nashr etildi. Mazkur xalqaro ilmiy-texnik anjumani to‘plamida pedagog va talabalarni amaliyotga yo‘naltirgan o‘qishlarini tashkil qilish, ta’lim yo‘nalishlarida amaliyotni qo‘llashning nazariy-metodologik masalalarini bugungi kunda dunyoda o‘rganilishi, tadqiq etilishi va yurtimizda pedagogikani dolzarb muammolarini o‘rganishga oid zamonaviy tadqiqotlar, yangicha yondashuvlar borasida taklif, tavsiyalarni qamrab olgan maqolalar aks etgan.

Maqolalardagi ma’lumotlarning asosli va haqqoniy ekanligiga mualliflar javobgardirlar.

© Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda ta’limi sohasidagi islohotning strategik ustuni sifatida amaliyotga qaratilgan o‘qitish tizimi bo‘lib, bundan maqsad yuqori sifatli pedagog o‘qituvchilarni tayyorlashdir. O‘qitishning innovatsion amaliy usullari va amaliy o‘qitish samaradorligini oshirish oddiy oliy o‘quv yurtlarida iste’dodlarni yetishtirish sifatini oshirishning kalitidir. Ushbu tadqiqot namuna sifatida xorojiy mamlakatlarda oliygohlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning asosiy savodxonligini oshirish loyihasidir. Universitet talabalarini amaliy o‘qitishni isloh qilish uchun aqlli texnologiya bilan kuchaytirishning tarixiy asoslari va amaliy talablarini o‘rganish zarur. Sun’iy intellekt, virtual haqiqat va katta ma’lumotlarni tahlil qilish kabi texnologiyalardan foydalangan holda, virtual haqiqat bilan amaliy o‘qitishning integratsiyalashgan sohasi quriladi, shu jumladan, inson va kompyuter hamkorligida amaliy o‘qitish muhitini yaratish, aqlli o‘qitish platformasini qurish dolzarb vazifalardandir. Ushbu loyiha intellektual texnologiyalar va innovatsion amaliy o‘qitish modellarining afzalliklarini chuqur integratsiyalash orqali o‘qituvchilarning asosiy savodxonlik darajasini oshirishga qaratiladi. Pedagoglar ta’limining amaliyoti va o‘qitish tizimini isloh qilishning uzliksiz modelini yaratish, global ta’limining yuqori sifatli rivojlanishini rag‘batlantirish uchun yuqori sifatli resurs yordamini taqdim etish maqsadga muvofiqdir.

Ta’limni insonparvarlashtirish g‘oyasi va konsepsiyasi ta’lim-tarbiya tizimidagi mana shunday kamchiliklarni bartaraf etishga, O‘zbekistonning o‘z oldiga qo‘ygan buyuk maqsadlarini amalga oshirishga qodir va layoqatli, ma’naviy barkamol va malakali mutaxassislarni yetishtirishga qaratilgan bo‘lmog‘i lozim. Uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish keng dunyoqarashli va ma’rifatli, aql-idroki mukammal, axloqiy jihatdan barkamol, ruhan tetik, psixologik sog‘lom, o‘z mamlakati va uning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni va rolida o‘zining fuqarolik mas’uliyatini to‘g‘ri va to‘la anglab yetgan komil inson shaxsini tarbiyalash maqsadlariga bo‘ysundirishdan iboratdir.

TA’LIM SAMARADAORLIGINI OShIRIShDA O‘QITUVChI MAHORATINING AHAMIYATI

Abdurasulov Rustam Abduraimovich Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Amaliy psixologiya kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori
Eshmonov Otabek Baxriddin o‘g‘li Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Amaliy psixologiya kafedrasi dosenti, psixologiya f.f.doktori
Israilov Faxriddin O‘skin o‘g‘li Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Amaliy psixologiya kafedrasi assistenti

Annotasiya. Mazkur maqolada dars samaradorligini oshirishda muhim bo‘lgan o‘qituvchining pedagogik mahoratining psixologik jihatlari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Unda o‘qituvchining pedagogik faoliyati jarayonida muhim bo‘lgan komponentlar va ularning mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘z. O‘qituvchi, mahorat, komponent, boshqaruv uslublari, prinsip.

Аннотация. В статье рассматриваются психологические аспекты педагогического мастерства учителя, имеющие важное значение в повышении эффективности урока. Описываются важные компоненты и их значение в процессе педагогической деятельности учителя.

Ключевая слова. Учитель, мастерство, компонент, стили управления, принцип.

Abstract. The article examines the psychological aspects of the teacher’s pedagogical skills, which are important in increasing the effectiveness of the lesson. The important components and their significance in the process of the teacher’s pedagogical activity are described.

Key words. Teacher, skills, component, management styles, principle.

Jamiyatning taraqqiy o‘qituvchining o‘rni va roli juda muhim ahamiyatga egabo‘lib, ijtimoiy javobgarligi bilan, ya’ni shaxs ta’lim-tarbiyasi va uning kamolotiga javob berishi bilan boshqa sohalardan ajralib turadi. Hozirgi kunda ham o‘qituvchi ikkita muhim ijtimoiy vazifa - yosh avlodga ta’lim va tarbiya berish vazifasini bajarib kelmoqda.

Ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil qilishda pedagog faoliyatining o‘ziga xos jiatlari borki, ularsiz pedagogik qaoliyatni samarali tashkil qilib bo‘lmaydi. Psixologiya va pedagogika fanlarida pedagogik faoliyatning quyidagi komponentlari ko‘rsatiladi:

1. **Gnostik (bilim) komponenti**.

O‘qituvchining professional faoliyatida asosiy o‘rinni uning ishi egallaydi, o‘z bilimini oshirish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga harakat qiladi. Bunda o‘qituvchi taqiqotchilik vazifasini bajarib, o‘ziga kerakli ma’lumotlarni izlaydi, o‘z ishlarini tahlil qiladi, boshqalarni ish tajribalarini o‘rganadi. Ushbu vazifani bajarmay turib o‘qituvchi o‘z fanining mohir ustasi bo‘la olmaydi va ta’lim-tarbiya jarayonida kamchilikka yo‘l qo‘yishi mumkin.

2.**Konstruktiv komponent**.

Bu komponentning mazmuni shundan iboratki, o‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyatini rejalashtirish va uning natijalarini oldindan ko‘ra bilish hisoblanadi. Har bir darsga puxta tayyorgarlik ko‘rish kerak bo‘ladi, uni materialini qayta va qayta ishlash, metodik usullarini tanlash, texnik vositalarni tayyorlash, darsni maqsadi va uni tashkil qilish bosqichlari hamda fanlararo aloqalari aniqlanadi.

3. **Tashkilotchilik komponenti**.

O‘qituvchi o‘quvchi-tarbiya jarayonining asosiy tashkilotchisi hisoblanadi. Agar o‘qituvchi o‘quvchi-tarbiya jarayonini yuqori darajada tashkil qilmasa, o‘qituvchining tadqiqotchilik faoliyati, dars va darsdan tashqari tadbirlar o‘z mohiyatini yo‘qotadi.

4.**Kommunikativ komponent**.

Bu komponent pedagogik faoliyatning muhim jihati bo‘lib, bu uning butun bir holda samaradorligini aniqlab beradi. Uning asosiy mazmuni, o‘qituvchining xamkasblari, ota-onalar va o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish hisoblanadi. Kommunikativ komponent o‘qituvchining tadqiqotchilik konstruktiv va tashkilotchilik faoliyatlari bilan bog‘liq keladi. O‘qituvchi o‘zining professional faoliyatidagi barcha bilan o‘zaro munosabati xarakteri, uning faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Rus psiixolog olimi A.I.Sherbakov o‘qituvchining o‘ziga xos vazifalari haqida gapirib, uning professional faoliyatida tarbiyaviy yo‘nalishini ko‘rsatib o‘tadi. Uning fikricha bu vazifalar quyidagilar: informasion, safarbarlik, rivojlantiruvchi, yo‘naltiruvchi vazifalar hisoblanadi.

- informasion (axborot) vazifa - chuqur bilim va o‘quv materialini yaxshi egallash, ularni amlada ishlata bilish;

- safarbarlik - o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil ishlarini tashkil etish, o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish va qo‘llay;

- rivojlantiruvchi - o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va individual-psixologik xarakteristikasini hisobga olgan holda shaxsini shakllantirish.

- yo‘naltiruvchi - o‘quvchilardagi ijtimoiy ahloqiy motivlarni, dunyoqarashi va faol hayotiy pozisiyalarini shakllantirish.

O‘qituvchining o‘z vazifasini muvoffaqiyatli bajarishi o‘quvchilar jamoasini shakllanishida, o‘quvchi shaxsini rivojlanishida, ularni mustaqil hayotga tayyorlashda muhim shart hisoblanadi. Buning uchun bunda asosiy omil o‘qituvchining shaxsi hisoblanadi. K.D.Ushinskiy o‘z vaqtida “Tarbiyada hamma narsa tarbiyachining shaxsiga asoslanishi kerak, chunki inson shaxsidan shunday tarbiyaviy kuch yog‘iladi” deb aytgan edi.

Pedagogika, psixologiya fanlarida pedagogik ta’sirning asosiy ikki turi ko‘rsatiladi, ular bevosita va bilvosita turlari hisoblanadi.

Bevosita ta’sir deganda shaxsga biron-bir narsani taklif yoki talab qilishi maqsadida to‘g‘ridan-to‘ri murojaat qilishi tushuniladi.

Pedagogning professional faoliyatidagi o‘ziga xoslik shundaki, u doim va to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quvchilar bilan aloqada bo‘lishi sababli ta’sirning bevosita

turidan foydalanishiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga ba’zi bir holatlarda bu turdagi ta’sir ko‘p ham samara bermasligi mumkin. Chunki ba’zi holatda o‘qituvchining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’siri o‘quvchiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, bu esa o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatida qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

Bu xolatda bilvosita ta’sir turini qo‘llagan ma’qul. Bu quyidagicha amalga oshiriladi. O‘qituvchi o‘quvchiga uni atrofidagi odamlar orqali ta’sir ko‘rstaish mumkin. Chunki, shu narsa ma’lumki, har bir o‘quvchining bir yoki bir necha ishonchli o‘rtoqlari bo‘ladi va ularning fikrini inobatga oladi, o‘qituvchi esa shu odamlar orqali o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatsa bo‘ladi.

O‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonini samarali bajarishi uning bu jarayonni qanday boshqarishiga bog‘liq. O‘qituvchi boshqaruvning ma’lum bir uslubidan foydalanib, o‘quv-tarbiya jarayonidagi o‘zaro munosabatlarni shakllanishiga ta’sir ko‘rsatish mumkin. Boshqaruv uslublari quyidagilarga bo‘linadi:

1.**Avtoritar uslub**. Qisqa qilib bu uslubga izoh beradigan bo‘lsak, bu uslubda o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonidagi barcha savollar va yuzaga keladigan muammolarni bir o‘zi xal qiladi qaror chiqaradi, bunda u boshqalarning fikrlarini inobatga olmaydi.

2.**Beparvolik uslubi**. Bunda o‘qituvchi o‘z vazifasini yengillatishga xarakat qilib, hyech qanday javobgarlikni bo‘yniga olmaydi. O‘z vazifasini nomiga bajaradi, ta’lim-tarbiya jarayoniga e’tiborsizlik bilan yondashadi, muammolardan o‘zini olib qochadi, natijada esa o‘quvchilar oldida obro‘si yo‘qoladi.

3.**Demokratik uslub**. Bu uslubda o‘qituvchi o‘quvchilarning faolligini oshirishga xarakat qiladi, umumiy ishni hal qilishiga har bir o‘quvchini jalb qiladi. O‘qituvchi bu uslubda sinf jamoasiga tayanadi. Yuzaga kelgan muammo va savollarni o‘quvchilar birgalikda yechishga harakat qiladilar, o‘qituvchi tomonidan ular qabul qilgan qaror ma’qullansa, qaror amalga oshiradilar. Ushbu uslub yagona uslub bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchilarning xamkorligining samarali bo‘lishiga olib keladi.

Ta’lim-tarbiya jarayoni o‘quvchilarni har tomonlama garmonik rivojlanishi vazifalarini amalga oshiradi. Shaxsni har tomonlama shakllantirishning umumiy psixologik prinsiplari borki, bular quyidagilar:

1.**Faollik prinsipi**.

Faollik prinsipining mohiyati shundan iboratki, har bir o‘qituvchi o‘quvchi – tarbiyachining qo‘ldagi va uning barcha aytganini so‘zsiz bajaradigan obyekt emas, balki faol, ijodkor subyekt ekanligini doimo yodda tutishlari darkor. Faollik prinsipini ta’lim jarayonida amlaga oshirish uchun o‘qitish va dars berish mohiyatini o‘zgartirishga qaratish kerak, ya’ni o‘quvchini turli xil bilimlarni qabul qiluvchidan bilimlarni izlovchiga aylantirish lozim. Shunday qilib, maktab o‘qitishni o‘rganishi kerak.

2. **Faoliyat prinsipi**.

Faoliyat prinsipning mazmuni shundaki, bunda nafaqat ko‘pqirrali faoliyatni tashkil qilish, balki birgalikdagi faoliyatni tashkil qilish lozim bo‘ladi, ya’ni bolaning tengdoshlari va kattalar bilan darsda, turistik sayohatlar

maktabdagi munozalar vaqtidagi birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishini talab qiladi.

Bolaning birgalikdagi faoliyati shaxsni har tomonlama rivojlantirish vazifasiga javob berishi uchun quyidagi talablarga javob berish kerak.

- birinchidan, faoliyat haqiqatdan ham birgalikdagi faoliyat bo‘lishi kerak;
- ikkinchidan, ijtimoiy jihatdan ahamiyat kasb etishi va bolalar uchun qiziqarli bo‘lishi kerak.
- uchinchidan, u jo‘shqin bo‘lishi unda o‘zaro harakat jarayonida bolaning ijtimoiy roli o‘zgarib turishi kerak.
- to‘rtinchidan, birgalikdagi harakat jamoaviy kechinmalarga boy bo‘lishi, boshqa odamlarning yutuqlaridan quvonish va odamsizligidan qayg‘urish kabi hissiyotlarni boshdan kechirishi lozim.

3.**Jamoa prinsipi**.

Jamoa prinsipining mazmuni shundan iboratki, shaxsning bebaxo sifatlarini shakllantirishning asosiy sharoitlarini yuqori darajada rivojlangan guruh-jamoa hisoblanadi.

O‘qituvchi maktabdan tashqari uning yonida bola shaxsini rivojlanishida javobgar bo‘lgan ikki ijtimoiy guruh-oila va bolalar guruhi borligini hisobga olishi kerak. Chunki maktabdagi tarbiya bilan olia va bolalar guruxidagi tarbiya yo‘nalishi mushtarak bo‘lishiga erishish kerak.

4.**Individual yondoshish prinsipi**.

Individual yondoshish prinsipi o‘quvchilarga ularning ularning individula-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yondoshishini talab qiladi, ya’ni bu o‘quvchi tengdoshlaridan farq qilishini hisobga olib tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishi lozim bo‘ladi. Shu bilan birga shu narsani inobatga olishi kerakli, individual yondoshish o‘quvchiga shaxsiy yondoshish jihati bo‘lib, o‘smirining kattalar, o‘qituvchilar, ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlari tizimiga kirishish sharoitlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘qituvchining pedagogik faoliyatini samaradorligi uning pedagogik mahoratiga, dars jarayonini boshqarsh uslubiga, o‘quvchilarni har tomonlama garmonik rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiluvchi psixologik prinsiplarini qay darajada o‘qituvchi tomonidan qo‘llanishiga bog‘liq ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Adabiyotlar

1.Ibragimov X.I., Yo‘ldoshev U.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya (O‘quv qo‘llanma). -Toshkent, 2007

2.Kitov A.I. Psixologiya upravleniya. -M, 1989.

3.Mayers D. Sosialnaya psixologiya. -M, 2000.

4.G‘oziyev E., Toshimov R. Menejment psixologiyasi. -T, 2001.

OILAGA TAYYORLIK VA OILA TARBIYASINING UZOQ YILLARDAN BUYON TADQIQ ETISH AN’ANALARI

Abduraxmonov Firdavs Mamatkozimovich
“NOVA” psixologik markaz rahbari,
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaga tayyorlik va oila tarbiyasining uzoq yillardan buyon tadqiq etish an’analarini tadqiq etish an’analari va oila hamisha muqaddas ekanligi yoritilgan. Unda oila va nikoh masalalari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg‘or kishilari, olimlar, allomalar, donishmandlarning diqqat markazida bo‘lib kelganligi, oila jamiyatning asosi hisoblanishi, oilani qo‘llab quvatlash va bola manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan ma’limotlar alohida to‘xtalib o‘tilganligi o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: Oila-jamiyat, oila va nikoh, ota-ona, sog‘lom bola, sharqona odob-axloq, milliy g‘oya va bag‘rikenglik, insonparvarlik, sevgi-muhabbat, odob-axloq, milliy g‘oya va bag‘rikenglik, insonparvarlik.

Oila yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta’sirchan kuch - oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro‘sining yuqori bo‘lishi, bolalarga talab qo‘yishda oila kattalari o‘rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e’tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo‘yish, oilada qat’iy rejim va kun tartibini o‘rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlari-nl hisobga olish, boladagi o‘zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo‘llabquvvatlash va h.k. Oila-jamiyat asosi, ulkan ijtimoiy kuch hisoblanadi. Unda ajdodlarimiz merosi, bugunimizning oydin sahifalari, ertangi kunimiz umidi bor. Biz shu oilada kelajagimiz egalari, millatimiz vorislarini tarbiya qilamiz. Bu muqaddas dargohda kechagina beshikni tebratib, bag‘rimizga bosib, ovutganlarimiz – farzandlarimiz o‘smoqda. Ona O‘zbekistonimizda ham oila hamisha muqaddas sanalgan. Oilani qo‘llab quvatlash va bola manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan konstitusiyaviy normalar qator qonun va qonun osti hujjatlarida o‘z aksini topgan.

Oilaning asosiy vazifasi ham jamiyatga fidoyi komil insonlarni yetishtirib berishdan iborat. Zero, sog‘lom bola bu sog‘lom oilaning mevasidir. Sog‘lom inson deganda, faqat jismoniy sihat-salomatlikni emas, balki o‘zbek xalqiga xos sharqona odob-axloq, milliy g‘oya va bag‘rikenglik, insonparvarlik kabi ezgu his-tuyg‘ular ruhida kamol topgan manan yetuk insonni tushunishimiz mumkin. Zero, manaviy sog‘lom insonlar avvalo yurt tinchligi, xalq farovonligi va xalqning ertangi kuni uchun qayg‘ura oladilar. Bevosita oiladagi sog‘lom muhit, sog‘lom mafkura, manaviy sog‘lom insonning tayanch manbaidir deya olamiz. Jamiyatimiz mustahkam tayanchi bo‘lmish oila nafaqat ertangi kun shaxslarini tarbiyalaydi, balki vatan va ertangi kun uchun qayg‘ura olish qobiliyatini xam shakllantira olishi shubhasizdir.

Respublikamizda oilaga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Yoshlarimizni sog‘lom va mustahkam oila qurishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Oila jamiyatning asosi xisoblanadi. Xo‘sh oilaning asosini nima tashkil etadi? Albatta oilaning xuquqiy asosini qonuniy nikox tashkil etadi. Chunki faqat qonuniy nikohgina oilada er-xotin va bolalar o‘rtasida o‘zaro xuquq va majburiyatlarni keltirib chiqaradi.

Oila va nikoh masalalari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg‘or kishilari, olimlar, allomalar, donishmandlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Sharqning buyuk allomalari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Xotam Ibn Toy, Alisher Navoiy, Rizouddin Ibn Faxriddin, Muqimiy, Uvaysiy, Nodira, Abdulla Avloniy kabi ko‘plab olim va shoirlar bu masalalar yuzasidan o‘zlarining durdona fikrlarini qoldirib ketganlar. Ular hozirgi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga egadir.

Oila tarbiyasi — oilada ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta’sirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro‘sining yuqori bo‘lishi, bolalarga talab qo‘yishda oila kattalari o‘rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e’tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo‘yish, oilada qat’iy rejim va kun tartibini o‘rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o‘zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo‘llabquvvatlash va hokazo. Oila qanchalik tartibli, uning a’zolari o‘rtasidagi munosabat samimiy bo‘lsa, Oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Oila tarbiyasida ota-ona obro‘si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shu boisdan mavjud an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta’sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An’ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo‘lsagina, kutilgan natijalarga eri-shish mumkin. Oila tarbiyasida yutuklarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, Oila tarbiyasi bo‘yicha tajribalar alma-shishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg‘in jalb qilishga ham bog‘liqdir. Har bir ota-ona Oila tarbiyasida o‘zlarining burch va mas’uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o‘qishga, mehnat qilishga o‘z vaqtida jalb etish ham Oila tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir.

Oilada ota yoki onaning yo‘qligi yoki ulardan birining ketib qolishi Oila tarbiyasiga katta zarar yetkazadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta’sir kuchi yo‘qoladi, Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qat-tiq jarohatlanadi, u tajang, serjaxl, qo‘pol, dag‘al bo‘lib qoladi, kattalarga ishonmay qo‘yadi, o‘qishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obro‘si katta ahamiyatga ega. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda

maktabni oila bilan bog‘lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun Oila tarbiyasida maktab va ota-onalar o‘rtasidagi ta’limtarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Otaonalarning o‘qituvchilar bilan bo‘lgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular o‘z farzandlari to‘g‘risida ko‘proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi.

Bola maktabni tamomlagunga qadar otaona maktab bilan yaqin aloqa o‘rnatishi, farzandining darslarini o‘zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo‘lib turishi, tarbiya masalalarida o‘qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so‘ng nima bilan mashg‘ulligi haqida o‘qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim. Uz navbatida o‘qituvchi va sinf rahbari ham bolaning o‘qishi, odobi, xulqi, maktabda o‘zini tuta bilishi haqidagi ma’lumotlarni ota-onaga yetkazishi, zarurat tug‘ilganda paydo bo‘lgan muammolarni birgalikda hal qilishi zarur. Farzandi maktabga borgan ota-ona maktab jamoasining a’zosi bo‘lib qolishi kerak. O‘qituvchi va sinf rahbari ham o‘z o‘quvchisining oilasi bilan mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘ymog‘i lozim.

Oila tarbiyasida ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan hamkorliklari ham muhim. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Oila tarbiyasida har bir oila o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. O‘tmish mutaffakkirlari shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo‘yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o‘rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo‘naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e’tibor berilgan.

Oilaviy munosabatlar va bu sohaga oid qarashlar tizimida sharq mutaffakirlaridan biri, Yevropa xalqlari ham qomusiy bilimdonligini tan olgan alloma *Abu Ali Ibn Sino* alohida o‘rin tutadi. *Ibn Sino*ning pedagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy asosda qurilgan bo‘lib, u bola tarbiyasida umuminsoniy tamoyilning qo‘llanilishini yoqlab chiqqan va tarbiyachi ota-onalarga bolani qattiq jazodan ko‘ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma’qulligini uqtirgan.

Oilaviy munosabatlarning turli tomonlarini yoritar ekan, Ibn Sino, avvalom bor oila boshlig‘i oldiga qator talablarni qo‘yadi. “Oila boshlig‘i, - ham nazariy, ham amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini mukammal o‘zlashtirmog‘i lozim”. Agar oila boshlig‘i tajribasiz bo‘lsa, u o‘z a’zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir oqibat u yaxshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qo‘shnilarga, mahalla-ko‘yga ham yomon ta’sir qilishi mumkin. Oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqyeidan qat’iy nazar, ularning birlamchi vazifasidir, deb hisoblaydi Ibn Sino. Ota-ona davlat boshlig‘imi yoki oddiy fuqaromi, baribir, u bola tarbiyasi borasida ma’suldir. Davlat boshliqlari, rahbarlar bola tarbiyasi xususida barchaga ibrat bo‘lmoqlari lozim. Uning fikricha, tarbiyachi, ya’ni ota-ona «nafaqat so‘z bilan, balki amalda ham bola ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatmog‘i lozim».

XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Xojib o‘zining «Qutadg‘u bilig» kitobida va undan keyingi qator asarlarida o‘zining hayotga oid qarashlarini bayon etadi.

Kaykovus Unsurulmaoni – 63 yoshida o‘g‘liga atab «Qobusnoma»[1] yozib, unda o‘zining bola tarbiyasi, oilaviy hayot, shaxs kamoloti masalalarini bayon etdi.

Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Ular «Nasihatnoma», «Pandnoma», «Hikmatnoma» tarzida bizgacha yetib kelgan. Bu manbaalarda qizlarni hayotga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo‘lishi, oila muqaddas, uni avaylab asrash aynan uy bekalariga bog‘liq ekanligi haqida turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisalar hikoya qilinadi.

Zardushtiylikning qadimiy kitobi - «Avesto» da oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er va xotinning teng mas’ulligi, farzand tarbiyasi to‘g‘risidagi fikrlar bayon etilgan. Oilaning tinch va farovon bo‘lishi nimalarga bog‘liq ekanligi haqida esa: «Porso, inson uy tiklab, olovga, oilasiga, xotin va farzandlariga o‘rin ajratib bersa, uyida noz-ne’matlari muhayyo bo‘lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e’tiqod, sobit olovi alangali, boshqa narsalari ham mo‘l-ko‘l bo‘lsa, o‘sha manzil muhtaramdir»[2],- deb yozilgan.

Bu kitobda ko‘rsatilishicha, oilada ota yetakchi bo‘lgani ma’qul. Shuningdek, unda ifodalangan oila va oilaviy munosabatlarga hamma rioya etishi lozim bo‘lgan. Eng ahamiyatli jihati shundaki, unda er-xotinni o‘zaro sodiq, g‘amho‘r, mehribon bo‘lishlari lozimligi va ayolning xaq-xuquqi himoya qilish o‘sha davrda ham qonun darajasiga ko‘tarilganligi ma’lumdir. Umuman olganda, zardushtiylik davridanoq oila masalalariga katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu esa oilaning jamiyatda tutgan o‘rni va mavqyeini mustahkamlash uchun azal davrlardanoq zamin yaratilganligini kuzatamiz.

Ma’lumki, Islom dinining muqaddas manbaalaridan bo‘lmish Qur’on va Hadislarda ham odob-axloq, ayollarning turmushdagi o‘rni va vazifalari, er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oila yuritish, nikoh va muhabbat masalalariga keng o‘rin berilgan.

Keltirilgan namunalardan ko‘rinadiki, demak diniy manbalarda ham oilaning muqaddas ekanligi, erkak va ayollarning oila oldidagi burch va mas’uliyatlari, ota-onaning bola va o‘z navbatida farzandning ota-onasi oldidagi vazifalari, erning xotiniga hurmat va e’zozi muqaddas qadriyatlar sifatida qaralgan ekan.

Abu Nasr Forobiy ta’limotlarida keltirilishicha, haqiqiy baxt bir odamning boshqasiga nisbatan g‘ayirligi, zulmi yo‘qolgandagina bo‘ladi, oila a’zolarining bir-birlariga samimiy munosabatlari, mehru-oqibatlari esa ana shu oiladagi odamlarning baxtini tashkil qiladi. Bundan tashqari, har bir ota-onaning o‘z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo‘lko‘rsatuvchi ekanligi va aynan ular bolada ta’lim-tarbiyaga kerakli tayyorgarlik holatini shakllantirish ta’siriga ega ekanligi

[1] Қайқовус У. Қобуснома. Т.: 2008.
[2] Авесто. Янги китоби. Ўзбек тилига М.Исҳоқов илмий-изоҳли таржималари. Т.: 2001.

to‘g‘risidagi xulosalar mutafakkir qarashlarining hozirgi kunlar uchun ham naqadar ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Ibn Sinoning sevgi-muhabbat va er-xotin munosabatlari borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir, «Eng yuksak sevgi, deb ta’kidlaydi u, - bu insoniy sevgi bo‘lib, bunday sevgi kishini saxovatli qiladi, uni oqko‘ngil va jozibali kishiga aylantiradi». Allomaning fikricha, sevgi inson zimmasiga juda katta axloqiy va huquqiy mas’uliyat yuklaydi. U inson baxtining negizi, deganda oshiqlik emas, balki oshiq-ma’shuqlikni tushunadi. Oshiq-ma’shuqlik bilan turmush qurish oila mustahkamligining asosi sifatida ta’kidlanadi.

Turmush qurgan er-xotinlar munosabati borasida esa mutafakkir, «Erkak kishi oila boshlig‘idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog‘i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir»,- deb yozadi. Ayol esa erkakning yaxshi, munosib yo‘ldoshi, u bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchidir. Uning er-xotin munosabatlari xususidagi fikrlari ham o‘sha davr uchun o‘ta ilg‘or va ahamiyatli edi. U o‘zining “Oila xo‘jaligi” kitobida ayollar ahloqan eng maqbul, yuqori sifatlarga ega bo‘lmoqlari lozim, deb yozadi, Shu kitobning «Afsofiy bextarin zanxo» /ayollarning yaxshi fazilatlari haqida/ bo‘limida ularning quyidagi fazilatlari ta’kidlanadi: «Ayol aqlan dono, uyatchan, iboli, iffatli bo‘lib, ko‘p gapirmasligi lozim: u eriga bo‘ysunmog‘i, uni sevmog‘i, farzandlar tug‘ib, doimo halol, pok, to‘g‘ri so‘z, kamtar bo‘lishi kerak injiq bo‘lmasligi, o‘z iffati va obro‘sini to‘kmasligi lozim; u hyech qachon eriga nisbatan dimog‘dorlik, viqor hissini ko‘rsatmasligi, o‘z ishlarini yaxshi, o‘z vaqtida bajarib, oilaning moddiy boyliklarini tejamkorlik bilan ishlatmog‘i lozim; o‘z xulq-atvori bilan o‘z erining qalbida xadiksirash hissiga o‘rin qoldirmasligi kerak»[1].

Bizning fikrimizcha, oila va ayol o‘rni xususida Ibn Sino ba’zan bir tomonlilikka yo‘l qo‘ygandek tuyuladi, chunki bunda asosiy e’tibor va urg‘u faqat ayol shaxsiga qaratiladi, lekin bu fikrlarning asosida ayollarning psixologik jihatdan oila muhitini ifodalaydigan kishilar sifatida qarash hozirgi davr uchun ham ahamiyatlidir.

Umuman, Ibn Sino ayol kishiga insoniy munosabatda bo‘lib, er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro hurmat va bir birini tushunishga asoslanmog‘i lozimligini himoya qilib chiqqanligi bu diqqatga sazovor jihatdir.

Buyuk allomaning oilaviy baxt, sevgi va er-xotin munosabatlari, ularga zarur bo‘lgan fazilatlar borasidagi bunday fikrlarini bilish, ularga rioya qilish har bir yoshning muqaddas burchi bo‘lmog‘i shart.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, oila qanchalik tartibli, uning a’zolari o‘rtasidagi munosabat samimiy bo‘lsa, Oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro‘si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shu boisdan mavjud

[1] Ибн Сино. «Тадбири манзил». Б-38.

an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta’sirida bola asta-sekin ka-mol topib boradi. An’ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo‘lsagina, kutilgan natijalarga eri-shish mumkin. Oila tarbiyasida yutuklarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, Oila tarbiyasi bo‘yicha tajribalar alma-shishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg‘in jalb qilishga ham bog‘liqdir.

Har bir ota-ona Oila tarbiyasida o‘zlarining burch va mas’uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o‘qishga, mehnat qilishga o‘z vaqtida jalb etish ham Oila tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir. Oilada ota yoki onaning yo‘qligi yoki ulardan birining ketib qolishi Oila tarbiyasiga katta zarar yetkazadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta’sir kuchi yo‘qoladi, Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qattiq jarohatlanadi, u tajang, serjaxl, qo‘pol, dag‘al bo‘lib qoladi, kattalarga ishonmay qo‘yadi, o‘qishi pasayib ketadi.

Oila tarbiyasida otaning obro‘si katta ahamiyatga ega. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog‘lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun Oila tarbiyasida maktab va ota-onalar o‘rtasidagi ta’limtarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Bola maktabni tamomlagunga qadar ota-ona maktab bilan yaqin aloqa o‘rnatishi, farzandining darslarini o‘zlashtirishi, xulq-atvoridan xa-bardor bo‘lib turishi, tarbiya masalalarida o‘qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so‘ng nima bilan mashg‘ulligi haqida o‘qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim. Oila tarbiyasida har bir oila o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi «Oila kodeksi». – T.: «Adolat», 1998.– B.302.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom, Toshkent, -704 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida‖gi qonun - https: //tergov. uz/uz/childs/ zakon-respubliki-uzbekistan -ogarantijah-prav-rebenka
4. Abu Ali Ibn Sino Tib qonunlari, 1-jild. Toshkent., 1994. 304 b.
5. Avesto. Yangi kitobi. O‘zbek tiliga M.Is’hoqov ilmiy-izohli tarjimalari. T.: 2001.
6. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: 2006 – 142 b.
7. Kayqovus U. Qobusnoma. T.: 2008.
8. Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. – T.: 2007. – 144 b.
9. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: Meros, 1993. – 64 b.
10. Xotin-qizlar ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 1999. – 544 b.

СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СТУДЕНТОВ

Акилов Фаридун Фирдавсович
асистент кафедры “Практическая психология”
Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова
Узбекистан, г. Самарканд
E-mail: Faridunjon9593@gmail.com

SOCIAL MEDIA AND IT’S IMPACT ON STUDENTS

Akilov Faridun Firdavisovich
Assistant of the Department of Practical Psychology
Samarkand State University named after Sharaf Rashidov
Uzbekistan, Samarkand
E-mail: Faridunjon9593@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается негативное влияние социальных сетей на студентов высших образовательных учреждений. Существует огромное количество соцсетей, которые принято считать помощниками и незаменимыми атрибутами жизни современного студента, да и всех людей в целом. К сожалению, данные сервисы не столько помогают, сколько мешают и вредят. Они стали управлять жизнью каждого, делая это незаметно и скрытно. В эффективности этого управление из тени, по большей части повинен сам человек. Общеизвестно, что мозг всегда старается строить однозначные и определенные модели реальности. Любая ситуация и сценарий будет складен и понятен, даже если присутствуют серьезные ошибки и неточности. Таким образом, рефлекторно взяв смартфон и открыв социальную сеть, человек даже может не знать, зачем это сделал изначально, но его мозг всегда придумает какую-то «убедительную» причину. Следствием регулярного и частого использования сетей могут быть недосып, нехватка времени, физическое и эмоциональное истощение, отвлечение от учебы или работы, слабые процессы, проблемы в образовании социальных связей в реальном мире.

ABSTRACT

The article examines the negative impact of social networks on students of higher educational institutions. There are a huge number of social networks that are considered to be assistants and irreplaceable attributes of the life of a modern student, and of all people in general. Unfortunately, these services do not help as much as they hinder and harm. They began to control everyone’s life, doing it discreetly and covertly. The effectiveness of this management from the shadows, for the most part, is the fault of the person himself. It is well known that the brain always tries to build unambiguous and definite models of reality. Any situation and scenario will be clear and understandable, even if there are serious errors and

inaccuracies. Thus, reflexively taking a smartphone and opening a social network, a person may not even know why he did it initially, but his brain will always come up with some “convincing” reason. The consequence of regular and frequent use of networks can be lack of sleep, lack of time, physical and emotional exhaustion.

Ключевые слова: мозг, дофамин, человек, гормон радости, социальная сеть, интеллектуальный объект, задача, студент.

Keywords: brain, dopamine, person, hormone of joy, social network, intellectual object, task, student

За последние двадцать лет мир сильно изменился. Это спровоцировано многими факторами, но главный из них это – интернет. Его появление подтолкнуло к переменам мировую финансовую систему, СМИ, науку, социальное взаимодействие, бытовые аспекты жизни людей и т.д. На данный момент человек живет в культурной среде, основу которой составляют социальные сети, мессенджеры и все возможные сервисы развлечений. Все перечисленное является следствием появления всемирной паутины, позволяющей передавать огромные объемы информации в считанные секунды. Людям приятно осознавать, что, не выходя из собственного дома можно, лежа на кровати, общаться с другом, родственником или знакомым. Достаточно отправить сообщение или совершить видео звонок, и тот, кто находится на большом расстоянии, все увидит и услышит, а также сможет ответить. На данный момент принципиально изменились приобретение общественных связей. Помимо, уже имеющихся социальных сетей, появились приложения, предназначенные только для знакомств. И в тех и в других люди могут общаться, договариваться о встречах и строить дальнейшие совместные планы.

На данный момент известно, что все продукты интернета, имеют обратную сторону. Они несут в себе не только пользу, как может показаться на первый взгляд, но и определенную долю вреда. Наиболее показательным примером для рассмотрения негативных воздействий интернета, являются студенты высших образовательных учреждений. Используемые ими социальные сети зачастую неблаготворно сказываются на эффективности их обучения не только в университете, но и вне его. Далее речь пойдет о конкретных представителях глобальной сети и об их влиянии на образовательный процесс студентов.

Достаточно распространенной среди молодого населения страны является такая социальная сеть, как ВКонтакте. Ее основание произошло в 2006 году известным предпринимателем – Павлом Дуровым и его командой. На данный момент ВК является одной из самых популярных сетей в России. По данным статистики насчитывается более 97 миллионов активных пользователей. Соцсеть позволяет общаться с друзьями и знакомыми, оценивать из записи и фотографии, просматривать видео, слушать музыку,

совершать покупки, снимать и загружать видео, играть в игры. Большинство перечисленных функций можно использовать для повышения эффективности обучения, но так происходит редко. Главная проблема ВКонтакте в том, что он перестал быть просто социальной сетью. Способность удовлетворять все потребности современного человека предоставляет монополию на контроль социального взаимодействия, организации досуга, удовлетворение некоторых базовых потребностей. На примере обучающегося высшего учебного заведения, можно будет увидеть, как данная проблема обретает прикладной характер. К примеру, студент находится на лекционном или практическом занятии и ему внезапно приходит уведомление о новой публикации или сообщении, после чего телефон с открытым приложением оказывается в руках. Самое важное, что нужно делать студенту это слушать, запоминать и вникать в материал, а просмотр уведомления, или ответ на мессенджер препятствует выполнению этих ключевых функций. Человеческий мозг буквально работает по принципу: «В одно ухо влетело, а в другое вылетело», ибо поступающая информация легко вытесняется другой информацией [4]. Таким образом, сделав незначительное переключение для проверки соцсети, студент сильно нарушает процесс усвоения и запоминания материала.

Следующей проблемой, которую создает ВКонтакте, является нехватка времени. К примеру, студент занят домашним заданием и использует ВК для связи по вопросам выполнения. Как только возникает потребность в создании переписки, существует большой риск потратить некоторое время на блуждание среди информационного шума, ибо данная сеть имеет множество функций помимо написания и чтения сообщений. При учебной переписке студент может совершенно «случайно» отвлечься и не заметить, что уже полчаса листает ленту и лайкает смешные картинки. Мозгу всегда хочется отвлечься, а когда провокатор находится так близко, этому сложно противостоять.

Еще одна социальная сеть, по праву считающаяся одной из самых популярных – это Instagram*. Датой основания принято считать октябрь 2010 года. Занимались данным проектом Кевин Систром и Майкл Кригер, хотевшие создать уникальный продукт, аналогов которому бы не было. Название соцсети считается комбинацией слов «instant camera» (мгновенная камера) и «telegram» (телеграмма). Первый, так называемый пост был опубликован 16 июля 2010 года состоял из фотографии собаки Кевина Систрома и печатного текста в виде слова: «Test». В последующие годы Instagram* стремительно развивался и приносил прибыль основателям. По некоторым данным, насчитывают около 700 миллионов активных пользователей, из которых 9 % граждане России. Функционально Instagram* представляет собой приложение, позволяющее снимать и добавлять видео, редактировать и публиковать фотографии, комментировать и лайкать записи других пользователей, общаться, находить друзей, завязывать новые деловые знакомства и многое другое.

Стоит отметить, что вышеперечисленные возможности социальной сети зачастую негативно влияют на людей, а именно на их способности образовывать межличностные связи, на их физическую, социальную и умственную активность. Если говорить более конкретно, то сам по себе Instagram* является своего рода ярмаркой тщеславия, ибо каждый на ней пытается вынести на периферию только лучшие моменты своей жизни, умолчав при этом обо всем остальном [2]. Зрителю дается как бы одноаспектный взгляд на человека и его времяпрепровождение. Это явление так же можно назвать эффектом выжившего, который предполагает учет известного и игнорирование неизвестного [5]. В данном случае каждый, кто смотрит на проекции жизни других в Instagram*, несомненно, начинает сравнивать их со своей действительностью, которая оказывается «хуже». В реальности все оказывается совершенно иначе, ибо существование каждого наполнено радостными и самое главное грустными событиями. Листая ленту, в которой у всех все великолепно и весело, тяжело убедить себя в этом, так как горечь от негативных событий не утихает, не забывается и затмевает радостные события. Стоит учесть, что человек склонен придавать большее значение отрицательным событиям, нежели положительным [5]. Потеря, которая сама по себе негативна, всегда давит сильнее и кажется более явной, чем приобретение того же размера.

Для исчерпывающего понимания проблемы следует разобрать ее на примере обучающегося высшего образовательного учреждения. Обычно в течении семестра студенту требуется систематически выполнять различные задания, как во время занятий, так и вне учебного заведения. Однако, имея под рукой такой отвлекающий фактор, как телефон с Instagram* , ученик будет занят обработкой и усвоением своих эмоций, а не получением знаний. Профили путешествующих сверстников, тех, кто добился внезапного «успешного успеха» в 20 лет, купил новую машину или последний айфон. Все это будет вызывать жгучую зависть, и создавать ощущение неполноценности собственной жизни. Студенту будет казаться, будто все кругом проживают свои «красивые» жизни, а он один делает что - то не так и занимается не тем, чем следует. Подобные мысли могут быть не заметны и казаться обыденностью, но в дальнесрочной перспективе пагубны, так как при систематическом использовании Instagram* будут копиться, и множиться в геометрической прогрессии, а впоследствии негативно влиять на ментальное здоровье. Под их влиянием обучающийся может ставить под сомнение целесообразность обучения и обозримых планов касательно него. Таким образом, находясь в состоянии вечного напряжения от самостоятельно созданного ощущения неполноценности, есть вероятность, что студент будет менее усердно выполнять задания, реже посещать занятия, а возможно решит прекратить обучение в университете.

В 2022 году была совершена блокировка Instagram* на территории России. Это могло серьезно изменить жизнь русскоязычных пользователей в лучшую сторону. К сожалению, этого не произошло. Люди, которые

многие годы существовали в цифровом пространстве данной соцсети, не смогли отказаться от привычки оценивать цифровой, едва ли достоверный, облик других и желания быть оцененными [1]. Среди масс сразу же начался поиск обходных путей, которые позволяли бы как прежде свободно использовать приложение. Разумеется, решение было найдено, ибо количество человек, которым это требовалось, было весьма внушительно.

Следующая социальная сеть, о которой пойдет речь, называется TikTok. Ее основание произошло в 2016 году китайской кампанией ByteDance. На тот момент оно носило название Douyin и было ориентировано на внутреннюю аудиторию Китая. В 2017 году ByteDance совершила покупку американской кампании Musical.ly и объединила ее с Douyin, создав тем самым новое приложение TikTok. На данный момент насчитывается около 1 миллиарда пользователей из 150 стран. В Китае, где приложение имеет наибольшую популярность, 60 % пользователей в возрастном диапазоне 25-44 года, а за пределами Китая 43 % пользователей старше 24. По итогам 2019 года в среднем каждый месяц российские пользователи просматривали 16,25 млрд. и размещали 20,83 млн. видео; делились 23 млн. и ставили лайки 1,62 млрд. видео. Главная возможность данного приложения, это просмотр и публикация коротких забавных видео, представляющих собой танцы, челленджи, реакции и т д. Данные ролики можно сразу же обработать, наложив фильтры на изображение прямо в приложении, а также добавить дублирующие записи песен или цитаты из фильмов, используя имеющиеся инструменты для добавления. Помимо всего прочего присутствует возможность общения пользователей друг с другом путем отправки сообщений в чате.

На первый взгляд может показаться, что TikTok самое обычное, безобидное развлекательное приложение, но, к сожалению, это не так. Как и соцсети о которых говорилось ранее у него присутствует так называемая обратная сторона. Человек постоянно находится в охоте за дофамином или другими словами, гормоном радости [1]. Его получение основано на ожиданиях, которые в дальнейшем оказываются действительностью. Перед просмотром короткого видео в TikTok никто не знает, какое видео попадется и чем оно закончится, что в свою очередь и побуждает мозг вырабатывать дофамин.

Таким образом, увидев короткий 15 секундный челлендж человек, получит маленькую дозу гормона радости, которая подтолкнет к дальнейшему повторению этого действия, то есть к очередному пролистыванию ленты и просмотру ролика. Выходит, что пользователь оказывается в замкнутом кругу, из которого трудно выбраться. Инициируя такие мелкие систематические приливы дофамина, человек не расположен к выполнению трудных задач, при которых создаются сложные интеллектуальные объекты. Мозг всегда существует по принципу наименьшего сопротивления и просмотр TikTok в данном случае это простой путь получить удовольствие почти без усилий [3]. Следуя

примерам выше, стоит так же разобрать влияние данной соцсети на обучающихся высших образовательных учреждений.

Используя данное приложение, студенты не осознано вредят себе. Во-первых, TikTok может препятствовать выполнению учебных заданий, так как обучающийся может постоянно отвлекаться или вовсе не приступать к ним. Как уже было сказано, мозг, находящийся на дофаминовой «игле», не ищет сложных путей. В данном случае простой и действенный способ получить удовольствие, это посмотреть веселый ролик. Сидеть долго и мучительно писать реферат или курсовую, создавая при этом большое количество нейронных связей и интеллектуальных объектов, кажется слишком затратным предприятием для мозга и его не бесконечных ресурсов. Если главная цель получать дофамин и есть выбор между способами, то определенно предпочтение будет отдано тому, что проще всего в реализации и не с подвигает на излишнее когнитивное напряжение. Во – вторых, при постоянном использовании TikTok формируется клиповое мышление, название которого говорит само за себя [4]. Студенту становится трудно сосредотачиваться на выполнении задачи, время выполнения которой будет превышать длительность клипа в данной соцсети. К примеру, обучающемуся требуется выучить некоторый объем информации, но это становится трудновыполнимой задачей, так как удержание внимания дольше 15 секунд становится тяжким трудом. В-третьих, данная соцсеть препятствует успешному формированию неокрепших умов. Научно доказано, что человеческий мозг окончательно формируется к 25 годам. Большинство студентов как раз находятся в том возрасте, когда все еще легко дается изучение наук, языков и приобретение навыков. К примеру, в 30 лет выучить английский или научиться играть на гитаре сложнее, нежели в 20. Просматривая TikTok студент не формирует свой мозг, накачивая знаниями, пока для этого есть время, а пичкает его простыми односложными конструкциями, не требующими умственной работы. Психолог А.В Курпатов однажды писал: «Мы – это то, что мы едим», и это действительно так [4]. То в какой среде человек находится и, то, что он из нее получает и делает его тем, кто он есть или хочет стать. Если же одним из главных продуктов окружающей среды является TikTok со своими «дофаминовыми затычками», а источниками информации являются не книги, курсы, учебники и занятия, то никакого личностного, интеллектуального роста и открытий ждать не стоит.

Исходя из выше сказанного, следует, что соцсети являются достаточно опасными продуктами современной цифровой культуры. Достаточно просто стать тем, кто не управляет, а кем управляют социальные сети. Невозможно создать какой-то сложный и красивый объект умственной активности, подвергаясь мелким дофаминовым выбросам, происходящих от каждого поставленного лайка, просмотренной веселой картинки или короткого видео. Идя на поводу у ленивого мозга, сложно и почти что невозможно эффективно учиться и приобретать навыки, так как это

последнее, чем он хочет заниматься. Когда же человек находит решение и складывает не дважды два, а больше, то создаётся сложный и красивый интеллектуальный объект. Мозг не только буквально зальёт дофамином, но и произойдет создание дополнительной части личности. Человек станет сильнее и лучше. Но до тех пор, пока будет нажиматься эта кнопка мгновенных дофаминовых эффектов, не выйдет взрастить никакой большой идеи, никакого красивого решения.

Список литературы:

1. Джеймс Клир. Атомные привычки.2019. -270с; [пер. с англ К.Шашкова, Ю. Чекмарева]. 2. Курпатов А.В. Красная таблетка-

2. Вся правда об успехе. - СПб. : ООО «Дом печати издательства книготорговли «Капитал»», 2019. - 352 с.

3. Канеман Д. Думай медленно. решай быстро. - М. : АСТ, 2016. - 653 с.

4. Курпатов А.В. Красная таблетка. Посмотри правде в глаза! - Санкт-Петербург: Дом печати Издательства книготорговли «Капитал», 2019а. - 352 с.

5. Талеб, Нассим Николас. Антихрупкость [Текст] : как извлечь выгоду из хаоса; [пер. с англ. Николая Караева]. - Москва : КоЛибри : Азбука-Аттикус, cop. 2015. - 762 с. : ил.; 22 см.; ISBN 978-5-389-09892-3 : 3000 экз.

OLIY TA’LIM MUASSASASI-MAKTABGACHA TA’LIM HAMKORLIGIDA SIMULATSION TEXNOLOGIYALAR ORQALI BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING HISSIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH

Axmedova N.D., PhD, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti
Urinbayeva B.Z., Andijon shaxar 42-davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori

Annotatsiya

Mazkur tezisda bo‘lajak tarbiyachilarning hissiy-axloqiy tayyorgarligini oshirishda **oliy ta’lim muassasasi-maktabgacha ta’lim hamkorligi** va **simulatsion texnologiyalar** imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maktabgacha ta’lim muassasalari va oliy o‘quv yurtlari o‘rtasidagi uzviy hamkorlik orqali talabalar real pedagogik faoliyatga moslashishi, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi mumkinligi asoslab beriladi. Shuningdek, bolalar bilan ishlashda madaniyatlararo muloqot, milliy qadriyatlarni saqlash va inklyuziv ta’lim yondashuvlari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim muassasasi-maktabgacha ta’lim hamkorligi, simulatsion ta’lim, hissiy-axloqiy tayyorgarlik, tarbiyachi kompetensiyalari, pedagogik innovatsiyalar.

KIRISH

Bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida **nazariya va amaliyot uyg‘unligi** muhim ahamiyatga ega. Oliy ta’lim muassasalarda olingan nazariy bilimlarni real pedagogik muhitda sinash, talabalarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi. Shu sababli maktabgacha ta’lim muassasalari va pedagogik oliygohlar o‘rtasidagi hamkorlik tarbiyachilarning amaliy malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida simulatsion texnologiyalar bu hamkorlikni **innovatsion metodlar** orqali rivojlantirishga imkon yaratmoqda. Virtual treninglar, rolli o‘yinlar, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalar hissiy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

1. Oliy ta’lim muassasasi-maktabgacha ta’lim hamkorligi: imkoniyatlar va istiqbollar

Oliy ta’lim muassasalari va maktabgacha ta’lim tizimi o‘rtasidagi hamkorlik quyidagi yo‘nalishlarda rivojlantirilishi mumkin:

- **Amaliy mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish:** Talabalar real maktabgacha ta’lim muhitida tajriba orttiradilar.
- **Innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish:** Simulatsion o‘yinlar, virtual darslar orqali talabalar muammoli vaziyatlarga moslashadi.
- **Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish:** Tarbiyachilar bolalarning milliy va madaniy o‘ziga xosliklarini hisobga olishni o‘rganadilar.

O‘zbekiston Respublikasi **“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni (2020)** oliy ta’lim muassasasi-maktabgacha ta’lim tizimi hamkorligini rivojlantirish zarurligini belgilagan bo‘lib, bu tamoyillar pedagogik ta’lim strategiyalarida o‘z aksini topmoqda.

2. Simulatsion ta’lim texnologiyalarining pedagogik jarayondagi o‘rni

Simulatsion texnologiyalar quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- **Psixologik moslashuvni yaxshilash:** Talabalar real muhitda duch keladigan pedagogik muammolarga oldindan tayyorlanadi.
- **Hissiy intellekt va reflektiv tafakkurni rivojlantirish:** Talabalar o‘z pedagogik xatti-harakatlarini tahlil qilish va takomillashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.
- **Pedagogik innovatsiyalarni sinash:** Simulatsion metodlar orqali turli pedagogik yondashuvlarni o‘rganish va baholash imkoniyati mavjud.

John Dewey (1938) **“Experience and Education”** asarida ta’limni hayotiy tajribaga asoslash zarurligini ta’kidlagan. Simulatsion metodlar esa bu tamoyilni amaliyotda qo‘llashga imkon beradi.

3. Hissiy-axloqiy rivojlanishda simulatsion metodlarning ahamiyati

Simulatsion ta’lim jarayonida tarbiyachilar quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishlari mumkin:

Bolalar bilan samarali muloqot qilish – ularning emotsional ehtiyojlarini tushunish va qo‘llab-quvvatlash.

Ota-onalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish – oilalar bilan madaniyatlararo hamkorlik qilish.

Murakkab pedagogik vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish – reflektiv fikrlash asosida moslashish.

Barbara Rogoff (1990) o‘z tadqiqotlarida ijtimoiy o‘rganish va amaliy tajribaga asoslangan ta’lim usullarining muhimligini qayd etgan bo‘lib, simulatsion metodlar aynan shu tamoyilga asoslanadi.

4. Oliy ta’lim muassasasi-maktabgacha ta’lim hamkorligi va simulatsion texnologiyalar integratsiyasi

Oliy ta’lim muassasasi-maktabgacha ta’lim hamkorligi va simulatsion texnologiyalarni birlashtirish quyidagi natijalarga olib keladi:

Pedagogik kompetensiyalarni mustahkamlash: Talabalar real sharoitda tajriba orttiradilar.

Innovatsion ta’lim usullaridan foydalanish: Virtual muhitda pedagogik vaziyatlarni modellashtirish.

Haqiqiy muammolarni tahlil qilish va hal etish: Talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash.

Simulatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi **Reigeluth (1999)** tomonidan ilgari surilgan **ta’lim dizayni nazariyasi** bilan hamohang bo‘lib, ta’lim jarayonida yangi yondashuvlarni joriy etish imkoniyatini beradi.

Xulosa

Oliy ta’lim muassasasi-maktabgacha ta’lim hamkorligi va simulatsion texnologiyalarning birgalikda joriy etilishi pedagogik ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqadi. Simulatsion ta’lim hissiy-axloqiy rivojlanishga, pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishga va talabalarni real muhitga tayyorlashga xizmat qiladi. Kelajakda bu metodlarni maktabgacha ta’lim dasturlariga kengroq integratsiyalash orqali ta’lim sifatini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni (2020).
2. Rogoff B. “Apprenticeship in thinking: cognitive development in social context.” Oxford University Press, 1990.
3. Dewey J. “Experience and education.” Macmillan, 1938.
4. Reigeluth C. “Instructional-design theories and models: A new paradigm of instructional theory.” Routledge, 1999.

ДИНАМИКА ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: АКТОРНО-СЕТЕВАЯ ТЕОРИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ АНАЛИЗА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ

А.М. Сосновская
Северо-Западный институт управления
Российской академии народного
хозяйства и государственной службы
при Президенте РФ. Санкт-Петербург. Россия.
e-mail: sosnovskaya-am@ranepa.ru

ВВЕДЕНИЕ

Акторно-сетевая теория (АСТ), разработанная Бруно Латуром, Мишелем Каллоном и Джоном Ло, предлагает новый подход к пониманию социальных явлений, рассматривая их как результат взаимодействия различных акторов, как человеческих, так и нечеловеческих [4, 5]. В контексте высшего образования АСТ может быть использована для анализа сложных взаимодействий между участниками образовательного процесса, включая студентов, преподавателей, учебные материалы и технологии. Это позволяет глубже понять, как формируются образовательные практики и представления о качестве образования [6].

Акторно-сетевая теория в контексте высшего образования: методология и методы

Акторно-сетевая теория акцентирует внимание на действиях и взаимодействиях, происходящих в сети, и не проводит четкой границы между людьми и объектами. В контексте высшего образования это означает, что необходимо учитывать не только преподавателей и студентов, но и учебные материалы, технологии, инфраструктуру и даже культурные контексты, в которых происходит обучение.

Методологические принципы АСТ

Генерализованная симметрия. Согласно АСТ, исследователи должны стремиться к более инклюзивному подходу, который учитывает все аспекты взаимодействий, включая влияние технологий, объектов и культурных контекстов. Все участники образовательного процесса рассматриваются на равных, что позволяет учитывать влияние как человеческих, так и нечеловеческих акторов, таких как учебные пособия и технологии.

Принцип перевода. Один участник может активировать и изменять других, вовлекая их в свою сеть. В образовательном контексте это может означать, что преподаватель, используя определенные методы, может изменить восприятие материала студентами.

Агентность. Способность участников действовать и оказывать влияние в сети. В рамках АСТ агентность не является врожденным качеством, а возникает в результате специфических отношений между участниками.

Концепция «черного ящика». Стабилизированная сеть отношений, которая воспринимается как единое целое. В образовании это может означать, что определенные методы или подходы становятся общепринятыми и не подвергаются критическому анализу.

Применение АСТ к анализу образовательных процессов

Акторно-сетевая теория может быть применена для анализа различных аспектов высшего образования, включая: взаимодействие между преподавателями и студентами; изучение роли учебных материалов; изучение цифровизации и роли AI в образовательном процессе; влияние культурного контекста и другие темы [3,4, 6].

Применение акторно-сетевой теории к анализу высшего образования позволяет выявить сложные взаимодействия между различными акторами и их влияние на формирование образовательных практик. Например, взаимодействие между преподавателями и студентами может быть проанализировано через призму агентности, где студенты становятся активными участниками процесса, а не просто пассивными потребителями знаний [1,2].

Заключение:

Акторно-сетевая теория предоставляет мощный инструмент для анализа высшего образования, позволяя выявить сложные взаимодействия между различными акторами и их влияние на формирование образовательных практик. АСТ позволяет не только глубже осознать, как формируются представления о качестве образования, но и выявить возможности для улучшения образовательных практик. Важно учитывать, что образование — это не статичный процесс, а постоянно развивающаяся сеть взаимодействий, в которой каждый актор играет свою уникальную роль.

Таким образом, применение акторно-сетевой теории в высшем образовании может способствовать более эффективному управлению образовательными процессами, улучшению взаимодействия между участниками и созданию более инклюзивной и адаптивной образовательной среды. В будущем стоит продолжить исследование этой теории в контексте различных образовательных систем и культурных контекстов, что позволит выявить универсальные и специфические аспекты взаимодействий в образовании.

Литература

1. Schwarz, B. B., Tsemach, U., Israeli, M., & Nir, E. (2024). Actor-network theory as a new direction in research on educational dialogues. Instructional Science, 1-29.
2. Sosnovskaya, A. (2024). Consistency of Youth Identity Construction in Media Texts: Development and Adaptation of Actor-Network Theory for Empirical Media Research (Case Study). Galactica Media: Journal of Media Studies, 6(3), 224-247.

https://doi.org/10.46539/gmd.v6i3.481
3. Власова, О. А., & Корниенко, А. Г. (2024). Акторно-сетевая интерпретация феноменов и актуальных проблем образования: историцистские основания и специфика. Education Today, 14(1), 80-95.
4. Изучение практик коммуникации: от этнометодологии к теории сетей / под науч. ред. А. М. Сосновской. Москва: Издательский дом «Дело» РАНХиГС, 2025. 208 с. ISBN 978-5-85006-659-8.
5. Латур, Б. (2022). Пересборка социального. Введение в акторно-сетевую теорию. Litres.
6. Сосновская, А. М., & Левина, С. А. (2024). Акторы политической социализации молодежи. Управленческое консультирование, 5, 75-87.

TALABALARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI ICHKI VA TASHQI OMILLAR

Axtamova Mohinabonu Nizomiddin Qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
60310300 – Psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. *Talabalarning intellektual salohiyatini shakllantiruvchi ichki va tashqi omillar mavjud bo‘lib, quyida shu haqida ma’lumotlar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *qobiliyatlar, umumiy intellekt, ijtimoiy intellekt, maxsus qobiliyat, ijodkorlik, kreativlik, , izlanuvchanlik*

Mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yanada mustahkamlashning muhim sharti sifatida oilalarda sog‘lom ma’naviy muhitni, xususan, o‘zaro hurmat-ehtirom, er-xotin o‘rtasida, ota-onalar bilan farzandlar, qaynona-kelin o‘rtasida, qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasida mehr-oqibat ruhini yaratish, qiz bolalarni - bo‘lajak onalarni - jismonan sog‘lom va intellektual rivojlangan tarzda shakllantirish, ularning akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarida albatta ta’lim olishini, zamonaviy bilimlar va kasb-hunarlarga ega bo‘lishlarini ta’minlash, ularning hayotda munosib o‘rinni egallashlarida, kelajakda sog‘lom va mustahkam oila qurishlarida asosiy shart hisoblanmish mustahkam hayotiy pozisiyani va mustaqil fikrlashni shakllantirish yoshlarni hayotga qiziqishini orttirib, komil inson bo‘lishlariga yordam beradi.

Talabalarning intellektual salohiyatini oshirishga erishish, ko‘nikma va malakalarini psixologik jihatlarini tadqiq etish orqali mamlakatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy rivojlantirishga qaratilgan tub o‘zgarishlarga ijobiy dahldorlik munosabatni shakllantirish dolzarb ijtimoiy-psixologik ahamiyat kasb etadi. Oliy o‘quv yurtlarida talabalarni ta’lim olish

muvaffaqiyatiga ko‘plab omillar ta’sir qiladi - ichki va tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy, pedagogik va boshqalar) ular quyidagi ko‘rinishlarni tashkil qiladi:

- talabaning iqtisodiy shart-sharoiti, sog‘ligi, yoshi, oilaviy ahvoli;
- ko‘nikmalarini egallash, oliy o‘quv yurtiga qadar tayyorgarlik darajasi o‘z faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish va nazorat qilish (birinchi navbatda ta’lim jarayonida);
- universitetni tanlash motivlari, dastlabki g‘oyalarning muvofiqligi universitet ta’limining o‘ziga xos xususiyatlari, ta’lim shakli (kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy ta’lim va boshqalar), to‘lov-kontraktning mavjudligi va uning miqdori haqida;
- universitetda o‘quv jarayonini tashkil etish, universitet moddiy-texnik bazasi, o‘qituvchilar va xodimlarning malaka darajasi, universitetning nufuzi;
- talabalarning individual psixologik va psixofiziologik xususiyatlari (ko‘pincha ichki omillar deb ataladi).

Intellektual salohiyat muvaffaqqiyatli kechishida avvalo ichki omillarni tartib bilan o‘rganish tadqiqotni mazmunini yoritishga va uning mazmun-mohiyatini tushunishni yanada osonlashtiradi.

1. Maxsus qobiliyatlar - talabalarning o‘rganish muvaffaqiyatiga birlamchi ravishda ulardagi qobiliyatlarning shakllanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘p narsa ma’lum bir o‘quvchining shaxsiyatida, uning hayotiy qadriyatlari tizimida qobiliyatlar qanday o‘rin egallashiga va ular boshqa shaxsiy fazilatlarning rivojlanishiga qanday ta’sir qilishiga bog‘liq.

Avvalo, qobiliyatlar tarkibida umumiy intellekt, ijtimoiy intellekt, maxsus qobiliyat va ijodkorlik kabi nisbatan mustaqil tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatish zarur hisoblanadi. Biz faqat maxsus qobiliyatlarga nisbatan mashg‘ulot muvaffaqiyati bilan ijobiy munosabat haqida gapirishimiz mumkin.

Bularga qobiliyatlar kiradi: hissiy fonemik eshitish tilshunos uchun, musiqachi uchun ovoz balandligi, rassom uchun rangni farqlash sezgirligi va boshqalar, motorikalik (sportchilar, raqqosalar, sirk ijrochilari uchun plastiklik va harakatlarni nozik muvofiqlashtirish va boshqalar), professional (texnik fikrlash, fazoviy fikrlash, matematik va va boshqalar).

Ko‘p hollarda kasbiy rivojlanishning past darajasi muhim maxsus qobiliyatlar tegishli profildagi universitetda muvaffaqiyatli o‘qishni imkonsiz qiladi. Aksincha, universitetda muvaffaqiyatli ta’lim aslida maxsus kasbiy qobiliyatlarni shakllantirish jarayoniga to‘g‘ri keladi.

Qobiliyatni o‘rganish ushbu sohaning o‘ziga xos rivojlanish tarixi va uning fanlararo aloqadorligi (birinchi navbatda, ta’lim psixologiyasi, individual farqlar psixologiyasi va kognitiv psixologiya bilan) tufayli psixologiyada alohida maqomga ega. Tarixiy jihatdan, qobiliyatlar sohasida amaliyot nazariyasini oldindan bilmaslik tadqiqotning empirik va amaliy tabiati, ularning birinchi navbatda ta’lim va pedagogika psixologiyasining amaliy muammolarini hal qilishga qaratilganligi bilan bog‘liq inqirozga olib keldi. 20-asr boshlarida Frantsiyada birinchi intellekt testlarining rivojlanishi. (Jarvin va Sternberg, 2003). Akademik jihatdan qoloq bolalarni maxsus o‘quv sinflariga tanlash

muammolarini hal qilish aslida birinchi «psixometristlar» ning diagnostik harakatlari va uslubiy ishlanmalari nimaga qaratilganligi bilan o‘rganish qobiliyatini aniq aniqlashni anglatadi. Psixodiagnostika nazariyalari, uslubiy vositalari va tamoyillarini yaratish yangi testlarning haqiqiyligini baholash mezoni sifatida ta’lim muvaffaqiyatini (maktab, maxsus ko‘nikmalar va boshqalar) aniq belgilashga va qobiliyatlarni tan olishga olib keldi.

Ta’kidlash joizki, qobiliyatlar ta’lim faoliyati muvaffaqiyatining omillari sifatidagi g‘oyalar asosan chet ellarda qobiliyatlar psixologiyasi, ta’lim psixologiyasi va pedagogikada rivojlangan. Qobiliyatlar psixologiyasida faoliyatning muvaffaqiyati (shu jumladan o‘rganish) intellektual salohiyatni ro‘yobga chiqarish natijasi sifatida qaraladi, bu ta’lim muvaffaqiyatining zaruriy sharti bo‘lib xizmat qiladi [Дружинин, 2007; Sternberg, 1999].

Ta’lim psixologiyasida o‘quvchilarning individual xususiyatlarining ta’lim samaradorligiga qo‘shgan hissasi (Smirnov, 2010) va ta’lim dasturlari faoliyati aniqlanadi. So‘nggi paytlarda rivojlanishning gumanistik tamoyillarini amalga oshirish va xalq farovonligining o‘sishi uchun iqtisodiy omillarni kuchaytirish maqsadida pedagogikada iqtidorli bolalar va kattalarni aniqlash va o‘qitish masalalari juda mashhur bo‘ldi (Amerika , 2006; Park et. al., 2008). Hozirgi vaqtda biz tadqiqotchilarning ta’lim olish muvaffaqiyatiga intellektning hissasini tan olish bo‘yicha o‘rnatilgan konsensus haqida gapirishimiz mumkin. Yuzlab tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bu ikkinchisining asosiy dalili bo‘lib, uning ko‘rsatkichlari tarqalishining 25% ni tushuntirib beradi (Trost, 1999; Gottfredson, 2004; Sternberg va boshqalar, 2001). Shunisi e’tiborga loyiqki, XX asr oxirida qobiliyatlar psixologiyasining asosiy tushunchalari boshqa sohalarda va biroz boshqacha kontekstda qo‘llanila boshlandi. Shunday qilib, motivatsiya psixologiyasida (shu jumladan o‘rganish motivatsiyasi) intellektning xususiyatlariga qobiliyat sifatida emas, balki maqsadni belgilash jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan talabalarning yashirin nazariyalarining mazmuni sifatida murojaat qilingan.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, qobiliyatlarning sub’ektiv xususiyatlarini o‘rganish va yashirin nazariyalarga murojaat qilish asosan ikki yo‘nalish doirasida amalga oshirildi. Quyidagi jadvalda qobiliyatlarni sub’ektiv idrok etish va ularning ta’lim muvaffaqiyati bilan bog‘liqligiga yuqorida tavsiflangan uchta asosiy yondashuvning umumlashtirilishini taqdim etadi.

1-jadval.

Qobiliyatning sub’ektiv g‘oyalarini o‘rganishning uch asosiy yondashuvi.

O‘rganish predmeti	Tadqiqot fokusi	Tushunchalardan foydalangan holda nazariyalarga misollar	O‘quv muvaffaqiyati bilan bog‘lanish
Implitsitiv nazariyalar yo‘nalishi	Qobiliyatlarning tabiati va o‘zgaruvchanligi haqidagi g‘oyalar	Motivatsiyaning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi K.Dvek	Maqsadni shakllantirish jarayonlari orqali

Implitsitiv nazariyalarning mazmuni	Qobiliyatlarning tuzilishi va mazmuni haqidagi qarashlar	R. Sternbergning intellekt triarxik nazariyasi	Talabalarning differentsial qobiliyatlari profillarining kuchli va zaif tomonlarini hisobga olish kontekstida
Qobiliyatda o‘z-o‘zini baholash	Qobiliyatlarning rivojlanish darajasi haqidagi qarashlar	T.Shamorro Premuzich va E. Furnham tomonidan intellektual kompetentsiya nazariyasi	Intellekt bilan bog‘lanish orqali, shuningdek, o‘z-o‘zini amalga oshiradigan rejalar va ta’sirchan motivatsion komponentlarning ta’siri orqali

So‘nggi 30 yil ichida ayniqsa psixologlar mashhur bo‘lgan sub’ektiv qobiliyatlarni baholashning uchinchi yondashuvi, yani, yuqori darajadagi intellektni talab qiladigan faoliyatni amalga oshirish samaradorligi haqidagi g‘oyasi sifatida o‘z-o‘zini baholashga e’tibor qaratdilar.

2. Ijtimoiy (sotsial) intellekt - So‘nggi paytlarda psixologiyada ijtimoiy intellekt kommunikativ kompetentsiya (muloqotga kirishish kompetensiyasi) asosida yotgan qurilmalar to‘plami sifatida tushuniladi.

3. Umumiy intellektual rivojlanish darajasi - ko‘pgina tadqiqotlarda umumiy intellektual va talabalarning akademik ko‘rsatkichlari o‘rtasida juda yuqori korrelyatsiyalar olingan.

Aql-idrok haqidagi an’anaviy g‘oyalarni kengaytirish va har xil turdagi nisbatan mustaqil qobiliyatlarni kompleks o‘rganishga o‘tish XX-asrning oxirida sodir bo‘ldi. Psixologiyada eng mashhur tadqiqotlar R. Sternbergning muvaffaqiyat intellekt nazariyasi va G. Gardnerning ko‘p intellekt nazariyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlardir. Muhokamalar davomida ekspertlar quyidagi masalalarni ko‘rib chiqdilar:

1. Qobiliyatlar, ularning diagnostikasi va ta’limdagi roli haqidagi an’anaviy g‘oyalarning cheklovlari.

2. Talabalarning ta’lim muvaffaqiyati darajasidagi individual farqlarning o‘rganilmagan manbalarining mavjudligi.

3. Qobiliyat profilining ko‘p qirraliligi haqidagi g‘oyalarni rivojlantirish.

Ta’kidlanganidek, muvaffaqiyatga erishish uchun zarur shart-sharoitlar va omillar alohida o‘rganilgan va ularning birgalikda qanday ishlashi haqida juda kam ma’lumotlar mavjud. Bu muammolar yechimini izlashda R.Sternberg va uning hamkasblari bilan bog‘liq bir qator tadqiqotlari o‘tkazdilar. O‘quv va kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatida mustaqil tahliliy, ijodiy va amaliy qobiliyatlar («intellektlar») o‘rganilgan. Ushbu turdagi qobiliyatlar o‘rtasidagi farqlar ularning yordami bilan hal qilinadigan vazifalar turlari bilan bog‘liq: an’anaviy «akademik» (masalan, maktabda uchraydigan), «ijodiy» (yangilik oldida paydo bo‘ladigan) va «amaliy» (o‘ziga xos) tajriba to‘plashni talab qiladigan faoliyat uchun) va yashirin - «so‘zsiz» bilim. Qobiliyatning barcha uch o‘lchovi o‘quvchilarning muvaffaqiyati ballaridagi tafovutni tushuntirishga muhim hissa qo‘shgani aniqlandi. Ushbu nazariya doirasida yangi psixologik-

pedagogik diagnostika vositalarini ishlab chiqish ham amalga oshiriladi va nazariyaning o‘zi tegishli ta’lim dasturlarini ishlab chiqishga ta’sir qiladi.

4. Kreativlik, intellekt kabi, umumiy qobiliyatlardan biridir. Ammo agar intellekt jamiyatda mavjud bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, shuningdek ularni muammolarni hal qilishda muvaffaqiyatli qo‘llash qobiliyati bo‘lsa, kreativlik inson tomonidan yangi narsalarni yaratishni ta’minlaydi (birinchi navbatda, o‘zi uchun yangi narsa). Munozaralar hali ham davom etayotgan bo‘lsa-da, ko‘pchilik psixologlar kreativlikni intellekt testlaridan ko‘ra tubdan farq qiluvchi test topshiriqlari yordamida o‘lchanadigan intellektdan nisbatan mustaqil shaxs xususiyati sifatida ko‘rishga moyildirlar. Kreativlikning boshqa faoliyat muvaffaqiyatlariga ta’siri to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek, har bir o‘qituvchining tajribasi, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari haqidagi intuitiv g‘oyalarga asoslangan, ularning ta’limdagi muvaffaqiyatlari bilan solishtirganda, kreativlik muvaffaqiyatga hissa qo‘shadi, degan aniq xulosaga kelishimizga imkon beradi.

5. Izlanuvchanlik (tadqiqotchilik) faoliyatu - agar intellekt testlari yopiq davra vazifalarini o‘z ichiga olsa (dastlabki shartlar ham, yechimlar ham qat’iy belgilangan), kreativlik masalalari esa ochiq (cheklanmagan miqdordagi yechimlar) lekin yopiq boshlanishga ega (muammoning shartlari aniq belgilangan; masalan, «qalam nima bo‘lishi mumkin? Nima uchun ishlatiladi?»), so‘ngra ochiq va yopiq masalalar aqliy faoliyatimizning yana bir nisbatan mustaqil tarkibiy qismi - kashfiyot xatti-harakatlarini o‘rganish uchun ishlatiladi. Izlanuvchanlik harakati odam o‘z tashabbusi bilan yangi ob’ektni yoki yangi vaziyatni o‘rganishni sof qiziqish bilan boshlaganida sodir bo‘ladi.

Adabiyotlar.

1.Айзенк Г.Ю. Количество измерений личности: 16, 5 или 3–Критерии таксономической парадигмы/ Иностранная психология. – 1993. Т.1. № 2. - С. 9-23.

2.Ананьев Б.Г. К психофизиологии студенческого возрастаю Современные психологические проблемы высшей школы. - Л., 1974. - Вып. 2. -С. 82–89

3.Андреева, Г.М. Социальная психология сегодня: поиски и размышления.

4.Бакшеева Е.П. Педагогическая поддержка профессиональной самоактуализации студентов в педвузе. Педагогическое образование и наука. -2003. - № 3. - С. 90–98

5.Баранова В.А. Коллективная память о событиях России XX века. /В.А. Баранова, А.И. Донцов // Человеческий капитал. 2017. №11 (107), с. 76-81.

6.Barotov Sh. R. Psixologik xizmat. –T. 2018. -346 b.

YOSHLARNING HAR TOMONLAMA BARKAMOL SHAXS BO‘LIB VOYAGA YETISHIDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING O‘RNI

ALQAROV ELDOR MAXMUDOVICH
Samarqand viloiat IIB boshlig‘i o‘rinbosari,
Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi boshlig‘i,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo, biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda” Sh.M.Mirziyoev

Annotasiya: Ushbu maqolada yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida psixologik bilimlarning o‘rni, ona Vatanimizda tub islohotlarni amalga oshirilayotganligi, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, barcha sohalarda iqtidorli yoshlarimiz o‘z bilim va mahoratlarini ko‘rsatib, ijtimoiy maqomga ega bo‘lib borayotganligi hamda shu davrda voyaga yetmaganlar xulq-atvoridagi jinoiy xatti-harakatlar profilaktikasi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: insoniyatning tinchligi, xavfsizligi, diniy ekstremizm, terrorizm, kiberjinoyatlar, zo‘rovonliklar, huquqbuzarliklar, yoshlar jinoyatlari, jismoniy tarbiya, islohotlar, iqtidorli yoshlar, giyohvandlik, ichkilikbozlik, turli g‘oyalar.

Barkamol shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’ana va marosimlar, ezgulik, tinchlik istagi, oila tuyg‘usi, ota-onani e’zozlash milliy iftixor, avlod-ajdodlari bilan faxrlanish, ochiq ko‘ngillilik, diyonat kabi qadriyatlarning yoshlar ongi va qalbiga singdirilishida tayanch vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ana shunda etuk ma’naviyat sohibi bo,,lgan yoshlar kelajakni oldindan ko‘rishga, og‘ir va murakkab sharoitlarda ham yuksak maqsadlar sari intilib yashashga qodir bo‘ladilar. Buyuk muhaddis bobomiz Imom Buxoriyning “Odob durdonalari” (Al-Adab al-mufrad) kitobida “Hech bir ota o‘z farzandiga xulqu-odobdan buyukroq meros bera olmaydi”, deyiladi.

Mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yanada mustahkamlashning muhim sharti sifatida oilalarda sog‘lom ma’naviy muhitni, xususan, o‘zaro hurmat-ehtirom, er-xotin o‘rtasida, ota-onalar bilan farzandlar, qaynona-kelin o‘rtasida, qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasida mehr-oqibat ruhini yaratish, qiz bolalarni - bo‘lajak onalarni - jismonan sog‘lom va intellektual rivojlangan tarzda shakllantirish, ularning akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarida albatta ta’lim olishini, zamonaviy bilimlar va kasb-hunarlarga ega bo‘lishlarini ta’minlash, ularning hayotda munosib o‘rinni egallashlarida, kelajakda sog‘lom va mustahkam oila qurishlarida asosiy shart hisoblanmish mustahkam hayotiy

pozisiyani va mustaqil fikrlashni shakllantirish yoshlarni hayotga qiziqishini orttirib, komil inson bo‘lishlariga yordam beradi.

Mamlakatimiz oldida turgan ulkan maqsadlarga erishish Vatanimiz kelajagi, birinchi navbatda yoshlarimizga, ularning har tomonlama barkamol insonlar bo‘lib voyaga yetishiga bog‘liqdir. Bugungi kunda respublikamiz aholisining yarmidan ko‘prog‘ini yoshlar tashkil qiladi.

Yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish, yoshlarni, ayniqsa qishloq joylarda qizlarni sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish, yangi sport obyektlarini qurish, ishlab turganlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy sport uskunalari va anjomlari bilan jihozlash, yuqori malakali trener kadrlarlar bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

«Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda sizlarning g‘ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko‘nglim tog‘day ko‘tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida qadrlayman[1]», - dedi Shavkat Mirziyoyev Yoshlar forumida so‘zlagan nutqida.

«Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo‘l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g‘ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o‘z oldimizga ulkan marralar qo‘yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar».

Shuning uchun mustaqilligimizni qo‘lga kiritilgan ilk kunlaridanoq yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini respublikamiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida mamlakatimizda barkamol avlod kamol topmoqda.

Barcha sohalarda iqtidorli yoshlarimiz o‘z bilim va mahoratlarini ko‘rsatib, ijtimoiy maqomga ega bo‘lib bormoqdalar. Yoshlarning ta’lim-tarbiya olishlari, jamiyatda o‘z mavqyeiga ega bo‘lishlari, muvaffaqiyatlarga erishishlari yo‘lida Respublikamiz hukumati tomonidan zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining, avvalo qizlarning ish bilan bandligini ta’minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish ishtiyoqidagi yoshlarga imtiyozli kreditlar, yosh oilalarga uy-joy sotib olish va qurish uchun ipoteka kreditlari, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar xarid qilish uchun iste’mol kreditlari ajratish ishlarini yanada kengaytirilmoqda. Har tomonlama sog‘lom bolani shakllantirishda ta’lim tizimining rolini kuchaytirish, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini yanada rivojlantirish, boshlang‘ich

[1] Ш.Мирзиёев. Ўзбекистон ёшлари форумида сўзлаган нутқидан, 25 декабрь 2020 йил, 18:00 сиёсат.

ta’limning yuqori sifatini ta’minlab, ilg‘or pedagogika va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etgan holda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish tadbirlarini amalga oshirish zarur.

Yoshlarimizga bilim olishi, o‘zlariga munosib kasbni egallashi va erkin mehnat qilishlari uchun zarur shuncha shart-sharoit yaratilganligiga qaramasdan, ayrim yoshlarimiz huquqbuzarlik, ya’ni jinoyat yo‘liga kirib ketmoqdalar. Eng xavfli tomoni shundaki, ba’zi yoshlarimiz butun insoniyatning tinchligi va xavfsizligiga tahdid soluvchi diniy ekstremizm va terrorizm kabi jinoyatlarni sodir etayotgan shaxslar ta’siriga tushib qolishidir. Bu shaxslar asosan dindorlar, ziyolilar, ilmiy xodimlar, talaba-yoshlar o‘rtasidan o‘z tarafdorlarini tanlaydilar[1].

Respublikamizda yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanayotgan juda murakkab bir sharoitda g‘oyat qat’iyatlik bilan ish ko‘rishi, o‘tish davrida to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilganligi mamlakatimizda barqarorlik saqlanishning muhim omili bo‘ldi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida sog‘lom muhit yaratish uchun aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish boshlangan islohotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadida tinimsiz izlanishlar lozim ekanligini talab qilmoqda. Ayniqsa yoshlarning turli oqimlarga tushib qolmasligi uchun barcha imkoyatlarni ishga solish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarning huquqbuzarlik yo‘liga kirib qolishiga quyidagilarni sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Yoshlarni foydali mehnatga jalb etish, tarbiyalash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga mutasaddi bo‘lgan ta’lim muassasalari, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, voyaga yetmaganlar bilan ishovchi inspektorlarning kamligi, ta’lim muassasalarida psixolog kadirlarning yetishmasligi va boshqa mas’ul idoralarning faoliyatidagi jiddiy kamchiliklar[2]. Ayrim joylarda huquqiy-tarbiyaviy ishlarning susaytirib yuborilganligi, nazoratning sustligi, ish bilan ta’minlash kabi masalalarning qoniqarli hal etilmayotganligi yoshlar o‘rtasida turli huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etish, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, turli diniy aqidaparastlik g‘oyalariga ergashish kabi salbiy holatlarni keltirib chiqarmoqda.

Shaxs tarbiyasi bilan faqat tarbiya va o‘quv muassasalari shug‘ullanishi kerak degan fikrga kelish noto‘g‘ridir, asosiy tarbiya avvalo oilada beriladi. Mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yanada mustahkamlashning muhim sharti sifatida oilalarda sog‘lom ma’naviy muhitni, xususan, o‘zaro hurmat-ehtirom, er-xotin o‘rtasida, ota-onalar bilan farzandlar, qaynona-kelin o‘rtasida, qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasida mehr-oqibat ruhini yaratishdan iborat.

Ammo ta’lim muassasalari ham tarbiya ishlaridan soqit qilinmaydi, albatta. Chunki, shaxs oiladan tashqaridagi ta’limning muhim qismini maktabdan oladi va bu orqali ijtimoiy hayotga kirib boradi.

[1] Ражабова М. Диний экстремизм ва террорчилик. «Адолат» газетаси. 2000 йил 3 ноябр сони
[2] Усмоналиев М., Каракетов Й. Криминология. Тошкент, «Янги аср авлоди». 2001 й. 281-бет.

Yoshlar tarbiyasi bilan shug‘ullanishda oila, ta’lim muassasalari bilan bir qatorda mahallaning ham o‘rni muhimdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev «Mana shunday murakkab sharoitda yoshlarimiz sezgir va ogoh bo‘lishi, har bir masalada, avvalo Vatan manfaatlarini o‘ylab ish tutishi zarur. Ilm-ma’rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma’naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning qonida bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak.

Shu o‘rinda men hurmatli ota-onalar, bobolarimiz va momolarimizni, jonkuyar ustoz va murabbiylarni, muhtaram ziyolilarimiz, keng jamoatchiligimizni bu masalaga befarq bo‘lmasdan, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan ishlarimizni yanada kuchaytirishga da’vat etaman.

Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta’sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo‘lishingiz kerak. Xalqimizning ma’naviy qudrati va boqiy an’analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz»[1] - dedi Shavkat Mirziyoyev.

«Bugun o‘z tengdoshlariga ibrat bo‘layotgan, jamiyatdagi yangilanishlar jarayonida faol ishtirok etayotgan yoshlarimiz juda ko‘p. Lekin, hayotda o‘z o‘rnini topishga qiynalayotgan, adashgan, ko‘makka muhtojlari ham yo‘q emas. Shuning uchun yoshlar, ayniqsa, ularning uyushmagan qatlami bilan mas’ullar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot o‘rnatishga xizmat qiladigan „Yoshlar murojaati” elektron platformasini yaratish vazifasi topshiriladi», - dedi davlat rahbari.

Xulosa qilib aytganda, eng muhimi yoshlarning bilim olishi, mehnat qilishi bilan bog‘liq muammolarni ijobiy hal etishi, huquqiy, pedagogik va psixologik tarbiyani kuchaytirish yo‘li bilan ko‘zlagan maqsadimizga erishishimiz mumkin.

Huqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyilligi yuqori va jinoyat sodir etayotganlarning aksariyatini kuzatadigan bo‘lsak yolg‘iz onalar yoki yolg‘iz otalar tomonidan tarbiya qilinayotgan voyaga yetmagan o‘smirlar tomonidan kelib chiqmoqda. Ularni tarbiyasida ota yoki onaning o‘rni yaqqol sezilib turadi. Ota va onalar tomonidan ijtimoiylashish vaqtida o‘zini o‘rnini topishi uchun kerak bo‘ladigan xulq-atvorining ijobiy omillar yo‘qligi ko‘rinadi. Shuning uchun jamiyatda oilalarni mustahkamlash farzandlarni barkamol qilib tarbiyalash davlat va jamiyatdagi qonunlarga hurmat ruhida tariyalashimiz muhimdir.

[1] Ш.Мирзиёев. Ўзбекистон ёшлари форумида сўзлаган нутқидан, 25 декабрь 2020 йил, 18:00 сиёсат.

Xalqimizning asriy an’analarini hisobga olib, «Ona va bola sog‘lom bo‘lsa, oila baxtli, oila baxtli bo‘lsa, jamiyat mustahkam bo‘ladi» degan hayotbaxsh qadriyat va olijanob g‘oya jamiyatda chuqurroq anglab yetilishiga va qaror topishiga yo‘naltirilgan keng chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarning darajasini yanada yuksaltirish, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatda onalarga alohida hurmat-ehtirom muhitini shakllantirish, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, oilaning mustahkam, sog‘lom va ahil bo‘lishida mahalliy davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Har qaysi jamiyat, har qaysi davlat birinchi navbatda yuksak madaniyatli va ma’naviyatli insonlari bilan kuchlidir. Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati esa qadimdan ota-bobolarimiz tomonidan shakllanib kelgan asl milliy va diniy qadriyatlarimizni ahamiyati nechog‘lik muhim ekanini ko‘rsatmoqda. Zero, ertangi farovon hayot jamiyatni mukammal axloq tamoyillari asosida barpo qilish, oilada barkamol farzand tarbiyasi, uning jismonan baquvvat, ruhan tetik, ma’nan etuk, aqlan va axloqan go‘zal bo‘lib etishi bilan belgilanadi. Ushbu maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning zamiri, kelajak yosh avlodni tarbiyalash va u larni barkamol qilib o‘stirishdagi muvaffaqiyati kelajak avlodning ma’naviy kamoloti hamda milliy ruhiyati darajasi bilan belgilanishi va ushbu masaladagi fikrlar bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan, 25 dekabr 2020 yil, 18:00 siyosat.
2. Rajabova M. Diniy ekstremizm va terrorchilik. «Adolat» gazetasi. 2000 yil 3 noyabr soni
3. Usmonaliyev M., Karaketov Y. Kriminologiya. Toshkent, «Yangi asr avlodi». 2001 y. 281-bet.
4. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (XVI-XIX asr I yarmi) - Toshkent, Fan, 2006. - 240 b.
5. Kadirov O.S. “General psychology” study guide. Samarkand - 2022.- 250p.
6. Shamsiyev U.B. Familu holding and pyersonalitu Gyenyesis “yedusational-myethodisal manual” Main Libraru of thye Asadyemu of Ssiyenses of Uzbyekistan” printing housye, 2016, Pagye 46.
7. www.ziyouz.com kutubxonasi
8. https://www.norma.uz
9. https://cyberleninka.ru/article/n/barkamol-shaxs-tarbiyasi

O‘SPIRINLARDA HUQUQIY ONGNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MASALALARI

Asrorov Ilxom Baxronovich
Samarqand viloyati IIB Tashkiliy
boshqarma tahlil va nazorat bo‘limi nazorat guruhi
muhim topshiriqlar bo‘yicha inspektori, erkin tafqiqotchi

Annatatsiya: maqolada o‘spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning pedagogik-psixologik masalalari o‘rganilgan. Ilmiy manbalar tahliliga ko‘ra huquqiy onglilik va huquqiy savodxonlik masalasini shaxsning ontogenetik taraqqiyot bosqichida shaxsning taraqqiyot bosqichlariga ko‘ra tadqiq etishga zarurat tug‘ildi. Huquqiy bilimlarni shaxs tomonidan o‘zlashtirishning muhim shartlaridan biri – fanga oid tushunchalarning shakllanganligi va ularning kundalik amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalariga egaligi bilan tavsiflanishidir.

Kalit so‘zlar: falsafa, mantiq, pedagogika, dialekt, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, yoshlar tarbiyasi, o‘qituvchi-tarbiyachilar, jamoatchilik, barkamol yoshlar, ustuvor vazifalar, muammolar.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация: в статье изучаются педагогика-психологические вопросы развития правосознания подростков. Согласно анализу научных источников, возникла необходимость исследования вопроса правосознания и правовой грамотности на этапе онтогенетического развития человека в соответствии с этапами развития человека.

Одним из важных условий усвоения человеком юридических знаний является формирование понятий, связанных с наукой, и их описание путем обладания навыками применения их в повседневной практике.

Ключевые слова: философия, логика, педагогика, диалект, правосознание, правовая культура, правовая грамотность, образование молодежи, педагоги-воспитатели, общество, зрелая молодежь, приоритеты, проблемы.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ISSUES OF DEVELOPING LEGAL CONSCIOUSNESS IN TEENAGERS

Abstract: Pedagogical and psychological issues of legal consciousness development in adolescents are studied in the article. According to the analysis of scientific sources, it became necessary to research the issue of legal awareness and legal literacy at the stage of ontogenetic development of a person according to the stages of development of a person. One of the important conditions for the assimilation of legal knowledge by a person is the formation of concepts related

to science and their description by having the skills to apply them in everyday practice.

Key words: philosophy, logic, pedagogy, dialect, legal consciousness, legal culture, legal literacy, youth education, teachers-educators, society, mature youth, priorities, problems.

Huquqiy tushunchalar shakllanishining pedagogik masalalari boshqa fanlardagi ilmiy tushunchalarini tarkib topish qonuniyatlari, uslub va uslubiy jihatlariga qiyosiy o‘xshab ketishi shubhasizdir. Tushunchalar shakllanishining bosh bo‘g‘ini olamni bilish jarayonida tushunchalar tarixiy, falsafiy asosga ega ekanligi va fan doirasidagi hodisa va qonunlar mazmunini aks ettiruvchisi sanaladi. Biz muammoning pedagogik jabhalarini o‘rganish borasida olib borilgan tadqiqotlarning holati bilan tanishganimizda tushunchalar shakllanishining fanlar tizimidagi holati, turli ta’lim bosqichlari va o‘qitish metodikasining xususiyati bilan bog‘liq izlanishlarga duch kelindi.

Yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash, ularda huquqiy madaniyatni shakllantirish, huquqiy ta’lim va tarbiyani takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. «Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, ...ular 2 milliard kishini tashkil etishini hisobga oladigan bo‘lsak, sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi shu yoshlarimizning qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq».[1] Shu jihatdan yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish taklifini O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 20 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma’ruzasida ta’kidlab o‘tdi.

S.A.Shediyning tadqiqotlari talabalarda gumanitar tushunchalarni shakllantirishning didaktik shart-sharoitlariga bag‘ishlangan bo‘lib, izlanish natijalari quyidagi xulosalarga olib keldi. Unda bo‘lg‘usi yuristlarning kasbiy tayyorgarligi tushunchalar bazasini shakllantirish uchun ta’lim mazmunini, talabalar aqliy taraqqiyot darajasini aniqlash, o‘quv jarayoni tuzilish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, ishda talabalar ongida fanlararo gumanitar tushunchalarni shakllantirishning psixologik-didaktik asoslari hamda huquq tushunchalarini samarali tarkib toptirishning pedagogik shart-sharoitlari haqida so‘z boradi. Tadqiqotda muammo doirasidagi izlanishlar asosida psixologiya, pedagogika, bilish nazariyasidagi tushunchalarning “mazmuniy tuzilishi”, “mazmunning mantiqiy tuzilmasi”, “mazmunni tashkil etish” atamalariga alohida e’tibor qaratilgan. Oqibatda esa falsafa, mantiq, pedagogika fanlarini o‘qitishda o‘zaro birlik mavjud emasligi aniqlangan.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 20 сентябрь БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи/ Халқ сўзи”, 2017 й, 23 сентябрь №192 (6886).

Mavjud ilmiy konsepsiyalar quyidagicha tasniflangan: 1. Hukm bilishning elementi sifatida qaralgan (N.I.Kondakov, G.Klaus, I.Ya.Lerner); 2. Tushuncha tafakkurning asosiy elementi hisoblagan (A.S.Arsenyev, V.S.Bibler, B.M.Kedrov); 3. Tushuncha bilan hukm o‘rtasida aniq chegaralanishga erishilmagan (A.N.Iliadi).

Shuningdek, V.V.Borisov, A.A.Zinovyev, A.M.Soxorning ishlarida bilishning asosiy tarkibiy elementi sifatida tushuncha ajratib ko‘rsatilgan. Ammo ushbu ishlarning mazmunidan o‘quv materiallarning mantiqiy tuzilishida hukm asosiy element sifatida keltirib o‘tilgan. S.A.Shediyning tadqiqotlariga muvofiq keladigan izlanishlar didaktik jihatdan mos kelishi kuzatildi.

Huquqiy tushunchalarning shakllanishi tushuncha muammosiga yondashuvimiz bilishning muhim sharti sifatida: bilishning didaktik yondashuv har qanday inson bilishini voqyelikda tasdiqlashda, uning har xil shakllarini tasdiqlashda, inson bilishining ijtimoiy-tarixiy amaliyotda vujudga kelishi va rivojlanishining hal etuvchi rolini e’tirof etishi; barcha fanlarda ilmiy bilishning asosiy natijalarini umumlashtirish.

O‘smirlar tushunchalarni o‘zlashtirishining nazariy va amaliy tahlilining bir jihati S.A.Zaxarova tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Olim tomonidan olib borilgan izlanishlarda tushunchalarni o‘zlashtirish uquvi bir necha turlarga ajratib ko‘rsatilgan. S.A.Zaxarova tushunchalarni o‘zlashtirish modelini to‘rtta elementga ajratdi:

1. Mohiyat – real voqyelikni mavjud munosabatlarni aks ettiruvchi tushunchalarning shakllanishi;

2. Mazmun – voqyelikka real munosabatini egallaganligini so‘zlarda ajratib va mustahkamlangan jihati;

3. Shart-sharoiti: a) ijtimoiy amaliyot uchun ahamiyatli bo‘lgan obyektiv munosabatlarni ajratib ko‘rsatish; b) ushbu munosabatlarda umumiylik va ahamiyatlilikning egaligi; v) so‘zlarda bunday munosabatlar mustahkamlanganligi;

4. Asos – ularning so‘zlar va tushunchalar o‘rtasidagi axborot munosabatini hosil qiluvchi jihati. Olim tomonidan taqdim etilgan model predmetlar amaliyotida tushunchalarning mantiqiy funksiyasi muhim o‘ringa ega .

Ushbu tasnif yutuqlari bilan bir qatorda, ayrim kamchiliklardan holi emas. Unda tushunchalarning bilish jarayonidagi hissiy va amaliy, obrazli va jalb etuvchanligi; konkretligi va mavhumligi; aqliy bosqichlarning analitik va sintetik birligi; tushunchalarning shakllanishida talabalar faoliyatining amaliy va nazariy ahamiyati qayd etilmaganligidir.

K.V.Sudakovning yuqoridagi bildirgan fikrlari asosida aytish mumkinki, inson stress holatiga tushganda bir qator psixologik belgilar bo‘lishi, vahima, qo‘rquv, hissiy tashvish va xovotir, charchoq, befarqlik, asabiylashish, sabrsizlik, norozilik, aybdorlik va yolg‘izlik hissi kabi holatlarni boshidan kechirishi mumkin. Shuningdek, shaxsning psixologik funksiyalarining o‘zgarishi, tafakkurning sekinlashuvi, diqqatning beqarorligi, xotiraning pasayishi kabi holatlar stressni boshqarish va unga qarshi kurashishda qarshi tura olish qilishi mumkin.

A.N.Amilina o‘zining «Stress i zashita ot stressa» nomli ilmiy asarida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Psixologik stress muhim psixik holat sifatida individ tomonidan qiyin, ekstremal vaziyatlarni aks ettirish natijasida yuzaga kelgan holat hisoblanib, psixik aks ettirish faoliyat jarayoni bilan shartlanadi. Faoliyat jarayonida motivlar emotsional kechinmalar bilan to‘ldirilib, psixik bosim holati paydo bo‘lishi va kechishida muhim o‘rin tutadi. Bu jarayon emotsional bosim yoki emotsional stress sifatida talqin qilinadi».

Shunga ko‘ra, psixologik stress hissiy stress va axborot stressi kabi turlariga ajratiladi. Hissiy stress ijtimoiy, psixologik, kasbiy xarakterga ega bo‘lgan ekstremal omillar ta’sirida yuzaga keluvchi kuchli psixofiziologik zo‘riqish holati hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, hissiy stresslar insonlar ish faoliyatida, hayotiy munosabatlarda salbiy psixologik holatlarni keltirib chiqaradi. U insonda quvvat va shaxsiy resurslarining yo‘qolishiga sabab bo‘lishi va insonlarning hayotga qiziqishini pasaytirishi, atrofdagi insonlarga nisbatan negativ munosabatni

shakllanishi oqibatida faqat salbiy tarafini ko‘rishga olib kelishi mumkin. Aytish joizki, bunday holatlar shaxsda ish unumdorligining susayishi kuzatiladi, ishga bo‘lgan xohishning pasayishi, uning o‘ziga bo‘lgan bahosi va ishonchning yo‘qolishi, o‘zidan qoniqmaslik hissining kuchayishi kabi holatlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

L.A.Kitaev-Smik tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Axborot stressini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar ob’ektiv, sub’ektiv va ijtimoiy muhit ko‘rinishlariga ajratiladi».

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlarga tayangan holda yoshlarni internet saytidan zarur axborotlarni olish, o‘rganish va tahlil qilishga yo‘naltirish, ommaviy axborot vositalari materiallarini o‘qish, o‘rganish va ularni amalda qo‘llashda samarali foydalanishlari uchun ularning psixologik tayyorlash, ommaviy axborot vositalari materiallarini to‘g‘ri idrok etishlari uchun tushuntirish ishlarini olib borish hamda axborot manbalariga nisbatan ijobiy yondoshishni shakllantirishga oid tadbirlarni o‘tkazish lozim.

Ye.P.Il’inning fikriga ko‘ra, stresslarni shartli ravishda fiziologik va psixologik ko‘rinishlariga ajratish mumkin, chunki fiziologik stressda doimo psixik elementlar mavjud bo‘lsa, psixik stress esa fiziologik o‘zgarishsiz kechmaydi [2].

S.A.Razumov o‘zining ilmiy izlanishlari natijasida stressni to‘rt guruhga ajratgan bo‘lib, birinchidan, aktiv faoliyat stresslari – ekstremal, ish faoliyati, shaxs motivatsiyalari (bellashuvlar, tortishuvlar); ikkinchidan, baholash stressorlari – kelajak, hozirgi va o‘tgan faoliyatni baholash, oldindagi faoliyatdan xavfsirash, o‘tgan qiyinchiliklarni eslash; uchinchidan, faoliyatning nomuvofiqligi stressorlari – ajralish stresslari (oiladagi nizolar, ishdagi qiyinchiliklar), kundalik muloqot yoki faoliyatdan chegaralovchi kasallik, fiziologik nuqsonlar; to‘rtinchdan, jismoniy va tabiiy stressorlar – jismoniy jarohatlar, qorong‘ulik, qattiq ovoz, balandlik, issiqlik, zilzila va boshqalar.

Ko‘pchilik psixologik olimlar o‘z izlanishlariga asoslanib, stress holatini quyidagi belgilarini ko‘rsatib o‘tganlar: birinchidan, stressning somatik belgilari: yurak urishi, siqilish, ko‘krak og‘rishi, ovqat hazm qilishdagi qiyinchilik, nafas olishning qiyinchiligi,ko‘p terlash, oshqozon va ichak kasalliklari, qayd qilish, qaltirash, titrash, teridagi allergiya, hushdan ketish, gripp, eski kasallikni qaydishi, ich qotishi, tez-tez shamollash va boshqalar; ikkinchidan, stressning emotsional belgilari: kayfiyat o‘zgarishi, xavotirlanish (tez-tez), tez jahl chiqishi, emotsional zo‘riqish, loqaydlik, asabiylashish, o‘zini yordamsiz his qilish, o‘ziga ishonch yo‘qolishi, o‘zini past baholash, diqqatning pasayishi; uchinchidan, stressning hulq-atvor belgilari: harakatning nomutanosibligi, zo‘r berishning kuchayishi, yomon ishlash, chekish (tez-tez), ichkilikka zo‘r berish, dorilarga bog‘lanib qolish, ovqat ko‘p yeyish yoki ishtahasizlik, uyqudagi muammolar, vaqtni yaxshi rejalashtira olmaslik, muomaladagi o‘zgarishlar, yolg‘izlikka intilish, ishlarni orqaga surish, o‘ziga e’tibor bermaslik va to‘rtinchidan, stressning kognitiv belgilari: diqqatning yo‘nalganligini susayishi, diqqatni

buzilishi, xotiraning pasayishi, reaksiyaning nazorat qilinmasligi, xatolarning ko‘payishi, rejalashtirish qobiliyatining pasayishi va hokazolar.

Nazarimizda, yuqorida keltirilgan stress belgilari insonning jismoniy va aqliy yuklamalarining me’yoridan oshishi favqulotda holatlarda, chorasiz qolganda, yechim topishga qiynalgan va hissiy zo‘riqish vaqtida namoyon bo‘ladi, bu esa inson oldiga katta muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, har bir inson stressni aniqlash va unga qarshi kurashish malakasini egallashi uchun psixologik bilimlardan xabardor bo‘lishi lozim.

S.A.Babanov o‘zining «Professionalnoe faktorы i stress» nomli maqolasida stressning hissiy so‘nish sindromiga to‘xtalib, quyidagi fikrlarni bildiradi: «Stress bilan bog‘liq hissiy bosimning ortishi shaxsda xavotir, depressiya, hissiy so‘nish sindromi, psixosomatik buzilishlarning namoyon bo‘lishiga olib keladi. Hissiy so‘nish sindromining rivojlanishida muhim bo‘lgan uchta asosiy omillar bo‘lib, birinchisi – shaxsiy omillar psixologik beqaror, introvert, fanatiklik kabi xususiyatlar bilan ifodalanadi. Ikkinchi omil –hissiy so‘nishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi hamda mas’uliyat jarayoni hissiy so‘nish sindromi rivojlanishini chegaralaydi. Mas’uliyatning noaniqligi esa ish yuklamasining ko‘p emasligidan qat’iy nazar, mazkur omilning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, jarayonda o‘zaro hamkorlik, uyg‘unlikni yo‘qligi hamda nizolarning mavjudligi hissiy so‘nish sindromi rivojlanishiga imkon beradi. Hissiy so‘nishga sabab bo‘luvchi uchinchi omil–tashkiliy omillar yuklamaning yuqoriligi, ijtimoiy yordam hamda rag‘batlantirishni yetarli emasligi, faoliyatning bir xilligi va istiqbolning mavhumligi kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi» [9].

D.M.Gushin o‘zining tadqiqot ishlarida stress – frustrativ holatlarni akmeologik profilaktika qilish ahamiyatini o‘rgangan bo‘lib, unda stress – frustrativ holatlarga barqarorlik, psixik bosim darajasi, shaxs xususiyatlari va frustrativ holatlar turiga bog‘liq ekanligi haqida fikr yuritgan. Shuningdek, u turli ko‘rinishdagi frustrativ vaziyatlarni ajratib ko‘rsatgan: maqsadga erishish yoki ehtiyojni ta’minlashda kerakli vositaning yo‘qligi, yaqin kishisini yo‘qotish, nizo va boshqalar. Shu bilan birga, stressning frustratsion holati turli to‘siqlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkinligini ham ta’kidlaydi, ular passiv yoki aktiv tashqi qarshiliklar, passiv yoki aktiv ichki qarshiliklar. Stress – frustratsiyalar ta’sirida stress holatida kuchli reaksiya, moslashuvchan, nevrotik reaksiyalar, ya’ni xavotir, isterika, fobiya, depressiya, ipoxondriya, nevrosteniya kabi psixologik buzilishlarni kuzatish mumkin [1].

O.V.Lozgacheva o‘zining dissertatsion ishlarida talabalar kasbiy kamolotida stressga barqarorlikni shakllantirish borasida ilmiy izlanishlar o‘tkazgan. O‘zining tadqiqot ishi natijalariga asoslangan holda stressga barqarorlikning nazorat, adekvatlik darajasi, muloqot kompetentligi, axloqiy me’yor, psixik barqarorlik va hissiy qulaylik kabi xususiyatlar bilan aloqadorligini ta’kidlaydi. Shuningdek, u ilmiy tadqiqoti natijasida talabalarda stress barqarorligiga xavotir, o‘zini baholash, muvaffaqiyatsizlikdan qochish,

muloqot malakalarining rivojlanganligi ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi haqida fikr bildiradi [3].

Aytish mumkinki, muallifning olg‘a surgan konsepsiyasida stressga barqarorlik insonning kundalik hayotiy jarayonidagi ekstremal omillar ta’siriga moslashishning zaruriyat ekanligi bilan tasniflanadigan insonning murakkab xislati bo‘lib, ularning faolligi organizm va shaxs psixikasining funksional holati ko‘rsatkichlarida yuzaga kelishi nazarda tutiladi.

Sport psixologiyasi sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan biri A.S.Puni sportga ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan sportchi talabalarning imtihon va musobaqalardan oldingi aqliy mobil tayyorgarlik darajasiga e’tibor qaratgan. Uning fikriga ko‘ra, bu holatlar boshqa faoliyat sohalarida ham uchraydi, ayniqsa aqliy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxlarda ham uchraydi, bu holatga muallif talabalarning imtihon oldi tayyorgarlik olimning katta anjumanlarda, nufuzli doirada ilmiy ishini ma’ruza qilishdan oldingi va dissertatsiyani himoya qilishdan oldingi jarayonlarni misol qilib ko‘rsatadi. U bu holatni bir necha soatdan tortib bir necha kungacha davom etishi mumkinligini ta’kidlab, bu vaqtda inson yuzaga keladigan barcha qiyinchiliklarga chiday olishini va u o‘zini shu vaziyatga tayyorlaydi deb aytadi. Bu tayyorgarlik salbiy hissiy holatga tushmaslik uchun shaxsdan katta iroda kuchini talab etadi. Bu holatda insonning hatti-harakati muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikka emas, balki o‘z harakatlarini nazorat qilishga yo‘nalgan bo‘ladi va u mazkur faoliyat jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun o‘zidagi barcha imkoniyatlarni to‘liq sarflashga harakat qilishida namoyon bo‘ladi [7].

Aytish joizki, stress holatidagi odamlar bilan ishlash jarayonida ushbu muammoni bartaraf etish uchun psixokorreksiyaga tegishli usullar, psixologik o‘yinlardan foydalanish muhim hisoblanadi. U ko‘p variantli yoki tuzatuvchi va rivojlantiruvchi yo‘nalishda ham qo‘llanilishi mumkin. Asosiysi, bu dastlabki tashxis ma’lumotlariga asoslanib, psixokorreksiya yo‘nalishlarini aniqlab olishi va shaxsning ijtimoiy-demografik, individual va yosh xususiyatlari, stressli holatning ahamiyatlilik darajasi, ijtimoiy muhitdagi vaziyat xususiyatlari psixokorreksiya jarayonida hisobga olish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Demak, xulosa sifatida aytish mumkinki, psixologiyada stress muammosi borasida olib borilgan tadqiqot ishlarida uning paydo bo‘lishi, bosqichlari sifatida xavotirlik, rezistentlik va tugash bosqichlari, stressning fiziologik hamda psixologik turlari, stressning somatik, hissiy, xulq-atvor va kognitiv belgilari to‘g‘risida fikr-mulohazalar va g‘oyalar ilgari surilgan.

Shuningdek, ko‘plab xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari asosida stress borasida bir qator yondashuvlar, jumladan stressning namoyon bo‘lishida shaxsning ichki va tashqi ta’siri, stressga moyillikning irsiy jihatlari, stressga qarshilik ko‘rsatish, stressning paydo bo‘lishida xavotirlanish holatlarining nazariy jihatlari asoslab berilgan. Stress muammosi bo‘yicha rus psixologlarining tadqiqot ishlarida stressga frustratsion yondashuv, stressga barqarorlik holati, stressda reaktiv xavotirlik omillari, stress holatini o‘quv va imtihon jarayoniga

ta’siri, stressning hissiy holati, faollikka va kayfiyatga ta’siri masalalari ilmiy jihatdan o‘rganilgan va ilmiy g‘oyalar, tavsiyalar, ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan.

Adabiyotlar:

1. Гушин Д.М. Акмеологическая профилактика стресс-фрустрационных состояний специалистов спецподразделений. Автореф. дисс. канд. психол. наук. 19.00.13 -М. 2013.
2. Илин Е.П. Психофизиология состояний человека. - СПб.: Питер, 2005. - 412 с.
3. Лозгачева, О.В, Формирование стрессоустойчивости на этапе профессионализации. Дис.... канд. психол. наук: 19.00.03. -Екатеринбург, 2004. 189 с.
4. Мещеряков Б.Г. Большой психологический словарь/ Б.Г.Мещеряков. -М.: Прайм-Еврознак, 2008.-421с.
5. Психоэмоциональный стресс. Под ред. К.В.Судакова. М, 1992. 236с.
6. Психология: Словарь. Под ред. А.В.Петровского и М.Г. Ярошевского. - М.: Политиздат. 1990. - 315 с.
7. Пуни А.Ц. Состояние психической готовности к соревнованиям в спорте //Психология и современный спорт. - М., 1993. – С. 12-24.
8. Селе Г. Стресс без дистресса. -М.: Прогресс, 1979, 124 с.
9. Щербатых Ю.В. Вегетативные проявления экзаменационного стресса: Автореф. дис.... канд. наук. -М., 2001.

OILA BOLANING BIRLAMCHI IJTIMOIYLASHUVINI SHAKLANTIRISH SIFATIDA.

Esanboyev Q.U.
SamDU doktaranti

Oila birlamchi sosializasiya hujayrasidir. Oila ijtimoiy o‘zini o‘zi belgilash funksiyasi bilan tavsiflanadi. Oila tufayli odam familiyasi, ismi va otasining ismini oladi. U kelib chiqishi oilasi bilan bir xil sinf, irq, yetnik va diniy guruhga mansub. Bundan tashqari, ota-onalar o‘zlarining hayotiy tajribasini bolalarga o‘rgatadi, odob-axloqni singdiradi,ilimni hunarmandchilikni o‘rgatadi.

Oila o‘ziga xos ijtimoiy institut bo‘lib, unda jamiyat, butun oila a’zolari va ularning har biri alohida-alohida o‘zaro bog‘liqdir. Oila jamiyatning birlamchi yacheykasi bo‘lib, jamiyat uchun muhim, har bir inson hayoti uchun zarur bo‘lgan vazifalarni bajaradi.

Deyarli barcha soha psixolog va pedagoglari bolaning inson sifatida kamol topishi, uning ichki hayotini shakllantirishning asosiy va zarur sharti atrof-muhit, uning yaqin odamlari, ayniqsa, ota-ona yekanligini alohida ta’kidlaydilar.

Birinchi oylardan boshlab bola ota-onasi bilan munosabatlar orqali o‘zini anglaydi va bu nafaqat tashqi, balki ichki o‘zaro ta’sir jarayoni butun hayoti davomida davom yetadi. Ota-ona munosabatlarining o‘ziga xosligi uning bolaning yoshi bilan doimiy va muqarrar o‘zgarishidadir.

Farzand va ota-ona munosabatlari ajralmas tizim sifatida oilaviy munosabatlarning yeng muhim quyi tizimini tashkil qiladi va bolaning va ota-onaning yosh xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan uzluksiz, uzoq muddatli munosabatlar sifatida qaralishi mumkin. Bola-ota-ona munosabatlari bolaning aqliy rivojlanishi va ijtimoiylashuv jarayonining yeng muhim hal qiluvchi omili sifatida quyidagi parametrlar bilan belgilanishi mumkin:

• hissiy aloqaning tabiati: ota-ona tomonidan - bolani yemosional qabul qilish (ota-ona mehri), bola tomonidan - ota-onaga bog‘liqlik va yemosional munosabat. Bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarning boshqa shaxslararo munosabatlarga nisbatan o‘ziga xos xususiyati ularning ikkala tomon uchun ham yuqori ahamiyati;

• tarbiya va ota-onalik motivlari;

• ota-ona va bolaning farzand-ota-ona munosabatlarida ishtirok yetish darajasi;

• bolaning ehtiyojlarini qondirish, ota-onaning g‘amxo‘rligi va e’tibori;

• bola bilan muloqot va o‘zaro munosabat uslubi, ayniqsa, ota-onalarning yetakchiligining namoyon bo‘lishi;

• muammoli va ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish usuli; bolaning avtonomiyasini qo‘llab-quvvatlash;

• ijtimoiy nazorat: talablar va taqiqlar, ularning mazmuni va miqdori; nazorat qilish usuli; sanksiyalar (rag‘batlantirish va kuchaytirish); ota-ona nazorati;

• oilaviy tarbiyaning barqarorligi va izchilligi (nomutanosiblik) darajasi. Bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarning integral ko‘rsatkichlari:

• bolaning hissiy jihatdan qabul qilish tabiati, tarbiya motivlari va qadriyatlari, bolaning qiyofasi, o‘zini ota-ona sifatidagi qiyofasi, ota-ona rolini o‘ynash modellari va qoniqish darajasi bilan belgilanadigan ota-onaning pozisiyasi.

• hissiy munosabatlar parametrlari, muloqot va o‘zaro munosabat uslubi, bolaning ehtiyojlarini qondirish darajasi, ota-ona nazorati xususiyatlari va uni amalga oshirishdagi izchillik darajasi bilan belgilanadigan oilaviy ta’lim turi;

• ota-onaning tarbiyachi sifatidagi qiyofasi va bolada oilaviy tarbiya tizimining qiyofasi. Bu ko‘rsatkich nisbatan yaqinda ilmiy tadqiqot va keng muhokama mavzusiga aylandi. Ota-ona-bola munosabatlari tizimida bolaning o‘rnini o‘rganishga qiziqishning paydo bo‘lishi, ota-ona kabi bolaning faol ishtirokchisi yekanligi bilan bog‘liq. Ta’lim paradigmasidagi o‘zgarish bolaga ta’lim obyekti sifatida munosabatdan gumanistik munosabat - bola ta’lim subyekti va munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisi sifatida XX asrning so‘nggi choragida sodir bo‘ldi. jamoatchilik ongida ota-ona va bola munosabatlari konsepsiyasini bolaning o‘zi ushbu munosabatlarning faol yaratuvchisi sifatidagi

pozisiyasini tobora ko‘proq hisobga olish yo‘nalishida qayta ko‘rib chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

G.G. Filippova onalik sohasi ontogenezida ayolning onalik mavqyeini shakllantirish va uning ota-ona vazifasini amalga oshirishga psixologik tayyorgarligini belgilovchi oltita bosqichni belgilaydi.

Birinchi bosqich - o‘z onasi bilan o‘zaro ta’sir – ichki hissiy rivojlanishdan boshlanadi va hayot davomida davom etadi, ontogenezning har bir bosqichida sifat jihatidan yangi shakllarda namoyon bo‘ladi. Bu onalik xulq-atvorining qadriyat va hissiy asoslarini shakllantirishni belgilaydi. Ona qiz uchun muhim shaxs bo‘lib, o‘zida onalik qiyofasini, u qiz va onalikning ijtimoiy-madaniy amaliyoti o‘rtasida vositachi sifatida namoyon bo‘ladi. Ona bilan o‘zaro munosabatlar tajribasi ayolning onalik shaxsini shakllantirish uchun asosdir. Onaning qiziga bo‘lgan qadriyatli munosabati o‘z farzandiga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirishni belgilaydi. O‘zining bolalik davridagi ona bilan bo‘lgan munosabatini rad yetish, yoqtirmaslik va bilmaslik tajribasi bilan belgilab qo‘ygan taqdirda, onaning xatti-harakatining bolani rad yetish va unga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lishining ma’lum faktlari mavjud.

Ikkinchi bosqich, o‘yin bosqichi, syujetli rolli o‘yinda vizual modellashtirish sharoitida onaning roli mazmunida qizning yo‘nalishini ta’minlaydi. “Oilada” va “qiz-ona” o‘yini bolaga onaning xulq-atvori sohasida tajriba o‘tkazish, ona rolining barqaror imidji-standartini shakllantirish imkoniyatlarini ochib beradi. “Qizlar-onalar” o‘yini xalq pedagogikasida qizlarni onalikka tayyorlash maktabi sifatida azaldan o‘stirilgan. Ota-onasi qizga sovg‘a qilgan birinchi o‘yinchoqlardan biri qo‘g‘irchoq edi. Qo‘g‘irchoq onadan qizga o‘tgan, u maxsus tayyorlangan. Qizlar unga kiyim tikishdi, u bilan o‘ynashdi, bayramga olib ketishdi. Aytgancha, qo‘g‘irchoq saqlangan, u qanday kiyimlarga ega edi, qiz u bilan qanday o‘ynagan, ular uning yaxshi ona bo‘la oladimi yoki yo‘qligini aniqlashdi. Ko‘rgazmali o‘yinchoqlar va oilaviy o‘yinlar sifatida qo‘g‘irchoqlar bolani kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiylashuvning muhim elementi edi.

Uchinchi bosqich - emizish (4-5 yoshdan 12 yoshgacha) qizni chaqaloqning haqiqiy g‘amxo‘rligiga va uning tarbiyasiga jalb qilish usuli sifatida. Zamonaviy oilada hamshiralik ko‘proq ikkinchi bolaning tug‘ilishi va katta yoshdagi bolaning chaqaloqni tarbiyalash jarayoniga qo‘shilishi bilan bog‘liq. Jamiyat tarixida ibtidoiy madaniyatlarda olti yoki yetti yoshli bolalar olti oylik va undan katta yoshdagi bolalarni parvarish qilish jarayoniga kiritilgan. Go‘daklarni boqishning o‘xshashligini poda turmush tarzini olib boradigan yuqori hayvonlarning xatti-harakatlarida ham kuzatish mumkin.

To‘rtinchi bosqich - onalik va jinsiy sohalarning motivasion asoslarini farqlash - balog‘atga yetish davriga to‘g‘ri keladi. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi jinsiy hayot va onalik qadriyatlarini dastlabki ajralish asosida birlashtirishdir. Bolaning tug‘ilishi va jinsiy munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning psixologik muammolari, xususan, nikohdan tashqari homiladorlik

va bolani tarbiyalash, homiladorlikdan himoya qilish va uni rejalashtirish onalikning motivasion va qiymat-semantik sohasining rivojlanishini belgilaydi. .

Beshinchi bosqich - o‘z farzandi bilan o‘zaro munosabat - homiladorlik va bolani kutish va chaqaloqqa g‘amxo‘rlik qilish va uni tarbiyalash davrida onaning pozisiyasini shakllantirishni belgilaydigan bir necha davrlarni o‘z ichiga oladi.

Nihoyat, oltinchi bosqich - bolaga shaxs sifatida mehr va muhabbatning shakllanishi (yerta yoshdan boshlab). Bu bosqichda onaning bolaga munosabati munosabatlarning simbiotik turini yengish va “men” - “bola” chegaralarini farqlash yo‘nalishida rivojlanadi.

Onalar xulq-atvoridagi og‘ishlarni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, xavf guruhi homiladorlik tajribasining barqaror turini ye’tiborsiz qoldiradigan ayollardan iborat. Ye’tibor bermaslik turini tuzatish yeng qiyin va ota-onalarning hissiy rad yetish, avtoritarizm, yo‘l-yo‘riq, gipoprotektivlik va boshqalar kabi buzg‘unchi xususiyatlarida o‘z ifodasini topadi.

Bolalarni tashlab ketishning sabablari - beqarorlik va o‘z oilasining qulashi tahdidi, moddiy ishonchsizlik, shaxsiy yetuklik, shaxsiy rivojlanishdagi buzilishlar, depressiv va affektiv kasalliklar, tashlab ketilgan onalarning anamnezida o‘z onalarining rad yetishi. Rad yetilgan bola boshdan kechirgan onalik mehridan mahrum bo‘lish, yetuklikda onalik pozisiyasini shakllantirishda buzilishlarga olib keladi.

Shunday qilib, taqdim yetilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, onalik uchun tabiiy shart-sharoitlar mavjudligini tan olish bilan birga, ijtimoiy-tarixiy omillarning bolaga nisbatan hissiy munosabati tabiatini aniqlashda shubhasiz ustuvorlikni unutmaslik kerak. Ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlar - bu jarayonning har bir ishtirokchisining shaxsiy shakllanishi va rivojlanishi yuzaga keladigan va amalga oshiriladigan muhit. Bolaning aqliy rivojlanishida subyektga yo‘naltirilgan muloqotning roliga alohida ye’tibor beriladi (S. Yu. Meshcheryakov). Ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar va ularning buzilishini o‘rganish klinik yondashuv doirasida keng olib boriladi, chunki amalda ota-ona va bola munosabatlari muammosi alohida keskinlik bilan yuzaga keladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Myasishchev VN Munosabatlar psixologiyasi / yed. A. A. Bodaleva. - M.: Voronej, 1998 yil.
– 368 b.
2. Kasbiy ta’lim. Lug‘at / S. M. Vishnyakova. - M.: NMS SPO, 1999 yil.
3. Petrovskiy V. A., Polevaya M. V. Begonalashish ota-ona va bola munosabatlarining hodisasi sifatida // Psixologiya savollari. - 2001. - 1-son. – 19–26-betlar.
4. Sinyagina N. Yu. Ota-ona va bola munosabatlarini psixologik-pedagogik tuzatish.
– M.: VLADOS, 2001. – 800 b.

JAMIYATDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING TIBBIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ernazarov Alimardon Jumaqulovich
Samarqand viloyat Reablitatsiya markazi bo‘limi boshlig‘i, mustaqil izlanuvchi

Annotasiya: maqolada jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning tibbiy-psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bugungi kunda milliy qadriyatlar asosida o‘zbek oilalarida farzandlarni tarbiyalash borasida yo‘l qo‘yilayotgan ayrim kamchiliklar to‘g‘risida mulohazalar bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: sog‘lom avlod, milliy qadriyatlar, millat, tarbiya, ijtimoiy muhit, oila, urf-odatlar, nizoli vaziyatlar, xulq-atvor.

МЕДИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация: в статье рассматриваются медико-психологические особенности формирования здорового образа жизни в обществе. Также изложены комментарии по поводу некоторых недостатков воспитания детей в узбекских семьях на основе национальных ценностей.

Ключевые слова: здоровое поколение, национальные ценности, нация, образование, социальная среда, семья, традиции, конфликтные ситуации, поведение.

MEDICAL- PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN SOCIETY

Abstract: The article discusses the medical and psychological features of healthy lifestyle formation in society. Also, comments on some of the shortcomings in the upbringing of children in Uzbek families based on national values are stated.

Key words: healthy generation, national values, nation, education, social environment, family, traditions, conflict situations, behavior.

Salomatlik – inson kamolotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, shaxsning hech kim dahl qila olmaydigan huquqi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, shaxsiy va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi garovidir. Salomatlik – inson kamolotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, shaxsning hech kim dahl qila olmaydigan huquqi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, shaxsiy va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi garovidir.

Ma’lumki, jamiyatimizda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog‘lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi o‘ta muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Millat salomatligini ta’minlash, xalq genofondini bekamu-ko‘st saqlash sog‘lom turmush tarzi tufayligina yetarlicha ijobiy tarzda hal etiladi. Bu esa, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari; oila, o‘quv-tarbiya maskanlari, mahalla hamda mustaqil ta’lim oldiga jamiyatimiz fuqarolariga sog‘lom turmush tarzi mazmuni va mohiyatini anglatish, yoshlarni sergak va bilimdon, barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi.

Sog‘lom turmush tarzi (STT) - bu faol mehnat, ijod og‘ushida yashash, kuchli jismoniy va ruhiy yuklamalarni, o‘ta xavfli va zararli ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni yengil ko‘tara oladigan har tomonlama taraqqiy etgan shaxsning shakllanish jarayonidir.

Falsafa va ijtimoiy gigienaga oid adabiyotlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muammolariga so‘ngi paytlarda katta e’tibor berilmoqda. Bu masalaning ijtimoiy-ruhiy, tibbiy-gigienik, iqtisodiy, shaxsning o‘ziga aloqador motivatsion tomonlari tadqiq etilmoqda. Biroq, sog‘lom turmush tarzining metodologik muammolari va ijtimoiy-gigienik mezonlari ayrim mintaqalarning o‘ziga xos tomonlari, iqlimiy-geografik sharoitlari, aholi turmush madaniyatining etnik xususiyatlari yetarlicha o‘rganilgan emas.

Sog‘lom avlodni shakllantirish jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish negizida amalga oshriladi. Buning uchun esa jamiyatning har bir a’zosi sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yishi, salomatlikni madaniyatlilikning bir ko‘rinishi sifatida qabul qilish lozim. Yoshlar hayotida, yurish-turishida ham mana shunday yangicha tafakurning shakllantirilishi bu boradagi barcha muammolarga yechim bo‘lib xizmat qiladi. Keyingi yillarda aholi salomatligini, ayniqsa, onalik va bolalikni, yoshlarni, oilani ijtimoiy muhofaza qilish masalalari hukumatimiz siyosatida markaziy o‘rinni egallab kelmoqda. Bu bejiz emas, albatta - hozir biz insoniyat tarixida unutilmas bo‘lgan bir davrda – ilm-fan, texnika, umuman sivilizasiya kuchli taraqqiy etgan zamonaviy asrda yashamoqdamiz va qolaversa, yurtimizda huquqiy demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayoni kechmoqda. Umumjahon hamjamiyati bilan turli yo‘nalishlarda hamkorlik qilish, oldimizda turgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy hamda siyosiy masalalar yechimini xalqimiz farovonligini ta’minlash nuqtai nazaridan mo‘tadil ravishda amalga oshirish vazifalari fuqarolarimizning, oila va kelajak avlodning har tomonlama barkamol (ham jismonan, ham ma’naviy, ham ruhiy jihatdan sog‘lom), dono, ilg‘or fikrli va zakovatli bo‘lishini taqozo etadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun esa, insonning asosiy hayoti o‘tadigan maskan-oilaning turmush tarzi sog‘lom bo‘lmog‘i darkor.

Ma’lumki, jamiyatimizda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog‘lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi o‘ta muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Millat salomatligini ta’minlash, xalq genofondini bekamu-ko‘st saqlash sog‘lom turmush tarzi tufayligina yetarlicha ijobiy tarzda hal etiladi. Bu esa, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari; oila, o‘quv-tarbiya maskanlari, mahalla hamda mustaqil ta’lim oldiga jamiyatimiz fuqarolariga sog‘lom turmush

tarzi mazmuni va mohiyatini anglatish, yoshlarni sergak va bilimdon, barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi.

Sog‘lom turmush tarzi haqida so‘z borar ekan, uning eng avvalo inson tani va vujudining betob bo‘lishiga sabab bo‘luvchi zararli odatlardan forig‘ bo‘lishni tasavvur qilishga o‘rganib qolganmiz. Bu atama, eng avvalo, sog‘liqni saqlash xodimlari faoliyati bilan bog‘liq tarzda tushuntiriladi. Ammo, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda - tan va vujud, aql hamda idrok bevosita odamniki, unga bog‘liq bo‘lgani uchun ham inson ruhiyati qonuniyatlari va sirlarini o‘rganuvchi fan bo‘lmish psixologiyaning unga aloqasi bor. Shuning uchun ham psixologiya fanida sog‘lom turmush tarzi psixologiyasi tushunchasi mavjudki, u sog‘lom turmush tarziga eng avvalo, inson ongi va tafakkurining in’ikosi sifatida qaraydi. Demak, har birimiz uchun suv va havodek zarur bo‘lgan sog‘ligimizni ta’minlash va bunga erishish uchun sog‘lom turmush tarziga odat qilish nafaqat tibbiyot xodimlari, balki psixologlarning, psixologiya fanining ham izlanish predmeti sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu ma’noda, psixologiya sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda inson fe’li, xulq-atvori va turli psixologik holatlari nuqtai nazaridan o‘rganganda: asosan, har birimiz guyoki sirdek tuyulgan ruhiyatimizning o‘zimizni sog‘-salomat, beshikast va tetik his qilishimizga aloqador qanday jihatlari borligini, uni boshqarish orqali o‘z boyligimiz – salomatligimizni saqlash borasida qo‘limizda qanday imkoniyatlar mavjudligini va sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirish har birimizga o‘z ruhiy holatimizni boshqarish, ongu-shuurimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni vaqtida ilg‘ash orqali uni mo‘tadil tutish, o‘zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashish yo‘llarini, bu boradagi profilaktikani o‘rganadigan fan hamda foydali amaliyot sifatida tobora hayotimizga dadil kirib kelmoqda.

Manbalardan ma’lum bo‘ladiki, sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishning bir qator: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tibbiy, jismoniy, pedagogik, psixologik va boshqa omillari mavjud. Biz mazkur maqolada sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishning psixologik jihatlarini: inson fe’l-atvorini; sog‘lom turmush tarziga nisbatan shaxsning munosabatini; sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini; sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishda shaxsning individual-psixologik xususiyatlarining o‘rni; shaxs o‘sib-o‘lg‘aygan oila muhitning ta’siri, ya’ni tashqi ijtimoiy-psixologik omillar haqida fikr-mulohaza yuritmoqchimiz.

Aholi va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirish jarayonida motivasiya omilining o‘rnini baholashda har bir shaxsda uning kundalik hayot faoliyatini taxlil qilish uchun zarur bo‘lgan uchta asosiy elementning mavjudligiga e’tiborni qaratish lozim. Jumladan har bir shaxsda:

– sog‘lom turmush tarzi haqidagi bilimlarning mavjudligi;

– sog‘lom turmush tarzida yashashning insonni sog‘lom qilishga va umrini uzaytirishi mumkinligiga qat’iy ishonchning bo‘lishi;

– sog‘lom turmush tarzida yashash uchun astoydil harakatning mavjud bo‘lishi kabilar.

Kuzatish va tadqiqotlarimizning ko‘rsatishicha, yoshlarda sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishni eng avvalo oilada bolalar va o‘smirlarni o‘z sog‘ligiga mas’uliyat hissi orqali yondoshishni tarbiyalashdan boshlash lozim.

Ma’lumki, oila - bu har bir jamiyatning kichik sosiumidir. Shu ma’noda jamiyatning va ijtimoiy hayotning bir bo‘lagi tariqasida oilaning o‘ziga xos vazifalari bor, o‘z navbatida bu vazifalarning har biri ma’lum bilimlarga ega bo‘lishni va eng muhimi mas’uliyatni his qilish talabini qo‘yadi. Agarda yangi tuzilgan oila jamiyatning bir bo‘lagi sifatida takomillashmasa yoki “o‘smasa”, ayniqsa ma’nan va ruhan taraqqiy etib bormasa, oiladagi tomonlarning o‘zaro vazifalari va qiziqishlari aniq belgilanmay qolsa, bunday oilaning kelajagi farovon bo‘lmaydi.

O‘zbek oilasida ko‘p avlodlilik belgilari yaqqol ifodalanadi. Unda farzand ongida sog‘lom g‘oya va bilimlar shakllanishida oilaning kattalari - bobolar, momolar, yaqin qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla ham bevosita ishtirok etadi. Azaliy odatlarimizga ko‘ra, farzandlarimiz tarbiyasiga ota-onadan nisbatan bobo, buvi, qo‘shni va qarindoshlarning ta’siri kuchliroqdir. Ular oiladagi ma’naviy muhitning belgilovchilari hisoblanadi. Bu xil tarbiya an’anasi o‘tmishdan qolgan muhim ma’naviy-pedagogik qadriyat hisoblanib, buyuk ajdodlarimiz hayotida bu xil tarbiya uslubi shakllanib, muayyan tizim darajasiga yetgan.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik-pedagogik jihatlari uchun me’yoriy talablar nazarimizda quyidagi fazilatlarda namoyon bo‘lishi mumkin: tolerantlik, ya’ni hamjihatlikda, jon kuyarlikda, oqilalikda, odob-ahloqda va xushmuomalalikda. Ayollar esa o‘zlarida bokiralik, muloyimlikni shakllantirishlari, hamisha o‘zinikini uqtirishga intilishdan qochishlari kerak. Jismoniy jihatlar uchun me’yoriy talablar jismonan komillika intilish, trenajyor zallar, fitnes klublarga borib turishga undovchi harakatlarda o‘z aksini topishi, ya’ni jismoniy sog‘lomlashish nuqtai nazaridan hayot tarzi psixologiyasini taraqqiy ettirish omillaridan iborat bo‘lmog‘i lozim. Tibbiy me’yoriy talablar - turli kasalliklarni erta va o‘z vaqtida aniqlashga intilish, ayniqsa nasldan naslga o‘tuvchi yoki ijtimoiy xastaliklar (tuberkulyoz, OIV/OITS, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklar)ni aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak [3]. Bu mmasalaga boshqa tomondan yondoshadigan bo‘lsak, ijobiy me’yoriy talablar bo‘lajak turmush o‘rtoqlarning o‘z salomatligiga mas’uliyatli bo‘lishga da’vat etishlari talab etiladi. Xo‘sh, muvaffaqiyatli oila qurish va sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirish me’yoriy talablarda belgilangan natijalarga qanday qilib erishish mumkin?

Hozirgi vaqtda hyech kimga sir emas, aholi o‘rtasida turli-tuman xastaliklarning (jumladan, ona va bolalarda) uchrab turishi odatdagi holga aylanib bormoqda. Holbuki, turli yoshdagi insonlarda kelib chiqayotgan yuzlab kasalliklarning oldini olish mumkin, buning uchun esa, aynan shu kassallikka

chalinayotganlar sog‘lom turmush tarziga rioya qilsalar, bas. Tibbiyot ilmidan ma’lumki, hyech bir dard, organizmda o‘zining oz bo‘lsada-da, salbiy izini qoldirmasdan o‘tmaydi. Shunday ekan, dunyoning barcha taraqqiy etgan mamlakatlaridagidek, yurtimiz aholisining kasalikka chalinmaslik choralarini ko‘rish - profilaktik medisinani kuchaytirish, keng omma ongiga sog‘lom turmush tarzi psixologiyasi tamoyillarini mukammal singdirish muhim ahamiyatga molikdir.

Bundan hali X asr avval, buyuk qomusiy olim, sharq tabobatining asoschisi, ulug‘ ajdodimiz Abu Ali ibn Sino, “Salomatlikni saqlashning asosiy mahorati inson hayoti uchun muhim bo‘lgan umumiy omillar mo‘tadilligini ta’minlashdan iboratdir” [1] - degan edi. Ushbu so‘zlar, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish lozimligini anglatadi. Bu esa, o‘ziga xos bilimni, saviyani va eng muhimi, oilaviy tarbiyani talab qiladi.

E’tiborli tamoni shundaki, barcha insonlar uchun mutanosiblikning va salomatlikning yagona chegarasi, o‘lchovi bir xil bo‘lishi mumkin emas. Har bir odam, o‘z konstitusiyasi, tana tuzilishi, salomatligi darajasi, organizmning ichki va tashqi imkoniyatlari, hattoki, oilaviy an’analardan kelib chiqqan holda o‘zi uchun sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini oqilona belgilay olish kerak. Bunda, aynan shu odam tug‘ilib o‘sgan, ulg‘aygan oilaning o‘rni juda kattadir.

Inson salomatligini muhofaza qilishda, organizmni chiniqtirishda harakatning (jismoniy tarbiyaning) ahamiyatiga alohida urg‘u bermaslik adolatsizlik bo‘lar edi: muntazam ravishda jismoniy (badan) tarbiya bilan shug‘ullanish, oqilona ovqatlanish, uyquni mo‘tadillashtirish hamda tanani toza-ozoda saqlash, nafaqat insonning jismoniy va aqliy jihatdan yaxshi rivojlanishi, balki uning uzoq umr ko‘rishini ham ta’minlaydi. Shuning uchun ham, jismoniy tarbiya va sport jamiyat, davlat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Zero, ham jismonan, ham aqlan sog‘lom bo‘lgan fuqarolardan tashkil topgan davlatning oilalari mustahkam, barcha jabhalardagi salohiyati yuksak bo‘lishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan, 25 dekabr 2020 yil, 18:00 siyosat.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016 yil 14 sentyabr. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 37-son, 426-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘grisida”gi Qonuni, 2008 yil.

4. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik saylanma. 1-jild. – Toshkent – 1992.

5. O.S.Qodirov. Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.

7. O.S.Qodirov, Sh.N.Xotamov. Ijtimoiy psixologiya // Darslik. - Samarqand, 2023.-360b.

8. https://president.uz/uz/lists/view/4057

ОБЛАЧНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ЧАСТЬ ОБУЧЕНИЯ ПРИ ПОДГОТОВКЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ ВЫСШЕЙ НАУЧНОЙ КВАЛИФИКАЦИИ КИТАЯ И РОССИИ

Фан Ицзе Аспирант Института психологии
и образования Казанского (Приволжского)
федерального университета г. Казань, Россия
e-mail: fangyijie777@gmail.com

Аннотация. Опыт использования облачных технологий, представленных в данной статье, может быть учтен в контексте потребностей современных иностранных аспирантов, проходящих обучение в российских вузах. Для иностранных обучающихся особенно важно внимание преподавателя к личным способностям студентов, учет языкового барьера, особенностей менталитета, специфики адаптации к учебному процессу. Реализации данных задач способствуют облачные технологии, которые обладают высоким эвристическим обучающим потенциалом и направлены на повышение качества профессиональной подготовки педагогических кадров высшей научной квалификации как Китая, так и России. Автором рассмотрены основные облачные технологии, определены области и перспективы их применения при обучении иностранных аспирантов.

Ключевые слова: облачные технологии, образование, обучение, аспирантура, вуз, иностранные аспиранты.

В настоящее время инновационные подходы к обучению с использованием облачных технологий получают значительное развитие в системе вузовского образования [1-3]. Их область применения расширяется; они все чаще используются при обучении иностранных студентов как на уровне бакалавриата, специалитета, так и на уровне обучения в аспирантуре. В настоящее время в российских вузах растет количество иностранных студентов и аспирантов, особенно из Китая [4].

Преимуществом применения облачных технологий является их наглядность, доступность, визуальное сопровождение, возможность интерактивного взаимодействия преподавателя и обучающегося в режиме реального времени. Причем, их использование значительно упрощает языковой барьер, способствует лучшему пониманию, погружению в предмет, формирует необходимую мотивацию. Тем более, облачные технологии необходимы будущим педагогам, которые останутся после обучения в аспирантуре для преподавания в вузе. Владение и успешное применение облачных технологий является сегодня важной частью подготовки квалифицированных педагогических кадров высшей научной квалификации.

Развитие информационных технологий, искусственного интеллекта привело к тому, что аспиранты из Китая, которые обучаются в России,

воспринимают облачные технологии в обучении как нечто естественное и органичное, поскольку они встроены в процесс как очного, так и дистанционного обучения. Дистанционное обучение в вузе сегодня проблематично представить без использования облачных технологий. Безусловно, существует разница в онлайн платформах, сервисах и программах, используемых для обучения в Китае и России. В силу этого важно ознакомить аспирантов из Китая при обучении в аспирантуре в России с совокупностью средств облачного обучения, которые применяются в образовании и служит средством достаточно простой адаптации аспирантов из Китая к специфике обучения в российских вузах.

Облачные технологии можно отнести к таким средствам образовательного процесса, которые позволяют аспиранту работать совместно с преподавателем в интегрированной, совместной среде посредством использования интернета. При этом данные хранятся в так называемом «облаке», отсюда и название данных технологий.

Рассмотрим основные виды современных облачных технологий, которые применяются в российских вузах при обучении аспирантов из Китая и служат основой квалифицированной педагогической подготовки.

К видам облачных технологий традиционно относят блоги, чаты, но особым эвристическим потенциалом при обучении в аспирантуре обладают чат-боты на основе искусственного интеллекта с поддержкой GPT. Как правило, они программируются на выполнение различных обучающих задач и могут помочь организовать материал как самим преподавателям аспирантуры, так и помочь аспирантам освоить его, особенно, если обучение в аспирантуре осуществляется на дисциплинах, предполагающих усвоение значительного объема информации.

Чат-боты на основе искусственного интеллекта с поддержкой GPT [4-5] при подготовке педагогических кадров высшей научной квалификации могут быть использованы для решения следующих задач:

1) Помощь при изучении материала, особенно на иностранном языке со встроенным переводом: они могут предоставлять аспирантам учебные материалы, переводя их на язык носителя в режиме реального времени, объяснять трудные научные категории, отвечать на возникающие вопросы, которые не требуют непосредственной обратной связи от преподавателя. Также здесь существуют настройки для предоставления индивидуальной учебной и даже психолого-педагогической поддержки для адаптации к уровню знаний и потребностям каждого аспиранта.

2. Онлайн-тестирование и оценивание: инструменты ИИ могут проводить онлайн-тестирование и оценивание промежуточных и итоговых знаний аспирантов по изучаемым в аспирантуре дисциплинам. Предоставление обратной связи на часто задаваемые вопросы сокращает учебное время, что позволяет более эффективно использовать ресурсы и обеспечивает доступность информации для аспирантов, позволяет преподавателю не тратить время на количественную обработку результатов

и оценок по дисциплине, а уделять время содержательному и глубокому погружению аспирантов в изучаемые темы.

В отличие от преподавателя, чат - боты на основе искусственного интеллекта с поддержкой GPT доступны круглосуточно и без выходных, что позволяет аспирантам получить доступ к учебным материалам в любое время и в любом месте. Это способствует непрерывному, самостоятельному обучению.

Не только в чат-боты, но и во все облачные сервисы, которые используются при обучении в аспирантуре, могут быть интегрированы образовательные игры, квизы, кроссворды, что делает обучение для иностранных аспирантов более увлекательным и интерактивным, способствует успешному освоению русского языка в формате свободного и непринужденного общения с преподавателем.

Чат-боты также играют важную роль в развитии словарного запаса иностранного аспиранта, что особенно актуально для аспирантов из Китая. Аспиранты, обучающиеся в российских вузах, могут расширить свой словарный запас, знакомясь с различными определениями и значениями сложных понятий, примерами использования слов, их синонимами. Они также могут предоставлять возможность для практики языковых навыков через диалог преподавателя и студента, служат основой педагогической подготовки самих аспирантов в качестве будущих преподавателей вуза.

К основным видам облачных технологий, которые могут помочь обучению аспирантов из Китая в российских вузах, помимо чат-ботов на основе искусственного интеллекта с поддержкой GPT, можно отнести нижеследующие:

Вид облачного образовательного инструмента	**Функции**
Zoom	Предоставляет услуги удалённой конференцсвязи с использованием облачных вычислений.
Quizizz	Помогает создавать викторины, квесты, тесты.
Plickers	Позволяет реализовать быструю обратную связь, мобильное голосование и фронтальные опросы по материалу.
LearningApps	Помогает создавать интерактивные упражнения для проверки знаний.
Online Test Pad	Позволяет создавать тесты, опросы и кроссворды, а также уроки и обучающие курсы.

Таблица 1. Облачные сервисы и их функции, которые используются для обучения аспирантов из Китая в современных российских вузах.

К облачным технологиям также относятся онлайн-доски, совместное создание с преподавателем словарей, кроссвордов и мини-игр. Облачные технологии повышают не только качество преподавания по предметам в аспирантуре, но и могут выявить слабые места в обучении, а также трансформировать образовательный процесс в прикладную сферу (проектную деятельность), интересную игру или интерактивное занятие. Применение данных облачных технологий и сервисов в образовательном процессе может привести к снижению использования на занятиях аспирантами большего количества отвлекающих факторов, таких как, например, социальные сети и мессенджеры. С помощью облачных технологий преподаватель может быстро, легко и качественно организовывать групповые проекты с аспирантами, обсуждение в аудитории, оказывая всестороннюю поддержку в среде онлайн-обучения, что будет способствовать повышению мотивации к учебе иностранных аспирантов.

Использование некоторых из приведенных выше сервисов является необходимой частью обучения при подготовке иностранных аспирантов со специализацией в области педагогики для решения разнообразных познавательных, практических и других задач по всем изучаемым дисциплинам в аспирантуре, а также для будущей профессиональной педагогической деятельности. Овладение инструментами и облачными сервисами обеспечивает формирование у аспирантов необходимых и легко усваиваемых знаний по дисциплине, закладывает основу успешной учебной деятельности и адаптации к обучению в вузах России.

Список литературы:

[1] Lang, James M. . 2020 Distracted : why students can’t focus and what you can do about it. New York: Hachette Book Group. 284 p.

[2] Gurung, Binod. 2017. Integration of cloud technologies in digitally networked classrooms and learning communities. Hershey, IGI Global. 328 p.

[3] Korucu, Agah Tugrul 2017 The Views of Teacher Candidates on Using Cloud Technologies in Education // International Journal of Higher Education, 6, pp. 84-96.

[4] Кононенко Е. И. Китайские гуманитарии в российской аспирантуре: ожидания и реалии // Управление наукой: теория и практика. 2025. Т. 7, № 1. С. 158–176. DOI 10.19181/smtp.2025.7.1.11. EDN OUDCHY

[5] Curzon, P. 2018. Computational thinking: des Welt des algorithmischen Denkens -- in Spielen, Zaubertricks und Rätseln. Berlin: Springer, 255 p.

[6] Zand, A 2019 The initial development of a Chat-Bot for inflammatory bowel disease (IBD) patients for use in e-health applications. In: Journal of Crohn’s and Colitis, V.13, № 20190125: p.24-34.

BOLALARDAGI GEMOTOLOGIK KASALLIKLAR VA ULARNING BOLA PSIXIK RIVOJLANISHIGA TA’SIRI.

Gadoyeva Dilnavo
SamDU psixologiya yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: PhD. **Islamova Dilafruz Bustanovna**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada gemotologik kasalliklarga chalingan bolalarning psixologik holati, ularning emotsional muammolari va ularga yordam ko‘rsatish usullari o‘rganiladi. Bu kasalliklarning kelib chiqish tarixi va davolash jarayonida psixologiyaning tutgan o‘rni yoritib berilgan.

Annotation:

This article explores the psychological state of children suffering from hematologic diseases, their emotional challenges, and methods of providing psychological support. It highlights the historical background of these diseases and the role of psychology in the treatment process.

Аннотация:

В данной статье рассматривается психологическое состояние детей, страдающих гематологическими заболеваниями, их эмоциональные проблемы и методы оказания психологической помощи. Освещается история возникновения этих заболеваний и роль психологии в процессе лечения.

Kalit so‘zlar: Onkologiya, gemotologiya, psixosomatika, somatopsixika, terapevtik o‘yinlar, ijtimoiy muhit va oila, art terapiya.

Ключевые слова: Онкология, гематология, психосоматика, соматопсихика, терапевтические игры, социальная среда и семья, арт-терапия.

Keywords: Oncology, hematology, psychosomatics, somatopsychics, therapeutic games, social environment and family, art therapy.

Hozirda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda bemorlarni davolashda 3 zanjirli bosqichdan foydalanishmoqda. Ya’ni shifokor-bemor-psixolog [1]. Shifokor va psixolog birgalikda, hamkorlikda bemorni davolash uchun harakat qilishadi. Bu esa bemor uchun ham ruhiy, ham terapevtik yordamning paydo bo‘lishiga va iloji boricha tezroq, yaxshiroq natija bilan tuzalishiga yordam berib kelmoqda. Onkologik bemorlarni davolashda ham psixologik xizmat ko‘rsatish o‘ta muhim jarayon shuningdek davolashning bir qismi desak ham bo‘ladi. Chunki o‘zida bunday kasallik borligini bilgan har qanday bola o‘zini qanchalar yaxshi tutmasin va qanchalar yomon tutsa ham ularga, albatta, psixolog yordami zarur bo‘ladi.

Gemotologik kasalliklarga (masalan, leykoz, limfoma, gemofiliya) chalingan bolalar nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham katta bosim ostida

bo‘ladilar. Bu kasalliklar uzoq davom etadigan, murakkab davolanish jarayonlarini talab qiladigan bo‘lib, bolalar va ularning oilalarida ruhiy-emotsional muammolar yuzaga keladi.

1. Bolalarning psixologik holati quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin: Qo‘rquv va xavotir: Bola o‘z kasalligini to‘liq anglamasa ham, doimiy davolanish, kasalxona muhitidan qo‘rqishi mumkin. Stress va tushkunlik holati: Uzoq muddatli kasallik tufayli do‘stlardan, oiladan, bog‘chadan, maktabdan ajralish stress keltirib chiqaradi. Yolg‘izlik hissi: Bola o‘zini boshqalardan ajratilgan deb his qiladi. O‘ziga ishonchsizlik holati: Tana o‘zgarishlari (soch to‘kilishi, holsizlanish) o‘zini past baholashga olib keladi.

2. Emotsional muammolar: G‘azab va norozilik: Bola kasallikka yoki davolanishga qarshi norozilik bildirishi mumkin. Charchoq va umidsizlik: Uzoq muddatli davolanish bolaning sabrini tugatadi, zerikish hayotdan qoniqmaslik kelib chiqadi. Aybdorlik hissi: Ba’zi hollarda bola kasallik uchun o‘zini aybdor his qilishi mumkin. (Bu albatta oila a’zolarining bolaga bo‘lgan emotsional munosabatlariga ham bog‘liq, masalan umidsiz, norozi qiyofalar va.b.) Kayfiyatning tez-tez o‘zgarishi: Dori vositalari va stress tufayli emotsional beqarorlik kuzatiladi. Tushkun kayfiyat, jahldorlik va boshqa.

3. Yuqoridagilardan kelib chiqib psixologik jihatdan quyidagi yordam ko‘rsatish usullarini keltirish mumkin:

A. Psixologik yordam: Bolalar doimiy ravishda psixolog nazoratida bo‘lishlari: Maxsus terapiyalar (Masalan; o‘yin terapiyasi, art-terapiya) orqali ichki his-tuyg‘ularni ifoda qilishga yordam berish kerak. Stressni boshqarish usullari: Nafas mashqlari, meditatsiya, vizualizatsiya usullari; Kasallik haqida bolaning yoshidan kelib chiqib tushuntirish kerak: Bolaning yoshi va tushunish darajasiga mos holda kasallik haqida gapirish kerak.

B. Oilaviy qo‘llab-quvvatlash: Ota-onalarga ham psixologik yordam ko‘rsatish. Bolani ruhlantirish, kuchli tomonlarini rag‘batlantirish. Oilaviy mehr va birdamlikni mustahkamlash.

C. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash:

Kasal bolalar uchun maxsus guruhlar yoki klublar tashkil etish. Maktab bilan bog‘liq faoliyatlarni imkon qadar davom ettirish (masofaviy ta’lim) va hokozolar.

Shuningdek bunday bolalar bilan psixologlar turli usullarda ishlashga harakat qilishlari lozim. Ayniqsa ularning ruhiy holati va kasallik darajasiga ko‘ra yondoshuv juda muhim. Umid va ishonch bu kasallikning eng dastlabki davolovchi vositasidur. Bolalar shifoxonalarda psixologik yordam faqat suhbatdan iborat bo‘libgina qolmasdan, guruhli suhbatlar, treninglar, bolalar bilan birgalikda turli xil tadbirlar ularning stereotipga aylanib borayotgan negative fikrlarinini chalg‘ituvchi barcha imkonyatlardan foydalanish zarur. Masalan oddiy o‘tirib-turish mashqlari ham psixologik taranglikni kamaytiradi. Nafaqat bemorning o‘ziga, balkim oila a’zolariga ham psixologik yordam ko‘rsatishni albatta inobatga olish zarur [2].

Oilaviy qo‘llab-quvvatlash psixologik yordamning ahamiyati beqiyos bo‘lib bolalar o‘z yaqinlarining, asosiysi, ota-onasining ko‘magiga juda ham muhtoj bo‘ladilar. Chunki bola psixologiyasi hali to‘liq shakllanib bo‘lmaganligi hamda ijtimoiy muhit bilan aloqasi kam bo‘lganligi uchun ushbu vaziyatni tushuna olmaydilar. Biroq shunday xarakterli bolalar ham bo‘ladiki, ular qanday ahvolda ekanligini to‘liq anglaydi hatto yaqin insonlariga dalda beradilar.

Shular bilan bir qatorda, yuqoridagilarni inobatga olgan holda kasalikka chalingan bolalar bilan ishlash jarayonida bir qator psixoterapevtik usullarda psixosomatika va somatopsixika yondoshuv hisoblanadi.

Psixosomatika - inson psixikasining tanaga va fiziologik jarayonlarga ta’siri. Somatopsixika - insondagi fiziologik jarayonlar hamda uning jismoniy holatiga ta’sirini o‘rganadi. Demak, har qanday kasallikni davolashda dastlab bemor psixologiyasi o‘rganib chiqiladi.

Misollar:

1. Amerika (St. Jude Children’s Research Hospital):

Kognitiv-behavioral terapiya yordamida onkologik kasallikka chalingan bolalarning stressga chidamliligi oshgan va ba’zilarida kasallikning klinik belgilarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan [3].

2. Turkiyada olib borilgan tadqiqot:

Terapevtik o‘yinlar yordamida kimyoterapiya oldidan stress darajasi kamaygani va davolanishga nisbatan ijobiy munosabat paydo bo‘lgani aniqlangan[4].

3. Venesueladagi leukemiya bilan og‘rigan bolalar ustida o‘tkazilgan tadqiqot:

Psixologik intervensiya immun tizim ko‘rsatkichlarini yaxshilagan — bu sog‘ayish jarayonini tezlashtirishga yordam bergan [5].

4. Hindistonda musiqa terapiyasi orqali olib borilgan tajribalar:

Og‘riq sezgisi kamaygan, qon bosimi me’yorga tushgan va bemorlarning kayfiyati yaxshilangan [6].

Shu bilan birga O‘zbekistonda ham ushbu mavzu dolzarb bo‘lib bu borada bir qancha ishlar amalga oshirilgan.

Ayrim onkologik markazlarda psixolog-stajyorlar va ixtiyoriylar tomonidan o‘yin terapiyasi, art-terapiya, musiqa terapiyasi tashkil qilinmoqda.

O‘zbekiston Psixologlari Assotsiatsiyasi ham ushbu yo‘nalishda loyihalar ishlab chiqmoqda (masalan, “Umid” loyihasi orqali saraton kasalligiga chalingan bolalar bilan ishlash tajribalari o‘tkazilmoqda). Ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar borasida tibbiyot institutlari (ToshPTI, Andijon TMI, Samarqand TMI) va Pedagogika universitetlarida bolalar sog‘ligi va psixologiyasi bo‘yicha magistrlik va doktorlik ishlarida ushbu mavzuga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

2022–2024-yillarda saraton kasalliklarining erta aniqlanishi va psixosotsial qo‘llab-quvvatlash masalalari bo‘yicha bir necha seminar va konferensiyalar o‘tkazilgan [7].

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gematologik va onkologik kasalliklarga chalingan bolalar katta ruhiy bosim ostida qoladilar. Ularning psixologik holatini o‘rganish va mos reabilitatsion dasturlar ishlab chiqish kasallikdan keyingi sifatli hayot kechirishlari uchun muhimdir.

Insonning ruhiy salomatligi uning jismoniy salomatligidan ustun turadi. Bolalar har qanday kasallikda ham tushkunlikka tushmasa ularning immun tizimi yanada kuchli bo‘lib boradi. Shuning uchun ham ular doimo ota-onalari va psixologning qo‘llab-quvvatlashlariga muhtoj bo‘lishadi. Bunday psixologik yordam nafaqat kasallik bilan kurashish jarayonida, balki, sog‘ayib ketganidan ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini yaxshilashda ham muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хавкин А.И. – Детская онкология.
2. Ulug‘bekova Zilola. Toshkent tibbiyot akademiyasi.
3. Kazak A.E. va boshq. (2006). Kognitiv-behavioral terapiya va onkologik kasalliklar. J. Pediatr. Psychol.
4. Yılmaz S., O‘z F. (2018). Terapevtik o‘yinlar va kimyoterapiya oldi stressi. J. Pediatr. Nurs.
5. Hernández R. va boshq. (2014). Psixologik intervensiya va immun tizim. Psycho-Oncology.
6. Bansal R. va boshq. (2019). Musiqa terapiyasining og‘riq va kayfiyatga ta’siri. Indian J. Palliative Care.
7. O‘zbekiston Respublikasi SSV ma’lumotlari.

NARKOMANIYA – IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Himmatov Jamshid Turdiqul O‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
60310900 – Psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi

Giyohvandlik ko‘p yillar davomida butun dunyodagi insonlar hayotiga jiddiy salbiy ta’sir qilib kelayotgan muammolardan hisoblanadi. Bu murakkab va rivojlanib boruvchi kasallik bo‘lib, ayrim yoshlar hayotining ko‘p jabhalarida jismoniy, ruhiy va hissiy iztirobga olib kelishi mumkin. Ko‘pincha uni yengish qiyin bo‘lib, tibbiy va psixologik davolanishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Narkomaniya (giyohvandlik) giyohvand yoki psixotrop moddaga qaramlikdan kelib chiqadigan kasallikdir. Hozirgi kunda giyohvandlik muammosi giyohvand moddalarning tarqalish tezligi, bozorda giyohvand moddalarning mavjudligi, ular hajmining ko‘payishi, sintetik psixoaktiv moddalar oqimi va bir vaqtning o‘zida bir nechta moddalarni iste’mol qilish

amaliyotining paydo bo‘lishi bilan kuchaymoqda. Giyohvand moddalar ta’sirida shaxs o‘zgarishining ijtimoiy omillari nafaqat giyohvandlarning o‘ziga, balki atrofdagi odamlarga va jamiyatga ham ta’sir qiladi.

Afsuski, keyingi yillarda tabiiy va sintetik narkotik moddalar iste’mol qiluvchi yoshlar, shaxslar butun dunyoda, shu jumladan respublikamizda ham ko‘payib bormoqda.

Giyohvandlikning oqibatlari juda keng bo‘lib, dastlab oila, uning a’zolariga, keyinroq jamiyat hayotiga ta’sir qilishi mumkin. Ularning sog‘liq bilan hamda shaxslararo munosabatlardagi muammolar, moliyaviy qiyinchiliklar hatto huquqiy masalalardagi muammolarga olib kelishi ehtimoli mavjud. Giyohvand moddalar iste’mol qilishga ruju qo‘ygan, ularga qaram bo‘lgan odamlar jamiyatda yashashlari qiyin bo‘ladi va atrofdagilarga ham xavf tug‘dirishlari ko‘p kuzatiladi. Shuningdek, ular o‘zgalar bilan masadga muvofiq, risoladagidek munosabatlar o‘rnatishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Giyohvandlik – addiktiv xulq-atvor shakllaridan biri bo‘lib, giyohvand moddalarga bo‘lgan qaramlikning rivojlanishi natijasida ularni doimiy ravishda iste’mol qilish hisoblanadi va qaramlik natijasida shaxs tuzilmasining tibbiy va ijtimoiy sohalarida patologik o‘zgarishlar namoyon bo‘ladi. Ushbu hodisa rivojlanishi bir necha bosqichlarga ega: giyohvand moddani ilk marotaba sinab ko‘rish, qidiruv va oxirgi – kasallikka o‘tish bosqichi. Kasallikning oxirgi bosqichi eng dahshatli va xavfli bo‘lib, u tananing barcha tizimlari ishdan chiqishiga olib keladi va chuqur ijtimoiy tanazzulni yuzaga keltiradi.

Addiktiv xulq-atvor muammosi bir necha bor ko‘plab olimlar tomonidan tadqiqot mavzusi sifatida o‘rganilgan. Ushbu turdagi xulq-atvor spirtli ichimliklar ichish, tamaki chekish, giyohvand moddalarga bo‘lgan, qolaversa, kompyuter o‘yinlariga qaramlik (igromaniya), qimor va ovqatga qaramlik xususiyatlarini namoyon qilgan shaxslarga xos xulq-atvor hisoblanadi. Biz esa tadqiqotimizda giyohvand moddalarga bo‘lgan qaramlikni yoritib bermoqchimiz.

Mamlakatimizning demografik xususiyatlarini inobatga olsak, muhim strategik nazariy va amaliy ahamiyatga ega masalalardan biri – bu, barkamol avlod tarbiyasini amalga oshirish vazifasi hisoblanadi. Hozirgi globallashuv davrida inson ongi va qalbi uchun kurash turli xil vosita va usullar bilan keskin olib borilmoqda.

Ushbu harakatlar bevosita yoshlarni ham qamrab olib, ularda ijtimoiy aloqalar doirasining torayishi, qadriyatlar mazmunining o‘zgarishi, salbiy xarakter xislatlarining rivojlanishi, bugungi kun bilan yashab, istiqbol haqida qayg‘urmaslik kabi salbiy jihatlar shakllanishiga olib kelmoqda. Natijada yoshlarda destruktiv ta’sirlarga tushish, addiktiv xulq-atvorning

namoyon bo‘lishi kabi hollar kuzatilmoqda. Bu borada xorij mamlakatlari tomonidan va shu jumladan respublikamizda ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ushbu muammoning kelib chiqishiga qaratilgan ijtimoiy-psixologik omillar, statistik, huquqiy va hududiy xususiyatlar har tomonlama o‘rganib kelinmoqda.

G‘.B.Shoumarov, E.G‘oziyev, V.M.Karimova, N.S.Safayev, B.M.Umarov, R.S.Samarov, Z.T.Nishonova, N.A.Sog‘inov, T.Malikova, A.X.Yugay, S.M.To‘ychiyeva, D.X.Qarshibayeva, G.K.To‘laganova, U.D.Qodirov, X.A.Qodirova, X.A.Ruhiyeva, Z.F.Kamaletdinova, E.Quljonov, N.Komilova, K.Farfiyeva, Sh.F.Mustafayeva kabi O‘zbekiston va Rossiya psixolog olimlarining fikricha ong, xulq va xarakter mikro va makro muhitdagi faoliyat orqali boshqariladi.

Shu jumladan, addiktiv xulq-atvor natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik muammolarni tahlil qilishda F.V. Bassin, D.Karnegi, E.Shostrom, A.Maslou, P.M. Granovskaya, E.Bern, I.A. Nevskiy, Z.A.Astemirov, V.N.Myasищyev, K.Ye.Igoshev, L.M.Zyubin, A.Buryak, Ye.N.Volkov, G.G.Bochkareva, E.B.Melnikova kabi bir qator xorij olimlari tadqiqotlar, izlanishlar olib borishganligini ta’kidlash lozim.

Zamonaviy ilm-fanda giyohvandlikka addiktiv nuqtai nazardan yondashish, uning deviant xulq-atvor shakllaridan biri ekanligiga ham tobora katta ahamiyat berilmoqda.

Bugungi kunda giyohvandlik muammosining bir necha jihatlari mavjud:

1. Muammoning ijtimoiy jihati *(giyohvand moddalarni iste’mol qiluvchi inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning murakkabligini anglash);*

2. Iqtisodiy jihat *(giyohvand moddalarga qaramlikning rivojlanishi mehnatga bo‘lgan motivasiya va ishlash qobiliyatining susayishiga olib keladi; giyohvand moddalar savdosini kamaytirish va narkomaniya bilan kasallangan bemorlarni davolash uchun davlat hisobidan ko‘p miqdorda mablag‘ sarflanadi, ammo bu yetarlicha natijalarga olib kelmaydi);*

3. Demografik jihat *(ko‘p hollarda erkaklar giyohvand bo‘lish ehtimoli yuqoriligi sababli narkomaniya tug‘ilish sonining qisqarishiga ta’sir qiladi va yolg‘iz ayollar va to‘liq bo‘lmagan oilalar sonining ko‘payishiga olib keladi);*

4. Axloqiy jihat *(qadriyatlarning axloqiy asoslari asta-sekin yo‘q bo‘lib boradi, giyohvand moddalarga bo‘lgan ehtiyoj yashashning asosiy mazmuniga aylanadi, hayotning qadr-qimmati ikkinchi darajali va ahamiyatsiz bo‘lib qoladi);*

5. Siyosiy jihat *(giyohvandlik muammosi davlatning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, mamlakat rivojlanishiga jiddiy to‘siq bo‘ladigan muammolar sirasiga kiradi);*

6. Xalqaro jihat *(giyohvandlik jinoyatchilik bilan bog‘liq munosabatlarning globallashuviga olib keladi, bu esa alohida mamlakatlar yoki mintaqalar siyosatiga salbiy ta’sir qiladi);*

7. Tibbiy jihat *(davolash va reabilitasiya hamda profilaktika nuqtai nazaridan narkomaniyani davolash yetarli darajada samarali emas).*

Umuman olganda, giyohvandlik zararli hodisa sifatida jamiyatning barcha ijtimoiy jabhalariga kirib boradi va ta’sir qiladi. Bu ayanchli hodisa bo‘lib, har qanday yoshdagi shaxslar unga duch kelishi mumkin, eng qo‘rqinchlisi esa yoshlarning giyohvandlikka moyillgidir. Shuning uchun, biz yoshlarni giyohvand moddalar qabul qilishining psixologik sabablarini tahlil qilish lozim.

Yoshlarni giyohvand moddalar qabul qilishining psixologik sabablari quyidagilar:

1. Emosional sustlik, tajovuzkorlik va murosasizlik, zaif adaptiv qobiliyat, shaxslararo samarali muloqot qila olmaslik;
2. Qiziquvchanlik;
3. O‘smir uchun ideal bo‘lgan kattalarning salbiy namunasi;
4. Yaqinlari va oila a’zolarining o‘smir muammolari bilan bog‘liq vaziyatga aralashmasligi (bu ham o‘smirlarning giyohvand moddalarni qabul qilishidav bilan tanishishida rol o‘ynaydi. Yoshlar ko‘pincha bunday vaziyatlarda o‘zlarini keraksiz his qilishadi va o‘zlarini shu tarzda namoyon etishga harakat qilishadi).

Giyohvandlikni davolash ko‘pincha ko‘p qirrali faoliyatni, dori-darmonlar, psixologik terapiya va ijtimoiy yordam majmuasini o‘z ichiga oladi. Dori-darmonlar giyohvand vositalar qabul qilishga nisbatan ishtiyoqni kamaytirishga yordam beradi, psixologik terapiya, psixologik yordam esa odamlarga o‘z xatti-harakatlarini o‘zgartirishga, to‘g‘ri o‘zanga yo‘naltirishga va giyohvandlik bilan kurashishni o‘rganishga ko‘maklashadi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash insonlarga turmush tarzini ijobiy tomonga o‘zgartirish va ularning tiklanishi, reabilitasiyasiga yordam berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarni giyohvandlikka berilishiga chek qo‘yish uchun o‘z vaqtida kerakli bo‘lgan profilaktik ishlarni amalga oshirish zarur. Profilaktika – yoshlar giyohvandligiga qarshi kurashishda juda katta ahamiyatga ega va uni uch bosqichga ajratish mumkin:

- birinchi bosqich - giyohvandlikning boshlang‘ich bosqichlaridan ogoh bo‘lish va tegishli chora-tadbirlar qo‘llash;

- ikkinchi bosqich - kasallikning rivojlanishiga chek qo‘yish hamda asoratlari haqida shaxsni ogohlantirish;
- uchinchi bosqich – bemorga kompleks reabilitasiya choralarini qo‘llash.

Ta’kidlanganidek, giyohvandlik jiddiy muammo bo‘lib, uni hal qilish uchun kompleks yondashuv talab qilinadi. Giyohvandlikka mubtalo bo‘lganlar, sintetik va tabiiy narkotik moddalarni iste’mol qiluvchi yoshlarga nisbatan alohida munosabatda bo‘lish, narkotik moddalar qabul qilishga ruju qo‘ygan yoki potensial giyohvand bo‘lish xavfi mavjud yoshlar, shaxslarga tibbiy, psixologik, ijtimoiy-psixologik, pedagogik, huquqiy va boshqa yo‘nalishlarda yordam ko‘rsatish hozirgi vaqtda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib borayotgan masalalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Березин С.В., Лисецкий К.С., Назаров Е.А. Психология наркотической зависимости и созависимости. Монография. – М.: МПА, 2001.
2. Гульдан В.В., Корсун А.М. Поиск впечатлений как фактор приобщения подростков к наркотикам//Вопросы наркологии. 1990.
3. Гульдан В.В., Романова О.Л., Корсун А.М., Шведова М.В. Эмоционально-когнитивный диссонанс в структуре представлений школьников о наркомании и токсикомании // Психологические исследования и психотерапия в наркологии. Л.: Изд-во «Ленингр. психоневрологического ин-та». 1989.
4. Qodirov O.S. “O‘smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi” // Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. T.: 2020, - 155 b.
5. Кодиров О.С. *Социально-психологические проблемы мотивации в зарубежной психологии.* // Вестник интегративной психологии. 2023. Выпуск 30 часть 2.- Ярославль – 2024. - С. 170-174.
6. Qodirov O.S. O‘smirlarda jinoyatlarni oldini olishda huquqiy tushunchalarni rivojlantirish. // «Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti Ilmiy axborotnomasi» buxpxti.uz 2024. №5 (9). Buxoro – 2024. Б. 160-164.
7. Qodirov O.S. Yangi O‘zbekistonda tarbiyasi qiyin insonlar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari. // Ta’limda istiqbolli izlanishlar. – 2024. № 4, Buxoro – 2024. Б. 20-22.
8. Qodirov O.S. Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
9. Qodirov O.S., Xotamov Sh.N. Ijtimoiy psixologiya//Darslik. - Samarqand, 2023-346b.

（Samarkand） Intelligent Technology Enables Pre-service Teacher to Practice Teaching Mode Reconstruction and Reform Practice Taking the Future Teacher Core Literacy Cultivation Project of Liaoning Normal University in China as an Example

HUANG QINGSHUANG

Abstract: As a strategic pivot of global teacher education reform, practical teaching is an important part of high-quality pre-service teacher training. Innovating the practical teaching mode and improving the effectiveness of practical teaching are the key to promoting the quality of talent cultivation in normal universities. Taking the Future Teacher Core Literacy Cultivation Project at Liaoning Normal University in China as an example, this study focuses on the era background and practical demands of empowering normal students with intelligent technology for practical teaching reform. Through technologies such as artificial intelligence, virtual reality, and big data analysis, a virtual reality integrated practical teaching field is constructed, including the construction of a human-machine collaborative practical teaching environment, the establishment of an intelligent teaching platform, the development of multimodal learning resources such as virtual simulation experiments for “Future Teacher Core Literacy Cultivation”, and the formation of a collaborative education community. By building an intelligent technology enabled MVS model for practical teaching of pre-service teacher and conducting five rounds of practice among undergraduate pre-service teacher. Pre-service students have significantly improved their core literacy as teachers.This project aims to enhance the core literacy of pre-service teacher by deeply integrating the advantages of intelligent technology and innovating practical teaching models. In order to provide reference examples for global teacher education practice and teaching reform, and to provide high-quality resource supply for promoting the high-quality development of global teacher education.

Keywords: intelligent technology; Pre service teachers; Practical teaching; artificial intelligence; virtual reality

（Самарканд） Интеллектуальная технология позволяет преподавателям дослужебного образования практиковать реконструкцию и реформирование режима преподавания

Хуан Циншуан

Abstract: Как стратегический стержень глобальной реформы педагогического образования, практическое обучение является важной частью высококачественной дослужебной подготовки учителей.

Инновационные методы практического обучения и повышение эффективности практического обучения являются ключом к повышению качества выращивания талантов в обычных университетах. В данном исследовании на примере проекта по развитию базовой грамотности будущих учителей в Ляонинском нормальном университете (Китай) рассматриваются исторические предпосылки и практические требования к расширению возможностей студентов нормальных университетов с помощью интеллектуальных технологий для реформы практического обучения. С помощью таких технологий, как искусственный интеллект, виртуальная реальность и анализ больших данных, создается интегрированное поле практического обучения с виртуальной реальностью, включая создание совместной человеко-машинной среды практического обучения, создание интеллектуальной платформы обучения, разработку мультимодальных учебных ресурсов, таких как виртуальные симуляционные эксперименты для «Культивации основной грамотности будущего учителя», и формирование совместного образовательного сообщества. Построив модель MVS с поддержкой интеллектуальных технологий для практического обучения будущих учителей и проведя пять раундов практики среди студентов-старшекурсников. Этот проект направлен на повышение уровня базовой грамотности преподавателей путем глубокой интеграции преимуществ интеллектуальных технологий и инновационных моделей практического обучения. Для того чтобы предоставить справочные примеры для глобальной практики педагогического образования и реформы преподавания, а также обеспечить высококачественное ресурсное обеспечение для содействия высококачественному развитию глобального педагогического образования.

Ключевые слова: виртуальная реальность; искусственный интеллект; интеллектуальные технологии; практическое преподавание; учителя дослужебного образования

（KAZAN） The Formation Mechanism and Cultivation Path of Digital Literacy for primary and secondary school teachers

HUANG QINGSHUANG

Abstract: Improving teachers’ digital literacy has become a core issue in the professional development of teachers in the digital age. As the main body of basic education reform, the development of digital literacy of primary and secondary school teachers is related to the effectiveness of future digital education strategies. The generation of digital literacy among primary and secondary school teachers has gone through five non-linear progressive development stages: recognition, demand, shaping, internalization, and creation. The root causes of the

difficulties affecting the generation and development of digital literacy among primary and secondary school teachers are uneven digital environment configuration, poor policy implementation effectiveness, insufficient vitality for school reform, and insufficient endogenous driving force for teacher digital literacy development. Based on this, it is proposed to strengthen the construction of digital environment, rely on technological innovation in teacher digital literacy training mode, enhance the digital leadership of principals, activate the endogenous driving force of teacher digital literacy self-development, and provide direction for the generation and development of digital literacy for primary and secondary school teachers.

Keywords: Primary and Secondary school teachers; Digital literacy; Formation mechanism; Cultivation Path

（KAZAN） Механизм формирования и путь развития цифровой грамотности учителей начальной и средней школы

Хуан Циншуан

Аннотация: Повышение цифровой грамотности учителей стало основным вопросом в профессиональном развитии учителей в цифровую эпоху. Развитие цифровой грамотности учителей начальной и средней школы, являясь основной частью реформы базового образования, связано с эффективностью будущих стратегий цифрового образования. Формирование цифровой грамотности у учителей начальной и средней школы прошло пять нелинейных этапов развития: признание, потребность, формирование, интернализация и создание. Коренными причинами трудностей, влияющих на формирование и развитие цифровой грамотности среди учителей начальной и средней школы, являются неравномерная конфигурация цифровой среды, низкая эффективность реализации политики, недостаточная жизненная энергия для школьной реформы и недостаточная эндогенная движущая сила для развития цифровой грамотности учителей. Исходя из этого, предлагается усилить построение цифровой среды, опираться на технологические инновации в режиме обучения цифровой грамотности учителей, усилить цифровое лидерство директоров, активизировать эндогенную движущую силу саморазвития цифровой грамотности учителей и обеспечить направление для формирования и развития цифровой грамотности учителей начальной и средней школы.

Ключевые слова: Учителя начальной и средней школы; цифровая грамотность; механизм формирования; путь развития

BUGUNGI KUNDA TUTINGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILAYOTGAN AMALIY ISHLARNING IJTIMOIY - PSIXOLOGIK MAZMUNI

Islamova Dilafruz Bustanovna
Sharof Rashidov nomidagi SamDU
Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti
Amaliy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi (PhD) dotsenti

Tayanch so‘zlar: integratsiya, reablitatsion-tarbiyaviy, psixokorreksion-rivojlantiruvchi, tarbiyaviy, agressivlik, tajovuzkorlik, tashvishlanish, qo‘rquv holatlari, ishonch, mehr-oqibat, samimiylik, g‘amxo‘rlik.

Annotatsiya: Maqolada ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ishlashning amaliy jihatlari yoritilgan bo‘lib tutingan oilalarga qabul qilingan tarbiyalanuvchilarda shakllangan tajovuzkor ko‘rinishlarni kamaytirishga va ijtimoiylashuvini taminlashga qaratilgan psixokorreksion-psixoprofilaktik dastur Ijtimoiy - psixologik maslahat ishlarining natijalari ko‘rsatib berilgan.

Annotatsiya: В статье рассматриваются практические аспекты работы с детьми, оставшимися без попечения родителей, а также представлены результаты социально-психологического консультирования по психокоррекционно-психопрофилактической программе, направленной на снижение агрессивного поведения и обеспечение его социализации у детей, принятых в приемные семьи.

Abstract: The article examines the practical aspects of working with children left without parental care, and also presents the results of social and psychological counseling under a psychocorrectional and psychoprophylactic program aimed at reducing aggressive behavior and ensuring its socialization in children accepted into foster families.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentyabrda qabul qilingan “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishning muqobil shakllarini tanlash, oila institutini mustahkamlash hamda ijtimoiy etimlikning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-sonli Qarorida yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar o‘rtasida keng ko‘lamli ma’naviy-ma’rifiy va huquqiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish zarurligi alohida ta’kidlab o‘tilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu nuqtai-nazardan, ota – ona qaramog‘idan qolgan bolalarni oilaga joylashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, har bir bolaga ko‘rsatilayotgan mehr-e’tibor, g‘amxo‘rlik ertangi kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi hammamiz uchun tushunarlidir.

Bugungi kunda ana shunday bolalarga ijtimoiy - psixologik xizmat ko‘rsatish dunyoning deyarli barcha davlatlarida tarbiyaviy nuqtai nazardan ancha e’tiborli o‘rinni egallab kelmoqda. Bolalarga psixologik xizmat ko‘rsatish

faoliyatida bola bilan aloqa o‘rnatish, ishonchli munosabatlarni shakllantirishga doir quyidagi trening mashqlaridan foydalanishimiz mumkin;

A). “Men kimman” mavzusida kirish suhbatini o‘tkazish:

Kirish suhbatiga doir psixologik trening — bu yangi suhbatga kirishish, ota – ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan samimiy aloqalar o‘rnatish, ular bilan o‘zaro tushunish va moslashish uchun zarur bo‘lgan psixologik ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan, ularni ichki dunyosi – ruhiyatini o‘rganadigan treningdir. **Suhbatning maqsadi** - ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar psixologiyasi, ichki dunyosidagi noadekvat holatlarni oldini olish, korreksiyalash va integratsiyalashuvidan iborat bo‘ladi. Quyida **“Men kimman” mavzusida** kirish suhbatini o‘tkazish tartibi keltirilgan:

1. Suhbatga tayyorgarlik

Suhbatdan oldin, o‘zini qanday tutish va suhbatga qanday kirish kerakligini o‘rganish juda muhim. Suhbat ochiq va samimiy bo‘lish lozim.

2. Suhbat uchun tegishli muhit yaratish.

3. Suhbatdoshni diqqat bilan tinglash. Bu faqat gapirish emas, balki diqqat bilan eshitish, so‘zlarni va tana tilini tushunish, savollar berish orqali bolaning fikrlarini chuqurroq tushunishga intilishdir. Bu ko‘nikma suhbatda to‘g‘ri reaktsiyalarni beradi va bolalar o‘zlarini qadrlanganini his qilishadi.

4. Suhbatda emotsional intellektini rivojlantirish. Suhbatda nafaqat aqliy, balki emotsional jihatlarni ham hisobga olish muhim. Suhbatdoshning kayfiyatini sezish va unga mos reaktsiyalar bildirish zarur.

Emotsional intellektning o‘rganilishi natijasida yetim va ota ona qaramog‘isiz qolgan bolalarda;

- O‘z his-tuyg‘ularini boshqarish
- Boshqalar his-tuyg‘ulariga sezgirlik bilan yondashish
- Suhbatdagi kuchli yoki zaif tomonni aniqlash kabi hislar shakllantiriladi.

5. O‘z-o‘zini anglash. Suhbatda o‘z fikrini aniq va samarali tarzda ifodalash ham juda muhimdir. Bu nafaqat o‘z fikrini boshqalarga tushuntirish, balki suhbatsiz bo‘lish va boshqalarga ta’sir o‘tkazish qobiliyatini rivojlantiradi.

Bunda o‘rganiladigan jihatlar;

- O‘z fikrini qisqacha va aniq ifodalash
- Tanqidiy fikrlarni muloyim va samimiy tarzda bildirish
- O‘z nuqtai nazarini boshqalar bilan muvozanatli ravishda baham ko‘rish.

6. Empatiya. Empatiya — bu boshqa odamning hissiyotlari, nuqtai nazarini tushunish va ularga mos reaktsiya ko‘rsatish qobiliyatidir. Empatiya, asosan, suhbatdoshning his-tuyg‘ularini hurmat qilish va qayg‘ulariga e’tibor berishdir. Empatiya rivojlantirishda o‘rganiladigan jihatlar:

- Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarning holatini va his-tuyg‘ularini tushunish.
- O‘z fikrini bolalar nuqtai nazariga moslashtirish.

- O‘zini bolalarning o‘rniga qo‘yib, ularning muammolarini tushunishga harakat qilish.

7. Suhbatni boshqarish. Suhbatni boshqarish, u qanday davom etishini nazorat qilishni anglatadi. Agar suhbat maqsadga yetkazmaydigan yo‘nalishda borayotgan bo‘lsa, uni qayta yo‘naltirish yoki to‘xtatish zarur.

Suhbatni boshqarish ko‘nikmalari:

- Suhbatni izchil va tartibli olib borish.
- Yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarni hal qilish.
- Suhbatni maqsadga muvofiq boshqarish va to‘xtatish.

8. Suhbatni xulosa qilish.

Suhbat oxirida, eng muhim jihatlarni xulosa qilib, kelajakdagi faoliyatni belgilab olish kerak. Bu kelajakdagi hamkorlik va aloqalarning samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Xulosa qilishda o‘rganiladigan jihatlar:

- Suhbatning asosiy nuqtalarini takrorlash.
- Kelgusi harakatlar bo‘yicha aniq takliflar qilish.
- O‘zaro kelishuvni ta’minlash.

Xulosa

Kirish suhbatiga doir psixologik treninglar ota-ona qaramog‘isiz qolgan bollalarning shaxsiy va jamiyatga integratsiyalashuvi uchun juda muhim. Ular yordamida bolalar o‘zaro aloqalarda samarali bo‘lish, yaxshi munosabatlar o‘rnatish va hayotdagi ko‘plab vaziyatlarga moslashish qobiliyatini rivojlantiradilar. Har bir bola uchun moslashuvchan va samarali suhbatni olib borish uchun yuqoridagi ko‘nikmalarni o‘zlashtirish katta yordam beradi.

B).”Mening do‘stlarim” mavzusidagi suhbat. Ota-ona qaramog‘idan mahrum qolgan bolalar bolan ishlashda, ularni hayotga integrarsiyalashuvlarida, kommunikativligini shakllantirishda hissiy tajribalarini inobatga olinishi lozim. **“Mening do‘stlarim”** mavzusidagi suhbat orqali bolalarga do‘stlikning ahamiyati, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro ishonch hissi shakllantiriladi;

Suhbatning maqsadi:

- Bolalarning ijtimoiy ko‘rinishini rivojlantirish.
- Ularning o‘zaro ishonch hissini kuchaytirish.
- Do‘stlikning qadrini va ahamiyatini anlab yetishlari uchun imkon yaratish.
- Bolalar orasida iliq, samimiy munosabatlar o‘rnatishni tashkil etish.

Suhbat jarayoni:

1. **Kirish: Tanishtirish va suhbatga kirishish (5-10 daqiqa)**
   - Psixolog bolalarga tabassum bilan murojaat qiladi va ular bilan suhbat uchun zamin hozirlaydi
   - **SAVOL;** “Bugun biz juda qiziqarli mavzuni muhokama qilamiz. Biz do‘stlik haqida gaplashamiz. Siz uchun do‘st kim, nima uchun do‘stlar kerak, deb o‘ylaysiz?”
2. **“Do‘st” tushunchasini aniqlash (10-15 daqiqa)**
   - Bolalarga savollar bilan murojaat qilinadi:
     - Do‘st sirdosh bo‘la oladimi nima deb o‘ylaysiz?

- Oilada yaqin do‘st kim bo‘lishi mumkin?
- Bog‘cha, maktab, mahalla va boshqa muhitda yaqin do‘stingiz (sirdoshingiz) bormi? Kimlar?
- Yaqin do‘st(laringiz) ga “Sir” laringizni ayta olasizmi?
- Nima uchun?

3. **O‘yin: “Mening do‘stim qanday?” (10-15 daqiqa)**

Ishtirokchilardan doira ko‘rinishida o‘tirib olishlarini taklif qilinadi va koptokni bir birlariga uzatish orqali “Do‘st”likning ijobiy va salbiy jihatlarini aytish taklifi kiritiladi. Kerakli joylarda ishtirokchilar fikrlariga qo‘shimcha tarzda Mutaxassis fikrlar ijobiyligini taminlab boradi.

4. **Muloqot: “Do‘stlik xizmati” (15-20 daqiqa)**

Bolalarga do‘stlik haqida turli hikoya va misollar keltiriladi va bolalar bilan muhokoma qilinadi:

Hikoya. Ikki Do‘st

Bir zamonlar, kichik bir qishloqda Alisher va Bahodir ismli ikki yaxshi do‘st yashar edi. Ular bolaligidan birga katta bo‘lib, har doim bir-birlariga yordam beradi, dardlarini bo‘lishar edi. Bir kuni ular uzoqdagi o‘rmonga sayohatga chiqishga qaror qilishdi. Ular o‘rmon kirib kirib, qushlar say’ini eshitib, xushbo‘y gullarni hidlab xush yurishar edi. Lekin birdaniga o‘rmonning qalin qismiga yetib kelishdi va yo‘lni yo‘qotib qo‘yishdi. Atrof juda tushib’i va sirli edi. Shu payt, ular oldida katta va vahimali bir ayiq paydo bo‘ldi. Bahodir ayiqni ko‘rib qo‘rqib ketdi va yaqin atrofda katta daraxtni ko‘rib, unga tez chiqib ketdi. Ammo Alisher daraxtga chiqishni bilmas edi. U o‘ylanib, bir lahza ichida o‘lik bo‘lib qolishni tanladi. Ayiqlar o‘lgan odamga tegmaydi, deb eshitgan edi. Alisher yerga yotib, nafas olishni to‘xtatdi. Ayiq unga yaqinlashib, hidlab ko‘rdi, lekin uni o‘lik deb o‘yladi va. Bahodir daraxtdan tushib, do‘stining yoniga keldi.

— Alisher, ayiq senga nima dedi? — deb kulib so‘radi Bahodir.

Alisher esa jiddiy ohangda javob berdi:

— Ayiq menga do‘st hech qachon oson yolg‘iz tashlab ketmasligini aytdi.

Bu so‘zlar Bahodirni o‘ylantirib qo‘ydi. U do‘stiga yordam bermagani uchun o‘zini yomon his qildi va kechirim so‘radi. Alisher unga kulib qaradi va dedi:

— Do‘stlik bu faqat yaxshi kunlarda emas, balki qiyin paytlarda ham birga bo‘lishdir.

Bahodir bu so‘zlardan saboq oldi va ulardan keyin do‘stiga hech qachon xiyonat qilmadi. Ular yana do‘st bo‘lib, birga sayohat qilishdi va ko‘plab yangi sarguzashtlarni boshdan kechirishdi.

Hikoyadan:

Haqiqiy do‘st qiyin kuningizda ham yoningizda bo‘ladi va har qanday holatda yordamga keladi va sizni hech qachon tashlab qo‘ymaydi.

Yakunlash: “Mening yangi do‘stlarim” (5-10 daqiqa). Bolalarga o‘rtalaridagi yangi do‘stlikni imkoniyatlar uchun kichik topshiriq beriladi:

- “Yaqin orada kim bilan do‘st bo‘lish” mumkinligini o‘ylab ko‘rish aytiladi!
- Har bir bolani qo‘llab-quvvatlab va ular orasida yangi do‘stlik aloqalarini o‘rnatishga yordam beriladi.

Bolalar bilan turli xil jamoaviy o‘yinlar yordamida ularni birgalikda ishlash, o‘zaro yordam, mehr-oqibat, bolalarning ijtimoiy aloqalarini rivojlantirishga yordam beriladi. Ular o‘zlarini do‘stga nisbatan ijobiy his qilib, yangi do‘stlar orttirish mumkinligini anglashlariga imkon yaratiladi.

C.) “Hikoyalar chizish” mashqi. Ota-onasiz qolgan bolalar uchun rasm chizish bolalarning ichki holatini yaxshilash, his-tuyg‘ularini ifodalash va o‘z-o‘zini anglash uchun juda qulay. “Hikoyalar” mashqlari mutaxassis yordamida bolalarga o‘zlarini rasm va hikoyalarni qog‘ozga tushirish orqali nomoyon etadilar.

Mashqning maqsadi:

- Bolalarga o‘z hissiyotlarini ifoda etish.
- Bolalarning ijodiy fikrlari.
- Ularning ichki qo‘rquvlarini, yoki quvonchlarini qayg‘ularini ifodalashlari.
- Bolalar orasida’ qollab-quvvatlash va hamjihatlik tuyg‘usini yaratish.

Kerakli materiallar:

- Qog‘ozlar (rangli yoki oddiy oq qog‘ozlar)
- Turli rangdagi qalamlar, guaj
- O‘chirg‘ich

Mashqning bosqichlari:

1. Kirish (5-10 daqiqa)

- Psixolog bolalarga o‘z hayotlariga yuz bergan biror bir muhim voqea haqida so‘raydi.
- Psixolog bolalarga hikoyani muhokama qilishda yordam beradi. Mavzularni taklif qilish mumkin.

2. Mavzuni belgilash (10-15 daqiqa)

- Psixolog bolalarga o‘z hayotlariga ta’sirli iz qoldirgan muhim voqeani qog‘ozga tushirishlarini so‘raydi

3. Chizish jarayoni (20-30 daqiqa)

- Bolalarga 20-30 daqiqa chizish uchun vaqt beriladi. Psixolog bolalarni har bir chizgan rasmli hikoyalarini sababini so‘raydi; Bolalardan u kim? Nega bunday o‘tiribdi? Nimalar haqida o‘ylayabdi? Kabi savollar bilan murojaat qiladi va individual psixokorreksion va psixokompensatsion ishlarni olib boradi.

4. Hikoyani aytib berish (10-15 daqiqa)

- Har bir bola o‘zi chizgan hikoyasi bo‘yicha gapirib beradi
- Psixolog tinglash davomida ularning hissiyoti va fikrlarini aniqlashga harakat qiladi.
- Savollar bilan ularni qo‘shimcha ma’lumot berishga undaydi
- “Nega bu joyni tanlading?”, “Bu qahramon nima qilmoqda?”, “Bu rasmda o‘zingni qanday his qilyapsan?”

5. Yakuniy suhbat (5-10 daqiqa)

- Psixolog bolalarni bir-birlariga yaxshi so‘zlar aytishga va rasm uchun minnatdorchilik bildirishga rag‘batlantiradi.

Maslahatlar:

- Jarayon davomida har bir bolaga individual maslahatlar berib boradi. Bolalarni hikoyasini aks ettirishda foydalangan ranglarini inobatga oladi.
- Bolalar bir-birlarini tanqid qilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Mashq ijobiy muhitda o‘tishi kerak.

D). “Men ko‘ryapman..” Mashqi.

Maqsad:

- Bolalarda diqqatni rivojlantirish
- Ijodiy fikrlash va kuzatuvchanlikni tarkib toptirish
- Jamoa ichida o‘zaro muloqot, ijtimoiylashuv va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga mo‘ljallangan.

Ishtirokchilar

- 5 yoshdan 16 yoshgacha 10 nafar bo‘lgan bolalar (guruh miqdori 8-12 bo‘lishi mumkin).

Kerakli materiallar:

- Rasmli voqea asosidagi kartichkalar
- Rangli qog‘ozlar, ruchkalar yoki qalamlar

1. Kirish qismi (10 daqiqa)

- Ishtirok bilan tanishish va qiziqarli savollar yordamida muloqot o‘rnatish.
  - Savollar:
- **“Men ko‘ryapman...”** o‘yini.
  - Bolalarga navbat bilan “Men ko‘ryapman, u qizil rangda, yumaloq va stol ustida turibdi” kabi jumlalarni aytish taklif qiladi.

2. Asosiy qism (20-30 daqiqa)

Mashq 1: “Rasmni ol”

Bolaga bu qanaqa rasm unda nima tasvirlangan? Bu qayer? Bu rasmda qanday voqealar yub bermoqda yoki yuz bergan? Kabi savollar bilan murojaat qilinadi.

Maqsad: Bolalar boshdan kechirgan, kuzatgan hodisalarini nomoyon etadilar.

Mashq 2: “Muloqot ko‘zi”

- Ikki boladan biri ko‘zlarini yumadi, unga qandaydir predmetni ta’riflaydi (masalan, rangini, shaklini). Ko‘zi yumuq bola esa bu predmetni paypaslab ko‘rib tarifga ko‘ra topishi kerak bo‘ladi.

Mashq 3: “Bir daqiqalik vaqt”

- Bolalarga xonada 1 daqiqa vaqt beriladi va ular xonani kuzatib chiqishlari kerak bo‘ladi.
- So‘ng, bolalarga xonadagi narsalar haqida savollar (masalan, “Devorda qanday rasm bor” edi, “Stolni ustida nima bor” edi, “Rangi qanaqa”, “Burchakda nima bor” edi kabi) bilan murojaat qilinadi.

3. Yakuniy qism (10-15 daqiqa)

Bolalar bilan trening yakuni haqida suhbat. Bolalardan trening asosida nimani ko‘rganliklari va qanday his-tuyg‘ularni boshdan kechirganliklarini aytishlarini so‘raladi. Har bir bolaga e’tibor berib kechinmalari tahlil qilinadi. (vaziyatdan kelib chiqib individual ham bo‘lishi mumkin.) Bolalarda jamlash va kuzatuvchanliklarini rivojlantiradi, diqqat bilan, o‘z his-tuyg‘ularini ifoda qilishda o‘ziga bo‘lgan ishonch shakllanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki tutingan bolalar ijtimoiy integratsiyalashuvining qiyin bosqishlarida oilaga va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga professional yordam ko‘rsatish muhim bo‘lib, hozirgi kunda tutingan oila va bolaga professional yordam ko‘rsatish uchun zamonaviy ilmiy bilimlarga asoslangan jiddiy amaliyotni talab qiladi va bolani farzandlikka olish hamda tarbiyalash shakllarini tashkil etishni taqozo etadi, ular orasida psixologik yordam ko`rsatish guruhi, redagogik mahoratga tayanish, ular bilan individual ishlash amaliyoti hozirgi zamonaviy tutingan oilalarda yuzaga kelayotgan muammo sabablarini (omillarini) aniqlash hamda mavjud muammolarni o`z vaqtida hal qilish imkoniyatlarini ta’minlaydi.

TA’LIM JARAYONIDA O‘SMIRLARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANISHI

Israilov Faxriddin O‘skin o‘g‘li
SamDU Amaliy Psixologiya
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar ongiga mustaqillikni mustahkamlash, xalqi bilan faxrlanish, vatanparvarlik ruhini shakllantirishda — pedagog-o‘smir, tarbiyachi-tarbiyalanuvchi munosabatlarida mamlakatda ozod va obod Vatanni, erkin va farovon hayotni barpo etish bevosita o‘smir-yoshlarga bog‘liqligi haqida tushunchalar berib o‘tilgan. Buni amalga oshirish uchun esa ta’lim jarayonida ularning jamiyat taraqqiyoti va ravnaqini ta’minlash, shuningdek, yoshlar tomonidan dunyoviy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi fanlar asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj hamda qiziqishni shakllantirish ham nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik, ta’lim-tarbiya, o‘smirlik, pedagog, yoshlar, vatan tuyg‘usi, tarbiyachi, idrok qilish, ko‘rgazmalilik.

Аннотация: В данной статье дается понимание того, как построение свободной и процветающей Родины, свободной и благополучной жизни в стране напрямую зависит от подростков и молодежи, в плане укрепления независимости, гордости за свой народ, формирования духа патриотизма - во взаимоотношениях воспитателей и подростков, педагогов и учащихся. Для достижения этого образовательный процесс призван обеспечить развитие и процветание своего общества, а также сформировать

потребность и интерес к овладению основами наук, которые важны для основательного усвоения светских знаний молодежью.

Ключевые слова: Патриотизм, образование, юность, педагог, молодежь, патриотизм, воспитатель, восприятие, эксгибиционизм.

Annotation: This article presents the concepts of strengthening independence, pride in one’s people, and patriotism in the minds of young people - in the relationship between a teacher and a teenager, an educator and an educator - that building a free and prosperous homeland, a free and prosperous life in the country directly depends on adolescents. To achieve this, it is envisaged to ensure the development and prosperity of their society in the educational process, as well as to form the need and interest in mastering the basics of sciences that are important for the thorough assimilation of secular knowledge by young people.

Key words: Patriotism, education, adolescence, pedagogue, youth, patriotism, educator, perception, exhibitionism.

Ta’lim-tarbiya tizimidagi islohotlar boshlangan dastlabki yillarda jahon tajribasi va hayotda o‘zini ko‘p bor oqlagan haqiqatdan kelib chiqib, O‘zbekistonda ta’lim tizimining asosiy maqsad va mohiyatidan kelib chiqib shuni e’tirof etish mumkinki, yoshlar ongiga mustaqillikni mustahkamlash, xalqi bilan faxrlanish, vatanparvarlik ruhini shakllantirishda — pedagog-o‘smir, tarbiyachi-tarbiyalanuvchi munosabatlarida mamlakatda ozod va obod Vatanni, erkin va farovon hayotni barpo etish bevosita o‘smir-yoshlarga bog‘liqligini tushuntirishdir. Buni amalga oshirish uchun esa ta’lim jarayonida ularning jamiyat taraqqiyoti va ravnaqini ta’minlash, shuningdek, yoshlar tomonidan dunyoviy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi fanlar asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj hamda qiziqishni qaror toptirishga e’tibor qaratish lozim.

Darhaqiqat, istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo‘lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma’rifat sirlarini o‘rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan minglab o‘quvchilar, katta hayotga yo‘llanma olayotgan, o‘z iste’dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlari misolida ana shunday orzu-intilishlari bugunning o‘zida o‘z hosilini berayotganining guvohi bo‘lmoqdamiz. Eng muhimi shundaki, “portlash effekti”ning haqiqiy mohiyati va ahamiyati vaqt o‘tishi bilan, tobora kamol topayotgan sog‘lom va barkamol avlodning hayotga tobora ildam kirib borishi bilan yanada yaqqolroq seziladi.

Ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan, ushbu ulkan ishlar ko‘lami va mohiyatiga ko‘ra o‘smir, yoshlarimizda o‘z yurti, vatani, oilasi uchun fidoiy

bo‘lgan ma’naviy barkamol inson bo‘lib voyaga etishlari yo‘lida mustahkam zamin yaratadi. O‘smirlik yoshining o‘ziga xos xususiyatlari o‘qituvchilardan ularga nisbatan jiddiy munosabatda bo‘lish lozimligini taqozo qiladi.

O‘qituvchilar, tarbiyachilar, sinf raxbarlari dastavval shuni chuqur anglashlari lozimki, jinsiy yetilish organizmning jismoniy taraqqiyotga ta’sir qilishdan tashqari o‘smirning psixik taraqqiyotiga ham albatta ta’sir qiladi.

O‘smirlarda jinsiy yetilish munosabati bilan shu paytgacha ularga noma’lum bo‘lgan va qandaydir ma’noda ular uchun kutilmagan jinsiy moyillik va tegishli fikrlar, xislar, kechinmalar, qarama- qarshi jinsga spetsifik qiziqish, ma’lum mazmundagi kitoblarga, kino filmlarga, kattalarning gaplariga bo‘lgan qiziqishlarning paydo bo‘lishi mutlaqo zarur, tabiiy va me’yoriy holdir. O‘smir shaxsining takomillashuvi va shakllanishiga turtki bo‘lgan omillardan biri o‘quv faoliyati motivlaridagi sifat o‘zgarishlardir. O‘smir endi faqat bilimlar tizimiga ega bo‘lish, o‘qituvchining maqtovini eshitish va «5» baholarni ko‘paytirish uchun emas, balki tengqurlari orasida ma’lum ijobiy mavqeni egallash, kelajakda yaxshi odam bo‘lish uchun o‘quv motivlari ustuvor bo‘lib boradi, lekin o‘quv faoliyati motivlari orasida bilish, yangi bilimlarga ega bo‘lish motivi kuchsiz bo‘lgani sababli, ular maktabga borgisi kelmaydi, o‘qishga og‘rinib kelib, salbiy xis tuy- g‘ular va xavotirlik xislarini boshdan kechiradi. Kattalar tomonidan o‘smirning yurish turishi, xulqiga javob berish talab qilinadi. O‘smirga uning ilgari qondirilib kelinayotgan ehtiyoj va xohishlari endi qondirilmasligi, ularning ko‘pidan voz kechish lozimligi uqtiriladi. O‘smir qiyinchilik bilan bo‘lsada, o‘zining yangi mavqeini tushuna boshlaydi, o‘z xulqini o‘zgartirib unga moslasha boradi.

Dastavval ta’lim faoliyatini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan sifatlar (mehnatsevarlik, matonat, diqqatlilik, tirishqoqlik) anglana boshlanadi. Undan so‘ng boshqa kishilarga bo‘lgan munosabatlarni ifodalovchi sifatlar (o‘rtoqlik xissi, mehribonlik, vazminlik, qaysarlik xissi) anglanadi. Undan ham keyin o‘z-o‘ziga nisbatan bo‘lgan munosabatlarni ifodalovchi sifatlar (kamtarlik, o‘z-o‘zini tanqid qilish, maqtanchoqlik, takabburlik) anglanadi. Nihoyat, shaxsning ko‘p tomonlama munosabatlarni ifodalovchi murakkab sifatlar (burch xissi, qadr-qimmat va vijdon xissi, maqsadga intilish xissi) anglanadi.

Vatanparvarlik ruhini tarbiyalashda o‘smirlarda emotsional tuy- g‘ularni shakllantirishga imkon beradigan xis etiladigan, ko‘rgazmali materialning ahamiyati kattadir. Ushbu jarayonida faol, uyushgan rejali idrok qilishning, kuzatishning ahamiyati katta. O‘quvchilarda vatan haqidagi tushunchalar shakllanar ekan atrofdagi konkret predmetlar va xodisalarni, ularni atrofida yashayotgan insonlar hayoti ularning fidokorona mehnatining tasvirini ko‘zdan kechiradilar. konkret tasavvurlarga ega bo‘ladilar. Psixologik nuqtai nazardan predmetli, tas’viriy, so‘z ko‘rgazmaliligi farq qiladi. Aynan shu bois predmetli ko‘rgazmalilik o‘quvchilarning narsa va xordisalarini bevosita idrok qilishlarini mukammlashtiradi. Sinfda o‘tkaziladigan tajribalar, ekskursiyalar ham shunga kiradi.

Tasviriy ko‘rgazmalilik-tasviriy vositalar rasmlar, diopozitivlar, kinokartinalar yordamida amalga oshiriladi. Tasviriy vositalarning xarakteriga qarab ko‘rgazmalilik haqiqiy tasviriy ko‘rgazmalilikka (narsa va xodisalarning haqiqiy tasviri) va simvolik ko‘rgazmalilikka (kartinalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diogrammalar) bo‘linadi. So‘z ko‘rgazmaliligi deganda o‘qituvchining o‘quvchilarda konkret tassavvurlarni uyg‘otadigan erkin, obrazli erkin nutqi tushiniladi. Biroq psixologik kuzatishlar va eksperimentlar shuni ko‘rsatmoqdaki, xissiy idrok qilish abstrakt tafakkurning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Kuzatuvchanlikni tarbiyalash faol uyushgan, aniq maqsadga muvofiq sistemali kuzatish ko‘nikmasini tarbiyalash sifatida juda muximdir. O‘qituvchi kuzatishni tashkil qilar ekan o‘quvchilar oldiga aniq va muayyan bir maqsadni qo‘yadi, kuzatishni yo‘lga soladi, detallarni ajratib ko‘rsatishni mazkur obyektni boshqa obyektlar bilan taqqoslashni va nomuxim belgilarni ajratib ko‘rsatishni tavsiya etadi. O‘quvchilarga kuzatish natijalarini so‘z yoki ko‘rgazmali tarzda qayd qilishini o‘rgatish muxim ishdir. Hozirgi davr o‘smir–yoshlarida vatanparvarlik ruhini shaklantirish sohasida psixologlar oldida turgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

O‘smir yoshlar vatanparvarlik ruhini shakllantirish muamosini o‘rganishda ijtimoiy yondashish lozimligi. Ularning ijtimoiy qarashlariga, xulqiga, qiziqishiga emotsional xolatlari .extiyojlari va boshqa jihatlarini tadqiq etishda muayyan ijtimoiy davr, shart- sharoitlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib baxo berish talab qilinadi. Masalan, hozirda jadal shakllanayotgan bozor munosabatlari sharoitida yoshlarning ijtimoiy qarashlari, qiziqishlari va yuzaga kelayotgan muammolar avvalgi davr, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdagiga nisbatan o‘zgarib, yangicha mazmunga va xususiyatlarga ega bo‘lmoqda.

O‘smir-yoshlarning o‘ziga xos turmush tarzini taxlil qilishda ularning oilaviy munosabatlari hayot kechirish tarzi, yosh davrining rivojlanishini nazariy va empirik jixatdan o‘rganish.

Har bir o‘smirning jamiyatimzning to‘laqonli a’zosi ekanligini esda tutgan xolda vatanparvarlik ruhini shakllantirish bo‘yicha olib boriladigan tar- g‘ibot tashviqot ishlarni amalga oshirish zarurati ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. O‘smir-yoshlarning vatanparvarlik ruhini tarkib topishida, ko‘p jihatdan ta’lim tizimining sifat katta ahamiyat kasb etadi .

Yosh avlodni har jihatdan rivojlanib borishini tahlil qilish. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitni, muxitni o‘zgarishi oqibatida avlodlar o‘rtasida doimo muayyan rivojlanish ro‘y beradi. Shu sababli, keksa avlod bilan yoshlar o‘rtasida o‘zaro ziddiyat vujudga keladi. Ko‘pincha, yoshlarning manfaat va qiziqishlari, faoliyati tashqi ko‘rinishi (moda) keksa avlodda norozilik, e’tiroz tug‘diradi.

o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishda o‘smirlarning yoshi, tafakkuri, dunyoqarashi va qiziqishlarini hisobga olish;

ta’lim-tarbiyaning il g‘or, ta’sirchan vositalaridan, zamonaviy o‘qitish texnologiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish;

ta’lim jarayonida tazyiq o‘tkazmasdan ma’rifiy asosda ish tutish, yoshlarning mustaqil va erkin fikrlash, bahs-munozara yuritish ko‘nikmalarini oshirishga e’tibor qaratish;

2. Ново-методные и русско-туземные школы (конец XIX — начало XX в.)

Ново-методные школы («усул-и-джадид»). С 1901 г. в Пишпеке, Пржевальске, Токмаке и Оше внедрялись ново-методные принципы: звуковой метод чтения, классно-урочная система и расширенная программа (арифметика, естествознание, история России и Востока). Финансирование осуществляли местные аристократы и татарские просветители (И. Гаспринский и др.), учебные пособия печатались в Казани и Уфе.

Русско-туземные школы. С 1884 г. создавались школы для «туземцев» при поддержке Министерства народного просвещения Туркестанского края.

К 1916 г. в регионе функционировало 16 таких учреждений с 750 учащимися (56 девочек), готовивших переводчиков, писарей и младших служащих.

Первое церковно-приходская школа появилось в 1874 году в Караколе, где уже в 1875 году при нём была организована ученическая квартира для кыргызских детей. В 1876 году аналогичное начальная школа начало работу в Оше, в 1879 году — в Пишпеке, а в 1880 году — в Токмаке и Беловодске. Издание «Правил о церковно-приходских школах» в 1884 году стало стимулом к расширению сети этих учебных заведений: к концу XIX века в Пишпекском и Пржевальском уездах действовало 23 приходские школы с общим контингентом около 1 500 учащихся.

3. Советская система подготовки педагогов (1918–1991)

С установлением Советской власти началась глубокая реорганизация образования. В 1925 г. открыт в Бишкеке Институт народного просвещения (позже — Педагогический техникум). В1932 г. реорганизован в Кыргызский государственный педагогический институт. В 1935–1952 гг. были открыты филиалы в Оше, Караколе и Фрунзе.

К концу 1980-х гг. — в республике функционировали пять педагогических вузов; вечерние и заочные отделения ежегодно переподготавливали сотни учителей. К середине 1980-х доля педагогов с высшим образованием превысила 60 %.

4. Независимый Кыргызстан и Болонский процесс (1991–н. в.)

После обретения независимости в 1991 г. Кыргызстан вступил в Болонский процесс, внедрили двухуровневую систему «бакалавр – магистр», мультиязычные стандарты (кыргызский, русский, иностранные языки), курсы поликультурной компетентности, образовательных технологий и поддержки детей с ОВЗ, дистанционное и смешанное обучение, а также государственную и международную аккредитацию программ.

Заключение

Историческая преемственность педагогического образования в Кыргызстане — от мектебов и медресе через ново-методные и русско-туземные школы, советскую систему массовой подготовки и современную Болонскую модель — свидетельствует об умении адаптировать международные практики с учётом национальных традиций. Этот опыт служит основой для создания сбалансированных программ подготовки педагогов, способных сочетать культурную идентичность и инновационные подходы в эпоху глобализации.

Список использованной литературы:

1. Закон Кыргызской Республики «Об Образовании», статья 16. г.Бишкек, от 30 апреля 2003г.

2. Очерки по истории педагогики / М.Р.Рахимова, Т.В.Панкова, А.Т.Калдыбаева – Бишкек, 1998. 400с.

3. Асанканов А., Маанаев Э., Усупова Н. Кузница педагогических кадров. История Кыргызского государственного педагогического университета им. И. Арабаева. Бишкек, 2002. 80 с.
4. Болджурова И.С. Образование в Кыргызстане: история, проблемы и достижения. Бишкек, 2018. 164 с. Курманали К.М. Проблемы и перспективы развития высшего педагогического образования в современном Кыргызстане. Бишкек, 2012. 165 с.
5. Супатаева Э.А. О подготовке педагогических кадров в Кыргызстане // Вестник Иссык-Кульского университета. 2016. № 42. С. 1-4.
6. Айтмамбетов Д. Культура киргизского народа во второй половине XIX – начале XX века. Фрунзе, 1967.
7. Алимова Д. А. Джадидизм в Средней Азии. – Ташкент: Узбекистон, 2000.
8. Джуманалиев А. Политическая история Кыргызстана. – Бишкек, 2005.
9. Кубатова А. Кыргызстандагы жадидчилик кыймылы. – Бишкек, 2012.
10. Мамытов С. Кыргызско-татарские литературные связи второй половины XIX – начало XX вв. – Бишкек, 1999
11. Измаилов А.Э. Очерки по истории советской школы в Киргизии за 40 лет {1917-1957 гг.). Ф., 1957.

O‘ZBEK OILALARI FUNKSIYALARI VA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH

Murtazayeva Shahloxon Muzaffar qizi
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti doktaranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek oilalari funksiyalari va yoshlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash masalalari yoritilgan. Shuninig uchun ham oila jamiyatning boshlang‘ich yacheykasi sifatida bolalarning axloqi, yurish-turish, xatti-harakati, e’tiqod va dunyoqarashiga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishi hamda ularni turmush qurishga tayyorlab borishi lozim.
Kalit so‘zlar: Yoshlar, ma’naviy-axloqiy, jismoniy barkamol, ta’lim-tarbiya, maktab psixologiyasi, psixologik xizmat, er-xotin, ota-onalar, farzandlar.

ФУНКЦИИ УЗБЕКСКОЙ СЕМЬИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА МОЛОДЕЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация: В данной статье описаны функции узбекской семьи и вопросы подготовки молодежи к семейной жизни. Именно поэтому семья,

как первичная ячейка общества, должна оказывать воспитательное воздействие на нравственность, поведение, поведение, убеждения и мировоззрение детей, готовить их к браку.

Ключевые слова: Молодежь, духовно-нравственная, физическая подготовленность, образование, школьная психология, психологическая служба, пара, родители, дети.

FUNCTIONS OF UZBEK FAMILIES AND PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF YOUNG PEOPLE FOR FAMILY LIFE

Abstract: This article describes the functions of Uzbek families and issues of preparing young people for family life. That is why the family, as the primary unit of society, should have an educational impact on children’s morals, behavior, behavior, beliefs and outlook, and prepare them for marriage.

Key words: Youth, spiritual and moral, physical fitness, education, school psychology, psychological service, couple, parents, children.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va zamonaviy namunali oila mezonlarini hayotga joriy etish maqsadida «Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi [10] Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 820-son Qarori qabul qilindi. Qarorga binoan zamonaviy oilaning namunali shaklini hamda “Oila — muqaddas”, “Sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat”, “Oila — jamiyat va davlat himoyasida” va “Farovon oila — jamiyat ravnaqining asosi” konseptual g‘oyalarini nikohlanuvchilarning ongiga singdirib borish choralari ko‘rilmoqda.

Oila jamiyat ijtimoiy tuzumining birlamchi bo‘g‘ini bo‘lib, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila-murakkab ijtimoiy guruh. U biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi, shu sababli oilalar birlashib, jamiyatni tashkil etadi.

Mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yanada mustahkamlashning muhim sharti sifatida oilalarda sog‘lom ma’naviy muhitni, xususan, o‘zaro hurmat-ehtirom, er-xotin o‘rtasida, ota-onalar bilan farzandlar, qaynona-kelin o‘rtasida, qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasida mehr-oqibat ruhini yaratish, qiz bolalarni - bo‘lajak onalarni - jismonan sog‘lom va intellektual rivojlangan tarzda shakllantirish, ularning akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida albatta ta’lim olishini, zamonaviy bilimlar va kasb-hunarlarga ega bo‘lishlarini ta’minlash, ularning hayotda munosib o‘rinni egallashlarida, kelajakda sog‘lom va mustahkam oila qurishlarida asosiy shart hisoblanmish mustahkam hayotiy pozitsiyani va mustaqil fikrlashni shakllantirish yoshlarni hayotga qiziqishini orttirib, komil inson bo‘lishlariga yordam beradi.

«Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda sizlarning g‘ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko‘nglim tog‘day ko‘tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida qadrlayman», - dedi Shavkat Mirziyoev “Yoshlar forumidagi va ma’naviyat haqidagi” nutqining avvalida.

«Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo‘l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g‘ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o‘z oldimizga ulkan marralar qo‘yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar». Hozirgi zamon oilasi “monogam” oilalardan iborat. Yosh avlod hayotining ko‘p qismini o‘z oilasida o‘tkazadi. Shu boisdan bola turmushning murakkab tomonlari bilan xuddi shu ota-ona maskanida tanishadi. Shuninig uchun ham oila jamiyatning boshlang‘ich yacheykasi sifatida bolalarning axloqi, yurish-turish, xatti-harakati, e’tiqod va dunyoqarashiga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishi hamda ularni turmush qurishga tayyorlab borishi lozim. Oiladagi mavjud an’analar, urf-odatldar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta’sirida yigit va qizlar asta-sekin kamol topib boradilar.

Hozirgi zamon oilasidagi an’analar va turli marosimlarnig ijobiy ta’siri kuchli bo‘lib, xalqimizning o‘zoq o‘tmishidagi ahloqiy hislatlarini ifodalovchi mehmondo‘stlik, insonparvarlik, xushfe’llik, iltifotlilik, bolajonlik, uy va hovlini ozoda saqlash, bog‘u-rog‘lar barpo etish, xalq sayillari va mavsumiy bayramlarini birgalikda o‘tkazishda o‘z ifodasini topadi. Psixologik muhit - bu guruhdagi, kolllektivdagi kishilarning psixologik holati, kayfiyati, munosabatlarini yig‘indisidir. Psixologik muhitlar juda ko‘p, ammo ularning barchasini ikki kategoriyaga, qulay va noqulay kategoriyalarga bo‘lish mumkin. Gruppa yoki kollektiv muhiti quyidagilar bilan aniqlanadi: gruppa yoki jamoa uchun tashkil qilingan o‘qish, mehnat faoliyatining har qanday turida qoniqqanlik, xodimlar va rahbarlar bilan bo‘lgan munosabatlarda - o‘zaro bir-birini tushunishdan, barqaror kayfiyat, emotsional holat, har kimning emotsional muvaffaqiyatining darajasidan jipslashganlikdan kollektiv a’zolarni boshqarish va o‘z-o‘zini boshqarishdagi ishtirokidan, faoliyat natijasidan qoniqqanlidir.

Oiladagi psixologik muhit – boshqa har qanday gruppada bo‘lgan qonunlardan tarkib topadi. Biroq oilada ish birmuncha murakkabroqdir. Unda kishilar o‘z hayotining ko‘proq qismini o‘tkazadi. Ular bir-birlari bilan ko‘proq samimiy tuyg‘ular va munosabatlar orqali bog‘langandir. Oila baxtining asosida oilaning psixologik muhiti yotadi. Oilaning psixlogik muhitiga er-xotinlarning ham, umuman kishilarga ham oila a’zolariga va bir-birlariga bo‘lgan munosabatlari ta’sir qiladi.

Sotsialog-psixologlar baxtli va baxtsiz oilallarda o‘ziga va xotiniga bo‘lgan munosabatlarning xususiyalarini aniqlaganlar. Ular qiziqarli faktlarga ega bo‘ldilar. Oiladagi psixolgik muhit er-xotin qiziqishlarining umumiyligi bilan xarakterlanadi, eng muhimi ularning ikkalasi ham qiziqish bilan hisoblasha bilishlarida va e’tibor bera bilishlaridadir. Er-xotin katta ijtimoiy muammo va talablar bilan yashaydigan oilalargina baxtli bo‘lishlari mumkin.

Oiladagi qulay axloqiy-psixologik muhit er-xotin va oilaning boshqa a’zolarida o‘ziga ishonish, kishilarga ishonish, quvnoqlik, vazminlik kabi fazilat va tuyg‘ularni shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik muhit kishilarning muvofiqligida yanada aniq namoyon bo‘ladi. Kishilar bir-birlari bilan muvofiqligi, avvalo hayotning qadri, qiziqishlari, emotsional ko‘rsatmalarining umumiy tarzi hamoxangligi nazarda tutiladi, natijada oilada bir-birini tushunish, boshqalarning qadrini ham, shuningdek insonni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qiladi. Oila a’zolarida psixologik qulaylik ishonchlilik, himoyalanish, bir-birining muomalasidan qatnoatlanish muvofiqlikning ichki mubyektiv ko‘rsatgichidir.

Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa hisoblanadi. Har bir oilaning ichki huquqiy, iqtisodiy munosabatlariga xech kim behuda aralashishga haqli emas.Shu sababdan oila muqaddas va daxlsiz hisblanadi. Ramzli qilib aytilganda, oila o‘ziga xos kichik bir muxtor davlatdir, lekin oila jamiyat tashqarisida emas, oilaviy munosabatlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy va ma’naviy munosabatlar bilan belgilanadi.

O‘zbekistonda har bir oila, har bir insonning turmush farovonligi, fuqarolar totuvligini mustahkamlashga qaratilgan, ularni huquqiy muhofaza qilishga qaratilgan jarayon amlagaoshirilmoqda. Har bir oila har bir mehnatkash tinch-totuvlik va to‘kin-sochin yashasa respublikamiz ozod va boy bo‘ladi, gullab yashnaydi. Ota-onalar va bolalar har taraflama jipslashgan oila birligini tashkil etadi. Ular o‘rtasida juda yaxshi oilaviy munosabatlar mavjuddir, bu shaxslar oilaning yadrosini ya’ni o‘zagini tashkil etadi.

O‘zagining ijtimoiy mazmuniga qarab, oila 3 ta guruhdan tashkil topadi:

1. Oilaning asosi – nikoh
2. Nikohning natijasi sifatida er-xotin
3. Er-xotin munosabatlari oqibatida farzand

Tipik oilaviy munosbatlardan tashqari bolali yolg‘iz ona bilan uning bolasi o‘rtasidagi boshqa qarindoshlar o‘rtaisdagi munosabatlar, ba’zi hollarda farzandlikka olingan, tarbiyaga olinganlar o‘rtasidagi munosabatlar ham oilaviy munosabatlarni tashkil etadi.

Oilaviy huquqiy munosabatlar jamiyatning tarqalgan munosabatlaridir. Oilaviy munosabatlar axloqiy normalar bilan tartibga solinadi.

- Sinovdagi oila – birga yashaydi, lekin nikohdan o‘tmagan
- Rasmiylashtirish arafasidagi nikoh
- Nikohdagi oila
- Nikohdan tashqari oila

Har bir oila ijtimoiy tizim sifatida jamiyat oldida ma’lum bir funksiyalarni bajaradi, oilaning ijtimoiy funksiyalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta’sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o‘rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) funksiyalarini hisobga olish lozim. Oila quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulyativ (boshqaruv).

Shuningdek, oila funksiyalarini: bolalarni dunyoga keltirish, xo‘jalik-maishiy, tarbiyaviy, oila a’zolari dam olishi va uni tashkil etish, ma’naviy muloqot, seksual, tarbiya jarayonidagi hamkorlik, uy xo‘jaligini yuritish uchun zarur vositalarni ta’minlash, o‘zaro moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash kabilardan iborat ekanligini ta’kidlovchi klassifikasiyalar ham mavjud. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, oilashunos mutaxassislar tomonidan oilaning asosiy funksiyalari turlicha klassifikasiya qilinmoqda.

Yoshlar tarbiyasi bilan shug‘ullanishda oila, ta’lim muassasalari bilan bir qatorda mahallaning ham o‘rni muhimdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev «Mana shunday murakkab sharoitda yoshlarimiz sezgir va ogoh bo‘lishi, har bir masalada, avvalo Vatan manfaatlarini o‘ylab ish tutishi zarur. Ilm-ma’rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma’naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning qonida bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak.

Shu o‘rinda men hurmatli ota-onalar, bobolarimiz va momolarimizni, jonkuyar ustoz va murabbiylarni, muhtaram ziyolilarimiz, keng jamoatchiligimizni bu masalaga befarq bo‘lmasdan, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan ishlarimizni yanada kuchaytirishga da’vat etaman.

Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta’sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo‘lishingiz kerak. Xalqimizning ma’naviy qudrati va boqiy an’analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz» - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Xulosa qilib aytganda, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish yoki jazo choralarini kuchaytirish bilan jinoyatchilikni butunlay bartaraf etib bo‘lmaydi. Eng muhimi yoshlarning bilim olishi, mehnat qilishi bilan bog‘liq muammolarni ijobiy hal etishi, huquqiy, pedagogik va psixologik tarbiyani kuchaytirish yo‘li bilan ko‘zlagan maqsadimizga erishishimiz mumkin.

Davlatimiz rahbari forumda yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega ekanini alohida ta’kidladi.

- Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha – hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur. Har qaysi hokim, har bir vazir, har qaysi mahalla raisi “Bugun men yoshlar uchun nima ish qildim? Ertaga farzandlarimiz manfaati uchun yana nima ish qilishim kerak?” degan savollarga javob beradigan, shunday e’tiqod bilan yashaydigan vaqt keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilgan maruza. T., Xalq so‘zi, 2020 yil dekabr.
2. Sh.M.Mirziyoev “Yoshlar forumidagi va ma’naviyat haqidagi” nutqidan 25 dekabr 2020 yil, 18:00 Siyosat.
3. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019 yil 7 may.
4. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2021 y., 09/21/253/0390-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021 y., 07/21/73/1227-son).
5. O.S.Qodirov. Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
6. O.S.Qodirov, Sh.N.Xotamov. Ijtimoiy psixologiya // Darslik.- Samarqand, 2023.-360b.
7. https://president.uz/uz/lists/view/4057
8. httpuza.uzposts186773
9. WWW: UZA.UZ>society>1-iyun-khol-aro-b...
10. https://lex.uz/ru/docs/-5193551?ONDATE2=05.04.2022&action=compare

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ЛИЧНОСТИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Мустафаев Азамат Муртазаевич,
Начальник отдела по борьбе с
терроризмом Службы оперативного
расследования РОВД Ургутского района

Аннотация. *В данной статье рассмотрены аспекты предпринимательской деятельности и личностно-профессиональные характеристики в контексте экономической психологии.*

Ключевые слова*: экономика, инновация, деятельность, предпринимательство, психология, фактор, мотивация, конкуренция, развитие.*

Abstract. *This article examines aspects of entrepreneurial activity and personal and professional characteristics in the context of economic psychology.*

Key words: *economics, innovation, activity, entrepreneurship, psychology, factor, motivation, competition, development.*

Современные исследования в области психологии предпринимательства являются одним из приоритетных направлений экономической психологии.

В настоящее время быстро накапливается информация, охватывающая различные аспекты психологии предпринимательства. В то же время в психологии предпринимательства теоретические и эмпирически обоснованные концепции, демонстрирующие и указывающие на специфику предпринимательской деятельности, составляют меньшинство.

От российских ученых В.Автономов, В.Асеев, Т.Заславская, В.Радаев, Дж.В. Масликова, Ю.В.Щербатых, Г.Л. Бардье, Е.В. Беловы провели ряд исследований в области экономической психологии, включая предпринимательскую коммуникацию и психологию управления.

На основе анализа литературы выделяются следующие направления современной экономической психологии: социально-психологическая (деятельность предпринимателей как нового социально-психологического слоя и их влияние на общественно-экономическую жизнь); деятельностная (цель, предмет, средства, мотив предпринимательской деятельности); профессиональная (предпринимательство как профессионально-трудовая деятельность); личностная (личностные характеристики предпринимателей); организационно -можно выделить особенности проектирования (планирования и построения предпринимательской карьеры).

Исходя из вышеперечисленных характеристик, выделяют два аспекта деятельности хозяйствующего субъекта. Это: частное предпринимательство (создание новой структуры и обеспечение ее развития и прогресса) и

управление (обеспечение порядка и стабильности внутри созданной структуры). Современный предприниматель осуществляет свою деятельность, сочетая два вышеперечисленных аспекта.

Также предпринимательская деятельность, в свою очередь, преследует две цели. Если первая из них-экономическая цель, то есть получение прибыли, то вторая-психологическая, то есть цель, направленная на развитие личности.

Предмет предпринимательской деятельности многообразен и будет зависеть от видов предпринимательской деятельности (производство, торговля, кредит). Одна из общих черт предпринимательской деятельности заключается в том, что предприниматель приобретает инновационный характер на основе своей индивидуальности, рыночной среды и предпринимательской культуры.

Реализация инновационной деятельности предпринимателя обеспечивается его личностными особенностями: инициативностью, способностью воспринимать, авторитетом, интуицией, способностью влиять на окружающих.

Предприниматель постоянно пытается преодолеть эти трудности и препятствия, действуя в экстремальных ситуациях, постоянно сталкиваясь с конкурентоспособными хозяйствующими субъектами, требовательными к его успеху и ресурсам.

Социальный статус предпринимателя определяется его авторитетом, стремлением к успеху в горе. Поэтому его социальный статус должен совпадать со способностью положительно влиять на происходящее на основе профессиональной компетентности. В противном случае предприниматель может пережить кризис личностной работоспособности и психологической защиты, ограничивающий его социальный статус, действия которого проявляют активность.

Отсутствие понятийного единства в содержании экономической психологии влияет на выявление направлений и тенденций развития психологии предпринимательства.

Предпринимательство-это деятельность, осуществляемая как личная инициатива человека, направленная на получение личного дохода от его имени, на основе ответственности и риска его имущества.

Предмет предпринимательской деятельности является более всеобъемлющим и разнообразным и зависит от формы предпринимательской деятельности

В свою очередь, предпринимательская деятельность-это не только профессия, но и особый образ жизни.

С этой точки зрения знания, умения и навыки предпринимателя в профессиональном плане должны быть обогащены содержанием рефлексии субъекта индивидуального жизненного пути, определенной мотивационно-смысловой и ценностной направленности, соответствующей модели его экономического успеха.

К общим аспектам, характеризующим предпринимательскую деятельность, можно отнести: инновационный характер этой деятельности, сложность ее стандартизации и алгоритмизации.

Кроме того, существуют цели психологической, предпринимательской деятельности, связанные с экономическим и личностным развитием, связанные с получением дохода. Предпринимательская деятельность, требующая высокого уровня субъективного участия, активизирует и мобилизует внутренние резервы личности, повышает заинтересованность в совершенствовании системы профессиональной деятельности, повышает ответственность за результаты реализации профессиональных планов.

Предприниматели - это лица, владеющие и управляющие имуществом (капиталом, ресурсами, средствами производства), принадлежащим определенному предприятию, использующие наемный труд для получения прибыли (Поздняков В.Р., Филинкова Е.В.). Предприниматель берет на себя функции риска и развития в экономической сфере общества, создает новые формы удовлетворения социальных потребностей в условиях неопределенности, диспропорций и отсутствия гарантий.

Существует универсальная модель желаемой профессиональной деятельности, которая включает в себя 3 компонента, то есть составляющие. Это:

1. Постановка профессиональных целей и задач;
2. Определение путей и средств, направленных на решение задачи
3. Анализ и посвящение результата деятельности.

При этом в качестве основного понятия профессиональной деятельности признается система деятельности специалиста-предпринимателя, которая сочетает в себе черты личностно-профессиональной ориентации, профессиональной компетентности и индивидуальной психологии.

Успех предпринимательской деятельности во многом определяется исходными мотивами личности предпринимателя и конечными целями его деятельности. Многие исследователи указывают на инновационный характер предпринимательской деятельности как на ее специфику.

В этих исследованиях предприниматель рассматривается как новый человек, который внедряет инновации, которые способствуют экономическому росту за счет постоянного нового сочетания факторов производства. Предприниматель не следует существующим традиционным шаблонам и добавляет динамики и развития экономической системе. Возможность инновационной деятельности предпринимателя обеспечивается такими личностными параметрами, как инициативность, острота восприятия, авторитет, дальновидность, способность влиять на окружающих.

Заключение.

Понятие карьеры включает в себя социально-психологическую составляющую, так как оценка успешности человека предполагает

объективизацию данного явления в общественном мнении и, прежде всего, в соответствии с мнением группы лиц, работающих в одной сфере деятельности. С психологической точки зрения настоящая карьера подразумевает не только формальный подъем личности в деятельности и достигнутые в ней успехи, но и развитие результатов личностной и субъективной деятельности.

Успех предпринимательской деятельности определяется многими личностными факторами, которые отчасти способствуют ее результату. К ним можно отнести: уровень развития аффективно-волевой сферы своего субъекта, когнитивные способности, самосознание, особенности отношения к себе, личностную мотивацию, контроль результата деятельности, позитивные коммуникативные навыки.

Литература.

1. Митина Л.М. Психология развития конкурентоспособности личности. – М.– Воронеж, 2002. – 400 с.
2. Raximov, D. (2018). Tadbirkorlik faoliyati ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining maxallay sharoitda o‘rganish. Scienceweb academic papers collection.
3. Xayntov O.E., Ochilova G.O. Tadbirkorlik psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. 1-kitob. Oliy o‘kuv yurtlari magistratura boskichi talabalari uchun// Prof. V.M.Karimovaning umumiy taxriri ostida. — T.: «Fan va texnologiya», 2008. -144-6
4. Шербакова Т.Н., Седлеская Л.В. Психологическая компетентност предпринимателя как субъекта социалного взаимодействия. – Ростов н/Д., 2003. – 192 с.

XAVOTIR VA STRESS HISLARINING O‘SMIR XULQ-ATVORIGA TA’SIRI

Nasimov Sadriddin Xurazboyevich
SamDU Amaliy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi (PhD)
Maxmudova Sevinch Sheraliyevna SamDU 2-bosqich talabasi
sevinchmaxmudova534@gmail.com

Annotatsiya: Xavotir va stress har bir rivojlanish davrida bo‘lgani kabi, o‘smirlik davrida ham juda muhimdir. O‘smirlik davrida har bir bolada aqliy, jismoniy va ruhiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ushbu maqolaning maqsadi o‘smirlik davrida tez-tez uchraydigan tashvish va stress muammolarini o‘rganishdir.

Kalit so‘zlar: zararli ta’sirlar, stress, ijobiy reaksiya, hissiy zo‘riqish, charchoq, disstress, akademik stress.

Аннотация: Тревога и стресс так же важны в подростковом возрасте, как и в любой период развития. Умственные, физические и духовные изменения происходят у каждого ребенка в подростковом возрасте. Цель этой статьи — исследовать проблемы тревоги и стресса, которые часто наблюдаются в подростковом возрасте.

Ключевые слова: вредные воздействия, стресс, положительная реакция, эмоциональное напряжение, усталость, дисстрес, учебный стресс.

Abstract: Anxiety and stress are as important in adolescence as in any period of development. Mental, physical, and spiritual changes occur in every child during adolescence. The purpose of this article is to explore the problems of anxiety and stress that are often seen during adolescence.

Key words: harmful effects, stress, positive reaction, emotional tension, fatigue, disstres, educational stress.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab, dinamik va o‘zgaruvchan bosqichlardan biridir. Bu davrda jismoniy, emotsional va psixologik o‘sish jarayonlari tez kechadi. Shunday o‘zgarishlar davrida o‘smirlar xavotir va stress holatlarini boshdan kechiradilar. Ularning kelib chiqish sabablari turlicha bo‘lsada, natijalari ko‘pincha o‘smirning ruhiy holatiga, xulq-atvoriga va hatto sog‘ligiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi zamonimizning o‘smirlari o‘tmishdagilarga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunliklarga ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘sish oldinroq namoyon bo‘lmoqda. Ba’zi o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas. Shu ta’rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O‘smirlik bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fizialogik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O‘smirlik balog‘atga yetish davri bo‘lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. O‘smirlik davri “o‘tish davri”, “krizis davr”, “qiyin davr” deb ham ataladi. [3:216 b]

Stress so‘zi noqulaylik hissi bilan bog‘liq bo‘lib, hozirgi kunda ko‘proq odamlar o‘zlarini stressda deb ta’riflaydilar. Stress deyarli har doim insonning global faoliyatining buzilishiga oilb keladigan salbiy his sifatida qaraladi. Shuning uchun stress omili ichki yoki tashqi kelib chiqadigan keskinlik, xavotir, qo‘rquv yoki tahdid tuyg‘ularini keltirib chiqaradigan vaziyat yoki tajriba bo‘lishi mumkin. Bu stress omili bilan aloqada boshlangan psixofiziologik jarayon va fiziologik reaktsiya. Gomeostaz va muvozanatni tiklashga intilayotgan organizmdan har bir shaxsning stressli vaziyatlarga qanday javob berishi va moslasha olishiga (bardosh berishga)qarab, salbiy stress yoki distress ko‘plab kasalliklarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa insonning hayotiga katta zarar yetkazadi. Stressning asosiy prognozlaridan biri xavotir, tashvish, odam o‘zining yaxlitligiga tahdid deb tushunadigan narsadan qo‘rqish bo‘lishi mumkin.

Xavotir–individual psixologik xususiyat hisoblanib, insonning ma’lum sabablarga yoki hech qanday sababsiz ham tashvishlanishning oshishidir. Psixolog F.B.Beryozin xavotirlanish jarayoniga izoh berar ekan, “ma’lum bir obyekt bilan aloqaning mavjud emasligi xis qilingan xavf-xatarni oydinlashtirishning iloji yo‘qligi o‘sha vaziyatni imkonsiz qilib qo‘yadi va xavotirlanish holatini yuzaga keltiradi” deya o‘z fikrini bildirgan. Xavotir buzilishi o‘smirlarda eng ko‘p uchraydigan holatlardan biridir. O‘smirlarda ularning chastotasi 5-22 % orasida o‘zgarib turadi.[1:295 b]

Stressli vaziyatlarda o‘smir o‘zini bezovta his qilishi mumkin. Shu bilan birga, muayyan vaziyatlarga e’tibor qaratish juda qiyin bo‘ladi. Unutuvchanlik va chalg‘itish kabi holatlar o‘zini namoyon qiladi. O‘smir g‘azablanadi va nazoratsiz his-tuyg‘ular paydo bo‘ladi. Ular, shuningdek, g‘amgin, g‘azablangan va bosim ostida his qilishlari mumkin. Stressni nazorat ostiga olish kerak, chunki u vaqt o‘tishi bilan turli kasalliklarga olib keladi. O‘smirlarda stressni keltirib chiqaradigan omillar uch toifaga bo‘linadi. Bu oddiy hodisalar, g‘ayritabiiy hodisalar va kundalik muammolar. Stressni keltirib chiqaradigan normal hodisalar-bu barcha o‘smirlar tomonidan boshdan kechiriladigan balog‘at yoshidagi rivojlanish bilan bog‘liq ichki va tashqi o‘zgarishlar. Tengdoshlarning zo‘ravonligi ham surunkali stressga olib kelishi mumkin, bu esa shaxsni psixopatologiyaning rivojlanishiga zaif qoldirishi mumkin.O‘smirlarning bu munosabatlarda qanday ishlashi ularning kelajakdagi munosabatlarining rivojlanishiga ta’sir qilishi va xavotir belgilarining rivojlanishida samarali bo‘lishi mumkin. Shu sababli, tengdoshlarning ijobiy munosabatlari o‘smirlarni xavotirlanishning rivojlanishidan himoya qilishi mumkin; muammoli munosabatlar xavotir xavfini oshirishi mumkin.

1. Stressning bolalar va o‘smirlarda namoyon bo‘lishi; Bolalar va o‘smirlarda stressning turli manbalari va namoyon bo‘lish shakllari mavjud bo‘lib, ular yosh davriga, shaxsiy xususiyatlariga va atrof-muhit sharoitlariga qarab farq qilishi mumkin. Stressning asosiy manbalarini quyidagi asosiy omillar orqali tasniflash mumkin:

2. Akademik Bosim (Stress); maktabda yuqori baholar olish, sinov va imtihonlarda muvaffaqiyatli bo‘lish kabi talablar bolalar va o‘smirlarda stressni keltirib chiqaradi. Bu bosim doimiy ravishda yuqori darajada bo‘lishi, ularning ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Akademik muvaffaqiyatga erishish uchun bolalar ko‘pincha o‘zlariga juda katta talablar qo‘yishadi, bu esa ularni charchatishi va motivatsiyasini pasaytirishi mumkin.

3. Ijtimoiy muammolar; o‘smirlik davrida ijtimoiy munosabatlar juda muhim ahamiyatga ega. Sinfdoshlari bilan yaxshi munosabatlarni saqlash, do‘stlar orttirish, ijtimoiy statusni ushlab turish kabi masalalar bolalarda stressni oshirishi mumkin. Ayniqsa, qo‘pol muomala o‘smirlarda stressning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Bu holatlar o‘z navbatida depressiya va tashvishlanishga olib kelishi mumkin.

4. Oilaviy muammolar; oila ichidagi nizolar, ota-onalar o‘rtasidagi mojarolar, moliyaviy qiyinchiliklar va boshqa oilaviy muammolar bolalar va

o‘smirlar ruhiy holatiga salbiy ta’sir qiladi. Uy sharoitidagi tinchlik va barqarorlikning yo‘qligi bolalarning ruhiy salomatligini yomonlashtiradi va ularda stress darajasini oshiradi.

5. Shaxsiy o‘zgarishlar: O‘smirlik davrida yuzaga keladigan jismoniy va gormonal o‘zgarishlar ham stressni keltirib chiqarishi mumkin. Bu davrda o‘smirlar o‘z tanalaridagi va hissiyotlaridagi o‘zgarishlarni qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu holatlar o‘z-o‘zini baholash, o‘ziga ishonch va ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

6. Atrof-muhitdagi stress omborlari: Maktabdagi o‘qituvchilar, dars jadvali, uy vazifalari, sport va boshqa maktabdan tashqari tadbirlar ham stressni kuchaytirishi mumkin. Bolalar va o‘smirlar uchun o‘qish va dam olish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash qiyin bo‘lishi mumkin, bu esa ularda charchoq va stressni oshiradi.

Bolalar va o‘smirlarda stressning namoyon bo‘lish shakllari ham turlicha bo‘lishi mumkin. Stress bolalarda qaysi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishini bilish muhimdir:

• Emotsional belgilar:

Tez-tez yig‘lash, asabiylashish, xavotirlanish, ruhiy tushkunlik va kayfiyatning tez-tez o‘zgarishi bolalarda stressning emotsional belgilari sifatida kuzatilishi mumkin.

• Jismoniy belgilar:

Bosh og‘rig‘i, oshqozon muammolari, tez-tez kasallanish, uyqu muammolari va ishtahaning o‘zgarishi kabi jismoniy belgilar namoyon bo‘lishi mumkin.

• Xulq-atvoriy belgilar:

Maktabda darslardan qochish, darslarga qiziqmaslik, do‘stlar bilan muloqotdan qochish, tajovuzkorlik, o‘zini izolyatsiya qilish kabi xulq-atvoriy belgilar ham stressdan darak berishi mumkin.

Bolalar va o‘smirlarda stressning namoyon bo‘lishini erta aniqlash va unga munosib choralar ko‘rish ularning ruhiy salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Stressning bolalar va o‘smirlar ruhiy salomatligiga uzoq muddatli ta’siri juda jiddiy bo‘lishi mumkin. Bu ta’sirlar ularning hissiy holati, xulq-atvori va kognitiv funksiyalariga sezilarli darajada zarar yetkazishi mumkin. Quyida stressning ruhiy salomatlikka uzoq muddatli ta’sirlarini batafsil ko‘rib chiqamiz:

1. Depressiya: Stress doimiy ravishda mavjud bo‘lganda, u depressiyaga olib kelishi mumkin. O‘smirlar o‘zlarini doimo charchagan, umidsiz yoki qayg‘uli his qilishlari mumkin. Depressiya o‘qishga, ijtimoiy faoliyatlarga va hatto shaxsiy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar va o‘smirlar depressiya holatida o‘zlarini izolyatsiya qilishlari, motivatsiyaning pasayishi hayotdan zavqlanmaslik hissini boshdan kechirishlari mumkin.

2. Tashvishlanish buzilishi: Uzoq muddatli stress tashvishlanish buzilishiga olib kelishi mumkin, bu esa bolalar va o‘smirlar uchun katta muammo hisoblanadi. Tashvishlanish buzilishi doimiy qo‘rquv, xavotir va tinchlanmaslik

hissi bilan kechadi. Bu holat uyqu muammolariga, diqqatni jamlashda qiyinchiliklarga va umumiy hayot sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

3. Uyqu buzilishi: Stress uyqu buzilishlariga sabab bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Uyqu yetishmovchiligi diqqatni jamlash, o‘rganish qobiliyatini pasaytiradi va emotsional holatni yomonlashtiradi. Uyqusizlik yoki yomon uyqu sifati bolalar va o‘smirlarning kunlik faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

4. Ovqatlanish buzilishlari: Stress bolalar va o‘smirlar ovqatlanish odatlariga ham ta’sir qilishi mumkin. Ba’zi bolalar stress paytida ko‘proq ovqat iste’mol qilishlari mumkin, bu esa semirishga olib keladi. Boshqa bolalar esa aksincha, stress tufayli ishtahalarini yo‘qotib, juda oz ovqatlanishlari mumkin, bu esa ortiqcha ozib ketishga olib kelishi mumkin.

5. O‘ziga ishonchning pasayishi: Doimiy stress va uning salbiy oqibatlari bolalar va o‘smirlarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni pasaytirishi mumkin. O‘ziga ishonchning pasayishi esa yangi vazifalarni bajarishda qo‘rquv, mavaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish va hayotda o‘z o‘rnini topishda qiyinchiliklarga olib keladi.

6. Akademik natijalarning pasayishi: Stress bolalar va o‘smirlarda diqqatni jamlash va xotira qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, bu esa ularning akademik natijalarini pasaytiradi. Maktabdagi mavaffaqiyatsizliklar esa o‘z navbatida stress darajasini yanada oshirishi mumkin, bu esa bir yomon holatni yuzaga keltiradi.

7. Ijtimoiy munosabatlar muammolari: Stress ijtimoiy munosabatlarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar va o‘smirlar stress tufayli do‘stlari bilan yaxshi munosabatlarni saqlay olmaydilar, bu esa ularning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ini zaiflashtiradi. Ijtimoiy aloqalarning yo‘qolishi esa o‘z navbatida stressni yanada kuchaytiradi.

8. Jismoniy salomatlik muammolari: Stress faqat ruhiy salomatlikka emas, balki jismoniy salomatlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Doimiy stress immun tizimini zaiflashtirishi, yurak-qon tomir kasalliklariga olib kelishi va umumiy sog‘liq holatini yomonlashtirishi mumkin. Bolalar va o‘smirlar stress tufayli bosh og‘rig‘i, oshqozon muammolari va boshqa jismoniy kasalliklardan aziyat chekishi mumkin.

Stressni boshqarish va kamaytirish, bolalar va o‘smirlar ruhiy salomatligini saqlash uchun juda muhimdir. Xususan: do‘stlar bilan suhbatlashish, ijtimoiy munosabatlar, sport va jismoniy faoliyatlar, har xil terapiya va psixologik mashg‘ulotlar shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdivalievna A.N. Bolalarda diqqatning tanqisligi, xarakteri va maktab o‘qishiga tayyorligi xususiyatlari 2021 y 295 b.
2. Roziqova N.A. “Ta’lim jarayonida pedagoglardagi stressga barqarorlikni rivojlantirish” O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2021-yil
3. Nishanova Z.T., Kamilova N.G‘., Xalilovna N.I., Abdullayeva D.U. Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya Toshkent 2020-yil 216 b.

IJTIMOIY HAYOTDA SHAXSLARGA MANIPULYATIV HARAKATLAR TA’SIRINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

SamDU **Nasimov Sadriddin Xurazboyevich**
SamDU talabasi **Baxritdinova Sitora Alisherovna**
baxritdinovasitora24@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada ijtimoiy hayotda shaxslarga nisbatan manipulyativ harakatlar, ularning kelib chiqishi va manipulyativ harakatlarning bir qancha turlari, shuningdek manipulyatsiyaning ijtimoiy hayotda shaxslarda keltirib chiqaradigan hissiy o‘zgarishlari o‘rganilgan. Manipulator, bevosita va bilvosita muloqotning turlari va boshqaruv psixologiyasi haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Shaxs, manipulyatsiya, shaxslararo munosabat, anti ijtimoiy manipulyatsiya, hissiy manipulyatsiya, boshqaruv psixologiyasi, muloqot ma’daniyati, ta’sir usullari.

Абстрактный. В статье рассматриваются манипулятивные действия по отношению к людям в социальной жизни, их истоки и несколько типов манипулятивных действий, а также эмоциональные изменения, которые манипуляция вызывает у людей в социальной жизни. Представлены размышления о манипуляторе, типах прямой и косвенной коммуникации, психологии управления.

Ключевое слова: Личность, манипуляция, межличностные отношения, антиобщественное манипулирование, эмоциональное манипулирование, психология управления, культура общения, методы воздействия.

Abstract. This article examines manipulative actions towards individuals in social life, their origins and several types of manipulative actions, as well as the emotional changes that manipulation causes in individuals in social life. It presents ideas about the manipulator, types of direct and indirect communication, and the psychology of management.

Keywords: Personality, manipulation, interpersonal relationships, anti-social manipulation, emotional manipulation, management psychology, communication culture, methods of influence.

Shaxs-ijtimoiy munosabat mahsuli hisoblanadi. Zero u har doim ijtimoiy muhitda faoliyat olib boradi. Ijtimoiy muhitdan informatsiyalarni qabul qilib, ularni ongida analiz va sintez qiladi. Bu faoliyatlar esa shaxsning eng yetakchi faoliyatlatidan biri- muloqot orqali amalga oshiriladi. Shaxslarga ta’sir etishning bir qancha tipologik usullari mavjud bo‘lib bulardan biri-shaxslarning o‘zaro obektga va subektga nisbatan ta’siri hisoblanadi.

Ijtimoiy hayotimizda har bir shaxs bir-biri bilan muloqot qilar ekan, ular yangi informatsiyalarni qabul qilishlari orqali har bir shaxsda ikkinchi shaxs haqida fikrlar, ularning his-kechinmalari haqida ma’lumotlar paydo bo‘ladi. Bu

orqali shaxslararo munosabatlar shakllanib, keyinchalik esa ular shaxs faoliyati davomida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy psixologiya-odamalarning jamiyatda hamkorlikdagi ish faoliyatlari jarayoni davomida ularda hosil bo‘ladigan tasavvurlar, fikrlar, e’tiqodlar, g‘oyalar, his-tuyg‘ular, kechinmalar, turli xulq-atvor shakllarini tushuntirib beradi.[3: 8 b]

Shaxsga ta’sir o‘tkazishda o‘zaro muloqot madaniyati asosiy o‘rin tutadi. Bu holda suhabatdoshimizga emotsional, verbal, noverbal ta’sir o‘tkazamiz.[2:13 c]

Shaxslararo munosabatlar bir qancha turlarga bo‘linib ular: hissiy munosabatlar, bo‘ysunuvchi munosabatlar, hamkorlik, do‘stlik, ratsional va hokazolarga bo‘linadi. [3:98 b] Shu bilan birgalikda muloqot bevosita va bilvosita, umumiy muloqot, manipulyativ muloqot va imperativ muloqot turlariga bo‘linadi. Bevosita muloqot- bu murakkab muloqot bo‘lib, unda aytilgan so‘zni tushunish uchun gapning ichida mavjud bo‘lmagan narsalarni anglab olish orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy hayot tobora murakkablashib borar ekan, insonlar o‘rtasidagi muloqot va munosabatlarda manipulyatsiya (boshqalarni ongli yoki ongsiz boshqarish) hodisasi ham ko‘p uchramoqda. Manipulyativ harakatlar, ko‘pincha, o‘z manfaatlarini ko‘zlab, boshqa shaxsning fikrini, xatti-harakatini yoki qarorlarini bevosita yoki bilvosita nazorat qilish orqali amalga oshiriladi.

Manipulyatsiya oddiy ta’sir qilish yoki ishontirishdan farq qiladi. Ishtontirish- bu boshqalarni ma’lum bir faoliyatga qarata olish qobiliyati hisoblanadi. Ta’sir qilish esa, zararsiz hisoblanib ta’sir o‘tkazayotgan shaxs o‘sha ma’lumotni qabul qilishi yoki qabul qilmasligini hurmat qiladi va uni ortiqcha majburlamaydi.

Manipulyatsiya uchun motivatsiya, boshqalarni unga xizmat qilishi, ularni boshqarish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Anti-ijtimoiy manipulaytsiya- bu boshqalarning hisobidan o‘zining shaxsiy maqsadlari yoki manfaatlariga yetishish uchun foydalanish ko‘nikmalarni ishlatishdir. Ijtimoiy xulq- atvor esa, boshqa shaxs va shaxslar guruhiga yordam berish, ularga foyda keltirish uchun mo‘ljallangan har qanday harakat turi hisoblanadi.

Manipulyatsiya zo‘ravonlik qilish emas balki, shaxsni yo‘ldan ozdira olish hisoblanadi. Odamni manipulyatsiya qilish istagi har qanday insonning o‘zaro munosabatlarida mavjud bo‘lib kelgan. Shuningdek manipulyatsiya orqali shaxslar boshqa shaxslar ustidan boshqaruvni qo‘lga olish uchun ham harakat qilishadi.

Boshqaruv psixologiyasida manipulyatsiya muhim, ammo murakkab rol o‘ynaydi. U ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, bu esa qanday va qanday maqsadda ishlatilishiga bog‘liq.

Boshqaruvdagi ijobiy manipulyatsiyalar deb: konfliktlarni boshqarish, tashabbusni o‘z qo‘liga olish va qo‘l ostidagilarga motivatsiya berish uchun foydalanilgan manipulyatsiyalar kiradi. Boshqaruvdagi manipulyatsiyalarning

salbiy oqibatlari esa psixologik bosim, ishonchning yo‘qolishi va jamoada salbiy muhitni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy munosabatlarda ayrim shaxslar atrofdagilarga ta’sir ko‘rsatish orqali o‘z foydasini ko‘zlaydi. Bunday insonlar manipulyator deb ataladi. Ular boshqalarning hissiyotlari, fikrlari va harakatlariga yashirin tarzda ta’sir ko‘rsatib, o‘z maqsadlariga erishishga intiladi. Manipulyatorlar ko‘pincha o‘z niyatlarini ochiq aytmaydi, lekin muloqotda ustalik bilan boshqalarning fikrini o‘zgartiradi.

Manipulyator shaxslar odatda quyidagi zaifliklardan foydalinishlarini kuzatishimiz mumkin.

1-jadval

O‘ziga past baho beradigan shaxslar.	O‘ziga bo‘lgan ishonchning kamligi, qobiliyatlariga, intellektiga, tashqi obraziga bo‘lgan ishonchning yetishmasligi, doimo o‘zini boshqalar bilan solishtirish orqali o‘zini boshqalardan qoloqroq his qilish.
Boshqa shaxslarga nisbatan hissiy qaramlik mavjud bo‘lgan shaxslar.	Shaxsning o‘zini qadrlashi, quvonchi, xafaligi, qarorlari va ruhiy holati boshqa odamlarning munosabatiga bog‘liq bo‘lgan holatdir. Bunday insonlar atrofdagilarning e’tibori, tasdig‘i va mehriga doimiy ehtiyoj sezadi. Bo‘ysunuvchanlik yoki tobelik shaxsiyatiga ega hisoblanishadi.
Har qanday vaziyatda ortiqcha intellektualizatsiyalovchi shaxslar.	Manipulyatsiya qiladigan shaxslarning sabalari bor deb ishonuvchi va ularni tushunishga urinuvchi shaxslar.

Odamlarni manipulyatsiya qilish boshqa shaxsni o‘z maqsadlari uchun, o‘z manfaatini olish uchun ishlatish deb qaralishi mumkin. Bunday holda, boshqa shaxs ob’ektga aylanadi va qadrsizlanadi. Turli nayranglar va usullar yordamida unga sezdirmasdan turli harakatlar amalga oshiriladi.

Manipulyatsiyaning psixologik ma’nosi odamlarning xulq-atvorini nazorat qilish, ularni boshqarish, erkinligini cheklash orqali ular ustidan hokimiyat yoki afzalliklarga ega bo‘lish, manipulyatsiya ob’ekti manipulyator uchun foydali bo‘lgan, tanlash huquqiga ega bo‘lmagan yoki buni sezmagan holda o‘zini tutishga majbur bo‘ladigan vaziyatni yaratishdir.

Odamlarning manipulyatsiyasini psixologik muammo sifatida tahlil qilish ikki jihatdan amalga oshirilishi mumkin: aloqa holatiga, sherikga bo‘lgan munosabatga qarab, ongli yoki ongsiz ravishda amalga oshiriladigan manipulyativ ta’sir sifatida amalga oshiriladigan aloqa pozitsiyasidan. Har bir inson har xil chastotalarda bo‘lsa-da, bunday harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Bunda shaxs muayyan xususiyatlarning ijtimoiy-psixologik kompetentsiya, muloqot qilish qobiliyati, sezgirlik, empatiya mavjudligi yoki yo‘qligiga muvofiq muloqot sub’ekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Manipulyatsiya shaxsga nafaqat fikr va xatti-harakat darajasida, balki chuqurroq — hissiy (emosional) jihatdan ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy hayotda shaxslar o‘zaro manipulyatsiyaga uchraganlarida ularda manipulyatorga nisbatan bir vaqtning o‘zida ishonch va shubha, muhabbat va nafrat kabi qarama-qarshi hissiyotlarni boshdan kechiradi. Bu hissiy ziddiyat ruhiy charchoqqa olib keladi.

Manipulyatorlar ko‘pincha boshqalarda o‘zini aybdor his qilish tuyg‘usini paydo qiladi. Natijada, odam hatto o‘z xatolari bo‘lmaganda ham o‘zini aybdor deb hisoblaydi.

Manipulyatsiyaga uchragan shaxs doimiy ravishda boshqalarning munosabatini nazorat qiladi, noaniqlikdan qo‘rqadi. Bu hissiy beqarorlik holatini kuchaytiradi.

Manipulyatsiya ta’sirning bir shakli bo‘lib, o‘z-o‘zini boshqarish vositalarini amalga oshiradigan omillar bilan nohaq yoki manipulyativ vositalar bilan aloqada bo‘lishni anglatadi.

Manipulyatsiya tufayli inson o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va qarorlariga ishonmay qoladi. U doim boshqa birovning tasdig‘ini kutib yashaydi.

Hissiy o‘zgarishlarning davomiyligi va kuchi oxir-oqibat emotsional toliqishga olib keladi. Bu esa insonni befarqlik, beqaror kayfiyat va hissiy o‘zini tutolmaslik holatiga olib boradi.

Shaxslar ijtimoiy hayotda manipulyatsiyadan foydalanishar ekan ularning negizida ularning ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari yotishini ko‘rishimiz mumkin.

Ijtimoiy hayotda manipulyatsiyadan foydalanish bu jamiyatni tizimli aldash, mamlakatni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tuzumdagi qaytarilmas o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Bu jiddiy madaniy inqirozga olib keladi va butun jamiyat uchun xavfli hisoblanadi[4: 57 c]

Manipulyatsiya yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek salbiy va ijobiy bo‘lishi mumkin. Endi salbiy manipulyatsiya ta’siridan chiqish, bizga nisbatan manipulyativ harakatlar bo‘layotganini aniqlashimiz ham kerak bo‘ladi. Har qanday holatda ham samimiy his tuyg‘ular va manipulyativ harakatlarni adashtirib yubormasligimiz kerak hisoblanadi. Ba’zida ular bir- biriga o‘xshash bo‘lgani bilan aslida har ikkalasining maqsadi mutlaqo bir-biriga qarama qarshidir.

Инклюзия требует пересмотра всей образовательной и социальной парадигмы: от изменения учебных программ до формирования нового этического отношения к детям с особыми потребностями [4. 25–31].

Философские аспекты адаптации и социализации детей с ограниченными возможностями требует гуманистический подход к проблеме. Адаптация и социализация детей с особыми потребностями — это не только педагогическая, но и философская проблема.

Она касается вопросов личностной идентичности, взаимодействия «Я» и «Другого», а также поиска смыслов в условиях ограниченных возможностей.

Философия инклюзии акцентирует внимание на способности общества не просто «терпеть» инвалидность, а ценить её как источник нового опыта и переосмысления нормальности [5. 41–46.].

Перспективы развития инклюзивного подхода в Узбекистане есть развитие. В последние годы Узбекистан предпринимает активные шаги в направлении формирования инклюзивного общества. Примером служат пилотные проекты по инклюзивному образованию в сотрудничестве с

ЮНИСЕФ, а также реформы в области дошкольного и школьного образования [6. 9–14.].

Однако для устойчивого развития инклюзии необходимо систематически включать философские и этические подходы в разработку образовательной политики. Важна не только институциональная поддержка, но и изменение общественного сознания, ценностных установок и культурных кодов.

Заключение

Инклюзивное образование в Узбекистане — это не только политическая или педагогическая задача, но и глубокая философская проблема, связанная с переосмыслением социальной нормы, справедливости и гуманности. Его успешная реализация требует интеграции философского анализа, культурных изменений и практических шагов по адаптации системы образования к многообразию потребностей и возможностей учащихся.

Список литературы:

1. Соловьёв С.М. Философия образования и проблемы инклюзии. — М.: Академический проект, 2019. — С. 56–62.
2. Ролз Дж. Теория справедливости. — М.: Идея-Пресс, 2001. — С. 85–93.
3. Хоннет А. Борьба за признание: моральная грамматика социальных конфликтов. — СПб.: Изд-во СПбГУ, 2010. — С. 112–120.
4. Алимова Н.Р. Инклюзивное образование в Узбекистане: современные вызовы // Педагогическое мастерство, 2023. № 2. — С. 25–31.
5. Исакова Ш.Д. Социокультурные аспекты адаптации детей с ОВЗ в условиях инклюзии // Философские исследования, 2022. № 4. — С. 41–46.
6. Доклад ЮНИСЕФ: Инклюзивное образование в Центральной Азии — Ташкент, 2023. — С. 9–14.

SUITSID XAVFI YUQORI BO‘LGAN SHAXSLARNI ANIQLASHDA PSIXOLOGIK TAHLIL USULLARI

Qarshiboeva Gulnoza Abduqodirovna, dots.
psixol.f.f. doktori Jizzax davlat
pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada suitsidentlar shaxsini o‘rganish usullarining tasnifi haqida so‘z yuritilib, suitsidning ichki omillarga psixik buzilishlarni (depressiya, psixoaktiv moddalar iste’moli), shaxsiy iqtisodiy muammolar, stress bilan kurashish malakalarining yetishmasligi kabi psixik-ijtimoiy omillarni kiritish mumkin, hamda tashqi omillarga makroiqtisodiy statistika, mehnat bozoridagi vaziyat va jamiyatdagi islohotlar yoki barqarorlikka daxldor fuqarolarni ijtimoiy muhofazasi singari omillari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ichki omil, psixik buzilishlar, depressiya, psixoaktiv moddalar, shaxsiy iqtisodiy muammolar, stress, malakalarning yetishmasligi, psixik-ijtimoiy omillar, makroiqtisodiy statistika, mehnat bozori, jamiyatdagi islohotlar.

Аннотация: В статье посвещается о классификатсии методов исследования личности суицидентов, к которым можно отнести такие психосоциалные факторы, как психические расстройства (депрессии, употребление психоактивных веществ), личные экономические проблемы, отсутствие навыков совладания с со стрессом как внутренние факторы суицида, а внешние факторы включают макроэкономическую статистику, выявлены такие факторы рынка труда, как сотсиалная защищенность граждан, обеспокоенных положением и реформами в обществе или стабильностью.

Ключевые слова: внутренний фактор, психические расстройства, депрессия, психоактивные вещества, личные экономические проблемы, стресс, нехватка навыков, психосоциалные факторы, макроэкономическая статистика, рынок труда, социалные реформы.

Annotation: The article deals with the classification of methods for studying the personality of suicides, which include such psychosocial factors as mental disorders (depression, substance use), personal economic problems, lack of coping skills with stress as internal factors of suicide, and external factors include macroeconomic statistics, such factors of the labor market as the social security of citizens concerned about the situation and reforms in society or stability were identified.

Key words: intrinsic factor, mental disorders, depression, psychoactive substances, personal economic problems, stress, lack of skills, psychosocial factors, macroeconomic statistics, labor market, social reforms.

O‘z joniga qasd qilish – qanchalar individual tabiatga ega bo‘lmasin, u alohida ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi tafovutlarni ifoda etuvchi statistik barqaror hodisa sifatida tahlil etilishi mumkin. Suitsidal xulq-atvor populyatsion darajada muttasil o‘zgarib boradi. Mazkur tebranishlarni har bir odamga xos ichki (proksimal) va mamlakat (viloyat) darajasida harakatga keluvchi tashqi (distal) omillar o‘zgarishlari natijasi sifatida ko‘zdan kechirish mumkin.

Ichki omillarga psixik buzilishlarni (depressiya, psixoaktiv moddalar iste’moli), shaxsiy iqtisodiy muammolar, stress bilan kurashish malakalarining yetishmasligi kabi psixik-ijtimoiy omillarni kiritish mumkin.

Tashqi omillarga makroiqtisodiy statistika, mehnat bozoridagi vaziyat va jamiyatdagi islohotlar yoki barqarorlikka daxldor fuqarolarni ijtimoiy muhofazasi singari omillarni kiritsa bo‘ladi.

Suitsidal hulq-atvorga ega bo‘lgan kishilarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

- psixik kasal;

- psixik jihatdan stressga uchragan;
- sog‘lom kishilar.

Suitsidning ikki xili farq qilinadi:
- yakunlangan (o‘zini o‘ldirish);
- yakunlanmagan.

Suitsidning bosqichlari:
- dunyoqarash bosqichi (suitsid haqida bilish);
- fikrlashning zaifligi (o‘limga rozi bo‘lish);
- faollik (o‘lish uchun nimadir qilish),

Suitsidal xatti-harakat bu o‘zini o‘ldirishga intilish bo‘lib, lekin o‘lim bilan tugamaydi.

Suitsidal hulq - atvor uch xil bo‘ladi:

Namoyishkorona;

Affektiv;

Haqiqiy.

Usullari: venani kesish, zaharli bo‘lmagan dorilar qabul qilish, o‘zini osishni namoyish qilish.

Haqiqiy suitsidal axloq – harakatning o‘ylangan rejasi bilan farqlanadi. Unga tayyorgarlik ko‘riladi. Yaqinlariga o‘z harakatlari sabablarini tushuntiruvchi xat qoldiradi. Uzoq vaqtlar puxta o‘ylangan, aniq bir maqsadga qaratilgan bo‘ladi. O‘smir bu ishni qilishdan oldin, shu ishning xavfsizligini o‘ylab qo‘yadi.

O‘z joniga qasd qilishning ogohlantiruvchi alomatlari o‘z joniga suiqasd qilishni o‘ylashi mumkin bo‘lgan odamlardan yordam olish uchun yo‘naltirishga imkon berishi mumkin.

Barcha odamlar o‘z joniga qasd qilish xavfiga duch kelishi mumkin. O‘z joniga qasd qilish yoki urinishni his qilishiga olib keladigan xavf omillari quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

Depressiya, boshqa ruhiy kasalliklar yoki giyohvandlik;

Muayyan tibbiy sharoitlar;

Surunkali og‘riq;

Oldindan o‘z joniga qasd qilishga urinish;

Oilada ruhiy kasallik yoki giyohvand moddalarni iste’mol qilish tarixi;

O‘z joniga qasd qilishning oilaviy tarixi;

Oiladagi zo‘ravonlik, shu jumladan jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlik;

Uyda qurolning borligi;

Yaqinda qamoqdan ozod qilinganligi;

Oila a’zolari, tengdoshlari yoki taniqli shaxslar kabi o‘z joniga qasd qilish xatti-harakatlariga duchor bo‘lishi.

Suitsidal xulq-atvor deganda o‘zining ustuvor ehtiyojlarini qondirish yo‘lida to‘siqlar uchraganda shaxsda yuzaga keladigan ichki inqirozni yechish vositasiga aylanadigan o‘z joniga qasd qilish kabi kishilar faolligi nazarda tutiladi. Suitsidal xulq-atvor umuminsoniy reaksiyalarning bir varianti sifatida suitsidal faollikning barcha ko‘rinishlari, individning shaxsiy harakatlari asosidagi

ehtimoliy o‘limning barcha variantlariga munosabatini qamrab olib, ularga quyidagilar tegishlidir:

- suitsidal fikrlar (passiv - tasavvur, o‘z o‘limi mavzusidagi xayolot (fantaziya), faol – ko‘ngilli tarzdagi o‘lim haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri e’tirof);
- suitsidal niyat – suitsidallik namoyon bo‘lishining faol shakli, ya’ni o‘z joniga qasd qilish tendensiyasi, uning chuqurlashuvi uni amalga oshirish rejasining ishlab chiqilganlik darajasiga muvofiq namoyon bo‘lib, suitsid usuli, harakat vaqti va joyi o‘ylab ko‘riladi;
- suitsidal maqsadlar – irodaviy komponentning qaroriga ergashish;
- suitsidal urinishlar – o‘lim bilan yakunlanmagan o‘zini maqsadli ravishda hayotdan judo qilishga harakat;
- suitsidlar (ko‘rgazmali, affektiv va haqiqiy).

Suitsidal xulq namoyon bo‘lish shakllari quyidagilardan iborat:

1. Ichki shakllar: hayot qiymati yo‘qligi to‘g‘risidagi fikrlar, passiv suitsidal o‘ylar, ya’ni o‘lishni xohlamasada, o‘z o‘limi to‘g‘risida tasavvur qilish, suitsidal rejalar tuzish yoki loyihasini ishlab chiqish, suitsidal niyatlar yoki o‘zini o‘ldirish to‘g‘risida qaror qabul qilish.
2. Tashqi shakllar: suitsidal iboralar, suitsidal harakatlar, yakunlangan suitsid.

O‘z joniga qasd qilish jamiyatda, odamlar orasidagi munosabatlarda inson o‘zi yecha olmagan yoki odatiy, hammaga ma’qul bo‘lgan yo‘l orqali yechishni istamagan muammolar borligidan, shaxsiy musibat, umidsizlik va tushkunlik bilan bog‘liq tashvish mavjudligidan darak beradi. O‘z joniga qasd qilishga ko‘pincha uzoq davom etadigan kasallik, ba’zan esa nogironlik ham sabab bo‘lishi mumkin.

Islom dinida kishining o‘z joniga qasd qilishi yoqlanmaydi. Suitsid qilmaslik va uning oqibatlari haqida Qur’on va hadislarda ko‘rsatmalar bor. Jumladan, «Baqara» surasining 195-oyatida: «O‘z qo‘llaringiz (baxilligingiz) bilan o‘zlaringizni halokatga tashlamang». Oyatdan odamning o‘z o‘limiga sabab bo‘luvchi narsaga bormaslik kerakligi tushuniladi. Demak, kishining o‘z joniga qasd qilishi gunohi kabira (katta gunoh) hisoblanadi. Nafsga zid bo‘lgan hollarda sabr qilish Allohning taqdiriga rozi bo‘lishni anglatadi.

Shuning uchun ham turli balolarga, musibatlarga sabr qilgan kishiga savob beriladi, gunohlari to‘kiladi. Ibn Mas’ud roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda «... shu singari biror musulmonga aziyat yetsa, tikanmi yoki undan kattarog‘imi, u tufayli Alloh yomonliklarini o‘chirib, xuddi daraxt bargini to‘kkanidek undan gunohlari to‘kiladi» deb yozilgan. Sabr qilishning mukofoti yaxshi hollarga yeta olmaganlik uchun bo‘ladi. Yomon, zararli ishlar istagida bo‘lib, lekin ularni amalga oshira olmayotganlik uchun sabr qilishda mukofot bo‘lmaydi. Mashaqqat, qiyinchilik, nafsga og‘ir keladigan hollarda osongina qutilish, muammodan qochish uchun o‘lish yo‘lini tanlash ham Allohning taqdiriga norozilik, isyon hisoblanadi. Bunday noxush holatga tushmaslik uchun sabr qilish kerak. Sabr qila olish uchun kishiga ixlos kerak bo‘ladi. Abu Abdulloh ibn Ushaym roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda: «... Kim o‘z joniga

biror narsa bilan qasd qilsa, qiyomat kuni o‘sha narsa bilan azob beriladi», deb yozilgan.

Umr inson uchun berilgan ulug‘ ne’matlardan biridir. Musulmon kishi buning shukri sifatida vaqtini yaxshi amallarga sarflasa, ham savob ham mukofot oladi. O‘z joniga qasd qilish, umr ne’matining shukriga zid hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagilarni aytish mumkin:

1. Islomda o‘z joniga qilishning hukmi gunohi kabira hisoblanadi. Lekin, o‘z joniga qasd qilgan odam imondan chiqqan kofir hukmida bo‘lmaydi;

2. O‘z joniga qasd qilgan sog‘lom mo‘min-musulmon kishining imoni sust ekanligi tushuniladi. Allohdan yaxshilikni umid qilish imon shartlaridan biri hisoblanadi.

3. Islom dinida insonga in’om etilgan jon va jism ne’matlarining zavoliga sabab bo‘luvchi holatlardan qaytariladi. Taqdiridan rozi bo‘lib, shukr va sabr qilib yashashga chaqiriladi.

Hozirgi kunga qadar suitsidal xulq-atvorga doir turli qarashlarga ega ko‘plab yondashuvlar mavjud. Biroq aksariyat tadqiqotchilar suiqasdni shaxsning tashqi omillarga nisbatan ijtimoiy psixologik dezadaptatsiyasi oqibati ekanini e’tirof etishadi. Bunday omil insonda nafaqat ichki, balki shaxslararo munosabatlarga doir ziddiyatni paydo qiladigan har qanday sabab ilgari surilishi mumkin. Ilm-fan oldida turgan boshqa bir muammo insonning, xususan, o‘smirlarning, suitsidal niyatlarini imkon qadar erta aniqlanishi bilan bog‘liq. Zotan, ta’lim tizimi mutaxassislari uchun ta’lim oluvchilardagi suitsidal xulqni o‘z vaqtida aniqlash juda muhim bo‘lib bormoqda. Suitsidal xulq-atvor muammosiga doir adabiyotlar tahlili ushbu hodisaga nisbatan muqarrar ko‘rsatkichlarni olish imkonini beradigan suitsidal niyatlarni diagnostika qiladigan metodlar yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Fundamental nazariy bilimlar, shuningdek, eng so‘nggi tadqiqiy ma’lumotlarga tayanib, insonning suitsidal xulq - atvori, ko‘pincha odamning psixik nosog‘lomligida emas, «nosog‘lom» jamiyatda yuzaga kelgan muhitda ekanini e’tirof etish kerak.

O‘smirlar tomonidan suitsidni amalga oshirish shaxsiy fojea, tabiiy ofatlar, umidsizlik, o‘lim qo‘rquvi ta’sirida kechadi. O‘smirlarning o‘z joniga qasd qilish holatlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, aksariyat suitsidlar oiladagi kelishmovchilik, o‘qituvchilar, pedagoglarning qo‘polligi, sinfdoshlari bilan kelishmovchilik, turli mojarolar, atrofdagilarning e’tiborsizligi oqibatida ham yuz beradi.

Suitsiddek noxush hodisalarning sababini avvalo shu hodisalarni sodir etayotgan shaxsning o‘zidan, uning ruhiy olamidan qidirish lozim («ichki dunyosi», «qadriyatlar tizimi» hamda u yashayotgan oila va jamoadagi «psixologik iqlim»). Agar, bir tomondan, oila mustahkam bo‘lib, unda ijobiy muhit hukm sursa, oila tinch, o‘zaro munosabatlar muvaffaqiyatli bo‘lsa, bir so‘z bilan aytganda inson oilada o‘z baxtini topib, har kuni ishonch bilan o‘z uyi ostonasini hatlab ko‘chaga chiqsa, oilasida uni kutayotganlar borligini his qilib yashasa, ikkinchi tomondan, shaxs o‘zi yoqtirgan ish bilan shug‘ullansa, u

ishlaydigan jamoada ijobiy psixologik iqlim hukm surib, o‘z jamoasida o‘z o‘rnini topgan bo‘lsa, o‘zi yoqtirgan hamkasblari orasida ishlasa, uning rahbarlari ham, hamkasb, xodimlari ham uni yaxshi ko‘rib, ishda va kundalik hayotda kerakli odam deb qabul qilsalar (yoki hech bo‘lmaganda shaxs o‘zi shunday deb hisoblasa), suitsid degan hodisa bunday odam uchun yot, u suitsidni hatto xayoliga ham keltirmaydi.

Bundan tashqari himoyasizlik, kelajakka umidsiz qarash suitsidal holat sodir etilishida kuchli yetakchi, asosiy omil sifatida bo‘lishi mumkin. O‘z joniga qasd qilish hissining kuchli bo‘lishi boshqalar bilan ijtimoiy aloqalarning o‘rnatilishiga to‘sqinliq qilishi mumkin. Ular hayotlarini «hech qachon yaxshi bo‘lmaydi» deb fikr yuritadilar, ularning nutqida «Bunday hayotga chidab bo‘lmaydi», «hammaga baribir» degan ma’nodagi fatal umumlashtirishlar tez-tez uchraydi.

Inson o‘rta darajada ham ahamiyatdan nari bo‘lgan sari, xavf yuqori bo‘lishi mumkin. Shuningdek, joniga qasd qilish xavfini quyidagilar orttiradi:

- affektiv noturg‘unlik yoki hissiyotning tormozlanishi;
- juda kirishimlilik yoki juda kirishimsizlik;
- o‘ziga o‘ta yuqori yoki o‘ta past baho berish;
- ijtimoiy o‘sishdan ortda qolish va ahloqiy-etnik noturg‘unlik.

O‘z joniga suiqasd qiluvchilarning shaxsiga oid xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- o‘ziga nisbatan ishonchsizlik;
- o‘zini-o‘zi namoyon qilishga bo‘lgan yuqori ehtiyoj, ya’ni ular uchun iliq munosabatlar, hissiy aloqalar, o‘zaro munosabatlarda samimiylik, atrofdagilar tomonidan tushunuvchanlik va qo‘llab-quvvatlanishning mavjudligi yuqori ahamiyatga ega;
- qaror qabul qilishda irodaviy zo‘riqishning murakkabligi;
- optimizm va qiyinchiliklar bo‘lgan vaziyatlarda faollik darajasining susayishi;
- o‘z-o‘zini ayblash, aybini oshirib yuborish tendensiyasi;
- mustaqillikning yo‘qligi;
- yuqori darajada xavfsirash;
- shaxsning yetarli bo‘lmagan sotsializatsiyasi, yetilmay qolish va kamolotga yetmaslik.

O‘smirlik davri oddiy yosh davri emas, aynan shu yoshdagi davr qarama-qarshiliklarga limmo-lim to‘la bo‘lganligi bois, ularning hatti-harakatlari ota-onalariga ko‘p tashvish tug‘diradi. Jahldorlik, oila va jamiyatdagi jizzakiligi, hissiyotlarining barqaror emasligi, ota-onaning ortiqcha g‘amxo‘rligiga qarshilik ko‘rsatishi, uyatchanlik hamda o‘zi va yaqinlariga imkoniyatdan ortiq talablar qo‘yishi atrofdagilarni xavotirga soladi. Shuning uchun, o‘smirlarning xatti-harakatlarini tushunish uchun, ularning kelib chiqish sabablarini tushunib yetish kerak.

Ko‘pchilikning fikriga qarshi bo‘lsa ham, o‘smirlar ota-onalari biz o‘ylagandan xam yaqinroq bo‘lishlariga muhtoj bo‘lishadi, faqat bu narsani ochiq

oydin aytishga botina olmaydilar. To‘g‘ri, ota-onalar bilan munosabatlar o‘zgargan bo‘lishi mumkin, lekin uzilgan emas-ku. Kattalar o‘z farzandlari bilan parallel o‘zgarishlari kerak. Shunda ular bilan yaxshi munosabatlar saqlanib qoladi, bolalar ularni hurmat kilishadi va ularning fikrlari ahamiyatli ekanligini anglab yetadilar. Bolalar tushkunlik va stress holatiga tushib qolishganda, aynan, ota-onalari ularga maslahat berib, dalda bo‘lishlarini xohlashadi. Yoshlar va ota-onalarning o‘rnatilgan o‘zaro samimiy munosabatlari muammoli vaziyat va tushkunlikka tushgan o‘smirlarga yaxshigina himoya qobig‘i bo‘lib xizmat qiladi.

Shu o‘rinda psixologik diagnostika va korreksiya atamalariga to‘xtalib o‘tish muhimdir. Bular o‘zini o‘zi mahkum etuvchi xulq-atvor shakllarini, eng avvalo, o‘z joniga suiqasd qilishga urinish yoki suitsidal harakatlarning oldini olishga mo‘ljallangan, ruhiy zo‘riqish (stress) vaziyatlariga nisbatan javob reaksiyasi bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiya holatida bo‘lgan insonlarga yordam berishga qaratilgan psixologik usullar to‘plamidir.

Suitsidal harakatlarning oldini olish va bartaraf etishda psixologik nazariya hamda amaliyotda bir qator korreksion yo‘nalishlar mavjud bo‘lib, suitsidal faollikni cheklash, shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvchanligini tiklash va yuzaga kelgan inqirozli vaziyatdan chiqib ketish uchun uning ichki imkoniyatlarini faollashtirishning turli usul va yo‘nalishlarini asoslashga harakat qilinadi.

Ushbu yo‘nalishlardan biri hisoblangan psixodinamik yo‘nalish namoyandalarining ta’kidlashlaricha, o‘z joniga suiqasd qilish muammosining hal etilishida shaxs xususiyatlari va shaxs-jamiyat munosabatlari korreksiyasi asosiy o‘rin tutadi.

Keskin stress holatiga javob tarzida yuzaga keluvchi, ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiya holatidagi o‘smirlarga yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan va xulq-atvorning o‘zini o‘zi halok qilish shakllarini, birinchi navbatda, o‘z joniga suiqasd qilish harakatlarining oldini olishga mo‘ljallangan psixologik metodlar to‘plami sifatida ishlab chiqilgan psixologik korreksion tadbirlarda zamonaviy yondashuv va metodlarni qo‘llash maqsadga muvofiq.

Klinik va psixologik ma’lumotlarga asoslangan holda psixologik korreksiya va profilaktika kursini ishlab chiqish, uning eng yaqin vazifasi sifatida o‘smir suitsidal xulq-atvorini qo‘zg‘atuvchi shaxslararo nizolarni zamonaviy metodlar yordamida aniqlash, ularni hal qilish, vositalarini belgilash, suitsidal xavf tug‘ilishi ehtimoli bo‘lgan xulqi og‘ishgan shaxs bilan ishlashning tadbir-choralarini yo‘lga qo‘yishni tashkil etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Аванесов С. Философская суицидология. // Курс лекций. -Томск. 2000. –122 с.

2. Амбрумова А. Г. Предупреждение самоубийств / А. Г.Амбрумова, С. В. Бородин, А. С. Михлин. — М., 1980. — 105 с.

3. Давлетшин М. Г. Психология. Краткий толковый словарь / М. Г. Давлетшин. — Ташкент: ТГПУ, 1998. — 48 с.
4. Дюркгейм Э. Самоубийство. // СПб.: «Союз», 1998.-116 с.
5. Ефремов В. С. Основы суицидологии / В. С. Ефремов. — СПб., 2004. — 479 с.
6. Гульноза Абдукодировна К., Абдугаюмов Раимович А., Нина Васильевна Г., Ислямова Селимовна Л, Дурдыевна Саида Р. ., Азимова Абдукаххаровна У. (2024). Развитие школ профессионального образования с целью обучения учениц. *Cadernos De Educação Tecnologia E Sociedade* , *17* (se4), 170–180. https://doi.org/10.14571/brajets.v17.nse4.170-180
7. Каршибаева Г. А. Влияние демографических и гендерных факторов на формирование суицидального поведения // Мир образования — образование в мире. — 2025. — № 1 (97). — с. 97–107.

O‘SMIRLAR BILAN PSIXOPROFILAKTIK ISHLARNI TASHKIL ETISHDA GENDER YONDAShUV

Qarshiboeva Gulnoza Abduqodirovna,
psixol.f.f.d. Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada o‘smirlar bilan amalga oshiriladigan psixoprofilaktik chora-tadbirlar haqida so‘z yuritilib, suitsid muammosida ko‘proq psixologik omillar - insonlarning shaxsiy xususiyatlari, qadriyatlari, ularning dunyoqarashi, e’tiqodi, ular uchun hayotning mazmuni, o‘z-o‘zini baholash xususiyatlarini shakllantirish zarur bo‘lib, o‘smirlardagi suitsid muammosining bartaraf etilishi psixologik xizmat sifatini oshirish hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Suitsid muammosi, psixologik omillar, shaxsiy xususiyatlar, qadriyat, dunyoqarash, e’tiqod, hayotning mazmuni, o‘z-o‘zini baholash, psixologik xizmat, nazariy yechimlar.

Аннотация: В статье говорится о психопрофилактических мероприятиях, проводимых с подростками, о необходимости формирования в проблеме суитсида дополнительных психологических факторов - личностных характеристик людей, сенностей, их мировоззрения, веры, смысла жизни для них, особенностей самооценки, устранит проблему суитсида у подростков, выявлены возможности поиска новых теоретических решений, направленных на углубление научных исследований по совершенствованию и повышению качества психологических услуг.

Ключевые слова: проблема суицида, психологические факторы, личностные характеристики, ценности, мировоззрение, убеждения, смысл жизни, самооценка, психологическая служба, теоретические решения.

Annotation: The article deals with psychoprophylactic measures taken with adolescents, the need to form additional psychological factors in the problem of suicide - personal characteristics of people, values, their worldview, faith, meaning of life for them, self-esteem features, eliminate the problem of suicide in adolescents, identified opportunities search for new theoretical solutions aimed at deepening scientific research to improve and improve the quality of psychological services.

Key words: the problem of suicide, psychological factors, personal characteristics, values, worldview, beliefs, meaning of life, self-esteem, psychological service, theoretical solutions.

Respublikamizda so‘nggi yillarda o‘smirlar orasidagi o‘z joniga qasd qilishning sabablarini o‘rganish, aholi ruhiy salomatligini saqlash, normativ-xuquqiy jihatdan muhofaza qilishga oid vazifalarni bajarish uchun zarur asoslar yaratilmoqda: «O‘tgan vaqt mobaynida aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish milliy xizmatini takomillashtirish, ruhiy holati buzilishidan aziyat chekuvchi shaxslarni aniqlash, davolash va reabilitatsiya qilish bo‘yicha sog‘liqni saqlash tizimining barcha darajalarida muayyan ishlar amalga oshirildi». Suitsid muammosida ko‘proq psixologik omillar - insonlarning shaxsiy xususiyatlari, qadriyatlari, ularning dunyoqarashi, e’tiqodi, ular uchun hayotning mazmuni, o‘z-o‘zini baholash xususiyatlarini shakllantirish zarur bo‘lib, o‘smirlardagi suitsid muammosining bartaraf etilishi psixologik xizmat sifatini oshirish hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi.

O‘smirlarda suitsidga moyillikni o‘rganishda gender (ya’ni, jins) omili muhim ahamiyatga ega. Qator tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, o‘g‘il bolalar va qiz bolalarda suitsidal xulq-atvor turli shaklda namoyon bo‘ladi hamda bunga turlicha omillar ta’sir qiladi.

O‘zini o‘zi o‘ldirish barcha tadqiqotchilar tomonidan shaxsning nizolarni kechirish sharoitidagi ijtimoiy psixologik dezodaptatsiyasi oqibati sifatida qaralgan. Bunda suitsid o‘zida shaxsning favqulodda vaziyatlardagi xulq-atvorining variantlaridan birini namoyon etadi, shu bilan birga vaziyatning suiqasdga mosligi bilan emas, balki sub’ektning o‘ziga xosliklari, uning hayotiy tajribasi, intellekti, shaxsiy aloqalarining mustahkamligi bilan aniqlanadi.

Shuningdek, suitsidal xulq-atvorga moyil o‘smirlar muhim ijtimoiy-psixologik muammolardan biri bo‘lib, uni tadqiq qilish va oldini olish jamiyatning ma’naviy sog‘lomligini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Suitsid muammosi psixoterapevtik, diniy va ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ham ko‘rib chiqilgan. O‘z joniga qasd qilish hodisasiga diniy ilmlarda ham alohida e’tibor berilgan. Avvalo, u barcha dinlarda qoralanadi. Xususan, Islom dinida bu hodisaga nisbatan salbiy munosabat bildirilib, jumladan, «Hadis»

to‘plamlarida shunday ta’kidlanadi: «Bir kishi o‘zini o‘zi jarohatlab o‘ldirdi, shunda Alloh Taolo: Bandam mendan ilgari o‘z jonini o‘zi oldi, uni men jannatdan mahrum qildim». Hatto, dunyoning eng qadimgi qo‘lyozma asarlardan biri bo‘lmish «Avesto» da «O‘z maqsadlarining qullariga aylangan va haqiqatga inonmaydigan kimsalar rostlikdan yuz buradilar, porsolardan jirkanadilar, tanlangan zotlarni – azizlarni xor tutadilar. Ular o‘zlari bilanda jangu jadaldadirlar» - deb yozilganligi, bunday xulq-atvor bizda azaldan qanday qoralanib kelinganligiga dalildir.

Suitsidal niyatlarga olib keluvchi sub’ektiv omillarga shaxsning quyidagi xususiyatlari kiradi:

1) uning hissiy-irodaviy jihatlari kuchsiz rivojlangan, ya’ni biologik ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan oddiy hissiy qayg‘urish ustinlik qiladi, intelektuallik, ahloqiylik, estetiklik kabi oliy hislari rivojlanmagan, irodasi kuchsiz rivojlangan, qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qobiliyatsiz, ko‘pincha irodasizlik (jur’atsizlik) seziladi.

2) tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, temperament xususiyatlari, jumladan, suitsidga urinish ko‘pincha melanxolik temperament tipiga mansub shaxslarda yuzaga keladi. Chunki ularning ko‘ngli juda nozik (gap ko‘tara olmaydi), har qanday muvaffaqiyatsizliklarni keskin (og‘riqli) qabul qiladi, yolg‘izlikka moyil, o‘z shaniga aytilgan mas’haraomuz gaplarga ta’sirchan, yangi sharoitlarga qiyinchilik bilan moslashadi va h.k.;

3) xarakterning o‘ziga hos xislatlari, masalan, maqsadga intiluvchanligining yo‘qligi, apatiya (ruhiy tushkunlikning quyi darajasi), qa’tiyatsizlik, irodasining sustligi, ta’sirlanuvchanlik, jizzakilik, o‘ylamay ish qilish, mulohazasizlik, qayg‘uli, odamlar bilan chiqishaolmaslik, pessimistlik, har narsadan shubhalanadigan va h.k.;

4) o‘zini-o‘zi baholashi xususiyatlari (shaxsning o‘zini-o‘zi baholashi voqelikka (realikka) mos kelmaydi) va shaxsning davogarlik darajasi (imkoniyatlari) past bo‘lgan holda, haddan tashqari yuqori talablar qo‘yishga davo qilish;

5) kelajakka bo‘lgan ishonchning pasayishi, pubertat davrining og‘ir kechishi, ruhiy tushkunlik, hech kimga kerak bo‘lmaslik, jamoada o‘z o‘rnini topa bilmaslik, impulsivlik, o‘ylamay karorlar kabul qilishi holatlari o‘z «men»i inkor qilinishi suitsidal xulq xavfining ko‘rsatkichi oshishiga olib kelishi.

Qiz bolalar suitsidal fikrlar va xatti-harakatlarga nisbatan **ko‘proq moyil** bo‘ladilar. Ular ko‘pincha hissiy qiyinchiliklar, depressiya, ichki to‘siqlar va oilaviy muammolarni boshdan kechiradi. Qizlar o‘rtasida suitsidga urinish holatlari ko‘proq qayd etilgan bo‘lsa-da, ular kamroq halokatli oqibatlarga olib keladi.

O‘g‘il bolalar esa suitsidga **kamroq urinishadi**, ammo ularning harakatlari **hayot uchun xavfliroq** bo‘ladi va ko‘p hollarda muvaffaqiyatli suitsid holatlari aynan o‘g‘il bolalarda ko‘proq uchraydi. Ular ko‘proq tajovuzkor, radikal yoki keskin usullardan foydalanishga moyil bo‘ladilar.

Gender rollari bo‘yicha jamiyatdagi kutilmalar ham o‘smirlarning suitsidal xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan:

Qizlar his-tuyg‘ularini ifoda etishda ozodroq bo‘lishsa-da, ular ko‘pincha ichki muammolarini tan olishda o‘ziga tanqidiy qaraydilar.

O‘g‘il bolalarda “mustahkam bo‘lish”, “hislarni yashirish” kabi ijtimoiy bosimlar tufayli, ular emotsional qiyinchiliklarini ifodalashdan tiyiladi va suitsid holati keskin shaklda namoyon bo‘ladi.

Psixologik yondashuvda gender inobatga olinishi

Suitsidning oldini olish va psixokorreksion ishlarda genderga oid individual yondashuv muhim:

Qizlar uchun — empatik muloqot, hissiy barqarorlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni oshirish;

O‘g‘il bolalar uchun — ehtiros va agressiyani to‘g‘ri kanalga yo‘naltirish, stressni boshqarish ko‘nikmalari, mujozga xos muammolarni ochiq ifoda qilishga sharoit yaratish.

Suitsidal xulq-atvor profilaktikasida o‘smirlarda kechadigan suitsid oldi emotsional reaksiyalarni, xulq-atvorda kechadigan o‘zgarishlarni aniqlash va ajrata olish muhim hisoblanadi.

Deviant varianti (10-12-14 yosh) ilgari xos bo‘lmagan buzilishlar kuzatiladi: zerikish, chekish, ichish, daydilik, intizomsizliklar, kayfiyatsizlik kabilar – isyon va namoyishkoronalik deb tushuniladi.

Ipoxondrik varianti (12-14-16 yosh). Somatik arzlar ko‘payadi. Affektlari – xavotir, zerikish, ta’sirchanlik, yolg‘izlik, tashlandiqlik hissi, tanadagi yoqimsiz hislar davosi yo‘q kasaldek ko‘rinadi. Kasallik bahonasida darslardan qoladi. Kattalar bilan muloqoti qiyinlashadi.

Depressiyaning astenik varianti (12-16 yosh). O‘qishda qiyinchiliklar ko‘payadi. Avvalgi qiziqishlar yo‘qoladi, ruhan bo‘shashish, tashabbussizlik, zerikish va umidsizlik haqida gapiradi. Xavotirlanish ortib boradi, uyqu yetarli, biroq tushlar yo‘qdek. O‘smir maktabga borishni davom ettiradi, avvalgidek yashashga intiladi, biroq eplay olmaydi. Nizolarni og‘ir qabul qiladi. Suitsidal harakat emotsional zo‘riqish vaqtida emas, balki psixik jarohatdan so‘ng amalga oshiriladi, sababi – psixogen, takrorlanuvchan.

Oddiy belgili depressiv holat. Xavotir, qo‘rquv, autoagressiya kuchayadi. Psixik zo‘riqish vaqtida suitsid ro‘y beradi. Suitsidal harakat amalga oshmay qolsa, xavotir va depressiya pasayadi, biroq bu holat aldamchi bo‘lib, yana takrorlanishi mumkin [4].

Ushbu muammo yuzasidan amalga oshiralayotgan diagnostik ishlar alohida e’tiborni talab etadi. Chunki ba’zi o‘smirlarda kuchli inqirozli vaziyatlarda sub’ektiv kechinmalar uchramasligi mumkin. Bu esa depressiya va suitsidal xulq-atvor diagnostikasini qiyinlashtiradi. Ulardagi depressiv holatlarni tushunish uchun o‘smir shakllangan va yashayotgan muhit katta ahamiyatga egadir. U o‘smirning hayotni idrok qilishi xarakteriga, qadriyatlar tizimi va shaxsiy dunyoqarashiga ta’sir etadi.

O‘smirlarda suitsidal faollikni bartaraf etishda keng qo‘llaniladigan metodlardan biri profilaktik suhbat hisoblanadi. Mutaxassis tomonidan profilaktik suhbatni olib borish chuqur kasbiy bilim malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlikni talab qiladi.

Zamonaviy psixologiyada hozirgi kunda mavjud psixologik profilaktika amaliy va ilmiy nazariyalarga asoslangan bo‘lib, ta’lim muassasalari, oila, ommaviy axborot vositalari, jamoa va huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlarning hamkorlikda amalga oshiriluvchi o‘zaro uzviylikdagi kompleks chora-tadbirlarini o‘z ichiga oladi [5].

1-jadval

Suhbat jarayonida shaxsga birinchi psixologik yordam ko‘rsatish jadvali

Agar sizga aytishsa…	Albatta ayting	Hech qachon gapirmang
O‘qishni, guruhimni (ishimni, (oila a’zolarimni va h.k.) yomon ko‘raman...	«Nima ro‘y beryaptiki, sen o‘zingni shunday his qilyapsan?».	Men seni yoshingda sen shunchaki dangasasan (qaysarsan va h.k).
«Hammasi shunchalik umidsiz ko‘rinayaptiki»	Ba’zan hammamiz ham o‘zimizni yengilgandek his etamiz. Keling, o‘ylab ko‘ramiz, bizda qanday muammolar bor va ularning qay birini birinchi hal etish kerak	«Yaxshisi siz o‘zingizdanda og‘iroq ahvol-dagilar haqida o‘ylab ko‘ring».
«Men bo‘lmasam hammaga yaxshi bo‘ladi!»	Siz (sen) biz uchun juda qadr-lisiz va sizning kayfiyatingiz meni xavotirga solmoqda. Nima bo‘layotganini menga ayting.	«Axmoqona gaplarni yig‘ishtiring. Keling yaxshisi boshqa narsalar haqida gaplashamiz».
«Siz meni tushunmaysiz»	«O‘zingizni qanday his qila-yapsiz, menga shu haqida gapi-rib bering. Men haqiqatan ham buni bilishni istayman».	«Hozirgi kunda yoshlarni kim ham tushunardi? Yoki hozir hech kim birovni tushunmaydi».
«Men rahmatga sazovor ish qilmadim.va h.k».	«Keling o‘tirib bu haqida gaplashamiz».	«Nimani eksang shuni o‘rasan!».
«Agar men uddalay olmasam-chi?».	«Agarda uddalay olmasangiz, siz qo‘lingizdan kelgan barcha ishni	«Agar uddalay olmayotgan bo‘lsangiz,

	qilganingiz haqida bi-laman ...»	demak yetarlicha harakat qilmagansiz!».

Bu dasturlar o‘smir va ota–ona suitsidentlarning o‘z xulq-atvorini nazorat qilishga ko‘maklashish, muqobil ijtimoiy muhit bilan aloqasini tiklash va rivojlantirishning pedagogik-psixologik usul va vositalarini aniqlashga qaratilgan. Olib boriladigan psixoprofilaktik tadbirlarda o‘smirlar va ota-onalarning atrofidagi shaxslarning salbiy ta’sirlaridan saqlash maqsadida psixologik-pedagogik hamda ijtimoiy ko‘mak berishga qaratilgan, ya’ni:

a) oila, mahalla, o‘quv guruhi, sinf va pedagogik jamoa, ommaviy axborot vositalari;

b) o‘smirlar va ota-onalar shaxslararo munosabatlari asosiy qirralariga ta’sir qiluvchi ta’lim va tarbiya sharoitlarini optimallashtirishdan iborat.

O‘smirlar suitsidal xulq-atvori profilaktikasining nihoyatda muhim va mas’uliyatli bosqichini suitsidentga yordam ko‘rsatishni tashkil etadi.

Psixologik amaliyotning ko‘rsatishicha, suitsidal fikrga ega bo‘lgan o‘smirga yordam ko‘rsatishning uch asosiy yo‘li mavjud:

- o‘smirning suitsidal xulq-atvorini o‘z vaqtida diagnostika qilish, va unga mutanosib psixologik korreksiyasini amalga oshirish;
- inqiroz (depressiya) holatidagi o‘smirni faol emotsional qo‘llab-quvvatlash;
- salbiy vaziyatlarni yengillashtirish, yumshatish maqsadida uning ijobiy yo‘nalishlarini rag‘batlantirish.

Korreksion tadbirlarni amalga oshirish jarayonidagi tarbiyaviy aralashuvning imkoniyati yoki zaruriy diagnostik vositalari mavjud bo‘lmagan holatlarda o‘smirni qiyin vaziyatlardan chiqib ketish yo‘llarini aniqlash va inqirozli holatni yengib o‘tishning markazida suitsident bilan individual profilaktik suhbat turadi.

Profilaktik sohada shuni belgilash muhimki, o‘z joniga suiqasd qilishga urinish oldidan (bir necha sutkadan to bir necha oygacha) nizoli tanglik deb nomlanuvchi, komleks salbiy emotsional tuyg‘ular, noqulay tashqi ta’sirlarga ta’sirchanlikning o‘sishi, optimizm darajasining pasayishi, nizoli vaziyatlarni hal etish yo‘llarini qidirish bilan tavsiflanuvchi davr namoyon bo‘ladi. O‘z joniga suiqasd qilish haqida jiddiy o‘ylovchi, qariyb har bir kimsa u yoki bu tarzda atrofdagilariga o‘z niyatlarini tushunishga imkon beradi. O‘z joniga suiqasd qilish to‘satdan, beixtiyor, oldindan aytib bo‘lmaydigan yoki muqarrar holatda yuzaga kelmaydi. Ular moslashuvni sekin-asta yomonlashtiruvchi salbiy xulq-atvorni jadallashtiruvchi hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аванесов С. Философская суицидология. // Курс лекций. -Томск. 2000. –122 с.

2. Амбрумова А. Г. Предупреждение самоубийств / А. Г.Амбрумова, С. В. Бородин, А. С. Михлин. — М., 1980. — 105 с.

3. Давлетшин М. Г. Психология. Краткий толковый словар / М. Г. Давлетшин. — Ташкент: ТГПУ, 1998. — 48 с.
4. Дюркгейм Э. Самоубийство. // СПб.: «Союз», 1998.-116 с.
5. Ефремов В. С. Основы суицидологии / В. С. Ефремов. — СПб., 2004. — 479 с.
6. Гулноза Абдукодировна К., Абдугаюмов Раимович А., Нина Василевна Г., Ислямова Селимовна Л, Дурдыевна Саида Р., Азимова Абдукаххаровна У. (2024). Развитие школ профессионалного образования с целю обучения учениц. *Cadernos De Educação Tecnologia E Sociedade*, *17* (se4), 170–180. https://doi.org/10.14571/brajets.v17.nse4.170-180
7. Каршибаева Г. А. Влияние демографических и гендерных факторов на формирование суицидалного поведения // Мир образования — образование в мире. — 2025. — № 1 (97). — с. 97–107.

ПСИХОПРОФИЛАКТИКА, НАПРАВЛЕННАЯ НА УСТРАНЕНИЕ НЕГАТИВНЫХ ПРОЯВЛЕНИЙ У ПОДРОСТКОВ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ

Кадыров Обид Сафарович
Заведующий кафедрой «Проктическая психология» Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова
доктор психологических наук (PhD), профессор

Аннотоция. В этой статье важность психопрофилактического тренинга, направленного на устранение негативных изменений в поведении детейшироко освещен. В основном освещены психологические особенности эффективного использования психоанализа, когнитивной терапии, поведенческой (индивидуальной) терапии, гештальт-терапии и других терапевтических методов в коррекции изменений, происходящих в юношеской психологии, поведении и мировоззрении в современной психологической практике.

Ключевые слова и понятия: психодиагностика, психокоррекция, психопрофилактика, криминальные мотивы, криминальное поведение, психоанализ, когнитивная терапия, поведенческая (индивидуальная) терапия, гештальт-терапия, психодрама, моделирование.

Актуальность темы. В мире особое значение придается психологическому анализу закономерностей формирования проблем, возникающих в жизни человека, определению необходимых психологических мер по отношению к ним, поиску разумного решения и правильной оценке результатов. изучать проблемы принятия решений на

научной основе. Также особое место занимают исследования, направленные на определение социально-психологических факторов теоретико-методических подходов, объясняющих важные аспекты психокоррекционной подготовки, направленной на устранение негативных изменений в поведении подростков.

«О дальнейшем совершенствовании системы профилактики преступности и Борьба с преступностью» Данное исследование служит в определенной степени реализации задач, определенных в Постановлении № 472 и других нормативных правовых документах, связанных с данной сферой. В стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан «...Воспитывать молодежь физически здоровую, умственно и духовно развитую, самостоятельно мыслящую, преданную Родине, обладающую твердой взгляд на жизнь”[1] такжев мерах по предупреждению преступности в обществе, «разработка информационных бюллетеней и методических пособий для инспекторов профилактики, инспекторов по делам несовершеннолетних и представителей общественности по работе с молодежью, учащимися и их родителями или их заместителями»[2]. В связи с этим важно определить эффективные методы психодиагностики и психокоррекции формирования делинквентных и криминальных мотивов у подростков, содержание организационных мероприятий, а также разработку научно-психологических и практическо-педагогических рекомендаций, направленных на воспитание зрелые молодые люди.

На основе постоянного совершенствования образовательных процессов предполагается изучение негативных изменений в поведении молодежи как актуальной проблемы, их коррекция, учет естественно-физиологических, социокультурных и учебно-психологических факторов. которые вызывают такие изменения, создают широкие возможности для достижения заданных результатов.

Цель исследования.

Поскольку проводимое нами исследование посвящено теме «Психопрофилактические механизмы формирования криминальных мотивов у подростков (11-15 лет)», мы создали психокоррекционную программу, основанную на надежных психотерапевтических методах, апробированных на практике в этой области, и используя ее. эффективно, мы добились указанных результатов.

Используемые методы.

[1]Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года №ПФ4947 «О Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям дальнейшего развития Республики Узбекистан». - Сборник правовых документов Республики Узбекистан, 2017, №6, статья 70.

[2]Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 июня 2019 года № 472 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки кадров в области психологии и профилактике преступлений в обществе».

Психоанализ, когнитивная терапия, поведенческая (индивидуальная) терапия, гештальт-терапия и другие терапевтические методы эффективно используются в современной психологической практике для коррекции изменений, происходящих в психологии, поведении и мировоззрении молодежи.

При создании психокоррекционной программы и использовании ее в процессе исследования мы соблюдали порядок, нормы и правила использования методов поведенческой терапии (индивидуальная работа), когнитивной терапии, психодраматической терапии и гештальт-терапии. Также особое внимание было уделено молодому возрасту и индивидуально-психологическим особенностям исследуемых подростков, процессам, связанным с учебой и профессией, семейным, национально-культурным и социально-территориальным особенностям. Тот факт, что психокоррекционно-развивающая работа в наших исследованиях проводилась индивидуально и в группах, позволил нам использовать психокоррекционные и психотерапевтические методы в форме индивидуальной психотерапии, групповой психотерапии и социально-психологического тренинга (корпоративного тренинга).

Психодраматическая терапия. Имея групповой характер, устранение изменения, ошибки или недостатка в подростковой психологии сравнивается с постановочным спектаклем, а при продолжении психодрамы корректируются те изменения поведения и недостатки, которые считаются проблемой.

Поведенческая терапия- это основной и надежный метод в практике мировой психологии коррекции изменений и негативных ситуаций, произошедших в поведении молодежи, системе взаимодействия, воспитании, ориентации и мировоззрении. Этот метод терапии основан на законах воспитания и обучения и опирается на теории социальной психологии, психологии личности и психологии развития.

Эффективность поведенческой терапии в основном зависит от трех факторов:

- способность контролировать социальную среду подростка (семья, школа, окружение и т. д.);
- способность влиять на негативные изменения в поведении, ориентации и мировоззрении подростков;
- относительно специфическое направление поведенческой терапии (индивидуальный подход), краткое и удобное.

Когнитивная терапия- один из самых эффективных методов групповой психотерапии. Когнитивная терапия проводится в шесть этапов для создания положительных изменений в поведении, направлении поведения и мировоззрении подростка:

1. Формирование сознательного отношения (способности) подростка к необходимости изменения негативных ситуаций в своем поведении.

2. Доведение подростка до понимания природы негативных изменений в его поведении.

3. Подростки начинают научно понимать и осознавать реальность (существование, природу, общество, поведение человека, мотивационную направленность и общность сознания, их психическая, нравственная и духовная зрелость связана с образовательными процессами).

4. Подросток приобретает познавательную (научное понимание) стратегию и совершенствует ее, следуя ей в жизнедеятельности. Остановить негативные мысли в поведении, действиях, нарушающих действующие законы, и активировать позитивные.

5. Повышайте устойчивость. Формирование волевых качеств и качеств, устойчивых эмоционально-эмоциональных состояний, дальновидных умений у подростков. Выявление ситуаций несоответствия: обучение строгому соблюдению социальных инструкций и норм посредством ролевых игр и моделирования.

6. Координация социального взаимодействия. Выявление факторов, связанных с расстройствами социального взаимодействия: привыкание к выбору необходимых действий с целью регулярного повышения уровня позитивных социальных отношений.

В практике развитых стран накоплен определенный опыт использования социально-психологического тренинга для различных целей, а также индивидуального и корпоративного обучения, являющегося особо важной его формой. В этом направлении проведен ряд научных исследований на Западе и в России (Э. Берн, Д. Джонсон, Д. Мацумото, К. Левин, Г. Андреева, А. Донцов, В. Кан-Калик, М. Лебедева, Ю. Емельянов, Н. Богомолова, Н. Малишева и др.). В нашей национально-культурной среде недостаточно научных работ по корпоративному обучению как средству и методу изменения поведения молодежи и устранения негативных изменений и заблуждений в ней. Это является основой продвижения идеи использования корпоративного обучения на практическом, прикладном этапе исследований.

По сути, социально-психологический тренинг – это теория и практика психотерапевтического и психокоррекционного воздействия на людей, обеспечивающая зрелость личности как личности, изменения и приспособляемость к различным жизненным ситуациям, способность ориентироваться в правильном направлении и самосознание. на основе человеческого взаимодействия.

Одной из наиболее надежных и эффективных форм социально-психологического тренинга является индивидуальное, а также корпоративное обучение, представляющее собой уникальную технологию психологического воздействия, служащую для индивидуальной работы с

респондентом и эффективного установления специально организованных межличностных отношений в среднегрупповых условиях. По сути, корпоративное обучение основано на концепциях «решения проблемы организованно на основе научных принципов» и «следования опыту людей, коллективным знаниям и культуре при решении проблемы». Его значение происходит от латинского слова «corporatio», что означает «союз», «объединение».

Дж. Мухамедьяровой[1] пишет, что «корпоративная культура является главным критерием успешного управления».

Корпорация – уникальная организованная группа, основной особенностью которой является максимальная сплоченность, признание лидера группы и следование его мнению в интересах группы, готовность решать поставленные цели, задачи и задачи организованно, консультативно и слаженно. Каждое мнение, высказанное в группе, считается ценным, и каждый участник принимает его с точки зрения своей собственной и пользы группы.

Соответственно, когда в коллективах или группах возникают дискуссии, дебаты, проблемы, под корпоративным обучением понимается деятельность как средство определения стратегии достижения единой цели путем разделения всей группы на несколько групп. В данном исследовании мы поставили практическую цель апробировать идеи достижения единой цели путем следования групповым ценностям через такие эффективные и организованные группы в группе студентов-подростков, поведение которых формирует криминальные мотивы.

Важными показателями корпоративного обучения и его образовательного воздействия являются следующие:

❖ Студенты-подростки стремятся вместе решить вопрос или проблему, связанную с поведением и образованием молодежи, и обмениваются идеями, в результате чего они активно приобретают знания по решению проблем;

❖ работа в группах приводит к развитию дружеских отношений между ее членами, и они интенсивно обмениваются друг с другом идеями по проблеме;

❖ между членами группы формируется своеобразное сотрудничество, что в конечном итоге приводит к развитию эффективного межличностного общения и более интенсивной социализации молодежи, члены группы могут максимально проанализировать различные недостатки негативных проявлений поведения и прийти к единому мнению по их устранению.

Когда корпоративное обучение организуется в рамках одной академической группы, она далее делится на более мелкие группы, и эти

[1] Мухамедьярова Ж. Корпоративная культура как инструмент успешного управления компанией // Матейалы II мейд. конф на тему «Психологический менеджмент» Екатеринбург, 2007, стр. 21-24.

группы определенное время работают автономно, а затем совместно работают над проблемой. В корпоративном методе, который по существу основан на межгрупповой конкуренции, каждый человек стремится работать лучше и мыслить творчески в соответствии со своими групповыми интересами и идеями. Корпоративному образованию или воспитательному влиянию посвящено множество научных исследований, а их изучение и практическое использование требуют от руководителей школ и учителей специфических навыков и знаний, без которых невозможна организация корпоративного образования.

Таким образом, поведение – важное явление в науке психологии, показывающее точное выражение сущности, разума и психологии человека. Чтобы доказать, что она является неотъемлемой частью групповых процессов (группового сознания) и условием сотрудничества, была выбрана программа корпоративного обучения и использована психическая, морально-духовная, эмоциональная цель формирования волевых качеств.

Четвертый, последнийначиная с 4-й недели блока тщательно изучается и анализируется групповая деятельность, направленная на приобретение образцового поведения, свойственного подросткам, выясняется мотивационная направленность поведения участников и их соотношение с качествами и качествами, характерными для всесторонне развитой личности. определены, их отчеты оцениваются и определяются будущие задачи.

Если данные тренинги проводить не один месяц, а два-три месяца, воспитательный эффект будет более эффективным.

Психологическая подготовка по формированию примерного поведения подростков (под руководством специалиста) включает:

- цель корпоративного тренинга, тема обсуждения, характер проблемы, насколько на нее ориентированы участники тренинга;
- круговое обсуждение обсуждаемой проблемы, сбор информации, мнений, мнений, анализ, новые идеи и предложения, высказанные всеми участниками;
- систематизировать, обсуждать и анализировать полученную информацию на основе теоретических и практических источников;
- обоснование альтернативных идей и решений, их совместная оценка;
- сделать вывод на основе научного и реального анализа, основанного на дискуссиях и спорных идеях и примерах;
- сравнить полученные результаты с поставленной на тренинге целью;
- предотвращение психологического стресса, возникающего во время тренировочного процесса и обсуждений, а также завершения учебных занятий.

Индивидуальная и групповая деятельность, методы творческого подхода, различные формы и методы моделирования широко использовались в психологической подготовке для предотвращения и

устранения негативных изменений, характерных для криминальных мотивов в поведении подростков.

Диагностические процедуры тренинга включают информацию о структуре поведения подростка, закономерностях формирования, важных факторах, влияющих на него и его проявление, обучение и контроль качества процедур обучения участниками тренинга.

В ходе обучения студенты-подростки получат информацию о формах и функциях поведения, экономических, социальных и духовно-психологических факторах, влияющих на него, путях и методах их успешного формирования.

Основное содержание тренинга следующее:

- Студенты-подростки в предтренировочный период осознают свои особенности личности, мотивационную направленность, отношение к окружающей действительности, имеющиеся недостатки в своем поведении;
- подростки осознают последствия, вызванные имеющимися у них недостатками, определяют наличие путей, методов и необходимых условий их исправления;
- Подростки моделируют поведение для себяизучают существование стратегических возможностей на основе социокультурных и образовательно-психологических норм формирования;
- Типично для подростков примерное поведениепо мере их формирования они будут иметь программу работы, основанную на необходимых условиях для их полноценного развития.

После социально-психологической подготовки студентов наблюдался ряд изменений. Включая:

1. В структуре развития и проявлении образцового поведения, свойственного подросткам, произошли резкие изменения в структурных компонентах поведения, которые сформировали новую структуру по сравнению с прежним поведением учащихся.
2. Отмечено, что расширился круг необходимых условий и средств, используемых для удовлетворения мотивационной установки, обеспечивающей развитие модели поведения, свойственной подросткам.
3. У респондентов сформировалась устойчивая стратегия позитивного отношения к формированию типичного подросткового поведения.

Учился в исследованияхойважность психокоррекционного тренинга, направленного на устранение негативных изменений в поведении детей кооперативные образовательные этапы, направленные на реализацию цели, механизм (модель) социально-психологической подготовки, т. е. комплекс корпоративных тренингов и сценариев, подтвердил свое образовательное преимущество своей эффективностью, удобством и целевой направленностью. Он также показал, что эту технологию можно эффективно использовать в практике решения негативных сторон

воспитания молодого поколения и проблемных вопросов, связанных с изменением их поведения или неправильной направленностью.

Рекомендации.

1. Сложившаяся сегодня в нашем обществе система взаимоотношений, стабильная национально-культурная среда, национально-психологические характеристики и ее современная образовательная система и источники информации, а также другие важные факторы находят отражение в «интегральном Я» подростков и их I” с учетом того, что оно способно обеспечить устойчивое формирование понятия;

2. Родителям, воспитателям-учителям, общественным активистам и другим лицам, ответственным за образование, целесообразно проконсультироваться и принять решение о влиянии различных факторов, связанных с образованием молодежи, гармонично и взвешенно;

3. Создать образовательную среду, служащую формированию психических, нравственных, духовных, эмоционально-волевых качеств, определяющих нравственно-духовный образ, служащую формированию духовного образа подростка, работать над собой, применять методы активизации;

4. Формирование у учащихся мотивации устойчивой групповой деятельности в сотрудничестве учителя и ученика, направленной на приобретение примерного поведения, свойственного подросткам.

Список литературы:

1. Закон Республики Узбекистан. «О профилактике правонарушений и правонарушений среди несовершеннолетних». Принят Законодательной палатой 12 августа 2010 года. Утвержден Сенатом 28 августа 2010 г. // Щит. 2010. № 10 Б-2-13.

2. Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № ПФ4947 «О Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям дальнейшего развития Республики Узбекистан». - Сборник правовых документов Республики Узбекистан, 2017, №6, статья 70.

3. Мирзиёев Ш.М. Критический анализ, строгая дисциплина и личная ответственность должны быть повседневным правилом деятельности каждого руководителя. 14 января 2017 г. – Ташкент: Узбекистан, 2017. – 104 с.

4. Шумаров Г’.Б. Проблемы психологической службы в системе образования Узбекистана. - Т., 1998. С. 13-15.

5. Бандура А. Теория социального на учения. Монография – СПб.: Евразия, 200. – 320 с.

6. Мухамедьярова Ж. Корпоративная культура как инструмент успешного управления компанией // Матейалы II мейд. конф на тему «Психологический менеджмент» Екатеринбург, 2007, стр. 21-24.

7. Каримова В.М. Социальные представления об узбекской семье среди молодежи. Псих. наука. док. дисс. - Т.: ТошДУ, 1994. - 309 с.

8. Кадыров О.С. «Психодиагностика и психокоррекция формирования криминальных мотивов у подростков (11-15 лет)» // Диссертация на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по психологическим наукам. Т.: 2020, – 155 с.

9. Safarovich Q.O. et al. Tarbiyasi qiyin o‘quvchilarning xulq-atvori bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish masalalari //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 367-371.

SOG‘LOM OILADA RASHK: XAVFMI YOKI TABIIY HISSIYOT? BOSHQARUVNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Rizokulova Parvina Farxodovna
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali
1-kurs Psixologiya fani magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sog‘lom oilaviy munosabatlarda uchraydigan rashk hissining psixologik mohiyati, shakllanish sabablari va uni boshqarish mexanizmlari tahlil qilinadi. Rashkning tabiiy hissiyot sifatidagi roliga baho berilib, u oila barqarorligi va psixologik salomatligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi ilmiy manbalar asosida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sog‘lom rashk va patologik rashk o‘rtasidagi farqlar, ularni ajratish mezonlari hamda oilaviy muhitda konstruktiv yondashuv asoslari ochib beriladi. Tadqiqot oilaviy psixologiyada hissiy muvozanatni ta’minlash, rashkni boshqarishda kommunikatsiya va empatiyaning o‘rni kabi omillarni yoritadi.

Kalit so‘zlar: rashk, oilaviy munosabatlar, psixologik muvozanat, hissiy intellekt, xavfsizlik hissi, sog‘lom aloqa, patologik rashk.

Abstract: This article analyzes the psychological nature, causes, and management strategies of jealousy within healthy marital relationships. It evaluates the role of jealousy as a natural emotion and its impact on family stability and psychological well-being. The study distinguishes between constructive (healthy) and pathological jealousy, identifying key criteria for differentiation and suggesting approaches to regulate it within a family environment. The research highlights the importance of emotional balance, communication, and empathy in managing jealousy, offering insights relevant to family psychology.

Key words: jealousy, family relations, emotional regulation, psychological balance, emotional intelligence, safety perception, pathological jealousy.

Аннотация: В данной статье рассматривается психологическая природа ревности в контексте здоровых семейных отношений, причины её возникновения и механизмы управления этим чувством. На основе научных источников анализируется, в каких случаях ревность выступает как естественная эмоция и как она влияет на стабильность семьи и психологическое благополучие. Особое внимание уделяется разграничению здоровой и патологической ревности, критериям их различия и методам конструктивного подхода к ревности в семейной среде. Работа подчёркивает важность эмоционального равновесия, коммуникативных навыков и эмпатии в регулировании ревности.

Ключевые слова: ревность, семейные отношения, эмоциональное равновесие, психологическая устойчивость, эмоциональный интеллект, чувство безопасности, патологическая ревность.

Inson psixologiyasining nozik jihatlaridan biri bo‘lgan rashk hissi oilaviy munosabatlarda muhim o‘rin tutadi. Rashk sog‘lom oilaviy hayotda tabiiy hissiyot sifatida qaralishi mumkin bo‘lsa-da, uning chegaradan oshishi turli psixologik ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Rashk o‘z-o‘zidan yomon yoki salbiy holat emas, balki uni boshqarish, anglash va nazorat qilish uslubi uning ijobiy yoki salbiy oqibatlarini belgilaydi.

Oila – jamiyatning kichik namunasi sifatida, undagi emotsional muvozanatni saqlash, juftliklar orasida ishonch va mehr-oqibat muhitini barpo qilish bevosita ruhiy barqarorlikka bog‘liq. Aynan shu nuqtai nazardan, sog‘lom oilaviy tizimda rashkning tabiiyligi va uni boshqarish psixologiyasi chuqur ilmiy tahlilni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston – kuchli oiladan boshlanadi” tamoyili doirasida sog‘lom oila institutini mustahkamlash, psixologik madaniyatni oshirish va emotsional salomatlikni targ‘ib qilish dolzarb masalalardan biridir.

Rashk psixologik jihatdan shaxsning o‘zini xavf ostida deb his qilishidan, ya’ni ishonch va o‘zaro hurmatning izdan chiqishidan yuzaga keladi. Tabiiy rashk hissi ehtiyotkorlikka chorlovchi signal bo‘lishi mumkin, ammo bu hissiyot boshqarilmasa, oilada emotsional zo‘ravonlik, depressiya, hattoki ajrimga olib keluvchi jarayonlarni yuzaga keltiradi.

Masalan, rashk tufayli turmush o‘rtog‘ining ijtimoiy tarmoqdagi harakatlarini doimiy nazorat qilish – bu ishonchga zarar yetkazadi. Bunday holatda, psixologik jihatdan o‘zaro chegaralarni aniqlab olish va ochiq muloqot orqali masalalarni hal etish samarali yo‘l hisoblanadi.

Holat	Tabiiy rashk	Nazoratdan chiqqan rashk	Psixologik boshqaruv usullari
1.	Turmush o‘rtog‘ining do‘stlari bilan aloqasidan xavotirlanish	aloqasidan xavotirlanish	Ishtirokchi tinglov, o‘zaro ishonch asosida suhbat

		Har bir qo‘ng‘iroqni tekshirish, ortiqcha shubha qilish	
2.	Oilaviy muhitda diqqatni kam his qilish	Doimiy janjallar, raqobat muhitining kuchayishi	“Mening hissiyotim” yondashuvi orqali fikr bildirish
3.	Bolalarga ko‘proq e’tibor qaratilgandagi rashk	Farzandlar oldida juftlikni pastga tushirish	Emotsional ehtiyojlar tahlili, rollar muvozanatini saqlash

Psixologik nuqtai nazardan rashk, asosan ikki asosiy omilga bog‘liq bo‘lishi mumkin: birinchisi, o‘zini o‘zgartirish yoki o‘zgartirishga urinish, ikkinchisi esa o‘zga shaxsga nisbatan boshqarilmagan, asabiy reaksiyalar va intizomsizlikdir. Rashkning psixologik mexanizmi ham insonning xavf va xafa bo‘lishdan qo‘rquviga bog‘liqdir. Inson o‘zining narsalariga, hissiyotlariga va jamiyatdagi obro‘-e’tiboriga xavf tushganda, rashkni ifodalashi tabiiy hisoblanadi.

Sog‘lom oilaning farovonligi, er-xotin o‘rtasidagi ishonch, samimiyat va o‘zaro hurmatga asoslanadi. Agar rashk haddan tashqari bo‘lsa, u oiladagi ishonchni va psixologik barqarorlikni buzishi mumkin. Odatda, rashk bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik holatlar o‘zini tutishdagi qiyinchiliklarga, stressga va hissiy izolyatsiyaga olib keladi. Bunday holatlarda, oilada sog‘lom kommunikatsiya va hissiy ehtiyojlarni to‘g‘ri anglash muhim bo‘ladi.

Rashkni boshqarish usullari: Ishonch va ochiq muloqot: O‘zaro muloqot, his-tuyg‘ularni ochiq va samimiy tarzda ifodalash, rashkni kamaytirish va o‘zaro ishonchni mustahkamlashning eng samarali yo‘lidir.

Emotsional o‘zgarishlarga qarshi kurashish: Rashk hissi ko‘pincha o‘z-o‘zini himoya qilish va boshqarilmagan o‘zgarishlardan kelib chiqadi. O‘zini anglash, o‘z hissiyotlarini to‘g‘ri boshqarish, oilaviy ziddiyatlarni kamaytiradi.

Hissiy ehtiyojlar va rollar: Har bir insonning hissiy ehtiyojlarini aniqlash va o‘zgarmas rollarni belgilash, oilaviy rollarni ajratish rashkni kamaytirishga yordam beradi.

Rashk, tabiiy hissiyot bo‘lishi mumkin, ammo uning haddan tashqari rivojlanishi va boshqarilmasligi oilada psixologik xavf va ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Rashkni boshqarish uchun samarali usullarni ishlab chiqish va o‘zgarmas o‘zaro ishonchni shakllantirish muhimdir. Shuning uchun, o‘rganilgan psixologik yondashuvlar va boshqaruv mexanizmlarini amaliyotga tadbiq etish oilaviy farovonlikka xizmat qiladi.

Ushbu tahlil, sog‘lom oilada rashkni boshqarishda psixologik yondashuvlarni kengaytirishga va oiladagi xavfsiz va barqaror muhitni yaratishga qaratilgan.

Adabiyotlar:

1. Kegan, R. (2003). The Psychology of Interpersonal Relationships. John Wiley & Sons.
2. Mahmudov, A. (2016). Oila va jamiyat: psixologiya va sotsiologiya. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti.
3. Parke, R. D. (2004). Developmental Psychology: A Life-Span Approach. Pearson Education.

HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY JIHATDAN O‘RGANILGANLIGI TALQINI

Raxmatov Faxriddin Umarovich
Namangan viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari-
Ma’naviy ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash xizmati boshlig‘i,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annatatsiya: Maqolada huquqiy madaniyatni rivojlantirishning falsafiy jihatdan o‘rganilganligi talqini o‘rganilgan. Ilmiy manbalar tahliliga ko‘ra huquqiy savodxonlik masalasini shaxsning ontogenetik taraqqiyot bosqichida shaxsning taraqqiyot bosqichlariga ko‘ra tadqiq etishga zarurat tug‘ildi. Huquqiy bilimlarni shaxs tomonidan o‘zlashtirishning muhim shartlaridan biri – fanga oid tushunchalarning shakllanganligi va ularning kundalik amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalariga egaligi bilan tavsiflanishidir.

Kalit so‘zlar: dialekt, mantiq, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, yoshlar tarbiyasi, mas’ul bo‘lgan ota-onalar, o‘qituvchi-tarbiyachilar, jamoatchilik, barkamol yoshlar, ustuvor vazifalar, tarbiyasida yuzaga kelayotgan muammolar.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ С ФИЛОСОФСКОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ

Аннотация: в статье рассматривается трактовка философского исследования развития правовой культуры. Согласно анализу научных источников, возникла необходимость исследования вопроса о правовой грамотности на этапе онтогенетического развития человека в соответствии с этапами развития личности. Одним из важных условий усвоения человеком юридических знаний является формирование понятий, связанных с наукой, и их описание путем обладания навыками применения их в повседневной практике.

Ключевые слова: диалект, логика, правосознание, правовая культура, правовая грамотность, воспитание молодежи, ответственные родители, педагоги-воспитатели, общество, компетентная молодежь, приоритетные задачи, проблемы, возникающие в образовании.

INTERPRETATION OF THE STUDY OF THE DEVELOPMENT OF LEGAL CULTURE FROM A PHILOSOPHICAL POINT OF VIEW

Abstract: The article examines the interpretation of the philosophical study of the development of legal culture. According to the analysis of scientific sources, it became necessary to research the issue of legal literacy at the stage of ontogenetic development of a person according to the stages of development of a person. One of the important conditions for the assimilation of legal knowledge

by a person is the formation of concepts related to science and their description by having the skills to apply them in everyday practice.

Key words: dialect, logic, legal consciousness, legal culture, legal literacy, youth education, responsible parents, teachers-educators, society, competent youth, priority tasks, problems arising in education.

Jahon ijtimoiy taraqqiyotidagi tub o‘zgarishlar jarayoni bugungi kunda aholi, ayniqsa yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Huquqiy bilimlarni shaxs tomonidan o‘zlashtirishning muhim shartlaridan biri – fanga oid tushunchalarning shakllanganligi va ularning kundalik amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalariga egaligi bilan tavsiflanishidir. Ta’lim subyektlariga huquqiy tushunchalarning shakllanishini psixologik-pedagogik jabhadan yoritish barobarida uning falsafiy ahamiyati nimadan iborat ekanligini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Masalani yoritishda tushunchaga fanlar tizimida berilgan tahlillar va talqinlarga muvofiq baholash muhim ahamiyatga ega. Bu esa bizni subyektlarda huquqiy tushunchalarni tarkib toptirishning falsafiy jihatlarini yoritishga zarurat tug‘dirdi. Shuningdek, huquqiy tushunchalar shakllanishining falsafiy talqini muammoning metodologik asoslarini o‘zida qamrab oladi.

Hozirgi davrda subyektlarning huquqni bilishlari murakkab o‘zgarishlar sharoitida amalga oshirilayotganligi sababli ularni huquqiy tushunchalarni o‘zlashtirish jarayoni aniq hamda ilmiy asoslangan metodologik yondashuvni taqozo etadi. Agar tushuncha subyektning voqyea-hodisa va predmetlar dunyosini bilish muhim shart sifatida qarashdan iborat umumiy tasavvurga binoan tahlil etilsa, uning falsafiy talqiniga ko‘ra ta’riflash lozim. Tushuncha fanlarning xususiyatidan kelib chiqqan holda tahlil qilinsa-da, lekin unda uning umumiy mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin: olimlar tomonidan tushunchalarni aniqlashdagi yagona birlik munosabat tushunchaning bilimlar muhim komponenti ekanligi haqida mulohazasining paydo bo‘lganligidadir. Tushunchaga bilish, mantiq, psixologiya, pedagogika bilan bog‘liq har bir fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda yondashiladi. Dialektik mantiq tushunchaga tafakkurning muhim shakli sifatida qaraydi. Formal mantiqda tushuncha tushunchalarni mantiqiy hosil qilishning muhim sharti, mazmunni yoritish usuli, tushunchaning ma’nosini bilish vositasi sifatida qaraladi. Psixologlar tushunchani predmet va hodisaning xususiyat hamda xossalarini umumlashtiruvchi bilim tarzida mulohoza yuritishadi. Pedagoglar esa tushunchaga ma’lum terminologik tuzilma ko‘rinishidagi voqyea va narsalarning mavjudligini aks ettiruvchi ilmiy bilishning shakli sifatida talqin qiladilar. Turli mutaxassislarning tushuncha to‘g‘risidagi qarashlarini umumlashtiradigan bo‘lsak, “tushuncha” - bilimning komponenti, mantiqiy bilish kategoriyasi sifatida interpritasiyadir.

Tushuncha mantiqiy, funksional mohiyatini tushunishda bir qator ilmiy lug‘atlarida keltirilgan izohlarni inobatga olish maqsadga muvofiq.

Tushuncha – predmet yoki hodisalarning muhim xususiyatlari, bog‘lanishlari yoki tizimlarning tafakkurda aks etishi; predmetlarni bog‘lab turuvchi bir qator ma’lum umumiy va ularga xos bo‘lgan belgilariga ko‘ra fikr yoki fikrlar tizimi, predmetlarni umumlashtiruvchi va ajratib turuvchi fikr yoki fikrlar tizimini aks ettiradi. Tushuncha kategoriyaning idrokda tatbiq etish natijasida mavjud. Bu yerda tushuncha mavhumligi idrokning konkretligiga zid turadi. Shuningdek, tushuncha so‘zga qarama-qarshi turib, tushunchaning belgisini ifodalaydi.

Falsafa tarixida ham tushuncha materialistik va idealistik yo‘nalishda talqin etilgan. Materialistlar tushunchaning o‘z ma’nosiga ko‘ra obyektiv mavjud, idealistlar esa spontan vujudga keluvchi fikriy mavjudlik deb talqin etadilar. Masalan, faylasuf G.Gegel tushuncha birlamchi, predmetlar, tabiat ularning rangsiz nusxasidir, deb izohlaydi.

Tushuncha – aniq mazmunga nisbatan va qiyosiy jihatdan aniq belgilangan hajmni aks ettiruvchi umumiy nomdir. Tushuncha, masalan, “kimyoviy element”, “qonun”, “tortishish kuchi”, “astronomiya”, “poeziya” tarzda mavjud. Nomlanishlar mavzulari o‘rtasidagi farqli chegarani tushuncha deb atash mumkin. “Tushuncha” nomlanishi mazmunan talqin qilganida yagona fikr mavjud emas. Masalan, bir holatda tushuncha deganda yagona holatni ifodalash tushunilsa, boshqa bir holatda esa u voqyea-hodisa va predmetlarni aks ettiruvchi umumiy nom tushuniladi.

Tushuncha atamasi an’anaviy mantiqda ko‘p qo‘llanilib, fikrning uch umumiy mazmuni ajratib ko‘rsatiladi, tushuncha, ya’ni hukm va xulosa chiqarish.

Tushuncha tushunchalardan iborat bo‘lgan, hukm va xulosa chiqarishga teskari bo‘lgan tafakkurning mantiqiy shakllaridan biridir. Zigvart bo‘yicha tushuncha, o‘zida doimiylik, mutlaqo aniqlik, umum e’tirof etganlik, tilda bir xillikning ifodalashini tashkil etuvchi tasavvurda mavjud. Mantiqdagi tushunchadan kundalik turmushda ishlatadigan tushunchalarimiz ayni damda keskin farqlanadi.

Agar tushuncha borasidagi tarixiy ma’lumotlar manbaiga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, uni falsafiy ilmlar rivojlanishining tarixiy bosqichlarida kuzatish mumkin bo‘ladi. Bizga ma’lumki, tushuncha har bir fan kabi mantiq ilmida ham o‘zini shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Mantiqqa oid dastlabki an’analar Qadimgi Sharq mamlakatlarida, xususan, Hindiston, Xitoyda vujudga keldi. Ularning shakllanishiga notiqlik san’ati, matematika ilmining rivojlanishi va shu kabilar katta ta’sir ko‘rsatdi. Shuni aytish kerakki, qadimgi dunyoda Aristotelgacha bo‘lgan davrda mantiq falsafa tarkibida mavjud bo‘lgan, mustaqil fan sifatida shakllanmagan. Qadimgi Hindistonda mantiq ilmining rivojlanishi uch davrni o‘z ichiga oladi: 1) ilk budda mantig‘i (er. av. VI-V asrlari); 2) nyaya, vaysheshika maktablarining mantiqiy ta’limoti (er. III-V asrlari); 3) budda mantig‘ining rivojlangan davri (er. VI-VIII asrlari).

Platon (er. av. 427-347) ustozi Sokratning, umumiy tushunchalar buyumlarning mohiyatini ifodalaydi, degan fikrini davom ettiradi. U umumiy tushunchalarni buyumlardan va insonlardan ajralgan mutlaq g‘oyalar sifatida

talqin qiladi, ularni birlamchi deb biladi. U hukmni tafakkurning asosiy elementi deb hisoblaydi. Hukm ega va kesimning birligidan iborat bo‘lib, tasdiq yoki inkor ma’noni bildiradi. Agar hukmda birlashishi mumkin bo‘lmagan tushunchalar birlashtirilsa, u xato bo‘ladi. Platon hukmlarni tashkil etuvchi tushunchalarni piramida shaklida tasvirlaydi.

Aristotel asarlarida tafakkurning ayniyat va yetarli asos qonunlari maxsus tarzda ko‘rib chiqilmagan. Lekin mutafakkir asarlarining tahlili ularda bu qonunlarga xos talablarning bayon qilinganligini ko‘rsatadi. Aristotelning mantiqiy ta’limotida xulosa chiqarish yetakchi o‘rinni egallaydi. U tafakkur shakllari bo‘lgan tushuncha va hukmni xulosa chiqarishning tarkibiy qismlari sifatida tahlil qiladi. Aristotel tushunchalarni hukmning tarkibiy qismlari sifatida tahlil qiladi, umumiy va yakka tushunchalarning munosabatiga alohida e’tibor beradi. Yakka tushunchalar birinchi mohiyat bo‘lib, mazmunan boydir. Umumiy tushunchalar ikkinchi mohiyatni ifodalaydi va ular mazmunan boy emas. Umumiylik yakka buyumlarning asosini tashkil etadi [12].

Epikur (er. av. 341-270) falsafada birinchi o‘ringa bilish nazariyasi va mantiqni qo‘ygan, ikkinchi o‘rinda – fizika, uchinchi o‘rinda – axloq bo‘lgan. U tug‘ma g‘oyalar yo‘q, bilimlarimizning manbai – sezgilardir, sezgilarimiz yolg‘on ma’lumot bermaydi, faqat xulosa chiqarishdagina inson xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin, deb ta’kidlaydi. Epikur xulosa chiqarishda ko‘proq analogiya va induksiyaga ahamiyat bergan [12].

Tushuncha muammosini o‘rganilganligining falsafiy ildizlari buyuk allomalarimizning asarlarida ham juda ko‘p uchraydi. Ular asarlarining mantiq ilmiga bog‘liq ulushlarini keltirib o‘tamiz.

IX-XII asrlarda mantiq masalalari bilan astoydil shug‘ullangan O‘rta Osiyo mutafakkirlaridan Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiylarni ko‘rsatish mumkin.

Forobiyning mantiq sohasidagi ishlarining davomchilaridan yana biri, turli ilm sohalariga oid qator asarlar yaratgan, o‘z davrining dunyoga mashhur qomusiy olimi Abu Ali ibn Sino (980-1037)dir. Ibn Sinoning mantiq ilmida tafakkur shakllari bo‘lgan tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, ularning tuzilishi, turlari, shuningdek, isbotlash masalalari keng va har tomonlama tahlil etiladi.

U tushunchalarni yakka va umumiy tiplarga ajratadi. Mutafakkirning ta’kidlashicha, mantiq fani umumiy tushunchalar bilan shug‘ullanadi. U ham, Aristotel kabi, mavjud borliqning eng umumiy holatlarini ifodalovchi o‘nta umumiy kategoriyalarni mantiq fanini o‘rganish doirasiga kiritadi. Tushunchaning asosiy vazifasi hukm va xulosa chikarishni tashkil etish, ularga asos bo‘lishdir, deb ta’kidlaydi. U tushunchalarni ta’riflash va bo‘lish kabi mantiqiy usullarga ham batafsil to‘xtab o‘tadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tushuncha inson bilimlarining muhim bir shakli sifatida falsafiy ta’limotlar tarixida muhim o‘ringa ega. Tushunchaning falsafiy talqinida uning bugungi kungacha bo‘lgan umumiy izohlar keltirilgan deyishimiz mumkin. Tarixiy materiallarda tushuncha falsafiy

talqinga ega bo‘lsa-da, lekin uning umumiy ta’rifi fan taraqqiyotining hozirgi bosqichiga qadar yangidan yangi talqin etilib kelinmoqda.

O‘spirinlarda huquqiy tushunchalarni shakllanishning falsafiy talqini huquqshunoslik sohasiga oid tushunchalarning metodologik tuzilmasini aniqlashishga yo‘naltirilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2008 yil.
3. Filosofiya: Ensiklopedicheskiy slovar / Pod red. A. A. Ivina. — M.: Gardariki, 2004. -640 s.
4. Qodirov O.S.. Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
5. Qodirov O.S., Xotamov Sh.N.. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. - Samarqand, 2023.-346 b.
6. Safarovich Q. O. et al. O‘quvchilar xulq-atvori profilaktikasida maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ta’sir modeli //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 382-386.

Internet saytlari:

7. http://fikr.uz/posts/Fikr_psixologiya.
8. http://lex.uz/pages/getpage.aspx.

ИСКУССТВО ДИАЛОГА КАК СПОСОБ РАЗВИТИЯ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Саодат Хабибовна Хуррамова
Самаркандский государственный университет
имени Шарофа Рашидова Самарканд, Узбекистан
e-mail: saodatkhurramova5@gmail.com

Люди с различными точками зрения, вступая в диалог, вместе могут совершать большие перемены в направлении развития человеческого достоинства, восстановления окружающей среды и всеобщей безопасности. Мир во всем мире начинается с установления мира между обычными людьми. Научившись по - настоящему слушать собеседника и выражать свои истинные намерения и чувства, мы смогли бы таким образом разрешать множество конфликтов. Диалог в педагогической деятельности является важным фактором для плодотворного творчества преподавателя и студентов.

Навыки искусства ведения диалога и их значение всесторонне раскрываются американскими учёными Крэйгом Шиндлером и Гари Лапидом в их работе «Навыки искусства ведения диалога», где они отмечают, что «диалог нужно отличать от обычных взаимодействий, когда мы отстаиваем неизменные позиции и приводим аргументы в защиту своей точки зрения. Намерение обратить других в свою веру не имеет ничего общего с диалогом. Диалог стремится создать встречу умов. Он основывается на обоюдном желании слушать и понимать друг друга». [5, с.229]

Диалог — это процесс совместного творческого мышления для нахождения справедливого, честного решения, и этот процесс не предполагает доказательства, что мнение кого-либо есть единственно верное. В этом плане диалог представляет собой как один из способов выражения толерантности. Толерантность (от латинского tolerantia - терпение) - терпимость к чужому образу жизни, поведению, обычаям, чувствам, мнениям, верованиям. Толерантность является одним из основных демократических принципов, который тесно связан с концепциями плюрализма, социальной свободы прав человека.

Как указывается в статье 1 Декларации принципов терпимости, принятой на 28 сессии Генеральной конференции ЮНЕСКО 16 ноября 1995 года, «терпимость означает уважение, принятие и правильное понимание богатого многообразия культур нашего мира, форм самовыражения и проявление человеческой индивидуальности. Ей способствуют знания, открытость, общения и свобода мысли, совести и убеждений. Терпимость — это единство в многообразии. Это не только моральный долг, но и политическая правовая потребность. Терпимость — это то, что делает возможным достижение мира и ведет от культуры войны к культуре мира». [1.] Исходя из этих положений следует, что диалог, отвечающий определенным критериям и требованиям, может служить развитию оптимизации человеческих отношений, способствовать консенсусу в принятии решений, а также воспитанию толерантности. «Сегодня можно говорить о становлении новых форм человеческой личности и соответствующем изменении и переосмыслении проблематики человека. Человек ведет диалог не только с другими, но и с самим собою, со своей историей, с непрозрачными пластами своей психики, меняясь в ходе этого диалога. Искусство при таком понимании должно быть, и является в своих высших проявлениях, прежде всего способом приобщения к иному опыту другого человека, социальной группы, культуры. Способ этот уникальный и ничем не заменимый, ибо во многих случаях понять чужой опыт, вчувствоваться в него, сопережить его иначе, чем посредством искусства, невозможно. Искусство, таким образом, тоже выступает как своеобразная форма коммуникации, диалога»! [3, с. 3]

Такое понимание толерантности актуально сегодня в нашем обществе и образовании, поскольку очень важно, чтобы подлинный

плюрализм мнений существовал в реалиях: каждый человек мог достойно представить свою позицию, вместе с тем уважительно, терпимо отнестись к другой и в процессе диалога прийти к консенсусу. Оригинальная концепция диалога представлена во второй половине XX века в трудах известного российского философа М.М. Бахтина. В своих работах он говорит о диалоге народов, наций, культур, об их взаимопонимании, основанном на единстве человечества и культур, которое раскрывается на уровне большого времени. Для того чтобы культура вступила в диалог, ей нужны новые вопросы, которые ставятся другим образом, чем культура ставила их самой себе. «При такой диалогической встрече двух культур они не сливаются и не смешиваются, каждая сохраняет свое единство и открытую целостность, но они взаимно обогащаются” [2, с.25]

Нам бы хотелось остановиться на анализе основных принципов ведения диалога в межличностном и коллективном общении, особенно это актуально для профессиональной деятельности педагогов Такой вид диалога является неотъемлемым компонентом в процессе принятия важных решений, в обсуждении различных проблем и разрешении сложных противоречивых, зачастую конфликтных ситуаций окружающей нас действительности.

По определению К.Шиндлера и Г.Лапида имеются 4 основных навыка искусства ведения диалога. Навык первый — это установление главных правил. В первую очередь, в начале диалога необходимо взять обязательство слушать и учиться с взаимным уважением, то есть быть толерантным и гуманным.

Цель установления основных правил - состоит в создании климата подлинной безопасности и честного обмена мнениями. В основе линии поведения лежит обоюдное обязательство действовать на основе золотого правила нравственности, принципах взаимности, т.е. относиться к другому человеку с таким уважением, какого вы хотели бы по отношению к себе. Эти основные правила и есть точка опоры, с помощью которой можно сдвинуть процесс от противостояния к совместному творчеству.

Навык второй: слушание с сопереживанием. Суть его заключается в том, чтобы слушать другого человека с особым вниманием, не думая о том, согласны мы или не согласны с его убеждениями, идеями или установками. Необходимо постараться поставить себя на место другого человека. Шиндлер и Лапид в своей работе приводят сравнительный пример того, что два компьютера могут обмениваться важной информацией, но установить диалог они не могут. Диалог требует, чтобы двое или более людей не только слушали то, что им говорят, но также проникали в глубину личности друг друга. Этот вид восприятия является искусством и нуждается в регулярной практике для полного развития его возможностей.

Большинство людей, разговаривая, пытается заставить других слушать себя. Это не всегда удается, потому что человек, которого просят слушать, также ждет с нетерпением возможности быть услышанным. Из-

за этой внутренней потребности говорить мы часто не можем хорошо слушать.

Даже когда кажется, что мы слушаем, наше внимание весьма часто рассеивается. Мы порой внутренне противодействуем тому, что сказал другой человек, думая о наших собственных умонастроениях. Это очень усиливается при наличии противоборства: если один человек говорит что-то, с чем другой не согласен, второй начинает готовить опровержение прежде, чем первый произнесёт несколько предложений. Настоящее слушание требует восприимчивости, определенного свободного пространства в сознании. Когда разум спокоен, легче услышать друг друга на глубинном уровне.

Навык третий — это повторение с пониманием. Сущность данного навыка заключается в том, что следует объяснять участнику диалога то, как вы поняли его слова высказывания своего мнения или суждения. После повторения мысли вашего собеседника целесообразно уточнить, что вы упустили, и что нужно исправить для достижения полного понимания. В этом смысле, диалог является непрерывной цепочкой обратной связи, которая служит более лучшему взаимопониманию. Готовность правильно воспроизвести точку зрения и позицию другого человека — это стремление увеличить глубину и точность нашего восприятия.

В процессе достижения взаимопонимания очень важно показать готовность внимательно слушать. Это часто помогает приобрести уважение со стороны оппонента, который признателен вам за попытку понять его точку зрения. Полезно всегда удостоверяться в том, что обе стороны действительно говорят об одних и тех же вещах. Когда собеседник слышит и размышляет над собственными убеждениями, которые высказаны ему оппонентом, это обратная связь дает ему возможность достичь нового уровня понимания.

Навык четвёртый — это правдивая собственная информация. После того, как мы выслушали и воспроизвели мнение собеседника, наступает время выражения своей точки зрения и как защитника того, что мы считаем правдой, и как эмпирика, ищущего новые факторы и более глубокое понимание проблемы. Высказывая свою собственную точку зрения, надо быть честным и откровенным так, как тому располагает ситуация и человек, к которому мы обращаемся. Важнейшей частью искусства диалога является знание соответствующего уровня информации для общения с другими людьми.

Надо быть предельно ясным и точным в своей речи. Это нелегко и требует дисциплины. «Как часто, - отмечают Шиндлер и Лапид - наши разговоры переходят в боевые действия из-за того, что мы не точны в выражениях. Мы излагаем наши позиции предельно напыщенно и даём далеко не точное представление о том, что мы на самом деле думаем. Это ведет к поляризации и черно- белому мышлению. Говорить то, что мы

действительно имеем в виду очень важно, чтобы поддерживать глубокий осмысленный диалог»! [5, с.231]

Таким образом, все навыки искусства ведения диалога служат реальному, практическому, воплощению в жизни людей принципов гуманизма и толерантности. Воспитание культуры толерантности и согласия несомненно является одной из центральных задач образования в XXI веке. В «Декларации принципов терпимости» отмечается, что воспитание в духе толерантности следует рассматривать в качестве неотложной важнейшей задачи. В связи с этим необходимо содействовать разработке методике преподавания толерантности. систематической и рациональной основ, вскрывая культурные, социальные, экономические, политические и религиозные источники нетерпимости, выступающие в качестве главных причин насилия и отчуждения. Политика и программы в области образования должны способствовать улучшению взаимопонимания, укреплению солидарности и терпимости в отношениях, как между отдельными людьми, так и между профессиональными сообществами. Особенно следует отметить огромную позитивную роль соблюдения принципа толерантности в профессиональной деятельности педагогов, способствующего значительному улучшению морально-психологического климата в коллективе, а также формированию высоких нравственных качеств личности в подрастающем поколении.

Использованная литература

1. Декларация принципов терпимости. Париж 16 ноября 1995 nrm.uz/content
2. Волкова Е.В. Эстетика М.М.Бахтина. Москва,1990
3. Лекторский В. О толерантности, плюрализме и критицизме. Москва, 2001
4. Философия, наука, цивилизация. Москва,1999
5. К. Шиндлер и Г. Лапид. Навыки искусства ведения диалога. Антология ненасилия. М.2002

SHAXSNING O‘Z-O‘ZIGA BO‘LGAN ISHONCHINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI.

Sattorova Sh.S.
KIUT Samarqand filiali 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Har bir shaxsda ham o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchi namoyon bo‘lavermaydi. Bu xam o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, har qanday yoshdagi insonlarda bu narsani bemalol ko‘rsa bo‘ladi. Maqolada shaxsnini o‘z-o‘ziga ishonchi uning hayotida katta rol o‘ynashi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishida

munosabatlarda, baxtni his qilishida yordam berishi haqida yoritiladi. Va ularga psixologik usullarda yordam berilishi haqida yechim xulosalar qilinadi.

Kalit so‘zlar: emotsiya, jamiyat, baxt, psixolog, munosabatlar, ishonch, shaxs, inson.

Аннотация: Не каждый персонаж проявляет уверенность в себе. Это также сложный процесс, который можно легко наблюдать у людей любого возраста. В статье обсуждается важность уверенности человека в себе в его жизни. Играть важную роль, найти свое место в обществе, в отношениях,

Объясняется, что это помогает чувствовать себя счастливым. И выводы о том, как им помочь психологическими методами. Это глина.

Ключевые слова: эмоции, общество, счастье, психолог, отношения, доверие, человек, человеческое существо

Abstract: Not every person shows self-confidence. This is also a complex process in itself, and it can be easily observed in people of any age. The article discusses the fact that a person’s self-confidence plays a big role in his life, helps him find his place in society, in relationships, and in feeling happiness.

And conclusions are drawn about how to help them with psychological methods

Key words: emotion, society, happiness, psychologist, relationships, trust, person, human being

Bugungi kun shiddat bilan o‘tib borayotgan ekan, har bir shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari, orzulari bo‘ladi. O‘z maqsadlaringizga orzularingiga erishish uchun birinchi navbatda o‘z – o‘ziga bo‘lgan ishonchi talab qilinadi.

Shaxsning shakllanish omillari ko‘p va xilma-xiddir. Masalan, genetik (nasliy), biologik-tabiiy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi, o‘z turdoshlari bilan munosabatlar va boshqalar shaxsning genetik jihati uning nasliy asosi, ajdodlaridan yetib kelgan fizionomiya, fe’l-atvor bilan, biofiziologik jihati esa yashash uchun quvvat olish, ovqatlanish, jinsiy aloqaga kirishish va nasl qoldirish singari individual ehtiyoj bilan belgilanadi.

Shaxs, mohiyatiga ko‘ra, madaniylashgan, ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan, ijtimoiy-tarixiy an’ana, turmush tarzi va tajribaga asoslangan muayyan avlodlar vakili. Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o‘zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o‘rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, sharqda u yuksak axloqiyma’naviy me’yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go‘zal va farovon bo‘lishiga ehtiyoj sezadi.

Shaxsning hayot tarzi bevosita jamiyat hayotiga daxldor va hayot ne’matlaridan to‘la foydalanishga haqli. Shaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak ko‘rinishi, oliy maqomidir. Har qanday odam tabiiy mavjudligi, yashash

huquqi va hayot qadriyatiga ega bo‘lgan jonzotdir. Biroq u hamma vaqt ham to‘laqonli shaxs bo‘lib yetilmasligi mumkin.

Ishonch — tabiiy narsa. Hech kim ishonchsizlik bilan dunyoga kelmaydi. Go`dak bolaga e`tibor bering, u o`z-o`zidan emaklay boshlaydi, qiziquvchanlik bilan atrofidagi narsalarga qo`l uzatadi, qo`yib bersangiz, sherning qafasiga ham qo`rqmasdan kirib borishi mumkin. Qo`rquv, xavotir begona bo`lgani uchun ham bolalarda hammasi tabiiy kechadi. Ishonchsizlik keyinchalik paydo bo`ladi, ya`ni u orttirilgan muammo. Tarbiya, yomon tajriba, ijtimoiy muammolar, ruhiy va jismoniy jarohatlar uning yuzaga kelishini ta`minlaydi.

Ishonchning shakllanishi ko‘plab omillarga bog‘liq. Avvalo, oilaviy muhit va tarbiya katta ahamiyatga ega. Ota-onalar va yaqinlar tomonidan berilgan qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirishlar ha o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Har bir shaxsning o‘z qobiliyatlariga ishonishi va o‘zini qadrlashi, uning kelajakdagi muvaffaqiyatiga asos soladi. Shuningdek, do‘stlar va hamkasblar bilan o‘zaro munosabatlar ham ishonchni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ijobiy munosabatlar va qo‘llab-quvvatlash, insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga yordam beradi.

O‘z-o‘ziga ishonchning yo‘qolishi ko‘plab salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. O‘ziga ishonmaydigan insonlar ko‘pincha yangi imkoniyatlardan voz kechadilar va muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan qadamlarni tashlamaydilar. Bu esa ularning shaxsiy va professional hayotida orqaga siljishiga olib kelishi mumkin. Ishonch yo‘qolganida, inson o‘zini noqulay his qiladi, o‘z maqsadlariga erishishdan qo‘rqadi va ko‘pincha umidsizlikka tushadi.

Har bir Shaxs o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish uchun harakat qilish kerak. O‘z qobiliyatlarini rivojlantirish, yangi bilimlarni o‘rganish va tajribalar orqali o‘z-o‘zini sinovdan o‘tkazish — bularning barchasi o‘z-o‘ziga bo‘lga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Insonlar o‘z maqsadlariga erishishda qat’iyatli bo‘lishlari lozim. Har bir muvaffaqiyatli qadam, har bir kichik g‘alaba — bu ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

O‘ziga ishongan kishi deyarli darhol ko‘zga tashlanadi. Bunday shaxsning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

Shaxsiy hayotiy holati. O‘z-o‘ziga Ishonchli inson nimani xohlashini va unga erishish uchun o‘zining tayyor ekanligini aniq biladi. U boshqa odamlarning fikriga qiziqishi mumkin, lekin u o‘z fikriga ega, uni himoya qiladi va buni u qat’iylik bilan bajaradi.

Hissiyotli. Ha, bu odam g‘azablanadi, g‘amgin bo‘ladi va hatto yig‘laydi, kuladi, u uchun bu juda oddiy hol bo‘lib, his-tuyg‘ularini ko‘rsatishdan qo‘rqmaydi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish. Bu xususiyat bir qarashda mos kelmaydigandek tuyuladi. Lekin kimdir tuyg‘ularini ranjitsa yoki tinchligini buzsa, kuchli shaxsiyatga ega inson o‘z vaqtida o‘zini qo‘lga oladi va teran aql bilan o‘ylashni boshlaydi.

Javobgarlik. Agar kishi javobgarlikni o‘z bo‘yniga olishga tayyor bo‘lsa, demak u vazifani uddalay olishiga va kutilgan natijaga erishishiga ishonadi.

Qat’iylik. Kuchli shaxsiyat egasi vaziyatni yaxshilanishi yoki taqdirning kutilmagan sovg‘asini kutib o‘tirmaydi, u birinchi qadamni tashlaydi, hammasini o‘z qo‘liga oladi va kamida o‘zi xohlagan narsasini olishga harakat qiladi.

Yaratuvchanlik qobiliyati. Agar nimadir noto‘g‘ri ketsa, o‘ziga ishonmagan shaxs chekinadi, kuchli shaxs esa sharoitga qarab xatti-harakatni boshlaydi, tajriba qiladi va bundan o‘z malakasini oshirish uchun foydalanadi.

O‘ziga ishongan ayol har doim latofatli ko‘rinadi, hatto makiyaj qilish uchun ulgurmagan bo‘lsa ham. U biladi, o‘zini go‘zal va ijobiy jihatlari bilan namoyon eta olishini.

O‘ziga ishongan erkak har joyda yetakshilikni bemalol qo‘lga ola oladi oilada jamiyayda korxonada hammasini eplashini biladi. U birinchi bo‘lib tashabbusni o‘z qo‘liga oladi hato osonlik bilan ayollar e’tiborini qozonadi.

Aniq maqsadli, oldinga harakatlanish. Kuchli shaxsiyat egasi nimaga qodirligini va nimaga intilayotganligini biladi, shuning uchun u maqsad sari harakat qiladi va joyida o‘tirmaydi.

Bunday kishini omadsizlik qo‘rqitmaydi, u o‘z xatolarini va muvaffaqiyatsizliklarini bebaho tajriba sifatida qabul qiladi, o‘z navbatida kelajakdagi muvaffaqiyatga erishishi uchun undan foydalanadi.

Kuchli yetakchilik. Ishonchli odamlar itoat qila olishni bilishadi, lekin har doim mustaqil harakat qilishga intiladi. Agar hammasini o‘z qo‘liga olish kerak bo‘lsa yoki tashkilotchilik bilan shug‘ullanish kerak bo‘lsa yoki jarayonni nazorat qilish kerak bo‘lsa, u buni muvaffaqiyatli va qoniqish bilan amalga oshiradi.

Qobiliyati. O‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchi baland shaxs ko‘plab sohalarda o‘z kuchini ishlatishga urinadi, yangi qobiliyat va ko‘nikmalarni egallashga urinadi, o‘zini nimaga qodirligini biladi.

O‘z-o‘zini ta’minlash. O‘ziga ishongan odamlar kimgadir bog‘lanib qolinishiga yo‘l qo‘ymaydi, u faqat o‘ziga tayanish mumkinligini biladi.

Optimizm. Ha, optimistik fikrlarni ham o‘ziga ishonch belgisi sifatida atash mumkin, chunki ular kayfiyat bilan bog‘liq, qaysiki hayotiy dunyoqarashi va albatta, xarakter xususiyatlari bilan ham belgilanadi.

Erkinlik. Ishonchli odamlar birovning fikriga qaram emas, ta’sirga tushishga moyil emas, u butunlay ochiq, o‘zgariishlar va yutuqlarga erishish uchun tayyor.

Ishonchni oshirishning eng samarali usuli — sport bilan shug`ullanish, raqsga tushish, rasm chizish, tabiyat qo‘ynida sayohatlar qilish

Oyna usuli: Bu usul oynani oldida erta tongdan o‘zingizga qaragan holda men o‘zimga ishonaman, meni o‘zimga bo‘lgan ishonchim juda baland, men hammasini eplayman, men judda kuchliman, men o‘tmishni unitib kelajak bilan yashahman. Xuddi shu jumlalarni xar kuni takrorlashingiz kerak bo‘ladi . To‘g‘ri boshida sal qiyinroq bo‘lishi mumkin, lekin insoni adabtatsiya jarayoni 14kundan 260 kuni o‘z ichiga oladi. Bu albatta mashqlarga ularni oson yoki qiyinligiga bog‘liq.

Eng avvalo odatlaringizni o‘zgartirishdan boshlang. Tanqid, taqqoslash, xatolarga diqqat qishni mana bunday foydali odatlarga o‘zgartirishingiz mumkin.

Siz o‘zing‘izni tanqid qilsh o‘rniga – Kuchli tarafingizni toping

O‘zingizni boshqalar bilan taqqoslash o‘rniga _ Boshqalarning misolida ilxomlaning

Xatolarga diqqat qilish o‘rniga – Xatolarga o‘sish va rivojlanish uchin tajriba sifatida qarang.

Ishonch shu qadar katta kuchga egaki, o‘layotgan odamni tiriltirishi, soppa-sog‘ insonni falaj qilishi, hatto oldirishi mumkin. Ishonch bizni bu dunyoda suyab turgan ustunlardan biri. Ozuqa odam uchun qanchalar darkor bolsa, ishonch va umid ham shunchalar zarur. Bu narsalar ruhimiz ozuqasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бодалев А.А. *Личность и общение.* — М.: МГУ, 1987.
2. Столин В.В. *Самосознание личности.* — М.: МГУ, 1983.
3. Рубинштейн С.Л. *Основы общей психологии.* — СПб.: Питер, 2002.
4. Леонтьев А.Н. *Деятельность. Сознание. Личность.* — М.: Смысл, 2005.
5. Алимов Н.А. *Shaxs psixologiyasi.* — T.: TDPU, 2020.
6. Yo‘ldoshev Q.X. *Psixologiyaning nazariy asoslari.* — T.: O‘qituvchi, 2019.
7. Abduqodirov A.A. *Ijtimoiy psixologiya*. — T.: Fan, 2017.
8. Zayniddinova D.X. *O‘smirlar o‘z-o‘zini baholashining psixologik xususiyatlari.* — Maqola, 2021 // “Psixologiya va hayot” ilmiy jurnali.

KIYINISH MADANIYATI – TALABA MA’NAVIYATINING KO‘ZGUSI

Saydullayev Djamoliddin Yaxshiboyevich
SamDU Amaliy psixologiya kafedrasi dotsenti
Ro‘ziaxmatova Madina Beknazar qizi
SamDU Amaliy psixologiya yo‘nalishi talabasi
Kamoliddinova Farida To‘lqin qizi
SamDU Amaliy psixologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talaba qizlarning kiyinish madaniyati tahlil qilinib, milliy tarbiyalashda milliy kiyinish ko‘nikma, odatlarini tarkib toptirish mehanizmlari o‘z aksi topgan. Ota-onalarni talaba qizlarni milliy kiyintirishga amaliy tayyorlash masalalari asoslab beriladi

Kalit so‘zlar: ma’naviy-axloqiy sifatlar, axloqiy tarbiya, ijtimoiy mas’uliyat, milliy g‘urur, axloqiy ong, ma’naviy qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье анализируется культура одевания студенток, отражаются механизмы формирования навыков, привычек национальной одежды в национальном воспитании. Обоснованы вопросы

практической подготовки родителей к национальному переодеванию девочек-школьниц

Ключевые слова: духовно-нравственные качества, нравственное воспитание, социальная ответственность, национальная гордость, нравственное сознание, духовные ценности.

Annotation: in this article, the culture of dress of student Girls is analyzed and the mechanisms of composing national dress skills, habits are reflected in national upbringing. The issues of practical preparation of parents for the national dressing of student girls are justified

Key words: spiritual and moral qualities, moral education, social responsibility, national pride, moral consciousness, spiritual values.

Aqli zaif bolada aks ettiruvchi faoliyatning farqli xususiyati unda bilish faoliyatlarining buzilmaganligi hisoblanadi. Bu eng avvalo umumiy va vositali bilimning buzilishidir. Maqsadga qaratilgan faoliyat sifatida tafakkur har doim ma’lum muammoning yechimi sifatida yuzaga chiqadi. Aqliy masalalarni yechish jarayoni bir nechta bosqichlarga ega: masala shartini tushunish, savol qo‘yish, yechim ehtimoli farazini yaratish, yechimni topish va uning to‘g‘riligini tekshirish. Barcha fikrlash jarayonlari o‘zida shaxsning qobiliyatlari, bilim va malakalarini ochib beruvchi ixtiyoriy, maqsadga qaratilgan faoliyatlarini amalga oshiradi. Aqliy masalalarni yechish aqli zaif bolalarda boshlang‘ich davrdayoq muhim qiyinchiliklarga olib keladi. Ular ko‘pincha masalani noto‘g‘ri anglaydi, uni qisqartiradi yoki buzadi. Shu tariqa, avval boshdanoq, maqsadga qaratilgan tafakkur buzilgan va u boshqaruvchi vazifani boshqara olmay qoladi. Yechishning keyingi bosqichlarida kamchiliklar kuzatiladi. Qo‘llanilayotgan yechish usullari noto‘g‘ri va samarasiz boladi. Masalani yechish jarayonida qo‘yilgan maqsaddan chetga chiqish, muammoning qaysidir xususiy tomonida to‘xtab qolish kuzatiladi. Yechish jarayonida ko‘pincha xatolar va tekshirishlar majmuyiga olib keladi. Tekshirish zarur bosqich sifatida qabul qilinmaydi. Olingan natijalar boshlang‘ich ma’lumotlar bilan bogliq bolmaydi. Tafakkurning past mahsulligi aqliy masalalarni yechishning barcha bosqichida ko‘rinadi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida aqli zaif bolalarga o‘z faoliyatini tashkil etishga, aqliy jarayonning bosqichi to‘laqonli o‘tishiga yordam berish kerak. Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur uchun obrazlar bilan aqliy faoliyat natijalari, tasavvuri orqali aqliy masalalarni yechish xarakterli hisoblanadi. Haqiqiy hayotdagi predmetlar obrazini tahlil qilish, ichki nutq yordamida amalga oshiriladi. Me’yorda rivojlanayotgan bolalarda ko‘rgazmali-obrazli tafakkur asosan maktabgacha yoshda rivojlanadi. Aqli zaif o‘quvchilarda tasavvur etilayotgan va idrok etilayotgan predmetlarni analiz va sintez qilishning rivojlanganligi kuzatiladi. Ularning diqqatini predmetlarning mavjud bolmagan xususiyatlari, yorqin ko‘zga tashlanadigan belgilari tortadi. Maxsus maktab o‘quvchilarida alohida predmetlar va predmetli holatlarni so‘z bilan tavsiflashda

qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu toifa o‘quvchilar o‘zlariga tanish predmetlarni qarama-qarshi qo‘yib, ularni taqqoslashda ularning umumiy xususiyatlaridan asosiysini aniqlash imkoniyatiga ega emas. Ularda tasavvurga ko‘ra taqqoslash vazifasini tushunmaslik kuzatiladi. 0_quvchilar so‘zni erkin ravishda qoilay olmaydi. T.A. Pratsko aqli zaif bolalarda topishmoq materiali asosida so‘zli-obrazli masalalarni yechish xususiyatlarini o‘rgangan. Uning aniqlashicha, topishmoqni tushunishning boshlang‘ich bosqichida o‘quvchilar uning javoban ifodasini topgan so‘zlarni ajratadi. Nutqning tasviriy vositasi ular uchun tushunarsizligicha qoladi.

Aqli zaif bolalarda ko‘rgazma-harakatli tafakkurning rivojlanishi orqada qoladi. Aqli zaif bolalar predmetlar bilan harakat qilishlarining har kungi tajribalarini mustaqil umumlashtira olmaydilar. Shuning uchun aqli zaif bolalarda umumqabul qilingan qurollardan foydalanishni talab etadigan anglash bosqichi rivojlanmagan bo‘ladi. Amaliy harakatlar va ularni so‘z belgilari o‘rtasidagi aloqa yetarlicha bo‘lmaydi. Nutq tashkil etuvchi va boshqaruvchilik vazifasini bajaradi. Aqli zaif bolalarda ko‘rgazma-harakatli tafakkurni shakllantirish asosiga muammoli amaliy vazifa va vaziyatlarda mustaqil mo‘ljal olishni rivojlantirish kiritilishi lozim. Aqli zaif bolalarda amaliy vazifalarni bajarishda qiyinchilik yuzaga keladi. Masalan, aqli zaif bolalarga kesma rasmlarni birlashtirish va Segen doskasini to‘ldirish qiyinchilik tug‘diradi. Ularning predmetlar bilan harakatlari impulsiv xarakterga ega, bu harakatlar fikrlash vazifasiga bog‘liq bo‘ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Aqli zaif bolalar, ularning rivojlanishi uchun moslashtirilgan yondashuvlar va metodlarga muhtoj bo‘lishadi. Ularning tafakkur jarayonlari boshqalarga qaraganda sekin rivojlanadi, ammo to‘g‘ri ta’lim usullari bilan bu jarayonni tezlashtirish mumkin. Aqli zaif bolalarni tafakkur xususiyatini rivojlantirish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan metodlarni ko‘rib chiqamiz.

Aqli zaif bolalar tafakkurini rivojlantirishda individual yondashish muhim hisoblanadi. Aqli zaif bolalar har biri o‘ziga xos va turli xildagi rivojlanish ehtiyojlariga ega bo‘lgani uchun, har bir bolaga individual yondashuvni ta’minlash zarurdir. Ularning intellektual va emotsional ehtiyojlarini hisobga olib, o‘rganish jarayonini ular uchun qulay va samarali qilish mumkin. Bu metodda o‘rganish tezligi va darajasi har bir bolaning qobiliyatiga moslashtiriladi.

Vizual materiallar, ya’ni tasvirlar, grafiklar, diagrammalar va boshqa ko‘rgazmali vositalar aqli zaif bolalar uchun o‘rganishni osonlashtiradi. Vizual vositalar tafakkurni rivojlantirishda juda samarali bo‘lishi mumkin, chunki ular tasavvurni va tushunishni yengillashtiradi. Masalan, matematikani o‘rgatishda diagrammalarni, rangli kartochkalarni yoki tasvirlarni ishlatish orqali bolaning mavzuni tushunishi yaxshilanadi.

Aqli zaif bolalar tafakkurini rivojlantirish bo‘yicha ish olib borar ekanmiz, ta’lim jarayonini qadam-baqadam tashkil qilishga ahamiyat qaratmog‘imiz lozim. Aqli zaif bolalar uchun murakkab mavzularni kichik, oson qadamlar bilan o‘rgatish samarali bo‘ladi. Har bir yangi ko‘nikma va tushuncha o‘rganilgandan keyin, bola asta-sekin murakkablik darajasini oshirishi kerak. Misol uchun,

matematik masalalarni hal qilishda, oddiy misollar bilan boshlash va keyin murakkabroq masalalarga o‘tish metodikasi qo‘llanilishi mumkin. Bu metod bolaning o‘rganish jarayonini yaxshilash va muvaffaqiyat hissini oshirishga yordam beradi.

O‘yinlar va amaliy faoliyat aqli zaif bolalarning tafakkurini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. O‘yin orqali bolaning diqqatini jamlash, yangi ko‘nikmalarni o‘rganish va ijtimoiy interaktsiyalarni o‘rganish jarayonlari qiziqarli va osonroq bo‘ladi. Masalan, jumladan, matematik hisob-kitoblar yoki rasm chizish kabi faoliyatlar o‘yin orqali amalga oshirilsa, bolalar o‘rganish jarayonidan ko‘proq qoniqish hosil qilishadi.

Aqli zaif bolalar uchun rag‘batlantirish va mustahkamlash jarayonlari juda muhimdir. Ular o‘z muvaffaqiyatlarini kichik bosqichlarda ham sezib borishlari va har bir muvaffaqiyat uchun rag‘batlantirilishlari kerak. Ijobiy mustahkamlash, masalan, maqtovlar yoki kichik sovg‘alar orqali, bola o‘zida ishonchni shakllantiradi va o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya oshadi. Bularning barchasi tafakkur va o‘rganish jarayonini yaxshilashga yordam beradi.

Aqli zaif bolalar ko‘proq sezgilar orqali o‘rganishga moyil bo‘ladi. Shuning uchun, o‘rganish jarayonida ko‘p hissiy metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu metodlar orqali bola nafaqat vizual, balki eshitish, teginish va hatto hid sezish kabi boshqa sezgilari bilan ham o‘rganadi. Masalan, turli xil materiallar, musiqa yoki nafas olish mashqlari yordamida bolaning emotsional va kognitiv rivojlanishiga hissa qo‘shish mumkin.

Xotira aqli zaif bolalarda ko‘pincha zaif bo‘lishi mumkin, shuning uchun xotira mashqlari orqali tafakkurni rivojlantirish juda muhimdir. Xotira mashqlari bolalarga ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, bolalarga oddiy so‘zlar yoki raqamlarni yodlash va ularni keyinchalik takrorlashni taklif qilish mumkin. Bu mashqlarni o‘yin shaklida o‘tkazish yanada samarali bo‘ladi.

Aqli zaif bolalar uchun o‘qituvchilar va ota-onalarning qo‘llab-quvvatlashi juda muhim. Ota-onalar va o‘qituvchilar bolaning o‘rganish jarayonida doimiy motivatsiya va ijobiy munosabatni ta’minlab turishlari kerak. Ular bolaning har bir kichik yutug‘ini qadrlashlari va unga mehr va e’tibor ko‘rsatishlari lozim.

Shuningdek, ular bolaning o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni o‘z vaqtida hal qilishga yordam berishlari zarur.

XULOSA

Aqli zaif bolalarning tafakkur xususiyatlarini rivojlantirish uchun turli metodlar mavjud. Ushbu metodlarning har biri bolaning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan holda qo‘llanilishi kerak. Vizual vositalar, amaliy faoliyatlar, xotira mashqlari, o‘yinlar va rag‘batlantirish kabi usullar bolaning kognitiv va emotsional rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, ota-onalar va o‘qituvchilarning qo‘llab-quvvatlashi, bolaning muvaffaqiyatlarini o‘stirishda va uning tafakkurini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxsus pedagogika P.M.Po‘latova G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi Toshkent-2005 100-1002 bet
2. N.G‘oipova, J.B.To‘lanboyev. Aqli zaif bolalar bilish jarayonlarini rivojlantirish ―International scientific research conference‖ Belarus, International scientific- online conference www.interonconf.org
3. ZA Karimova, XA Saydaliyeva, Aqliy zaifligi bo‘lgan bolalarning bog‘langan nutqini rivojlantirish / Inter education & global study/ 1 (1), стр.111-119, 2025г
4. Axmedova L.R. ,Abidova N.Z. India international scientific online conference the theory of recent scientific research in the field of pedagogy/ Aqli zaif bolalar psixologiyasi va aqli zaiflikning turlari
5. Toxirov A..R/Aqliy zaiflikning yengil darajasi/ International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 7, Issue 01, January (2024) 694 https://doi.org/10.5281/zenodo.10640963
6. Zulfiya Karimova, Editorial Problems of Organizing the Innovative Activity of Preschool Education Organization Editors Under Educational Cluster Conditions. (2023). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(1), 1-10. https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/97

OILA MUHITINING ÒSMIRLAR AGRESSIV XULQ-ATVORINI SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

Uvaydullaeva Nozanin Otabek qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
Psixologik mutaxassisligi magistranti**.**
Elektron pochta:nozaninuvaydullayev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila muhitining o‘smirlar agressiv xulq-atvoriga ta’siri empirik tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oiladagi salbiy omillar —masalan, zo‘ravonlik, emotsional befarqlik, qat’iy nazorat yoki beqarorlik òsmirlarning agressiv xatti-harakatlariga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, ijobiy oilaviy muhit, ya’ni iliqlik, qo‘llab-quvvatlash va barqarorlik, o‘smirlarning agressiv xulq-atvorini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit sòzlar: Òsmirlik davri, oilaviy ziddiyatlar, agressiv xulq-atvot, psixologik ta’sir, emotsional beqarorlik, oila muhiti, psixologik profilaktika, ijtimoiy ta’sir, tajovuz modeli, psixologik soǧlom muhit.

Влияние семеинои среды на формирование агрессивного поведения подростков

Аннотация: В даннои статье анализируется влияние семеинои среды на формирование агрессивного поведения подростков на основе эмпирических исследовании. Исследования показывают, что негативные факторы в семье —такие как насилие, эмоциональное равнодушие, чрезмерныи контроль или нестабильность —могут способствовать развитию агрессивных форм поведения у подростков. В то же время,позитивная семеиная атмосфера, включающая тепло, поддержку и стабильность, играет важную роль в снижении уровня агрессии среди подростков.

Ключевые слова:
подростковыи возраст, семеиные конфликты, агрессивное поведение, психологическое воздеиствие, эмоциональная нестабильность, семеиная среда, психологическая профилактика, социальное влияние, модель агрессии, психологически здоровая среда.

The infuence of the family environment on the development of adolescents’ aggressive behavior

Abstract: This article analyzes the impact of the family environment on the development of aggressive behavior in adolescents, based on empirical research. Studies show that negative family factors—such as violence, emotional neglect, excessive control, orinstability—can lead to the emergence of aggressive behaviors in teenagers. At the same time, a positive family environment characterized by warmth, , and stability plays a crucial role in reducing adolescent aggression.

Keywords: Adolescence, family conficts, aggressive behavior, psychological impact, emotional Instability, family environment, psychological prevention, social infuence, aggression model, psychologically healthy environment.

Oila muhitining agressiv xulq-atvorga ta’siri

O‘smirlik davri inson hayotining muhim bosqichi bo‘lib, bu davrda shaxsiy o‘zgarishlar, emotsional o‘zgaruvchanlik va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi yuz beradi. Agressiv xulq-atvor o‘smirlar orasida keng tarqalgan muammo bo‘lib, uning sabablari ko‘p qirrali. Oila muhitining bu boradagi roli muhim ahamiyatga ega.

Empirik tadqiqotlar oiladagi salbiy omillar — masalan, zo‘ravonlik, emotsional befarqlik, qat’iy nazorat yoki beqarorlik — o‘smirlarning agressiv xatti-harakatlariga olib kelishini ko‘rsatadi. Masalan, Gorman-Smith va Tolan (1998) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda, oilaviy nizolar va zo‘ravonlik o‘smirlarning agressiv xatti-harakatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

Boshqa bir tadqiqotda, oila muhitining sifatli bo‘lishi, ya’ni iliqlik, qo‘llab-quvvatlash va barqarorlik, o‘smirlarning agressiv xulq-atvorini kamaytirishda muhim rol o‘ynashi aniqlangan.

Empirik tadqiqotlar

Huesmann va Guerra (1997) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda, o‘smirlarning agressiv xulq-atvori va oilaviy muhit o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijobiy oilaviy muhit o‘smirlarning agressiv xulq-atvorini kamaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, boshqa tadqiqotlar ham oilaviy muhitning o‘smirlarning agressiv xulqatvoriga ta’sirini tasdiqlaydi.

O‘smirlik davri — bu shaxsiyat shakllanishining nozik va murakkab bosqichi bo‘lib, unda òsmirlar o‘z “men”ini izlaydi, mustaqil qarorlar qabul qilishga harakat qiladi va atrofdagi ijtimoiy muhitdan ta’sirlanadi. Bu jarayonda eng muhim va ta’sirchan omillardan biri —oilaviy muhitdir. Ayniqsa, oilada doimiy ravishda janjal, nizolar, psixologik bosimlar va agressiv munosabatlar mavjud bo‘lsa, o‘smirlar buni o‘z hayotiy modeliga aylantirishi ehtimoldan xoli emas.

Oiladagi mojaro — ruhiy salomatlik uchun xavf omili agressiv xatti-harakatlarning ko‘plab sabablari mavjud bo‘lib, ularning ichida oilaviy muhit eng asosiy psixososial omil hisoblanadi. Oiladagi doimiy mojarolar, ota-ona òrtasidagi janjallar, farzandlarga nisbatan adolatsiz munosabat yoki beparvolik bularning barchasi o‘smirda himoyaviy reaktsiya sifatida agressiyani uyg‘otadi.

Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, o‘smirlik davrida “identifikatsiya va. Ro‘l chalkashuvi” muammosi yechim topadi. Agar bu bosqichda o‘smir noto‘g‘ri model (ya’ni tajovuz, nizolar) asosida shakllansa, keyinchalik bu doimiy xulqga aylanadi.

Nazariy asos: Bandura va ijtimoiy o‘rganish Albert Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasi asosida, insonlar xulq-atvorni ko‘rish, kuzatish va taqlid qilish orqali o‘rganadilar. O‘smirlar ham otaonasining nizoli, doimiy janjalli munosabatlariga guvoh bo‘lganida, bu xatti-harakatni ijtimoiy normalar sifatida qabul qilib, o‘z shaxsiyatiga singdirishi mumkin.

Empirik tadqiqotlar natijalari

Jahon miqyosidagi tadqiqotlar ham ushbu g‘oyani tasdiqlaydi: Gorman-Smith & Tolan (1998): ichki shahar yoshlari ustida o‘tkazilgan tadqiqotda oilaviy nizolar darajasi yuqori bo‘lgan o‘smirlarning tajovuzkorlik darajasi b oshqalarnikidan 2 barobar yuqori ekani ananiqlangan. Ota-ona o‘rtasidagi doimiy janjal va salbiy his-tuyg‘ular bolada xavfsizlik hissining pasayishiga olib kelib, bu xavotir, stress va g‘azabni keltirib chiqarishini isbotlagan.

Sharma & Sangwan (2017): Hindistonda olib borilgan tadqiqotda, oilaviy notinchlik bo‘lgan muhitda o‘sgan o‘smirlar maktabda ko‘proq konfliktli holatlarga duch kelgani aniqlangan.

Agressiyaning shakllanish mexanizmlari

1.Model sifatida o‘rganish – Ota-onaning agressiv munosabatini kuzatib, o‘smir buni odatiy xulq deb qabul qiladi.

2.Emotsional beqarorlik – Doimiy stress o‘smirni ichki bosimdan xalos bo‘lish uchun agressiyani ishlatishga undaydi.

3.O‘zini ifoda eta olmaslik – Noto‘g‘ri ijtimoiy-psixologik munosabatlar o‘smirni tajovuz orqali o‘zini ifoda etishga majbur qiladi.

Xulosa

Oila muhitining o‘smirlar agressiyasiga ta’siri katta ahamiyatga ega. Salbiy oilaviy omillar o‘smirlarning agressiv xulq-atvorini kuchaytirishi mumkin, shu bilan birga, ijobiy oilaviy muhit bu xatti-harakatlarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, oila muhitini yaxshilash, ota-onalarning farzandlari bilan ijobiy munosabatlarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash o‘smirlar orasida agressiv xulq-atvorni kamaytirishga yordam beradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bandura, A. (1973). Aggression: A Social Learning Analysis. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
2. Gorman-Smith, D., & Tolan, P. H. (1998). The role of exposure to community violence...
3. Cummings, E. M., & Davies, P. (2004). Children and Marital Conflict...
4. American Psychological Association. (2019). APA Dictionary of Psychology.
5. Qurbonova, Z. X. (2019). Oila psixologiyasi asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
6. Hamroyev, N. (2020). Oila muhitining o‘smirlar shaxsiy rivojlanishiga ta’siri...
7. Allamurotova, M. (2018). Oila va maktab hamkorligining o‘smirlar ijtimoiylashuvidagi roli...
8. Xolbekova, M. (2021). O‘smirlik davrida agressiv xulq-atvorni oldini olishning psixologik omillari...
9. Столяренко, Л. Д. (2003). Основы психологии. Ростов-на-Дону: Феникс.
10. Божович, Л. И. (2008). Личность и ее формирование в детском возрасте. Москва: Просвещение.
11. Кон, И. С. (1988). Психология ранней юности. Москва: Просвещение.
12. Варга, А. Я. (2000). Семейная психология. Москва: Гардарики.
13. Юнкевич, А. А. (2016). Влияние семейного воспитания на формирование агрессивного поведения подростков.

O‘SMIRLARDA HUQUQIY TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK PREDMETI

Uroqov Quvonchbek Boxodir o‘g‘li
Samarqand viloyat Urgut tuman IIB JQB xodimi,
mustaqil tadqiqotchi

Annatatsiya: Maqolada o‘smirlarda huquqiy tushunchalarni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik predmeti o‘rganilgan. Ilmiy manbalar tahliliga ko‘ra huquqiy savodxonlik masalasini shaxsning ontogenetik taraqqiyot bosqichida shaxsning taraqqiyot bosqichlariga ko‘ra tadqiq etishga zarurat tug‘ildi. Huquqiy bilimlarni shaxs tomonidan o‘zlashtirishning muhim shartlaridan biri – fanga oid tushunchalarning shakllanganligi va ularning kundalik amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalariga egaligi bilan tavsiflanishidir.

Kalit so‘zlar: falsafa, mantiq, pedagogika, dialekt, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, yoshlar tarbiyasi, o‘qituvchi-tarbiyachilar, jamoatchilik, barkamol yoshlar, ustuvor vazifalar, muammolar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ СУБЪЕКТ РАЗВИТИЯ ПРАВОВЫХ ПОНЯТИЙ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация: В статье исследуется социально-психологическая тема развития правовых понятий у подростков. Согласно анализу научных источников, возникла необходимость исследования вопроса о правовой грамотности на этапе онтогенетического развития человека в соответствии с этапами развития личности. Одним из важных условий усвоения человеком юридических знаний является формирование понятий, связанных с наукой, и их описание путем обладания навыками применения их в повседневной практике.

Ключевые слова: философия, логика, педагогика, диалект, правосознание, правовая культура, правовая грамотность, образование молодежи, педагоги-воспитатели, общество, зрелая молодежь, приоритеты, проблемы.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL SUBJECT OF DEVELOPMENT OF LEGAL CONCEPTS IN ADOLESCENTS

Abstract: The socio-psychological subject of the development of legal concepts in adolescents is studied in the article. According to the analysis of scientific sources, it became necessary to research the issue of legal literacy at the stage of ontogenetic development of a person according to the stages of development of a person. One of the important conditions for the assimilation of legal knowledge by a person is the formation of concepts related to science and their description by having the skills to apply them in everyday practice.

Key words: philosophy, logic, pedagogy, dialect, legal consciousness, legal culture, legal literacy, youth education, teachers-educators, society, mature youth, priorities, problems.

Yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash, ularda huquqiy madaniyatni shakllantirish, huquqiy ta’lim va tarbiyani takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. «Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, ...ular 2 milliard kishini tashkil etishini hisobga oladigan bo‘lsak, sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi shu yoshlarimizning qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq».[1] Shu jihatdan yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish taklifini O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 20 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma’ruzasida ta’kidlab o‘tdi.

Huquqiy tushunchalar shakllanishining pedagogik masalalari boshqa fanlardagi ilmiy tushunchalarini tarkib topish qonuniyatlari, uslub va uslubiy jihatlariga qiyosiy o‘xshab ketishi shubhasizdir. Tushunchalar shakllanishining bosh bo‘g‘ini olamni bilish jarayonida tushunchalar tarixiy, falsafiy asosga ega ekanligi va fan doirasidagi hodisa va qonunlar mazmunini aks ettiruvchisi sanaladi. Biz muammoning pedagogik jabhalarini o‘rganish borasida olib borilgan tadqiqotlarning holati bilan tanishganimizda tushunchalar shakllanishining fanlar tizimidagi holati, turli ta’lim bosqichlari va o‘qitish metodikasining xususiyati bilan bog‘liq izlanishlarga duch kelindi.

S.A.Shediyning tadqiqotlari talabalarda gumanitar tushunchalarni shakllantirishning didaktik shart-sharoitlariga bag‘ishlangan bo‘lib, izlanish natijalari quyidagi xulosalarga olib keldi. Unda bo‘lg‘usi yuristlarning kasbiy tayyorgarligi tushunchalar bazasini shakllantirish uchun ta’lim mazmunini, talabalar aqliy taraqqiyot darajasini aniqlash, o‘quv jarayoni tuzilish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, ishda talabalar ongida fanlararo gumanitar tushunchalarni shakllantirishning psixologik-didaktik asoslari hamda huquq tushunchalarini samarali tarkib toptirishning pedagogik shart-sharoitlari haqida so‘z boradi. Tadqiqotda muammo doirasidagi izlanishlar asosida psixologiya, pedagogika, bilish nazariyasidagi tushunchalarning “mazmuniy tuzilishi”, “mazmunning mantiqiy tuzilmasi”, “mazmunni tashkil etish” atamalariga alohida e’tibor qaratilgan. Oqibatda esa falsafa, mantiq, pedagogika fanlarini o‘qitishda o‘zaro birlik mavjud emasligi aniqlangan.

Mavjud ilmiy konsepsiyalar quyidagicha tasniflangan: 1. Hukm bilishning elementi sifatida qaralgan (N.I.Kondakov, G.Klaus, I.Ya.Lerner); 2. Tushuncha tafakkurning asosiy elementi hisoblagan (A.S.Arsenyev, V.S.Bibler,

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 20 сентябрь БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи/ Халқ сўзи”, 2017 й, 23 сентябрь №192 (6886).

B.M.Kedrov); 3. Tushuncha bilan hukm o‘rtasida aniq chegaralanishga erishilmagan (A.N.Iliadi).

Shuningdek, V.V.Borisov, A.A.Zinovyev, A.M.Soxorning ishlarida bilishning asosiy tarkibiy elementi sifatida tushuncha ajratib ko‘rsatilgan. Ammo ushbu ishlarning mazmunidan o‘quv materiallarning mantiqiy tuzilishida hukm asosiy element sifatida keltirib o‘tilgan. S.A.Shediyning tadqiqotlariga muvofiq keladigan izlanishlar didaktik jihatdan mos kelishi kuzatildi.

Huquqiy tushunchalarning shakllanishi tushuncha muammosiga yondashuvimiz bilishning muhim sharti sifatida: bilishning didaktik yondashuv har qanday inson bilishini voqyelikda tasdiqlashda, uning har xil shakllarini tasdiqlashda, inson bilishining ijtimoiy-tarixiy amaliyotda vujudga kelishi va rivojlanishining hal etuvchi rolini e’tirof etishi; barcha fanlarda ilmiy bilishning asosiy natijalarini umumlashtirish.

O‘smirlar tushunchalarni o‘zlashtirishining nazariy va amaliy tahlilining bir jihati S.A.Zaxarova tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Olim tomonidan olib borilgan izlanishlarda tushunchalarni o‘zlashtirish uquvi bir necha turlarga ajratib ko‘rsatilgan. S.A.Zaxarova tushunchalarni o‘zlashtirish modelini to‘rtta elementga ajratdi:

1. Mohiyat – real voqyelikni mavjud munosabatlarni aks ettiruvchi tushunchalarning shakllanishi;

2. Mazmun – voqyelikka real munosabatini egallaganligini so‘zlarda ajratib va mustahkamlangan jihati;

3. Shart-sharoiti: a) ijtimoiy amaliyot uchun ahamiyatli bo‘lgan obyektiv munosabatlarni ajratib ko‘rsatish; b) ushbu munosabatlarda umumiylik va ahamiyatlilikning egaligi; v) so‘zlarda bunday munosabatlar mustahkamlanganligi;

4. Asos – ularning so‘zlar va tushunchalar o‘rtasidagi axborot munosabatini hosil qiluvchi jihati. Olim tomonidan taqdim etilgan model predmetlar amaliyotida tushunchalarning mantiqiy funksiyasi muhim o‘ringa ega .

Ushbu tasnif yutuqlari bilan bir qatorda, ayrim kamchiliklardan holi emas. Unda tushunchalarning bilish jarayonidagi hissiy va amaliy, obrazli va jalb etuvchanligi; konkretligi va mavhumligi; aqliy bosqichlarning analitik va sintetik birligi; tushunchalarning shakllanishida talabalar faoliyatining amaliy va nazariy ahamiyati qayd etilmaganligidir.

S.A.Shediyda, tushunchalarni o‘zlashtirish “bosqichlari” – jonli idrok (hissiy bilish), boyitilgan kuzatish – bir qator tushunchalar shakllanishining dastlabki nuqtasi; 2. Tahlil va qiyoslash yo‘li orqali hodisalarning mazmuniga olib kiruvchi aqliy jarayondagi predmet va hodislarning muhim va umumiy belgilariga ajratish; 3. Tushunchani aniqlash va muhim belgilarini sintetik jihatdan ko‘rib chiqish; 4. Mashqlar va amaliy tekshirish orqali tushunchalarni kengaytirish va chuqurlashtirish. Ularni ma’lum tushunchalar tizimiga kiritish.

Tushuncha shakllanishining muhim sharti sifatida o‘quvchilar bilimida deduktiv bilan induktiv xulosa chiqarishning o‘zaro aloqadorligini ta’minlash ularning o‘quv faoliyati va bilimlarni o‘zlashtirishga ijodiy xususiyatga egaligiga

bog‘liqdir. Tushunchalarni o‘zlashtirishning fiziologik va psixologik xususiyatlarini egallash olimlarning diqqat markazida bo‘lgan.

S.V.Korjakovaning tadqiqoti pedagogik OTO‘ ta’limi talabalarida ilmiy tushunchalarni shakllantirishga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu izlanish yakuniga ko‘ra, ularni shakllantirish murakkab jarayon ekanligi, ilmiy tushunchalarning muvaffaqiyatli shakllanishi didaktik shart-sharoitlari tushunchalarni tarkib toptirishning nazariy asosi va usullariga; ularni o‘zlashtirishda o‘qituvchi tomonidan o‘rgatuvchilik, rag‘batlantiruvchilik, tashkilotchilik, nazoratchilik va korreksiyalovchi faoliyati bilan bog‘langan [11].

Yuqoridagi tadqiqotlarga asoslanib shuni aytishimiz joizki, talabalarda huquqiy tushunchalarni shakllanishga tizimli yondashuv lozim va bu o‘zida ta’lim jarayonining murakkab tizimli bog‘lanishini taqozo etadi. Chunki buning uchun o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro munosabati, ustozning o‘quv mashg‘ulotini tashkil etishi, metodik jihatdan qurollanganligi, shogirdlarda o‘quv motivlarining o‘zlashganligi, kasbiy yo‘nalish bilan huquqiy tushunchalarni shakllantirish bog‘lab olinganligi bilan bog‘liqdir.

T.I.Magomedova tomonidan amalga oshirilgan izlanishda esa muammoning o‘ziga xos jihati huquqiy soha talabalarida ko‘p tillik sharoitida rus tiliga oid kasbiy kommunikativlik ko‘nikmalarini shakllantirishga bag‘ishlangan. Mazkur dissertasion tadqiqotda huquqiy soha mutaxassislari uchun mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanmaning batafsil tahlili mutaxassislarni tayyorlash asosida ingliz tili bo‘yicha “O‘quv adabiyotlarining jamlanma tahlili jadvali” shakllantirilgan. Ta’limni optimallashtirish sohasidagi nazariy va uslubiy tadqiqotlarining yakuni quyidagi omillarni hisobga olish lozimligini ko‘rsatadi:

- talabalarning motivasiyasi;
- o‘quv materiallarining yangiligi va autentiklikka egaligi;
- grafik ko‘rgazmalilik;
- o‘zi mustaqil o‘rganishi .

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talabalarning motivasiyaga ega ekanligini aniq ko‘rsatkichlarda aks etganligi, o‘qituvchining topshiriqlari – faqat chet tilini o‘qitishda emas, balki boshqa mutaxassislik fanlarini o‘rganish jarayonida ham foydalanishi bilan xarakterlanadi.

Grafik ko‘rgazmalilik – bu talaba-yuristlarda kasbiy –yo‘naltirilgan o‘qitishni optimallashtirishning asosiy vositalaridan biri ekanligi isbotlangan.

O‘zi mustaqil o‘rganishi kasbiy shakllanish jarayonida talabaning to‘laqonli kasbiy, shaxsiy va individual kamol topishiga imkon beradi. Shunday qilib, talabalarda leksik tafakkurning egiluvchanligi, tilni idrok etishning rivojlanganligi; mutaxassisligi bo‘yicha matnlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

N.G.Dayri tomondan olib borilgan izlanishda tushunchalarning shakllanishida eng muhim holat sifatida o‘qituvchini xotiraning barcha turiga ta’sir ko‘rsatilishi bilan belgilangan. Tadqiqotda qayd etilishicha, katta yoshdagilarga nisbatan o‘smirlarning xotirasi ancha kuchli ekanligi va eshitish, harakat, obrazli, motor, emosional xotira tushunchalarini o‘zlashtirish vaqtida

o‘qituvchi inobatga olishi muhim deb ko‘rsatgan. Yakuniy xulosada o‘quvchilarda tushunchalar shakllanishida so‘z-mantiq xotirasiga alohida urg‘u berilgan. Shu sababli tushunchalar mazmuni ustida mulohaza yuritayotgan vaqtida mantiqiy esga olib qolish o‘quvi “mantiqiy zanjir” hosil qilishga xizmat qiladi.

Tushunchaning shakllanishi yuzasidan izlanishlar psixologik-pedagogik tadqiqotlarda anchagina salmoqli o‘rganilgan bo‘lib, ular muammolarning predmeti, yo‘nalishi, maqsad va vazifalari bo‘yicha tafovutlanishining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Agar tushunchalarning shakllanishi bo‘yicha pedagogik tadqiqotlarni tizimlashtiradigan bo‘lsak, anchagina tafovutli holatlarning guvohiga aylanish mumkin. Agar ushbu tadqiqotlarni guruhlashimizga to‘g‘ri kelsa, quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq:

Birinchi guruh tadqiqotlarni umumta’lim fanlari bo‘yicha ilmiy atamalarning shakllanishiga, ya’ni matematik, fizik, kimyo, biologiya, geografiya, til, tarix va boshqa fanlarga doir tushunchalarning o‘quvchilarda tarkib topishiga bag‘ishlangan deyishimiz mumkin.

Ikkinchi guruhda esa tadqiqot obyektiga ko‘ra, amalga oshirilgan tadqiqot ishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu tadqiqotlarda o‘quvchilar, talabalar va boshqa kasb egalarida ilmiy tushunchalarning tarkib topishiga bag‘ishlangan izlanishlar amalga oshirilgan.

Masalan, I.V.Kobilinaning izlanishlari bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning o‘quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirishga tayyorlash masalasiga bag‘ishlangan. Olima tomonidan olib borilgan izlanishga ko‘ra, o‘quvchilarda ilmiy tushunchalarning shakllanishida o‘qituvchining o‘rni yuqori ekanligi, bunga erishish uchun bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik vaqtida e’tibor qaratish, dastlabki pedagogik amaliyoti vaqtidayoq ularga ilmiy tushunchalarni o‘rgatishlari, ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirishda fanlaro bog‘liqlikni inobatga olishligini xulosalagan [98].

I.G.Pustilnik amalga oshirgan tadqiqotlarda o‘quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Bunda ularning tarixiy ildizlari, tushunchani tarkib toptirishda pedagogik yondashuvlarning g‘oyaviy asoslari tahlil qilingan [12].

Shuningdek, ko‘pgina tadqiqotlarda matematika va geometriyaga oid tushunchalarning shakllanishini turli xil faoliyat jabhalaridan kelib chiqib o‘rganishga harakat qilingan. Bu borada G.D.Tonkix tomonidan olib borilgan izlanishda planimetrik tushunchalar egallashda o‘quvchilarni darajaviy tabaqalashtirish sharoitida refleksiv faoliyatni tashkillashtirish muhim ekanligi qayd etilgan.

M.M.Molonova tadqiqotida esa o‘quvchilarda matematik tushunchalarni shakllantirishda mustaqil ishlarni tashkil etishning o‘ziga xos usullaridan biri ekanligiga asoslangan. Bir tomondan o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish eng muhim pedagogik yondashuvning bir parametri sifatida qaralmoqda [11].

Shuningdek, A.Abduxalikov, Ye.S.Bulicheva, T.P.Varlamova, O.A.Vasilenko, R.V.Zerkova, A.V.Makarin, N.V.Prodanova, I A.V.Shepel, D.V.Sharmin, va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarda matematika mashg‘ulotlarida o‘quvchilarda tushunchalar shakllanishining ilmiy asoslari tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda matematik tushunchalarning shakllanishi bir qator jabhalarda o‘rganishga e’tibor qaratilgan. Ye.S.Bulicheva loyihalash ta’lim orqali kollej o‘quvchilarida matematik tushunchalarning tarkib topishi xususiyatlarini yoritishga e’tibor qaratdi. Buning uchun dast avval, o‘quvchilarida matematik tushunchalarni shakllantirishning modelini ishlab chiqish muhimligi ta’kidlanadi.

I.G.Prosvirova va A.V.Shepelning tadqiqotlarida matematik tushunchalarni tarkib toptirishning motivasion aspektlari va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tushunchalar axborotlarini kategoriyalashtirish yondashuvi orqali shakllantirishga e’tibor qaratilgan.

Tadqiqotlarning yana bir yo‘nalishida ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo‘yicha o‘quvchilarda tushunchalar shakllanishining pedagogik masalalari tadqiq etilgan.

A.Abduxalikovning izlanishlarida ta’lim jarayoni o‘quvchilarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishning eng muhim omili sifatida qaralib, unda 8-9-sinf o‘quvchilarida matematika fanini o‘qitish orqali amalga oshirishning ahamiyati ilmiy asoslangan.

O.B.Yermakovaning izlanishlari gumanitar fanlardagi o‘quv materiallari asosida ilmiy tushunchalarni shakllantirishning ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalalariga bag‘ishlangan va u yuzasidan ilmiy xulosalarga kelingan.

Bir qator pedagogik tadqiqotlar amalga oshirilganki, ularda o‘quvchilarda fanni o‘rganishga doir bilimlarni o‘zlashtirish usullari, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish yo‘llari, yondashuvlari, ta’lim texnologiyalari, kasbiy tushunchalarni tarkib toptirish xususiyatlari, ularni o‘zlashtirishda individual yondashuvning ahamiyati, umumta’lim fanlarini o‘qitish orqali dunyoqarashni egallash xususiyatlari, dialogik texnologiya tushunchalarni anglashning vositasi ekanligi, rivojlantiruvchi ta’lim fizik tushunchalarni tushunish omili ekanligi, nutqni o‘rganish jarayonida tushunchalarni rivojlantirish xususiyatlari, mantiqiy operasiyalarni takomillashtirishning didaktik asoslari, talabalarda tushunchalarni refleksivlashtirishning xususiyatlari va boshqa jihatlar tadqiq etilganligini kuzatish mumkin.

Agar davlat ta’lim standartida belgilangan huquqiy bilimlar, tushunchalarni o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishi huquqiy bilimlarni egallashning belgilovchi bosh mezon sifatida qaralsa, u holda ta’lim mazmunini tashkil etishda ushbu mezonga yetarlicha ahamiyat berish lozimdir.

Demak, biz kasb-hunar kolleji o‘quvchilarida huquqiy tushunchalari shakllanishining didaktik masalasini belgilovchi omillarni quyidagilar bilan izohlashimiz mumkin:

- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tizimi davlat ta’lim standartlarida belgilangan o‘quvchilar faoliyatiga qo‘yiladigan bilim, ko‘nikma va malakaviy talablar bosh maqsad ekanligini inobatga olish;

- ta’lim muhitini tashkil etishga ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillar ahamiyatini belgilash;

- kasb-hunar kolleji o‘quvchilaridagi huquqshunoslik faniga bo‘lgan o‘quv motivasiyalarining shakllanganlik darajasini aniqlash;

- ta’lim jarayonida innovasion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ahamiyatini tavsiflash;

- o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi ta’limiy hamkorlik faoliyatining tashkil etilganligiga e’tibor qaratish.

Psixologik tadqiqotlarda o‘quvchilarda tushunchalarning shakllanishi tarixiy taraqqiyotning bir bosqichi sifatida talqin etilishi bilan bir qatorda muammoning o‘quv faoliyatining boshqa jabhalariga, ya’ni bilish qobiliyatlarini, o‘quv motivasiyalarini, kasbiy va tadqiqotchilik sifatlarini tarkib toptiritirishga yo‘naltirilgan. Ammo huquqiy tushunchalarni subyektlar tomonidan o‘zlashtirishning psixologik jabhalarini tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish zaruratini tug‘diradi.

Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarida huquqiy tushunchalar shakllanish xususiyatlari muammosini ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish pedagogik psixologiya premeti doirasida amalga oshiriladigan muammolarning yangi bir yo‘nalishi sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2008 yil.
3. Filosofiya: Ensiklopedicheskiy slovar / Pod red. A. A. Ivina. — M.: Gardariki, 2004. -640 s.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 20 sentyabr BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi/ Halq so‘zi”, 2017 y, 23 sentyabr №192 (6886).
5. Qodirov O.S.. Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
6. Qodirov O.S., Xotamov Sh.N.. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. - Samarqand, 2023.-346 b.
7. Safarovich Q. O. et al. Tarbiyasi qiyin o‘quvchilarning xulq-atvori bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish masalalari //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 367-371.

Internet saytlari

8. http://fikr.uz/posts/Fikr_psixologiya.
9. http://lex.uz/pages/getpage.aspx.

O‘SMIRLARDA JINOIY XULQ-ATVOR MOTIVLARI PSIXOPROFILAKTIKASINING IJTIMOIY XUSUSIYATLARI

Utaev Umid Saidaliyevich
Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari -Ma’naviy ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash xizmati boshlig‘i, erkin tadqiqotchi

Annotasiya: maqolada o‘smirlarda jinoiy xulq-atvor motivlari psixoprofilaktikasining ijtimoiy xususiyatlari, ijtimoiy muhitda shaxsning o‘zini namoyon qilishi (boshqalarni hurmat-e’tiboriga erishish) ijtimoiy mavqyega ega bo‘lishga intilish muammolari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bugungi kundagi inson ehtiyojlari to‘g‘risida mulohazalar bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: motiv, motivasiya, ehtiyojlar, o‘jarlik, agressivlik, tajovuzkorlik, nizoli vaziyatlar, ijtimoiy xulq-atvor, sog‘lom avlod, milliy qadriyatlar, ijtimoiy muhit, oila va urf-odatlar.

СОЦИАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПСИХОПРОФИЛАКТИКИ МОТИВОВ ПРЕСТУПНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация: в статье рассматриваются социальные особенности психо профилактики мотивов преступного поведения у подростков, проблемы самовыражения в социальной среде (достижения уважения окружающих), стремления к обретению социального статуса. Также представлены комментарии по поводу сегодняшних потребностей человека.

Ключевые слова: мотив, мотивация, потребности, упрямство, агрессивность, агрессивность, конфликтные ситуации, социальное поведение, здоровое поколение, национальные ценности, социальная среда, семья и традиции.

SOCIAL CHARACTERISTICS OF PSYCHOPROPHYLAXIS OF CRIMINAL BEHAVIOR MOTIVES IN ADOLESCENTS

Abstract: The article discusses the social features of psycho prophylaxis of criminal behavior motives in adolescents, the problems of self-expression in the social environment (achieving the respect of others), striving to gain social status. Also, comments on today’s human needs are presented.

Key words: motive, motivation, needs, stubbornness, aggressiveness, aggressiveness, conflict situations, social behavior, healthy generation, national values, social environment, family and traditions.

Psixologiya fani tarmoqlaridan biri sifatida tan olingan jahon psixologiyasi fanida jinoyatchi shaxsi va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari to‘g‘risida bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Umuman olganda insonni jinoyatga

undaydigan omillar va uni keltirib chiqaruvchi sabablar bir qancha bo‘lishi mumkin. Jinoyatchining shaxsiyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan turli xil fazilatlar va xususiyatlar bilan tavsiflanadi: ijobiy, neytral, salbiy. Bu fazilatlar shaxsning hayotiy faoliyati mahsulidir.

Inson bolasi tug‘ilgan paytdan boshlab, unda turli sifat va xususiyatlarning shakllanishi, rivojlanishi va mustahkamlanishi jarayoni boshlanadi, agar ular salbiy xususiyatga ega bo‘lsa, salbiy muhit bilan o‘zaro ta’sir qila boshlaydi, jinoyatchi shaxsini bevosita shakllantiradi. Shu bilan birga, insonning barcha fazilatlari va xususiyatlarini ikki guruhga bo‘lish mumkin: 1) o‘zgarmas xususiyatlar; 2) o‘zgaruvchan xususiyatlar. O‘zgarmas belgilarga jins va millat bilan bog‘liq bo‘lgan demografik xususiyatlar, temperament kabi ba’zi psixologik xususiyatlar va ruhiy kasalliklar kabi ba’zi biologik xususiyatlar kiradi. Bundan tashqari, o‘zgarmas xususiyatlar tabiiy va asosan insonning biologik tabiati bilan bog‘liq bo‘lgan fazilatlar va xususiyatlarda namoyon bo‘ladi, bu genetik jihatdan oldindan belgilab qo‘yilgan va hodisalarning tabiiy rivojlanishida doimiylik bilan tavsiflanadi.

Jinoiy xatti-harakatlar mexanizmining eng muhim qismini jinoyat motivining shakllanish jarayoni va muayyan harakatni ta’minlovchi kuch sifatida namoyon bo‘lishi tashkil etadi. Tadqiqotimizda motiv jinoyatni hosil qiluvchi bevosita sabab sifatida qaraladi. Agar motivni ilmiy nuqtai nazardan chuqurroq o‘rganadigan bo‘lsak, aynan shu odam nima maqsadda shu harakatlarni amalga oshirganligi aniqlanadi.

Unga ko‘ra, jinoyat motivi - insonni aynan shu jinoyatni sodir etishga undagan va jinoiy xatti-harakatlarni amalga oshirishida jismoniy va aqliy yo‘nalganlikning uyg‘un ifodasini boshqarib turadigan kuch manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Motivasiya – insonning qoniqish manbaiga intilishi sifatida uning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Motiv asosida shakllangan maqsadga ko‘ra, odam har doim o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun biror-bir obyektga yoki manbaga yo‘nalgan bo‘ladi. (Bu o‘rinda motiv vosita rolini o‘ynaydi)

Jinoiy xatti-harakatlarni shakllanishida asosiy rolni motivga xos ehtiyojlar bajaradi. Inson ehtiyojlari biror-bir narsaga (moddiy yoki ma’naviy) bo‘lgan ehtiyojni aks ettirishi bilan tashqi dunyoga qaramligini (tobeligini) namoyon qiladi.

Zamonaviy psixologiya fanining asoslashiga ko‘ra, hozirgi odamlarning ehtiyojlari xilma-xildir. Ana shu ehtiyojlarni tavsiflashda uchta asosiy guruhni ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Ijtimoiylashgan organik (fiziologik) ehtiyojlar (o‘zini saqlab qolish, takror ishlab chiqarish va h.k);

2. Moddiy ehtiyojlar;

3. Ijtimoiy ehtiyojlar - ijtimoiy munosabatlarga kirishish orqali bilim va tajriba egallash, ijtimoiy mavqyega erishish, tan olinish, o‘zini-o‘zi tasdiqlash, ijodkorlik, hayotning mazmuni va boshqalar.

Ehtiyojlarni qondirish jarayoni davomiylikni yoki uzoq vaqtni talab qilmaydi. Agar uzoq vaqt talab etilsa, u yo‘q bo‘lib ketadi. Chunki psixofizologik qonuniyatlarga ko‘ra, to‘sib qo‘yilgan ehtiyoj insonda asta-sekin o‘jarlik va agressivlikni hosil qiladi, natijada, odamda tajovuzkorlik yoki agressivlik xulq-atvor shakllanadi. Agar ushbu ehtiyojni qondirishning tabiiy yoki qonuniy kafoloti biron-bir sababga ko‘ra imkonsiz (yetarli sharoit bo‘lmaganda) bo‘lsa, uni qondirish xayoliy (yomon, buzuq) yoki intasional shakllarga ega bo‘lishi mumkin. Oqibatda, bunday odamlar jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalar, o‘zaro munosabatlardagi me’yorlar, umum e’tirof etgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bilmasligi, anglab yetmasligi yoki e’tiborsizligi bilan buzishi oqibatida jinoyat hosil qiladilar.

Biror bir shaxsning yoki odamlarning turli-tuman harakatlarini kuzatganimizda, xususan jinoiy xatti-harakatlarini o‘rganib tahlil qilganimizda, jinoiy xatti-harakatlar asosan bir emas, balki, bir-biri bilan murakkab va iyerarxik (tarzda birikishgan) munosabatlarga ega bo‘lgan bir nechta motivlarga asoslanadi. Mazkur motivlar birikmasida subyekt xatti-harakatlarini rag‘batlantiruvchi, uni hayoti va shaxsiga mazmun bag‘ishlovchi yetakchi motivlar mavjudligini ko‘ramiz. Jumladan o‘g‘rilikka yo‘nalgan jinoiy xatti-harakatlarning asosida nafaqat zarur ehtiyojlarni qondirish (og‘ir vaziyat va munosabatdan saqlanish) balki “nufuzli” o‘g‘rilar guruhi oldida o‘z shaxsini namoyon qilish (uddaburonligini ko‘rsatish, qadr topish va boshq.) kabi motivlar yotganligini asoslashga intiladi.

Bundan tashqari, aynan shu sohada olib borilgan tadqiqotlarning tasdiqlashicha, (Bixivioristlar, freydizm va neofreydizm vakillari) insonning yetakchi motivlari, aynan tabiiy (fiziologik) motivlari ong ishtirokisiz namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan (sababli) qaraganimizda jinoyatchilar ko‘p holatlarda bu jinoyatni nima uchun qilganliklarini tushuntirib bera olmaydilar (tushunmaydilar). Jinoyatning mohiyati to‘liq anglanilmagan va jinoiy xatti-harakatda mazmunli yo‘nalganlik yo‘q.

Keyingi yillarda shu sohani o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar natijalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, jinoiy xatti-harakatlarni hosil qiluvchi antisosial harakatlarning quyidagi motivlarini (sabablarini) farqlash mumkin:

1. O‘zini-o‘zi tasdiqlash yoki o‘zini-o‘zi namoyon qilish (ijtimoiy maqomga erishish) motivlari.

2. Mudofaa (o‘zini himoyalash) motivlari.

3. Almashinuvchi yoki o‘zgaruvchi motivlar.

4. O‘yin motivlari.

5. O‘zini-o‘zi oqlashga yo‘naltirilgan (ongli va ongsiz tarzda yuzaga keluvchi) motivlar

O‘zini-o‘zi tasdiqlash (ijtimoiy maqomga erishish) zarurati inson xatti-harakatlarining keng doirasini rag‘batlantiradigan eng muhim motivlardir. Odamlar ko‘pincha, o‘z shaxsining ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik va individual darajalarda e’tibor qozonish va o‘rin topish istagida o‘zini namoyon qiladilar.

Ijtimoiy darajada shaxsning o‘zini namoyon qilishi (boshqalarni hurmat-e’tiboriga erishish) ijtimoiy mavqyega ega bo‘lishga intilish ya’ni professional yoki ijtimoiy faoliyat sohasida shaxsni tan olish bilan bog‘liq aniq ijtimoiy rolni bajarishga erishish demakdir. Ijtimoiy-psixologik darajadagi tan olinish (hurmat-e’tibor qozonish), shaxsiy maqomga ega bo‘lish motivi (orzu), ya’ni u a’zo bo‘lgan guruhlar: oilada, bir xil ma’lumotlilar o‘rtasida, kasbiy yoki faoliyat bilan bog‘liq guruh hamda jamoalarda (do‘stlar, hamkasblar va boshqalar) darajasida shaxsni muhim ichki doiradan tan olinishga erishish motivi (istagi) bilan bog‘liq. Ba’zida, bu guruhga qo‘shilishni orzu qilgan biroq, ular bilan aloqa qila olmaydigan kishilar ham bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda jinoyat shu kabi guruhga kirish usulini e’tirof etishga erishish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu usuldan foydalanishga intilish yoshlar uchun eng xos xususiyatdir.

Insonning individual darajada o‘zini-o‘zi tan olishi (o‘zini-o‘zi himoya qilishi), yuksak e’tirofga ega deb baholashi, o‘zini-o‘zi hurmat qilishi va o‘zini-o‘zi qadrlashni kuchaytirish (istagi) motivi bilan bog‘liq. Bunda har qanday psixik kamchiliklarni, zaifliklarni yengishga yordam beradigan va ayni paytda shaxsni kuchli tomonlarini namoyon qiladigan bunday harakatlarni amalga oshirish orqali erishiladi. Ko‘pincha, bunday o‘zini-o‘zi tasdiqlashga xos tasavvurlar shaxsda befarqlik bilan amalga oshirilganligi uchun ularda befarqlikni, o‘zini tobora mustaqil his qilishga olib keladi. Bunday shaxslarda go‘yoki o‘zini namoyon qilishni yo‘qotish ular uchun hayot fojiasini anglatadi.

D.I.Feldshteyn (1993) ayrim talab va ehtiyojlarning jiddiyligiga ko‘ra, o‘smirlarni antisensal yo‘nalishni besh guruhga ajratadi. Birinchi guruh jinoyat yo‘liga tasodifan kirgan o‘smirlarni o‘z ichiga oladi. Ular zaif va atrof muhitga oson moslashadi. Ularning ehtiyojlari prokasional va o‘zlarining antisosial harakatlarining sababi emas. Ikkinchi guruhga esa buzuq bo‘lmagan ehtiyojga ega bo‘lgan o‘smirlar kiradi. Ularning do‘stlari bilan osonlik bilan maslahat beradigan, jozibali, juda yaxshi. Yergenlerin uchinchi guruhi deforme va prozimel ehtiyojlar, qiziqish va munosabatlar o‘rtasidagi ziddiyatni tasvirlab beradi. Ularning axloqiy nuqtai nazari ishonchli emas edi. Ular uchun, o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun egoist istagi xarakterli bo‘lib, antisosiyal harakatlarga olib keladi. To‘rtinchi guruh buzuq ehtiyoj va asosiy talablarga ega bo‘lgan o‘smirlardan iborat bo‘lib, ular barqaror axloqsiz ehtiyojlar to‘plami bo‘lgan va munosabatlar va munosabatlarga chinakam antisional yo‘naltirilgan bo‘lgan balog‘atga yetmagan huquqbuzarlarga taqlid qiladi. Jinoyatlar, asosan, shaxsiyatning umumiy oriyentasiyasi fonida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan sabab tufayli, ular tomonidan sodir etilgan. Beshinchi guruhga ijtimoiy-salbiy anomal, axloqsiz, ibtidoiy ehtiyojlarning barqaror majmuasi bo‘lgan o‘smirlar kiradi. O‘ziga xoslik, boshqalarning tajribasiga befarqlik, iste’molchini o‘tkazish istagi, tajovuzkorlik ongli ravishda sodir etilgan jinoyatlar bilan birlashtiriladi.

Poraxo‘rlar va talonchilar orasida ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik va individual darajalarda o‘zini namoyon qilishga intilish (erishish) uchun kurashayotgan odamlar boshqalardan qisman farqlanadi. O‘g‘rilar, talonchilar boshqalarga nisbatan mavqyega erishishda ikkinchi va uchinchi darajalarda o‘rin

olganlar. Jinoyatni sodir etishda jinoyat sodir etish bilan bog‘liq “komissiya” vaziyatga oid muammolardan tashqari biron-bir ichki muammolarni hal qilishni ta’minlaydi. Jinoiy xatti-harakatlarda moddiy imtiyozlarga ega bo‘lish insonda ishonch hissini kuchaytiradi va xavotirlanishni pasaytiradi yoki xavotirlanishni yo‘qolishiga olib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, shaxsning psixologik taraqqiyoti, uning tarixiy kechishi va ontogenizda rivojlanishi bilan bog‘liq konseptual masalalarni chuqur o‘rganishda motivasion sohani tatqiq etish tayanch hisoblanadi. Motivasiya odamni muayyan xatti-harakatlarni bajarishga undash jarayoni, ko‘pincha muqobil usullarni tahlil qilish va baholashni, tanlash va qarorlar qabul qilishni talab qiluvchi jismoniy-psixologik jihatdan uyg‘unlashgan mohiyatli murakkab harakat jarayoni bo‘lib, bu jarayon murakkablashib boradi va o‘z mohiyatiga ko‘ra subyektning yuzaga kelgan tayanch ehtiyojlarini qondirishga yo‘nalgan faoliyatni tanlash va uni amalga oshirish jarayonini belgilaydi.

O‘smirlarga xos jinoyat motivlarining shakllanishi aynan shu yoshdagilarning turmush tarzi bilan bog‘liq bio-fiziologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va tarbiyaviy-psixologik omillar hamda ularni ta’minlovchi zarur shart-sharoitlarga bog‘liqdir. Mazkur omillar ta’sirini uyg‘un va me’yorli kechishini ota-onalar, tarbiyachi-o‘qituvchilar, mahalla-guzar faollari va boshqa tarbiya uchun mas’ullar o‘zaro kengashib, maslahatli hal qilishlari maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, jinoyat mativlari shakllanishining salbiy oqibatlarini anglatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016 yil 14 sentyabr. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 37-son, 426-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017. - 6 (766)-son.
4. G‘oziyev E.G‘., Jabborov A.M. Faoliyat va xulq-atvor motivasiyasi. T.: 2003, -124 b.
5. Karimova V.M. Yoshlarda o‘zbek oilasi to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar. Psix. fan. dok. diss. - T.: ToshDU, 1994. - B.309.
6. Qodirov O.S. “O‘smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi” // Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. T.: 2020, - 155 b.
7. Abdurasulova Q. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. // Qonun himoyasida. 2001, 1- son, 23-26- b.

ОРГАНИЗАЦИЯ ОБУЧЕНИЯ ПО ТАКСОНОМИИ БЛУМА НА ОСНОВЕ НЕФТЕГАЗОВЫХ ЦИФРОВЫХ ТРЕНАЖЕРОВ-ИМИТАТОРОВ.

Волохин Е. А., Мухаметзянова Ф. Г. УЧ ПОО «Нефтяной техникум», ФГБОУ ВО «УдГУ», г. Ижевск, Россия, e-mail: evgeniivolokhin@mail.ru, ФГАОУ ВО «Казанский (Приволжский) федеральный университет», г. Казань, Россия, e-mail: florans955@mail.ru

Введение. В настоящее время в современном вузовском образовании имеется ряд недостатков: излишняя теоретическая направленность образования, при которой выпускник Вуза на работе долго адаптируется из-за невозможности сопоставить свои знания с практической деятельностью [1], однако на уровне СПО участие в демонстрационном экзамене на полигоне и в чемпионате «Профессионалы», по компетенции «добыча нефти и газа» приближает полученный образовательный опыт студента к требованиям работодалей.

В настоящее время большее внимание уделяется на развитие компетентностей, формирующих функциональность образования. Данный навык позволяет выпускнику сопоставлять, правильно действовать в полученной ситуации, адаптироваться на основе имеющихся знаний [2].

Цель работы: проанализировать структуру обучения цифровых тренажеров согласно обновленной таксономии Блума.

Базой для исследования являются учреждение УЧ ПОО «Нефтяной техникум», ФГБОУ УР «Удгу» (институт нефти и газа им. М. С. Гуцериева). За анализ был взят междисциплинарный курс Нефтяного техникума «Обеспечение технологического процесса добычи углеводородного сырья», по специальности «Разработка и эксплуатация нефтяных и газовых месторождений», и по направлению «Нефтегазовое дело” дисциплина УДГУ «Эксплуатация нефтяных и газовых скважин».

Используемые цифровые тренажеры-имитаторы: программный продукт для подбора погружного оборудования RN-ROSPUMP, компьютерные имитационные тренажеры «Эксплуатация скважин, оборудованной ШГНУ», «Тренажер-имитатор эксплуатации и освоения АМТ-601», «Тренажер-имитатор капитального ремонта скважин АМТ-411».

Методологической базой является теоретические основы обновленной Таксономии Блюма, которая обеспечивает структурированный и систематический подход к обучению и оценке знаний и навыков [3]. В основе анализа используется пересмотренная таксономия Блума, которая разработана Д. Крутолом, Л. Андерсон [4]. Для преподавателей она позволяет сформировать обучение так, чтобы студенты двигались от простых мыслительных операций к более сложным. Для

студентов: лучше понимать, что от них ожидается на разных этапах обучения, осознавать, на каком уровне мышления они находятся при выполнении задания, стремиться к развитию навыков мышления более высокого порядка.

По междисциплинарному курсу Нефтяного техникума «Обеспечение технологического процесса добычи углеводородного сырья» по теме: «Эксплуатация нефтяных скважин штанговыми насосами» проводятся практические работы на имитационных цифровых тренажерах «Установка штанговых глубинных насосов (УШГН), изменение режима эксплуатации», на уровне ВПО в Удгу по дисциплине «Эксплуатация нефтяных и газовых скважин» по теме: «Глубинно-насосная эксплуатация скважин.» проводятся практические работы на имитационном тренажере АМТ-601 по теме: «ШСНУ-освоение и вывод на режим», «Эксплуатация в осложненных условиях». В двух орагнизациях на разных уровнях проводятся практические работы на цифровых тренажерах «Моделирование работы скважины, оборудованной ШГН в программе RN-ROSPUMP»[5].

Используется компетентностный подход на основе пересмотренной таксономии Блума определяется развитие знаний с ответом на вопрос: что мы знаем? и когнитивные процессы разной степени сложности с целью ответа на вопрос: что мы делаем со знаниями?.

Рассмотрим фактуальные знания:

1.1 На аудиторных занятиях происходит осмысление информации: терминология (знание названий основных узлов), данные (запоминание типовых диапазонов параметров работы установки ШСНУ), классификация (типы приводов станков качалок), правила безопасности, конкретные данные (диапазоны рабочих параметров установок), назначение основных узлов и интерфейса тренажера, названия (типовых неисправностей ШСНУ), основные формулы.

1.2 На тренажерах (конкретизация и запоминание через действие): расположение элементов управления тренажера, считывание показаний (значений давления , дебита, натяжения каната), запоминание конкретных числовых результатов для заданных условий.

Рассмотрим концептуальные знания (знание «Почему» и «Как связано»):

1.1 На аудиторных занятиях: принципы работы (действия ШГН), модели и теории (модель притока жидкости к скважине), взаимосвязи (длины хода и числа качаний), структуры (схемы ШГН).

1.2 На на цифровых тренажерах-имитаторах: визуализация связей (как изменение режима отражается на показаниях амперметра), понимание динамики: восприятие процесса изменения давления при вращении дросселя.

В пределах освоения процедурных знаний проводится теоретическое описание:

•В рамках аудиторных занятий методики (подбора ШГН, вывода скважины на режим), алгоритмы (при плановом изменении режима).

На практических занятиях на тренажерах-имитаторах и полигонах (отработка навыков): выполнение конкретных шагов (нажатие кнопок, изменения режима), работа с инструментами (использование органов управления тренажера).

На последнем этапе формируются метакогнитивные знания:

2.1 На аудиторных занятиях: поиск источников информации (нормативной документации, справочники), обсуждение подходов по оптимизации режима, самооценка(понимание того, какие знания являются ключевыми для инженера по добыче).

2.2 На на тренажерах-имитаторах метакогнитивные знания развиваются через рефлексию над действиями: эффективность действий (оценка того, насколько быстро и правильно получается выполнить процедуру, поиск более эффективных путей выполнения задач), самоконтроль(выработка привычки проверять введенные данные перед запуском моделирования), анализ ошибок (понимание, почему симуляция не запустилась или результаты на тренажере не являются ожидаемыми, анализ ошибок), адаптация стратегий (ликвидация осложнений при их появлении).

Знания, полученные на лекциях, активируются, углубляются и трансформируются на практических занятиях через применение более высоких когнитивных процессов, которые показаны в табл. 3. В пересечении знаний и когнитивных процессов формируется учебная цель, отвечающая на вопрос что студент должен уметь делать с определенным типом знания (табл. 1). Психомоторная функция на тренажере связана с практическими навыками, координацией, умением пользоваться управлением, например, студент, закрыв дроссельную задвижку,ждет стабилизацию давления, и после этого повторно поворачивает дроссель.

Когнитивный процесс в фактуальных знаниях следующий: «Помнить» - находить нужные кнопки и меню и на пультах тренажеров, «Понимать» - назначение основных полей ввода данных, «Применять» - устанавливать заданные параметры на тренажере, «Анализировать» - сравнивать показания приборов на тренажере с ожидаемыми значениями, «Оценивать, создавать» - маловероятен. На уровне концептуальных знаний когнитивный процесс «Помнить» - какой параметр в тренажере соответствует какому физическому явлению; «Понимать» - как изменение входных данных в тренажере влияет на результат моделирования; «Применять» - использовать понимание принципов работы ШГН для интерпретации результатов моделирования в тренажере, «Анализировать» - изменение параметров на тренажере при изменении режима операции, возникновения осложнений; «Оценивать» - эффективность текущего режима работы ШГН на основе данных моделирования или показаний тренажера: «Создавать» - алгоритм ликвидации внештатных осложнений. Рассмотрим процедурные знания. В

качестве когнитивного процесса «Помнить» студент должен воспроизводить шаги для запуска моделирования в тренажере, на уровне «Понимать» должен объяснять назначение каждого шага в процедуре моделирования или работы с тренажером, на уровне «Применять» выполнять моделирование работы ШГН в тренажере, изменять режим работы, на уровне «Анализировать» выполнять моделирование работы ШГН на тренажере по заданным условиям, изменять режим эксплуатации. На уровне «Оценивать» выбирать оптимальную последовательность действий для изменения режима или устранения осложнения, на уровне «Создавать» разрабатывать собственный алгоритм для решения нестандартной задачи на тренажере. В отношении метакогнитивных

знаний в когнитивном процессе «Помнить» студент должен помнить наиболее важные параметры для контроля на тренажере, на уровне «Понимать», должен понимать, когда результаты моделирования можно считать достоверными, в процессе «Применять» стратегии самопроверки при вводе данных на тренажере, в ходе действия «Анализировать» должны анализировать собственные ошибки при работе с тренажером и определять их причины, на уровне «Оценивать» студент должен уметь оценивать свой прогресс в освоении навыков работы с оборудованием, в ходе действия «Создавать» должен формулировать и проверять гипотезы о поведении технологиического процесса.

Итак, использование цифровых тренажеров-имитаторов в нефтегазовой отрасли помогает в образовательном процессе студентам не просто получить знания, но и закрепить их в виде умений, навыков, компетенций. Организация целей обучения по обновленной таксономии Блума позволит студентам получить навыки на тренажере от простого к сложному, на каждом этапе анализировать уровень своей готовности. На основе таксономии в настоящее время фомируется методические рекомендации по получению компетенций, необходимых работодателя с учетом цифровых тренажеров – имитаторов.

Список литературы

1. Тодис. Л. М., Виноградова Т. В. / Современные проблемы высшего образования в России и возможные пути их решения // Современное педагогическое образование, Москва - 2023. - №3, С. 78-81.
2. Алексеева Т. Н./ Постановка образовательных целей для активизации слабомотивированных обучающихся-теория-практика-функциональность // Форум молодых ученых. – 2023 - №4 (80), С. 15-20.
3. Кабушева М. О. / Таксономия блума и критическое мышление в педагогическом образовании.// Вестник Казахского национального женского педагогического университета - 2023, - №3(95), - С. 37-48.
4. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). - 2001. A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom’s Taxonomy of educational objectives. Longman.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA OID MILLIY QONUNCHILIK VA DAVLAT SIYOSATI YO‘NALISHLARI

Xaydarov Ravshan Rustamovich
ShXBB hududiy bo‘linmalari, Samarqand viloyati
bo‘yicha boshqarmasi katta tezkor vakili, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqola, korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik tahlili va davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlariga qaratilgan bo‘lib, mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning vazifalari va ilmiy yangiligi, hamda ishning tuzilishi borasida ma’lumotlar berilgan.

– **Kalit so‘zlar:** Korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiya, jinoiy faoliyat, komplayens nazorat tizimi, ichki ishlar organlari, prokuratura jinoiy jazo, jazo, axloqan tuzatish, axloqan tarbiyalash, xizmat faoliyati, javobgarlikning muqarrarligi.

Mavzuning dolzarbligi: Korrupsiya – jamiyatni, millatni ichichidan yemiradigan, davlatlarni tanazzulga olib keladigan illatdir. Korrupsiya mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalariga ta’sir qilib, iqtisodiy sohada raqobat mexanizmlarining ishlamasligiga, mulk huquqining poymol qilinishiga, ijtimoiy tabaqalanishiga, tamoyilining sohada xalqning qonun obro‘sizlanishiga, ustuvorligi siyosiy sohada esa xalqning hukumatga ishonchi yo‘qolishiga olib keladi. Shu boisdan ham Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev o‘z vakolatiga kirishishi bilan Prezident sifatida imzo chekkan eng birinchi hujjat “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Qonuni bo‘ldi. Respublikasi Qonun bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilandi. Xususan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir choratadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash shular jumlasidandir.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik bazasining tavsifi.

❖ Birinchi hujjat, Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2004 yil 26 avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan.

Qonunga asosan Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat;

ichki nazorat;

mijozlarni lozim darajada tekshirish bo‘yicha chora-tadbirlar;

Qonunning 8-moddasiga binoan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli davlat organi pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operasiyalar o‘tkazilishi ustidan ushbu Qonunda belgilangan tartibda nazoratni amalga oshiradi.

❖ **Ikkinchi hujjat,** 2014 yil 14 mayda O‘zbekiston Respublikasining **“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi** Qonuni qabul qilindi. Qonunning 9-moddasida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimi belgilangan.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimiga quyidagilar kiradi:

– ichki ishlar organlari;
– prokuratura organlari;
– davlat xavfsizlik xizmati organlari;
– adliya organlari;
– davlat bojxona xizmati organlari;
– davlat soliq xizmati organlari;
– mehnat organlari;
– ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta’lim muassasalari;
– davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari;
– O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi organlari.

Uchinchi hujjat, O‘zbekiston Respublikasining 09.04.2018 yilda “Davlat xaridlari to‘g‘risida” gi O‘RQ-472-sonli Qonuni qabul qingan bo‘lib unda davlat xaridlari sohasida korrupsiyani oldini olish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Jumladan, Qonuning 39-moddasida davlat xaridlarida korrupsiyaviy holatlar sifatida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish masalalarini keltirib o‘tadi. Unga ko‘ra, shaxsiy manfaatdor emasligini, shuningdek o‘z oila a’zolarining manfaatdor emasligini kafolatlashi kerak, aks holda shaxsiy manfaatdorlik hamda boshqa ishtirokchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida ziddiyat yuzaga keladi yoki kelishi mumkin, manfaatlarning istalgan potensial, taxmin qilinayotgan yoki mavjud to‘qnashuvi haqidagi axborotning oshkor etilishini kafolatlashi kerak. Mavjud yoki taxmin qilinayotgan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar topgan, ushbu moddaning birinchi

qismida ko‘rsatilgan shaxslar bu haqda bevosita rahbarga xabar qilib, bir vaqtning o‘zida vakolatli organni xabardor etishi shart. Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotlar olgan rahbar uning oldini olish yoki uni bartaraf etish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rishi shart.

❖ **To‘rtinchi hujjat,** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2017 yildagi **“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi** PQ-2752-sonli Qarori qabul qilingan bo‘lib, ushbu qaror asosida tasdiqlangan “2018-2019 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi”ning qabul qilindi. Ushbu dasturda yillik korrupsiyaga qarshi kurashish choralar o‘zida aks ettiradi.

❖ **Beshinchi hujjat,** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.05.2019 yildagi **“O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PF-5729-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi”ning 21-bandida ustav jamg‘armasida davlat ulushi bo‘lgan tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini kuchaytirish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish **komplayens nazorat** tizimini joriy etish belgilandi.

❖ **Oltinchi hujjat,** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.03.2020 yildagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5953-sonli Farmoni.

❖ **Yettinchi hujjat,** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2020 yil 17 fevralda 72-F-sonli Farmoyishi** qabul qiligan bo‘lib, ushbu hujjatda davlat tashkilotlarida komplayens nazorat tizimini joriy etishda quyidalarga alohida etibor qaratilinishi lozim ekanligi ko‘rsatildi:

korrupsiya xavf-xatarlarini o‘z vaktida aniqlash, ularga chek ko‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda ularni minimum darajaga tushirish;

davlat organlari va tashkilotlarning hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish;

xodimlar tomonidan kasbiy odob-ahloq qoidalariga kat’iy rioya etish va xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuvi haqida xabar berish hamda ularni hal qilish masalalarini tartibga solish.

❖ **Sakkizinchi hujjat,** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2020 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6013-sonli Farmoni va ushbu hujjat ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2020 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4761-sonli Qarorlari qabul qilindi. Mazkur

hujjatlarga asosan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi va ushbu siyosatda qator asosiy vazifalaridan biri etib 2020-2021 yillarda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalar, shu jumladan banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi **(«komplayens-nazorat»)**ni bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi.

2. O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonunining mazmuni va mohiyati.

Mazkur qonun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi normativ talablarni umumlashtirdi. “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni 2017 yil 3 yanvarda qabul qilingan Qonun 6-ta bob, 34-moddadan iborat.

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish

4-bob. Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar

5-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo‘yish, javobgarlikning muqarrarligi

6-bob. Yakunlovchi qoidalar.

Qonunda korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik, manfaatlar to‘qnashuvi tushunchalariga ilk marotaba huquqiy tushunchalar keltirildi.

Manfaatlar to‘qnashuvi — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

Qonuning 4-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari keltirib o‘tildi, unga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

javobgarlikning muqarrarligi.

Shuningdek, Qonunning 7-moddasiga binoan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi vakolatli davlat organlari keltirib o‘tilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

Har bir davlat organinining o‘z soha faoliyatidan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish siyositini amalga oshirish belgilab o‘tilgan.

Qonunning **24-moddasi** normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi masalalariga qaratilgan, **28-moddasi** korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilish masalalariga qaratilgan. Unga asosan Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot berayotgan shaxslar davlat himoyasida bo‘lish tartibi belgilangan.

3. O‘zbekistonda korrupsiya qarshi kurashishga oid davlat davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va “Korrupsiyasiz soha” loyihasining joriy etilishi va amalga oshirish jarayonlari.

O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuning 5-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab o‘tilgan, unga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- ✓ aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;
- ✓ davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- ✓ korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash.

“Korrupsiyasiz soha” loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.05.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida ushbu loyihasini joriy etish vazifasi belgilandi. Shuningdek, 2019 yildan boshlab BMT Taraqqiyot dasturining “O‘zbekistonda samarali, hisob beruvchi va oshkora boshqaruv institutlari orqali korrupsiyaga karshi kurashish” loyihasini amalga oshirish doirasida Bosh prokuratura, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan hamkorlikda ustav jamg‘armasida davlat ulushi 100% yoki 50% dan yuqori bo‘lgan faoliyati xorijiy bozor bilan integrasiyalashgan bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida, xususan, “O‘zbekneftgaz” va “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatlarida tajriba sifatida “Korrupsiyaviy soha” loyihasini davom ettirish va ular tarkibida korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimini joriy

etish ishlari olib borilmoqda. Mazkur loyihaning samarali olib borilishini ta’minlash maqsadida”White and Case” (AQSh), KPMG (Italiya) xalqaro auditorlik kompaniyalari ishtirokida ishlar tashkil etilmoqda.

Shuningdek, 2020 yil 15 martida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi *Ichki ishlar vazirligi, Transport vazirligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi, Energetika vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Qishlok xo‘jaligi vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi* kabi 9 davlat idoralari bilan hamkorlikda ushbu sohalarda korrupsiyaga qarshi samaradorlikni yanada takomillashtirish maqsadida bosqichma-bosqich komplayens nazorat tizimini joriy etish tartibi kelishildi va «Korrupsiyaga qarshi kurashishni yanada takomillashtirish bo‘yicha 2020 yilga mo‘ljallangan Yo‘l xaritasi» tasdiqlandi.

Bu jarayonda har bir soha yo‘nalishning o‘ziga xos jihatlari inobatga olingan holda “Korrupsiyasiz soha” yo‘nalishini joriy etib borish va sohalardagi korrupsiya xavf-xatarlarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga imkon buyervchi sabalarni tizimli tahlilini yo‘lga qo‘yish orqali korrupsiyaviy holatlarni yuzaga kelishini olidini olishga qaratilgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash yangi bosqichga ko‘tarilganligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasida alohida e’tirof etildi. Ta’kidlash joizki, Yangi O‘zbekistonni barpo etish borasida Davlat rahbari tomonidan olib borilayotgan siyosat zamirida ham O‘zbekistonni aynan korrupsiyadan holi mamlakatga aylantirish yotibdi. Buning uchun butun jamiyatimizda bu illatga qarshi barcha sog‘lom kuchlarni birlashtirish, jumladan, parlament, ijro hokimiyati va mahalliy vakillik organlari hamda jamoatchilikning yaqin hamkorligini ta’minlash hal qiluvchi ahamiyatga egadir

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг 03.01.2017 йилдаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги ЎРҚ-419-сонли Қонуни//[Электрон манба]. URL: https://lex.uz/docs/3088008.

2. Ўзбекистон Республикасининг 09.04.2018 йилдаги “Давлат харидлари тўғрисида” ги ЎРҚ-472-сонли Қонуни // [Электрон манба]. URL: https://www. lex.uz/docs/28144.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 02.02.2017 йилдаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунининг қоидаларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2752-сонли Қарори // [Электрон манба]. URL: https://lex.uz/docs/3105125.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 27.05.2019 йилдаги “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5729-сонли Фармони // [Электрон манба]. URL: https://lex.uz/docs/4355387.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 02.03.2020 йилдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида“ги ПФ-5953-сонли Фармони//[Электрон манба].URL: https://lex.uz/docs/4751561.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29.06.2020 йилдаги “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6013-сонли Фармони//[Электрон манба].URL: https://lex.uz/pdfs/4875784.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29.06.2020 йилдаги “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4761-сонли Фармони//[Электрон манба].URL: https://lex.uz/pdfs/4875782.

8. Н.Салаев, Б.Хидоятов, Г.Тулаганова, С.Ниёзова. Коррупцияга қарши кураш. Ўқув қўлланма. –Тошкент: ТДЮУ нашриёти, 2018. 5-23,101б.

O‘SMIRLARDA STRESS PAYDO BO‘LISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Xidirova Maftuna
SamDU psixologiya faoliyat turlari bo‘yicha yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: Amaliy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi **D.B.Islamova**
maftuna52635263@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o‘smirlik davrida uchraydigan stress holatlarining psixik holatga ta’siri tahlil qilingan. Stressning sabablari, ularning ruhiy sog‘likka ko‘rsatadigan salbiy oqibatlari va bunday holatlarni kamaytirish yo‘llari haqida ilmiy asoslangan fikrlar bayon etilgan. Maqolada o‘smirlarning ijtimoiy, o‘quv va oilaviy muhitidagi stress omillari yoritilib, psixoprofilaktika choralari haqida takliflar ilgari surilgan.

KALIT SO‘ZLAR: O‘smir, stress, psixik holat, ruhiy sog‘liq, psixoprofilaktika, ijtimoiy omillar, stressga qarshi kurash, maktab psixologiyasi

АННОТАЦИЯ: В данной статье проанализировано влияние стрессовых состояний, возникающих в подростковом возрасте, на психическое состояние. Изложены научно обоснованные мнения о причинах стресса, его негативных последствиях для психического здоровья и способах снижения подобных состояний. В статье освещены стрессовые факторы в социальной, учебной и семейной среде подростков, а также предложены меры психопрофилактики.

Ключевые слова: Подросток, стресс, психическое состояние, психическое здоровье, психопрофилактика, социальные факторы, борьба со стрессом, школьная психология

ANNOTATION: This article analyzes the impact of stress experienced during adolescence on mental well-being. It presents scientifically grounded ideas about the causes of stress, its negative effects on psychological health, and ways to reduce such conditions. The article highlights stress factors in adolescents’ social, academic, and family environments and proposes suggestions for psychoprophylactic measures.

Keywords: Adolescent, stress, mental state, mental health, psychoprophylaxis, social factors, stress management, school psychology

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab, qarama-qarshi va keskin o‘zgarishlarga boy bosqich hisoblanadi. Bu davrda jismoniy o‘sish, gormonal o‘zgarishlar, ijtimoiy munosabatlarning kengayishi va mustaqil fikrlash ehtiyoji ortadi. Mazkur o‘zgarishlar fonida o‘smirlar ko‘pincha ruhiy muammolarga duch keladilar. Bu borada muhtaram yurtboshimiz SH.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni bildirganlar: “Biz yoshlarimizning har tomonlama sog‘lom, barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun, ularning ruhiy holati, qalb dunyosi va kayfiyatiga e’tibor qaratishni, bu borada ota-ona, o‘qituvchi va jamiyatning mas’uliyatini yanada oshirishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik”. Ruhiy xotirjamlik inson hayotining mazmuni, oila faravonligi, jamiyat tinchligi kafolatidir.

Guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek bugungi kunda bizning nazarimizda eng ko‘p uchrayotgan psixologik holatlardan biri stress hisoblanadi. Stress holati o‘smirlarning o‘qish samaradorligi, ijtimoiy moslashuvi, o‘z-o‘zini anglash jarayoni va ruhiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada stressga olib keluvchi omillar, uning belgilari va uni yengish yo‘llari taxmin qilinadi. Stress — bu organizmning ichki yoki tashqi bosimlarga (masalan, o‘qishdagi qiyinchiliklar, oilaviy muammolar, do‘stlar bilan ziddiyatlar) javoban yuzaga keladigan holati. O‘smirlarda stress odatda hissiy beqarorlik, xavotir, tushkunlik yoki g‘azab shaklida namoyon bo‘ladi.

O‘smirlar orasida stressga olib keluvchi omillar bir nechta asosiy guruhlarga bo‘linadi:

1. Oilaviy omillar — ota-onaning talabchanligi, doimiy nizolar, e’tiborsizlik yoki haddan tashqari nazorat stress manbai bo‘lishi mumkin.

2. Ta’lim va akademik bosim — imtihonlar, uy vazifalarining ko‘pligi, o‘qituvchilarning bosimi va baholarga bo‘lgan ehtiyoj o‘quvchilarda zo‘riqishni kuchaytiradi.

3. Tengdoshlar bilan munosabatlar — ijtimoiy rad etilish, masxara, tahqir yoki yolg‘izlik hissi stress darajasini oshiradi.

4. O‘zini anglashdagi ziddiyatlar — tashqi ko‘rinish, o‘z qadr-qimmatini anglamaslik, kelajakka bo‘lgan noaniqlik. Stress holatining namoyon bo‘lishi turlicha bo‘lishi mumkin: uyquning buzilishi, charchoq, e’tiborsizlik, jizzakilik, qo‘rquv va depressiv holatlar. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam

stress holati o‘smirlarning depressiyaga moyilligini oshiradi. Stressga qarshi kurashda psixologik yordam, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va muntazam monitoring muhim ahamiyatga ega.

O‘smirlikdagi stressning psixologik oqibatlari:

Depressiya – o‘zini yomon his qilish, hech narsaga qiziqmaslik holatlari.

Anksiyete (bezovtalik) – kelajakdan qo‘rqish, o‘ziga ishonchsizlik.

Ijtimoiy izolyatsiya yoki o‘zini izolyatsiya qilish – atrofdagilar bilan muomala qilishdan bosh tortish yoki tajovuzkor bo‘lish.

O‘z joniga qasd qilish fikrlari – kuchli stressda ayrim o‘smirlar bunday og‘ir fikrlarga borishlari mumkin, bu esa jiddiy e’tibor talab qiladi.

O‘smirlik davrida yuzaga keluvchi stress holatlari ularning ruhiy sog‘lig‘iga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muammo individual emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan omil sifatida qaralishi kerak. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlar faoliyatini kuchaytirish, ota-onalar bilim va madaniyatini oshirish va ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish asosiy yo‘nalishlardan biridir. Psixologik treninglar, ommaviy tadbirlar va profilaktik suhbatlar orqali yoshlarni stressga qarshi tayyorlash mumkin. Stressni erta aniqlash, unga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish va davolovchi emas, oldini oluvchi yondashuvlar orqali yechim topish jamiyatning har bir a’zosi zimmasiga tushadigan mas’uliyatdir.

Òsmirlarda stressni oldini olishga mo‘ljallangan trening ishlanmasi quyidagicha bo‘lishi mumkin; Trening mavzusi: “Stressni boshqarish va hissiy muvozanatni saqlash”

Maqsadi: Òsmirlarga stressni aniqlash, sabablarini tushunish, uni yengish va oldini olish ko‘nikmalarini shakllantirish.

1. Kirish (15 daqiqa)

Ishtirokchilar bilan tanishish (mini o‘yin: “Isming nima va sening sevimli mashg‘uloting?”)

Trening maqsadi bilan tanishtirish. Qoidalarni belgilash (hurmat, faollik, ochiqlik, maxfiylik)

2. Stress haqida tushuncha (20 daqiqa). Stress nima? (yengil slaydlar yoki video orqali tushuntirish). Stress alomatlari (fizik, hissiy, xulqiy). Òsmirlik davrida uchraydigan stress manbalari (o‘qish, ijtimoiy bosim, ota-onalar kutuvi va h.k.)

3. Stressni aniqlash mashqlari (15 daqiqa).

“Mening stressim qayerdan keladi?” — ishtirokchilar stress manbalarini yozib chiqadilar

“Men qachon stress holatida bo‘laman?” — shaxsiy kuzatuvlar asosida tahlil

4. Stressni yengish usullari (30 daqiqa)

Amaliy mashqlar bilan: Nafas olish mashqlari (3-3-3 usuli)

Vizualizatsiya texnikasi (“xayoliy xavfsiz joyga sayohat”)

Jismoniy faollik (engil cho‘zilish mashqlari)

Hissiy yozuvlar (yurak daftar: kunlik his-tuyg‘ularni yozish)

5. Rolli o‘yinlar va muhokama (20 daqiqa)

“Stressga duchor bo‘lgan do‘stga yordam” — 2 kishilik rolli sahna

Keyin guruhda muhokama: nima foydali bo‘ldi, qanday yondashuv ishladi?

6. Qayta aloqa va yakuniy fikrlar (10 daqiqa). Treningdan olgan foydali bilimlar

“Bugundan boshlab nimani o‘zgartiraman?” varaqasi to‘ldirish

Savol-javob va rag‘batlantiruvchi so‘zlar.

Xulosa. Umuman olganda, stress va ma’naviy salomatlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur tushunish, stressni boshqarish va ma’naviy salomatlikni saqlash uchun yangi usullarni ishlab chiqish jamiyatdagi ruhiy salomatlikni yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Stressni boshqarishning samarali usullari, shuningdek, ma’naviy salomatlikni oshirishga yo‘naltirilgan psixologik va ijtimoiy yondashuvlar zamonaviy insonlar uchun muhim resurs bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Sh.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston – yangi taraqqiyot yo‘li” 2022 y

2. E.G‘oziyev “Umumiy psixofiziologiya” T. 2010 y.,

3. Sh.A.Do‘stmuxammedova, Z.Nishanova “Yosh davrlari psixologiyasi” T.2020 y

4.O.S.Qodirov, Sh.N.Xotamov. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. Samarqand, 2023.-346b.

5. A.A.Baxramova “Суд-психологик экспертиза” // O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, 2025. – 292 b.)

TALABALARDA IMPOSTOR SINDROMI KELIB CHIQISHINING PSIXOLOGIK SABABLARI

Xidirova Zulayxo Aktam qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Psixologiya mutaxassisligi magistranti.

Annotatsiya: Zamonaviy ta’lim makonida, ayniqsa, yuqori akademik muvaffaqiyatlarga erishayotgan talabalar orasida impostor sindromining paydo bo‘lish holatlari tobora ko‘proq kuzatilmoqda. Impostor sindromi — bu inson o‘z yutuqlariga shubha bilan qaraydigan va obyektiv natijalarga qaramay, o‘zini “firibgar” deb hisoblaydigan psixologik holatdir. Ushbu maqolaning maqsadi — talabalar orasida impostor sindromining psixologik sabablarini aniqlash va tahlil qilishdir. Tadqiqot davomida perfeksionizm, past o‘zini baholash, doimiy ijtimoiy taqqoslash, xatolardan qo‘rquv, ota-onaviy tarbiyaning o‘ziga xosligi va akademik muhitning bosimi kabi omillar ko‘rib chiqildi. Shuningdek, maqolada impostor sindromining oldini olish va uni yengib o‘tish bo‘yicha mumkin bo‘lgan

strategiyalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari talabalarning psixo-emotsional holatini yaxshilash ustida ishlayotgan psixologlar, pedagoglar va oliy ta’lim sohasi mutaxassislari uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Impostor sindromi, talabalar, psixologik ta’sir, o‘ziga bo‘lgan ishonch, akademik muvaffaqiyat, psixologik farovonlik, o‘zini qadrlash, tadqiqot

Аннотация (Русский): В современном образовательном пространстве все чаще наблюдаются случаи возникновения импостерского синдрома среди студентов, особенно тех, кто отличается высокой академической успеваемостью. Импостерский синдром представляет собой психологическое состояние, при котором человек сомневается в собственных успехах и считает себя «мошенником», несмотря на объективные достижения. Цель данной статьи — выявить и проанализировать психологические причины развития импостерского синдрома у студентов. В процессе исследования были рассмотрены такие факторы, как перфекционизм, низкая самооценка, постоянное социальное сравнение, страх ошибок, особенности родительского воспитания и давление со стороны академической среды. Кроме того, в статье приводятся возможные стратегии профилактики и преодоления импостерского синдрома. Результаты исследования могут быть полезны для психологов, педагогов и специалистов в области высшего образования, работающих над улучшением психоэмоционального состояния студентов.

Ключевые слова: Синдром самозванца, студенты, психологическое влияние, уверенность в себе, академические достижения, психологическое благополучие, самооценка, исследования.

Impostor sindromi atamasi birinchi bor 1978-yilda P. Klans va S. Imes tomonidan ishlatilgan. Ular bu sindromni yuqori intellektual salohiyatga ega ayollar o‘rtasida kuzatgan va bunday shaxslar o‘z muvaffaqiyatlarini qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlarini aniqlagan. Hozirgi kunda bu sindrom jinsdan qat’i nazar, har xil yoshdagi insonlarda, ayniqsa talabalar orasida ko‘p uchramoqda.

Talabalarda sindromning yuzaga kelish sabablari

Perfeksionizm – mukammallik istagi: Talabalar orasida keng tarqalgan mukammallikka intilish holati ularning xatoni normal holat sifatida qabul qilmasligiga olib keladi. Har qanday kamchilik o‘ziga bo‘lgan ishonchni izdan chiqaradi. Bu esa har bir yutuqni “muvaffaqiyatli omadsizlik” sifatida qabul qilishga sabab bo‘ladi.

O‘z-o‘zini tanqid qilish va ichki dialog: Shaxsning o‘z-o‘ziga nisbatan salbiy qarashi, tanqidiy monologi uni ichki ravishda qiynaydi. “Men bu joyga tasodifan tushib qoldim” yoki “Ular hali men aslida qanchalik bilimsiz ekanimni anglamagan” kabi fikrlar impostor sindromining tipik belgilaridandir.

Ijtimoiy taqqoslash bosimi: Bugungi ijtimoiy tarmoqlar davrida talaba doimiy ravishda boshqalarning muvaffaqiyatli hayot sahnalari bilan solishtirib yashaydi. Bu holat unda “men yetarli darajada yaxshi emasman” degan hissiyotlarni uyg‘otadi.

Bolalikdagi tarbiya omillari: Oilada doimiy ravishda tanqidlangan yoki faqat yuqori natijalar evaziga maqtovga sazovor bo‘lgan bola kattaligida faqat mukammallik evaziga qadrlanish kerak degan ishonch bilan ulg‘ayadi. Bu ishonch shaxsda impostor sindromiga yo‘l ochadi.

Akademik muhit va raqobat: Talabalar doimiy baholash, reyting, stipendiya uchun kurashish, ommaviy taqdimotlar, imtihonlar bosimi ostida yashaydilar. Bu jarayonda ular o‘z salohiyatlarini tan olishdan ko‘ra, xatolaridan uyala boshlaydilar. Akademik muhitda “doim eng yaxshi bo‘lish kerak” degan noto‘g‘ri tamoyil sindromni rivojlantiradi.

Tashqi tasdiqqa haddan ziyod ehtiyoj: Ayrim talabalar o‘zini faqat boshqalarning bahosi orqali qadrlashga o‘rganib qolgan bo‘ladi. Maqtov bo‘lmasa, o‘zini muvaffaqiyatsiz his qiladi. Bu esa ichki ishonchning shakllanmasligiga va impostor sindromining kuchayishiga olib keladi.

Psixologik mexanizmlar

Psixologik nuqtai nazardan impostor sindromi ichki kognitiv dissonans, past o‘zini qadrlash, qorqinchli muvaffaqiyat sindromi, va o‘ziga ishonchsizlik kabi holatlar bilan bog‘liq. Shaxs real yutuqlar va ularni his qilish o‘rtasida tafovut sezadi. Bu tafovut uni doimiy ichki kurashga olib boradi.

Implikatsiyalar (oqibatlar)

Impostor sindromi vaqt o‘tishi bilan talabada o‘zining haqiqiy salohiyatiga putur yetkazadi. U qadam tashlashdan qo‘rqadi, yangi imkoniyatlardan voz kechadi va hayot sifatini sezilarli darajada pasaytiradi.

Oldini olish va yengish yo‘llari

Universitetlarda psixologik xizmatlarni kuchaytirish, maxsus treninglar o‘tkazish. Talabani o‘z yutuqlarini anglash va tan olishga o‘rgatish. Mukammallik emas, rivojlanish tamoyiliga asoslangan fikrlashni shakllantirish. Boshqa talabalar bilan fikr almashish, mentorlik dasturlari orqali ularni qo‘llab-quvvatlash. Ota-onalar va o‘qituvchilarning mehrli va qadrlovchi munosabati talaba o‘zini xavfsiz his qilishiga yordam beradi.

Xulosa

Impostor sindromi talabaning faqat psixik holatiga emas, balki uning akademik va hayotiy muvaffaqiyatlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu sindromni erta aniqlash, uning ildizlarini anglash va samarali psixologik yordam ko‘rsatish orqali talabalarda o‘ziga ishonchli, barqaror psixika shakllanishi ta’minlanadi. Shuning uchun bu sindromga jiddiy ilmiy va amaliy e’tibor qaratish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Klans, P. R., va Imes, S. A. (1978). Yuqori darajadagi ayollarda impostor fenomeni: Dinamikasi va terapevtik aralashuv. Psixoterapiya: Nazariya, Tadqiqot va Amaliyot, 15(3), 241-247.

2 Sakulku, J., va Aleksandr, J. (2011). Impostor sindromi: Adabiyotlar sharhi. Xulq-atvor fanlari jurnali, 26(2), 75-97.

3 Xarvi, J. C., va Katz, C. (1985). Impostor fenomeni: Muvaffaqiyatni qo‘rquv bilan yengish. Nyu-York: St. Martin’s Press.

4 Kolligian, J., va Sternberg, R. J. (1991). Yosh kattalar orasida o‘zini samimiy his qilishda xato: “Impostor sindromi” bormi? Ijtimoiy va Klinik Psixologiya Jurnali, 10(1), 1-11. 5 Kozzarelli, C., Major, B., va Werth, L. (1995). Impostor fenomenini o‘lchash uchun shkala ishlab chiqish va tasdiqlash. Shaxsiyatni baholash jurnali, 65(4), 696-706.

6 Parkman, A. (2016). Yuqaridagi ta’limda impostor fenomeni: Tarqalishi va ta’siri. Kollej Talabalarining Rivojlanish Jurnali, 57(1), 101-108.

7 Topping, K. J., va Kimmel, S. (1985). Impostor fenomeni: Ayollar va erkaklardagi muvaffaqiyatdan qo‘rquv. Ijtimoiy muammolar jurnali, 41(3), 1-12.

8 Buggiy, C., va Liç, L. (2017). Janubiy Afrikalik talabalar orasida impostor sindromi: Sinf, irk va jinsning o‘zini anglashga ta’siri. Janubiy Afrika Psixologiya Jurnali, 47(1), 1-9.

9 Neurayter, M., va Traut-Mattayush, E. (2016). Impostor fenomeni: Talabalar motivatsiyasiga tahdid? Xalqaro Ta’lim Tadqiqotlari Jurnali, 78, 109-120.

10 Sullivan, C., va Jonson, J. (2012). Kollej talabalari orasida impostor sindromi: Talaba ishlari mutaxassislarining ahamiyati. Kollej Talabalarining Rivojlanish Jurnali, 53(3), 382-393.

SOG‘LOM TURMUSH TARZINI TARG‘IB ETISHNING TIBBIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Xotamov Shuhrat Nosirovich
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti

Annotasiya: Maqolada sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishning tibbiy-psixologik asoslari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, jamiyatimizda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog‘lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi o‘ta muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanishi to‘g‘risida mulohazalar bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: sog‘lom avlod, milliy qadriyatlar, millat, tarbiya, ijtimoiy muhit, oila, urf-odatlar, nizoli vaziyatlar, xulq-atvor.

МЕДИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ

Аннотация: в статье рассматриваются медико-психологические основы пропаганды здорового образа жизни. Также прозвучали комментарии о том, что здоровье человека, его физическая подготовка, владение культурой здорового образа жизни считаются очень важными социальными ценностями в нашем обществе.

Ключевые слова: здоровое поколение, национальные ценности, нация, образование, социальная среда, семья, традиции, конфликтные ситуации, поведение.

MEDICAL AND PSYCHOLOGICAL BASIS OF PROMOTING A HEALTHY LIFESTYLE

Abstract: The article discusses the medical and psychological basis of promoting a healthy lifestyle. Also, comments were made that human health, physical fitness, and the possession of a healthy lifestyle culture are considered very important social values in our society.

Key words: healthy generation, national values, nation, education, social environment, family, traditions, conflict situations, behavior.

Sog‘lom avlodni shakllantirish jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish negizida amalga oshriladi. Buning uchun esa jamiyatning har bir a’zosi sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yishi, salomatlikni madaniyatlilikning bir ko‘rinishi sifatida qabul qilish lozim. Yoshlar hayotida, yurish-turishida ham mana shunday yangicha tafakurning shakllantirilishi bu boradagi barcha muammolarga yechim bo‘lib xizmat qiladi. Keyingi yillarda aholi salomatligini, ayniqsa, onalik va bolalikni, yoshlarni, oilani ijtimoiy muhofaza qilish masalalari hukumatimiz siyosatida markaziy o‘rinni egallab kelmoqda. Bu bejiz emas, albatta - hozir biz insoniyat tarixida unutilmas bo‘lgan bir davrda – ilm-fan, texnika, umuman sivilizasiya kuchli taraqqiy etgan zamonaviy asrda yashamoqdamiz va qolaversa, yurtimizda huquqiy demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayoni kechmoqda. Umumjahon hamjamiyati bilan turli yo‘nalishlarda hamkorlik qilish, oldimizda turgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy hamda siyosiy masalalar yechimini xalqimiz farovonligini ta’minlash nuqtai nazaridan mo‘tadil ravishda amalga oshirish vazifalari fuqarolarimizning, oila va kelajak avlodning har tomonlama barkamol (ham jismonan, ham ma’naviy, ham ruhiy jihatdan sog‘lom), dono, ilg‘or fikrli va zakovatli bo‘lishini taqozo etadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun esa, insonning asosiy hayoti o‘tadigan maskan-oilaning turmush tarzi sog‘lom bo‘lmog‘i darkor.

Ma’lumki, jamiyatimizda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog‘lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi o‘ta muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Millat salomatligini ta’minlash, xalq genofondini bekamu-ko‘st saqlash sog‘lom turmush tarzi tufayligina yetarlicha ijobiy tarzda hal etiladi. Bu esa, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari; oila, o‘quv-tarbiya maskanlari, mahalla hamda mustaqil ta’lim oldiga jamiyatimiz fuqarolariga sog‘lom turmush tarzi mazmuni va mohiyatini anglatish, yoshlarni sergak va bilimdon, barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi.

Sog‘lom turmush tarzi haqida so‘z borar ekan, uning eng avvalo inson tani va vujudining betob bo‘lishiga sabab bo‘luvchi zararli odatlardan forig‘ bo‘lishni tasavvur qilishga o‘rganib qolganmiz. Bu atama, eng avvalo, sog‘liqni saqlash

xodimlari faoliyati bilan bog‘liq tarzda tushuntiriladi. Ammo, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda - tan va vujud, aql hamda idrok bevosita odamniki, unga bog‘liq bo‘lgani uchun ham inson ruhiyati qonuniyatlari va sirlarini o‘rganuvchi fan bo‘lmish psixologiyaning unga aloqasi bor. Shuning uchun ham psixologiya fanida sog‘lom turmush tarzi psixologiyasi tushunchasi mavjudki, u sog‘lom turmush tarziga eng avvalo, inson ongi va tafakkurining in’ikosi sifatida qaraydi. Demak, har birimiz uchun suv va havodek zarur bo‘lgan sog‘ligimizni ta’minlash va bunga erishish uchun sog‘lom turmush tarziga odat qilish nafaqat tibbiyot xodimlari, balki psixologlarning, psixologiya fanining ham izlanish predmeti sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu ma’noda, psixologiya sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda inson fe’li, xulq-atvori va turli psixologik holatlari nuqtai nazaridan o‘rganganda: asosan, har birimiz guyoki sirdek tuyulgan ruhiyatimizning o‘zimizni sog‘-salomat, beshikast va tetik his qilishimizga aloqador qanday jihatlari borligini, uni boshqarish orqali o‘z boyligimiz – salomatligimizni saqlash borasida qo‘limizda qanday imkoniyatlar mavjudligini va sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirish har birimizga o‘z ruhiy holatimizni boshqarish, ongu-shuurimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni vaqtida ilg‘ash orqali uni mo‘tadil tutish, o‘zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashish yo‘llarini, bu boradagi profilaktikani o‘rganadigan fan hamda foydali amaliyot sifatida tobora hayotimizga dadil kirib kelmoqda.

Aholi va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirish jarayonida motivasiya omilining o‘rnini baholashda har bir shaxsda uning kundalik hayot faoliyatini taxlil qilish uchun zarur bo‘lgan uchta asosiy elementning mavjudligiga e’tiborni qaratish lozim. Jumladan har bir shaxsda:

– sog‘lom turmush tarzi haqidagi bilimlarning mavjudligi;

– sog‘lom turmush tarzida yashashning insonni sog‘lom qilishga va umrini uzaytirishi mumkinligiga qat’iy ishonchning bo‘lishi;

– sog‘lom turmush tarzida yashash uchun astoydil harakatning mavjud bo‘lishi kabilar.

Kuzatish va tadqiqotlarimizning ko‘rsatishicha, yoshlarda sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishni eng avvalo oilada bolalar va o‘smirlarni o‘z sog‘ligiga mas’uliyat hissi orqali yondoshishni tarbiyalashdan boshlash lozim.

O‘zbek oilasida ko‘p avlodlilik belgilari yaqqol ifodalanadi. Unda farzand ongida sog‘lom g‘oya va bilimlar shakllanishida oilaning kattalari - bobolar, momolar, yaqin qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla ham bevosita ishtirok etadi. Azaliy odatlarimizga ko‘ra, farzandlarimiz tarbiyasiga ota-onadan nisbatan bobo, buvi, qo‘shni va qarindoshlarning ta’siri kuchliroqdir. Ular oiladagi ma’naviy muhitning belgilovchilari hisoblanadi. Bu xil tarbiya an’anasi o‘tmishdan qolgan muhim ma’naviy-pedagogik qadriyat hisoblanib, buyuk ajdodlarimiz hayotida bu xil tarbiya uslubi shakllanib, muayyan tizim darajasiga yetgan.

Hozirgi vaqtda hyech kimga sir emas, aholi o‘rtasida turli-tuman xastaliklarning (jumladan, ona va bolalarda) uchrab turishi odatdagi holga aylanib bormoqda. Holbuki, turli yoshdagi insonlarda kelib chiqayotgan yuzlab kasalliklarning oldini olish mumkin, buning uchun esa, aynan shu kassallikka chalinayotganlar sog‘lom turmush tarziga rioya qilsalar, bas. Tibbiyot ilmidan ma’lumki, hyech bir dard, organizmda o‘zining oz bo‘lsada-da, salbiy izini qoldirmasdan o‘tmaydi. Shunday ekan, dunyoning barcha taraqqiy etgan mamlakatlaridagidek, yurtimiz aholisining kasalikka chalinmaslik choralarini ko‘rish - profilaktik medisinani kuchaytirish, keng omma ongiga sog‘lom turmush tarzi psixologiyasi tamoyillarini mukammal singdirish muhim ahamiyatga molikdir.

Bundan hali X asr avval, buyuk qomusiy olim, sharq tabobatining asoschisi, ulug‘ ajdodimiz Abu Ali ibn Sino, “Salomatlikni saqlashning asosiy mahorati inson hayoti uchun muhim bo‘lgan umumiy omillar mo‘tadilligini ta’minlashdan iboratdir” - degan edi. Ushbu so‘zlar, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish lozimligini anglatadi. Bu esa, o‘ziga xos bilimni, saviyani va eng muhimi, oilaviy tarbiyani talab qiladi.

E’tiborli tamoni shundaki, barcha insonlar uchun mutanosiblikning va salomatlikning yagona chegarasi, o‘lchovi bir xil bo‘lishi mumkin emas. Har bir odam, o‘z konstitusiyasi, tana tuzilishi, salomatligi darajasi, organizmning ichki va tashqi imkoniyatlari, hattoki, oilaviy an’analardan kelib chiqqan holda o‘zi uchun sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini oqilona belgilay olish kerak. Bunda, aynan shu odam tug‘ilib o‘sgan, ulg‘aygan oilaning o‘rni juda kattadir.

Inson salomatligini muhofaza qilishda, organizmni chiniqtirishda harakatning (jismoniy tarbiyaning) ahamiyatiga alohida urg‘u bermaslik adolatsizlik bo‘lar edi: muntazam ravishda jismoniy (badan) tarbiya bilan shug‘ullanish, oqilona ovqatlanish, uyquni mo‘tadillashtirish hamda tanani toza-ozoda saqlash, nafaqat insonning jismoniy va aqliy jihatdan yaxshi rivojlanishi, balki uning uzoq umr ko‘rishini ham ta’minlaydi. Shuning uchun ham, jismoniy tarbiya va sport jamiyat, davlat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Zero, ham jismonan, ham aqlan sog‘lom bo‘lgan fuqarolardan tashkil topgan davlatning oilalari mustahkam, barcha jabhalardagi salohiyati yuksak bo‘lishi aniq.

Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonida motivatsiya omilining o‘rnini baholashda har bir shaxsda uning kundalik hayot faoliyatini taxlil qilish uchun zarur bo‘lgan uchta asosiy elementning mavjudligiga e’tiborni qaratish lozim. Jumladan har bir shaxsda:

· sog‘lom turmush tarzi haqidagi bilimlarning mavjudligi;

· sog‘lom turmush tarzida yashashning insonni sog‘lom qilishga va umrini uzaytirishi mumkinligiga qat’iy ishonchning bo‘lishi;

· sog‘lom turmush tarzida yashash uchun astoydil harakatning mavjud bo‘lishi kabilar kiradi.

Nazariy jahatdan olib qaralganda odamlarning kundalik hayotida bu uchburchak turlicha variantlarda shakllangan bo‘lishi mumkin. Har bir shaxsning

o‘z salomatligini mustahkamlashga bo‘lgan ichki ehtiyoji uning bu yo‘ldagi amaliy harakatini belgilaydi. Shunga ko‘ra barcha omillarni:

· gigienik jihatdan to‘g‘ri va asoslangan turmush tarzida, ya’ni sog‘lom turmush tarzida yashovchilarga;

tibbiy gigienik jihatdan asoslanmagan, ya’ni nosog‘lom turmush tarzida yashovchilarga ajratish mumkin. [5].

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti o‘sib va rivojlanib borayotgan hozirgi davrda sog‘lom turmush tarzining ijtimoiy – gigienik mezonlarini aniq belgilab olishning ahamiyati juda kattadir.

Mamlakatimizda sog‘lom turmush tarzi mafkurasi – inson salomatligining qonunyatlari va bilimlari majmui emas,balki ,inson salomatligini mustaxkamlashga bo‘lgan qarashlar tizimidan iboratdir. STT mafkurasi, R.U.Arziqulovning fikricha, turmush tarzining falsafasini, davlatning sog‘lom turmush tarzini shakllanishi bo‘yicha yuritayotgan siyosatin, STT ning huquqiy, ahloqiy asoslarini, STTning pedagogikasi, psixologiyasi, sotsiologik madaniyati, etikasi va hechinasligi o‘zida mujjasamlashtirgan bo‘lishi lozim.

Ma’lumki, me’zon – bu shunday bir o‘lchamki, uning yordmida biz uchun o‘lchanishi zarur bo‘lgan jarayonlarni shakllantirilgan etalon (standart) bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘lamiz, uni baholay olamiz. Sog‘lom turmush tarzidek murakkab ijtimoiy jarayonlarni o‘lchashda uning biz uchun maqbul va zarur bo‘lgan o‘lchamlarini shakllantirish muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Sog‘lom turmush tarzini o‘lchashda ishlatilishi mumkin bo‘lgan bunday me’zonlar qatoriga shaxsning:

· jamoatchilik va mehnat jarayonlarida faollik ko‘rsatib, samarali ijodiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishi;

· oilada va kundalik turmushda namunali yashashi;

· o‘zidagi jismoniy va ma’naviy qobilyatlarni ro‘yobga chiqarishga intilishi;

· tabiiy va ijtimoiy muhit bilan mutanosiblikda yashashi;

· sog‘lom va barkamol inson bo‘lib shakllanish uchun o‘z shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga intilishi;

· nosog‘lom turmush tarziga xos zararli odatlarning quliga aylanib qolishdan va o‘z umrini hayot oqimining ayovsiz girdobiga tushib qolishdan asrashga intilib yashashi;

· faqat uzoq yashayotgani uchungina emas, balki hayotda to‘g‘ri yashayotganidan ham qoniqishi hosil qilib, zavqlanib yashashi intilishi;

· sog‘lom turmush tarzini o‘zi uchun bir umrga hamroh qilib olishi kabi qimmatli sifat va xususyatlarini kiritish mumkin.

Har bir inson o‘z tana a’zolarining zahiraviy imkoniyatlarini oshirish uchun, ularni muntazam ravishda chiniqtirib borishi lozim. Salomatlik zahiralarini yaratish uchun sog‘lom turmush tarzining quyidagi qoidalariga amal qilish tavsiya etiladi:

· muntazam ravishda jismoniy tarbiya va jismoniy mehnat bilan shug‘ullanish. Xaftada organizmga kamida 6 soat jismoniy yuklama berish;

· me’yoriy aqliy va jismoniy yuklama bilan ishlash, kuchli aqliy mehnatdan so‘ng faol dam olish. Mehnat bilan dam olishni galmagal va mazmunli tashkil qilish;

· ratsional va tarkib jihatdan tenglashtirilgan ovqatlanish, ortiqcha vazndan qutilish, hayvon yog‘lari, qand va shirinliklarni iste’mol qilishini chegaralash;

· zararli odatlardan yuz o‘girish;

· organizmni chiniqtirish;

· toza havoda har kuni kamida 2-3 soat bo‘lish;

· kun tartibiga qat’iy amal qilish, bir kecha-kunduzda kamida 8 soat uxlash;

· ehtiyoj tug‘ilganda turmush tarzini va ishini o‘zgartirish;

turmush, o‘qish va ishdan qanoatlanib yashash.

Organizmning zahiraviy imkoniyatlarini oshirishni palapartish emas, batartib tashkil qilishga erishish lozim.

Jumladan: turli xil jismoniy mashg‘ulotlar yordamida yurak va tana mushaklarini ishlashga majbur qilish, bunday mashg‘ulotlarni belgilangan bir vaqtda bajarish va bunda ma’lum tartibga rioya qilish, aqliy va jismoniy mehnatni galmagal almashtirib bajarishni odat tusiga kiritish, kabilar shular jumlasidandir.

Ma’lumki biz naslimizning kelajagi – sog‘lom avlod uchun kurashar ekanmiz o‘z maqsadimizga erishish uchun millatni sog‘lom turmush tarzida yashashga o‘rgatishimiz kerak bo‘ladi. Sog‘lom avlod deganda, biz faqat jismonan baquvvat farzandlarni emas, balki ma’naviy jihatdan ham boy va sog‘lom avlodni nazarda tutishimiz lozim. Zero, ma’naviy sog‘lom bo‘lmasdan turib, jismonan sog‘lom bo‘lish mumkin emas. Har ikkala tushuncha bir biriga mos va biri ikkinchisidan taqazo qiladi. Ham jismonan, ham ma’naviy sog‘lom avlodga ega bo‘lgan xalqni esa sindirib bo‘lmaydi. Biz jismonan sog‘lom, yuksak ma’navyatli va yagona milliy g‘oya asosida jipslashgan millatni shakllantirishni bosh maqsad qilib qo‘yar ekanmiz uni sog‘lom turmush tarzida yashashga o‘rgatishimiz lozim.

Sog‘lom turmush tarzi muammosi – odamzod oldida turgan eng muhim muammo – shaxsni har tomonlama rivojlantirish, mehnat turmush va dam olish sohasida, ilmiy jihatdan asoslangan, ijtimoiy – gigienik faolligi kuchayib borishiga yordam beradigan, ijtimoiy-gigienik jihatdan oqilona bo‘lgan turmush tarzini shakllantirish muammosidir.

“Sog‘lom turmush tarzi – bu kundalik turmushni biologik va ijtimoiy qonunlar asosida tashkil etib, salomatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan turmush tarzidir” deb ta’riflaydi.

Ta’lim tizimida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish turli yo‘nalishlarda izchillik bilan, muayyan dastur asosida, aniq yo‘nalishlarda olib borilishi lozim. Xususan, bu avvalo oliy pedagogik ta’lim jarayonida talabalarga sog‘lom turmush tarziga oid muayyan tibbiy va gigienik bilimlar berish, ularda sog‘lom turmush tarzini saqlashning inson tanasi takomiliga ta’siri haqidagi tushunchalarni shakllantirishga qaratilsa, ikkinchi tomondan, yoshlarda qat’iy rejim asosida gigienik qoidalarga amal qilish, o‘zi va yon-atrofdagilarning sog‘lig‘ini asrashni kundalik odatga aylantirish ko‘nikmalarini tarkib toptirish bilan bevosita

aloqadordir. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzi ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib etilishi bilan birga, barcha ta’lim-tarbiya maskanlari bilan hamjihatlikda maktab, litsey, kollejlarda beriladigan ta’lim-tarbiya mazmuniga chuqur singdirilmog‘i lozim.

Ma’lumki, o‘zbek oilasida ko‘p avlodlilik belgilari yaqqol ifodalanadi. Unda farzand ongida sog‘lom g‘oya va bilimlar shakllanishida oilaning kattalari - bobolar, momolar, yaqin qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla ham bevosita ishtirok etadi. Azaliy odatlarimizga ko‘ra, farzandlarimiz tarbiyasiga ota-onadan nisbatan bobo, buvi, qo‘shni va qarindoshlarning ta’siri kuchliroqdir. Ular oiladagi ma’naviy muhitning belgilovchilari hisoblanadi. Bu xil tarbiya an’anasi o‘tmishdan qolgan muhim ma’naviy-pedagogik qadriyat hisoblanib, buyuk ajdodlarimiz hayotida bu xil tarbiya uslubi shakllanib, muayyan tizim darajasiga yetgan.

Inson turmush tarzi o‘z hayotida ro‘y beradigan aniq voqea-hodisa va turli o‘zgarishlar ta’sirida shakllanadi. Jamiyatning rivojlanishi, axborot oqimining o‘sishi, tezkor hayot tarziga talabning ortishi natijasida o‘zaro muloqot va munosabatning birmuncha murakkab tus olayotganligi o‘quvchilar ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Oqibatda ularda o‘z taqdiri, oilasi, jamoasi uchun zarur bo‘lgan turmush tarziga ega bo‘lish, aqliy, hissiy va erkinlikka intilishga asoslangan xatti-harakatlar majmuini tanlashga nisbatan ma’sulliklari ortmoqda. Bu xil turmush tarzi aksariyat hollarda o‘quvchilarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xil asab xastaliklarining oldini olishni taqozo etadi.

Mazkur maqsadga erishish avvalo shaxsiy va ijtimoiy miqyosda sog‘lom turmush tarzini tashkil etish hamda uning uzviyligi va uzluksizligiga erishishning muhim yo‘nalishlarini amalga oshirishni taqozo etadi. Buning uchun esa ushbu muammo mohiyatini anglash va hal etishni bilish zarur. So‘nggi yillarda olib borilayotgan maxsus tadqiqotlar jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning ilmiy - uslubiy asoslarini yaratish imkonini yuzaga keltirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan, 25 dekabr 2020 yil, 18:00 siyosat.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016 yil 14 sentyabr. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 37-son, 426-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘grisida”gi Qonuni, 2008 yil.

4. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik saylanma. 1-jild. – Toshkent – 1992.

5. Oila psixologiyasi. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun darslik. /Prof. F.B.Shoumarov tahriri ostida. – Toshkent, 2008.

6. Onalarga psixolog maslahati (Ona-bola munosabatlari psixologiyasiga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar). /Tuzuvchilar: G‘.B.Shoumarov va boshq. - Toshkent. -2002.

NEYROLINGVISTIK PROGRAMMALASHNING MODELLASHTIRISH VA ASOSIY STRATEGIYALARI. MIKROSTRATEGIYALAR.

Xudoyberdiyeva Zarnigor Kobiljonobna
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
Samarqand filiali ijtimoiy psixologiya
yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola neyrolingvistik programmalash (NLP) nazariyasida modellashtirish, asosiy strategiyalar va mikrostrategiyalarni ilmiy asoslar bilan o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada NLPning psixologik asoslari, kognitiv va emotsional jarayonlar bilan aloqasi, shuningdek, modellashtirish metodologiyasi va strategiyalarning qo‘llanilishi ilmiy adabiyotlarga tayangan holda yoritiladi. Tadqiqot zamonaviy psixologiya va neyropsixologiya yutuqlari nuqtayi nazaridan sharhlanadi.

Kalit so‘zlar: neyrolingvistik programmalash, modellashtirish, strategiyalar, mikrostrategiyalar, psixologik jarayonlar, kognitiv psixologiya.

MODELING AND BASIC STRATEGIES OF NEUROLINGUISTIC PROGRAMMING. MICROSTRATEGIES.

Abstract: This article is devoted to the scientific study of modeling, basic strategies and microstrategies in the theory of neurolinguistic programming (NLP). The article discusses the psychological foundations of NLP, its relationship with cognitive and emotional processes, as well as the modeling methodology and the application of strategies, based on scientific literature. The study is interpreted from the point of view of the achievements of modern psychology and neuropsychology.

Keywords: neurolinguistic programming, modeling, strategies, microstrategies, psychological processes, cognitive psychology.

МОДЕЛИРОВАНИЕ И ОСНОВНЫЕ СТРАТЕГИИ НЕЙРОЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ПРОГРАММИРОВАНИЯ. МИКРОСТРАТЕГИИ.

Абстрактный. Данная статья посвящена научному исследованию моделирования, базовых стратегий и микростратегий в теории нейролингвистического программирования (НЛП). В статье рассматриваются психологические основы НЛП, его связь с когнитивными и эмоциональными процессами, а также применение методологий и стратегий моделирования на основе научной литературы. Исследование интерпретируется с точки зрения достижений современной психологии и нейропсихологии.

Ключевые слова: нейролингвистическое программирование, моделирование, стратегии, микростратегии, психологические процессы, когнитивная психология.

Neyrolingvistik Programmalash (NLP) — bu insonlarning tafakkur, til va xulq-atvorini o‘zgartirishga qaratilgan interdisipliner yondashuv bo‘lib, til, neyrobiologiya va psixologiyaning sintezini taqdim etadi. NLP, 1970-yillarning o‘rtalarida Richard Bandler va John Grinder tomonidan ishlab chiqilgan va o‘zining yuksak samaradorligi va amaliy qo‘llanish sohalaridagi muvaffaqiyatlari bilan mashhur bo‘lgan. Ushbu metodologiya, asosan, odamlarning ongidagi o‘zgarishlarni amalga oshirish orqali, ular orasidagi kommunikatsiya jarayonlarini yaxshilash, o‘z-o‘zini anglash va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshirishni maqsad qiladi. NLPning asosiy printsiplari, insonlarning idrok, til va tajriba asosida o‘zgartirishlarni amalga oshirishga imkon beradi.[1]

Neyrolingvistik programmalashda modellashtirish, muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan yoki yuqori darajadagi ko‘nikmalarga ega bo‘lgan odamlarning yondashuvlarini va xulq-atvorlarini tahlil qilish va o‘zlashtirish jarayonidir. Modellashtirish jarayoni orqali, NLP metodlarini kengaytirish va joriy qilish mumkin. Bu jarayonning asosiy maqsadi, yuksak samaradorlikka erishgan shaxslarning ong va xulq-atvorini o‘rganish, shuningdek, bunday ko‘nikmalarni boshqalarga o‘rgatishdir[2] .

NLP metodlarining turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular orasida mikrostrategiyalar alohida ahamiyatga ega. Mikrostrategiyalar — bu kichik, ammo samarali texnikalar bo‘lib, ular insonlarning ichki tajribalari va tilini tez va samarali o‘zgartirishga imkon beradi. Ular yordamida kognitiv va emosional jarayonlarda sezilarli o‘zgarishlar amalga oshiriladi. Mikrostrategiyalar, asosan, muloqot, o‘z-o‘zini anglash, va xulq-atvorni boshqarishda qisqa muddatda katta o‘zgarishlarni yaratish uchun ishlatiladi.[3] Neyrolingvistik programmalashtirish (NLP) metodologiyasida modellashtirish insonlarning muvaffaqiyatli tajribalari va xatti-harakatlarini aniqlash, ularning ichki tuzilishini o‘rganish va ularni takror ishlab chiqish jarayonidir. Modellashtirish orqali inson faoliyatining samarali andozalari ishlab chiqiladi va ularni boshqalar tomonidan o‘zlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Edvard T. Xoll ta’kidlaganidek, “modelning maqsadi foydalanuvchiga hayotning ulkan murakkabliklariga duch kelganda yaxshiroq ishlashga imkon berishdir. Modellardan foydalanib, biz voqealar qanday ketayotganini ko‘ramiz va sinab ko‘ramiz va hatto kelajakda qanday ketishini bashorat qilishimiz mumkin” .[4]

Model - bu narsa yoki jarayonning tasviri bo‘lib, u nimani anglatishini yaxshiroq tushunish va turli vaziyatlarda qanday ishlashini bashorat qilish uchun

[1] Bandler, R., & Grinder, J. (1975). *The Structure of Magic*. Science and Behavior Books.

[2] Dilts, R. (1998). *Modeling with NLP*. Meta Publications.
[3] O'Connor, J., & Seymour, J. (1990). *Introducing NLP: Psychological Skills for Understanding and Influencing People*. Thorsons
[4] Льюис Б., Пусселик Ф. Магия НЛП. Санкт - Петербург, 1995 - 451с.

vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Model o‘zi ifodalagan narsaning umumlashtirilgan, o‘chirilgan va buzilgan nusxasidir.[1]Modellashtirish jarayonida dastlab shaxsning tashqi xatti-harakatlari, nutqi va tana tili kuzatiladi. Keyingi bosqichda esa ichki kognitiv jarayonlar, ya’ni vizual, audial va kinestetik tajribalar tahlil qilinadi. Ushbu tajribalar orqali insonning ma’lumotni qanday qabul qilishi, qayta ishlashi va unga asoslanib qanday harakat qilishi aniqlanadi. Yakuniy bosqichda esa kuzatilgan xatti-harakatlar va ichki jarayonlar asosida o‘zaro bog‘liqlik va ketma-ketlik tuziladi, u modellashtirilayotgan strategiyaning asosini tashkil qiladi.

Modellashtirish jarayonida inson tajribasi VAKOG tizimi yordamida kodlanadi. VAKOG modalitetlari — vizual (ko‘rish), audial (eshitish), kinestetik (sezish), ofaktorik (hid bilish) va gustatorik (ta’m bilish) — orqali ichki tajribaning to‘liq strukturasi aniqlanadi. Ushbu yondashuv inson tajribalarini mukammalroq tushunish va ularni samarali ravishda modellashtirish imkonini beradi.

Tug‘ma izlanish va tushuntirish ehtiyojidan kelib chiqqan holda, odamlar doimo tashqi muhit modellarini yaratadilar. Biroq, u atrofidagi dunyodan ajralib turadi. Atrof-muhit bilan munosabatlarning inson tajribasini modellashtirish psixobiologik jarayonlarda asosga ega. Inson asab tizimi milliardlab neyronlardan iborat. Hissiy kirishlar turli shakllarda (bosim, harorat, tovush, elektron to‘lqinlar) bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, ular markaziy asab tizimiga kirishi bilan yakuniy elektron impulslarga aylanadi.[2] Energiyaning bunday o‘zgarishini o‘rganish fundamental xulosaga olib keladi: “Inson haqiqatni emas, balki haqiqatning nevrologik modelini idrok etadi. Bu men dunyo modeli deb ataydigan narsamning asosidir” [3].

Neyrolingvistik programmalashtirishda strategiyalar insonning ma’lum bir natijaga erishish uchun amalga oshiradigan ichki va tashqi xatti-harakatlar ketma-ketligi sifatida qaraladi. Strategiyalar o‘z ichiga ma’lumotni qabul qilish, uni ichki tarzda qayta ishlash va unga asoslangan xatti-harakatni o‘z ichiga oladi.Qaror qabul qilish strategiyalarida odatda vizual tasavvur orqali variantlar ko‘rib chiqiladi, audial baholash orqali tanlovlar taqqoslanadi va kinestetik sezgi orqali yakuniy qaror belgilanadi. Ushbu jarayonda shaxsning ichki dialogi va his-tuyg‘ulari qaror qabul qilishni shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida ishtirok etadi. Strategiyada idrok kanallari tashqi dunyoni idrok etish yoki ichkariga burish uchun ishlatilishi mumkin. Agar ular ichkarida ishlatilsa, u holda kirish belgilarini kuzatish orqali eslash yoki qurilish sodir bo‘layotganini sezish mumkin.[4]

---

[1] Бондаренко Е.А. О психическом развитии ребенка. Москва, 1987, с. 64-70.

[2] *Пахомо ЮлияЛьвовна Влияние техник неиролингвистического программирования на уровень развития интеллектуальных компонентов учебной деятельности старших дошкольников.2002*

[3] Бэндлер Р., Гриндер Д. Из лягушек - в принцы. Москва, 1993 - 300с

[4] Пахомо ЮлияЛьвовна Влияние техник неиролингвистического программирования на уровень развития интеллектуальных компонентов учебной деятельности старших дошкольников.2002

Strategiyalar turli darajalarda qo‘llaniladi va ular makro, mikro va metastrategiyalarga bo‘linadi .[1]

Mikrostrategiyalar ma’lum bir shaxsning ma’lum bir vazifani bajarayotganda ma’lum bir daqiqada qanday fikrlashiga e’tibor qaratadi.Makrostrategiya - bu “muvaffaqiyat” yoki “etakchilik” ni modellashtirish. Muvaffaqiyat yoki etakchilik strategiyasi bir nechta mikrostrategiyalarni o‘z ichiga olgan va uzoqroq vaqtni talab qiladigan yuqori darajadagi dasturdir [2]

Modellashtirish jarayonini o‘rganishimizda bizda savollar kelib chiqadi, kimni modellashtirishimiz kerak? Barchasi bularning biz yoki siz intilayotgan natijaga bog‘liq bo‘lib qoladi. Eng avval , egallashingiz kerak bo‘lgan ko‘nikmalar, bilim va fazilatlarni aniqlashingiz kerak. Ana shundan keyin sizga kim namuna bo‘lishini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Birinchi berilgan savollarga javob topar ekanmiz keying bizning beradigan savolimiz - modellashtirishni qanday amalga oshirishimiz kerak ekanligini aniqlab olishimiz lozim bo‘ladi.

Motivatsiya strategiyalari shaxsning ichki rag‘batlantirish mexanizmlarini tashkil etadi. Motivatsion jarayonlar odatda mukofotga erishish yoki salbiy oqibatlardan qochish istagiga asoslanadi. Ijobiy motivatsiya strategiyalari natijaga erishishga intilish orqali faollikni oshiradi, salbiy motivatsiya esa salbiy natijalardan saqlanishga xizmat qiladi.

O‘rganish strategiyalari bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni osonlashtirishga qaratilgan. Bunday strategiyalarda vizual, audial va kinestetik elementlarning uyg‘un ishlatilishi o‘rganish samaradorligini oshiradi. O‘rganish jarayonida o‘zaro uyg‘unlashtirilgan sensor tizimlar bilimlarning chuqurroq va barqarorroq o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Ijodiy strategiyalar esa yangi g‘oyalar va innovatsion yechimlarni shakllantirishga qaratilgan. Bu strategiyalar divergent fikrlashni faollashtirib, mavjud bilimlar asosida yangi kontseptsiyalar yaratish imkonini beradi.

Mikrostrategiyalar

Mikrostrategiyalar asosiy strategiyalarning tarkibiy qismlarini tashkil etadi va har bir strategiya ichidagi nozik operatsiyalarni ifodalaydi. Mikrostrategiyalar inson xatti-harakatlarining muhim, ammo kichik bo‘g‘inlarini aniqlash va optimallashtirish imkonini beradi.

Diqqatni fokuslash mikrostrategiyasi e’tiborni ma’lum bir obyektga yoki faoliyatga jamlash orqali sezgi va tafakkurni kuchaytiradi. Diqqat markazini boshqarish strategik jarayonlarda aniqlik va samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Reframing texnikasi voqea yoki tajribaga nisbatan alternativ ma’nolar yaratish orqali shaxsning emotsional va kognitiv munosabatini o‘zgartirishni

[1] Бэндлер Р., Гриндер Д. Из лягушек - в принцы. Москва, 1993 - 300с
[2] Бэндлер Р., Гриндер Д. Из лягушек - в принцы. Москва, 1993 - 300с

ta’minlaydi. Bu yondashuv vaziyatlarga moslashuvchanlikni kuchaytirib, yangi imkoniyatlarni anglashga imkon yaratadi.[1]

Anchoring texnikasi ma’lum bir emotsional holatni ma’lum bir signal yoki stimulyator bilan bog‘lash orqali kerakli psixologik resurslarni chaqirish imkonini beradi. Ushbu strategiya o‘z-o‘zini boshqarish va hissiy barqarorlikni ta’minlashda samarali vosita sifatida qaraladi.

Submodalitetlar bilan ishlash texnikasi ichki tajribadagi sezgi xususiyatlarini o‘zgartirish orqali emotsional va kognitiv reaktsiyalarni boshqarish imkonini beradi. Tasvir o‘lchamini, yorqinligini yoki ovoz intensivligini o‘zgartirish orqali tajribaga nisbatan munosabatni o‘zgartirish mumkin.

Meta-model va Milton-model kabi til modellaridan foydalanish orqali inson muloqotining samaradorligi oshiriladi. Meta-model aniq va to‘liq ifodalarni shakllantirishga yordam beradi, Milton-model esa noaniqlik va metaforalar orqali ong osti jarayonlariga ta’sir o‘tkazadi.[2]

Xulosa o‘rnida izlanishlarimdan kelib chiqqan holda mavzu yuzasidan neyrolingvistik programmalashtirishda modellashtirish va strategiyalar tizimi inson tajribasini tizimli ravishda tahlil qilish va takomillashtirish imkonini berishiga amin bo‘ldim. Modellashtirish orqali inson tajribasining muhim elementlari aniqlanadi va takror ishlab chiqiladi, asosiy strategiyalar orqali esa muayyan natijalarga erishish yo‘llari sistemalashtiriladi. Mikrostrategiyalar esa bu jarayonlarni nozik va aniq darajada optimallashtirish imkonini beradi. Ilmiy manbalarda keltirilgan tahlillar asosida NLP metodologiyasi psixologik amaliyot, ta’lim va shaxsiy rivojlanish sohalarida keng qo‘llanilishi mumkinligi tasdiqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bandler, R., & Grinder, J. (1975). *The Structure of Magic*. Science and Behavior Books.

2. Dilts, R. (1998). *Modeling with NLP*. Meta Publications.

3. O‘Connor, J., & Seymour, J. (1990). *Introducing NLP: Psychological Skills for Understanding and Influencing People*. Thorsons

4. Льюис Б., Пусселик Ф. Магия НЛП. Санкт - Петербург, 1995 - 451с.

5. Бондаренко Е.А. О психическом развитии ребенка. Москва, 1987, с. 64-70.

6. Пахомо Юлия Львовна “Влияние техник неиролингвистического программирования на уровень развития интеллектуальных компонентов учебной деятельности старших дошкольников” 2002.

7. Бэндлер Р., Гриндер Д. Из лягушек - в принцы. Москва, 1993 - 300с

[1] Hall, L. M., & Bodenhamer, B. G. (2003). *The User's Manual for the Brain: Volume II*. Crown House Publishing.
[2] Wake, L. (2010). *The Effective Practitioner: Applying NLP to Coaching and Therapy*. Crown House Publishing.

8. Пахомо ЮлияЛьвовна Влияние техник неиролингвистического программирования на уровень развития интеллектуальных компонентов учебной деятельности старших дошкольников.2002

9. Бэндлер Р., Гриндер Д. Из лягушек - в принцы. Москва, 1993 - 300с

10. Бэндлер Р., Гриндер Д. Из лягушек - в принцы. Москва, 1993 - 300с

11. Hall, L. M., & Bodenhamer, B. G. (2003). *The User’s Manual for the Brain: Volume II*. Crown House Publishing.

12. Wake, L. (2010). *The Effective Practitioner: Applying NLP to Coaching and Therapy*. Crown House Publishing.

SPORT FAOLIYATIDA MOTIVASIYA

X.Komilov- Jizzax DPI
Talaba sport klubi raisi

Sportning olg‘a qarab rivojlanishida motivasiya katta rol o‘ynaydi. Motivasiya nafaqat sportchi shaxsining asosiy xarakteristikasi, balki uning oldiga qo‘ygan maqsadiga yetaklovchi asosiy vosita bo‘lib, u sportchi sport faoliyatining barcha jarayonlariga o‘ziga xos tarzda ta’sir ham ko‘rsata oladi. Motivasiyaning yana bir muhim xususiyati, uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sport natijasiga ta’sir ko‘rsatishidir. Kuchli raqobat sharoitida bor kuchini sarf qiladigan va oxir-oqibat oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishni faqatgina aniq motivga va namoyon bo‘ladigan motivasiyaga ega bo‘lgan sportchidan kutish mumkin. Shu narsa ham katta ahamiyatga egaki, ma’lum bir sportchining motivasiyasi xususiyatlarini bilmasdan turib, uni yuqori natijalarga erishishga amaliy jihatdan muvaffaqiyatli tayyorlash mumkin emas. Bu esa yuqorida keltirilgan fikrlarning barchasini dalillaydi. Shunday ekan, zamonaviy sportda sportchida yuqori sport natijalariga erishish motivasiyasini shakllantirish juda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonning u yoki bu harakatni bajarishiga nima turtki beradi, ko‘p yillar davomida uning faolligini (o‘qish, sport bilan shug‘ullanish) nima boshqaradi, ba’zan esa uning butun hayotini (mehnat va ilmiy faoliyati, san’at) nima belgilab beradi degan tushuncha tadqiqotchilarni azaldan qiziqtirib keladi. Uning faolligi tushunchaning mohiyatini tushunish uchun uning sabablarini aniqlash zarur, ya’ni harakat, faoliyat asosida yotadigan ta’sir etuvchi (qo‘zg‘atuvchi) kuchini ochish lozim. Inson faoliyatida motiv muammosining dolzarbligi ko‘rinib turganligiga qaramasdan, ushbu hodisani ilmiy tahlil qilishga bo‘lgan harakat XX asrning o‘rtalarida boshlandi (K.Yung va I.Mayer). Keyinchalik bu muammo bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar olib borildi, lekin ushbu muammoni to‘laligicha yechishga erishish imkoni bo‘lmadi, shu bilan birgalikda bu hodisaning mohiyati haqida ham aniq bir to‘xtamga kelinmadi. Chunki motiv atamasi o‘ta keng ma’nodagi tushunchani o‘z ichiga qamrab oladi. Masalan, A.N.Leontyev bu holatga

quyidagicha izoh beradi: “Bu holat menda shunday taassurot qoldiradiki, hozir motiv tushunchasi katta qopga aylanib qolgan, unda turli xil buyumlar bor. Motiv yoki motiv tushunchasini beradigan asoslar hozirgi kunda ishtaha, taassurot, odatlar va ko‘nikmalar, istak, hissiyot, qiziqishlar yoki boshqa aniq motivlar, masalan huzur qilish, izzattalablik kabilar bilan nomlanadi” [5-8].

Darhaqiqat, har qanday inson axborot jarayonlari orqali atrof olam bilan bog‘lanadi. Biroq bu aloqalarning barchasi ham individ uchun ahamiyatli emas. Ular qachon shunday ahamiyatga ega bo‘ladi? Qachonki ular subyektning ehtiyojiga, uning qoniqish olish predmetiga va eng muhimi, uning imkoniyatlariga (sog‘lig‘i, jismoniy sifatlari, malaka, ko‘nikma va boshqalar) bog‘liq bo‘lganda muhim ahamiyat kasb etadi. Inson uchun ehtiyoj odatiy hol, lekin ular har doim faoliyatga zamin bo‘lib xizmat qiladi. Motiv esa subyektning o‘z extiyojlaridagi imkoniyatlari va muayyan faoliyat xususiyatlarining bog‘lanishlari asosida yuzaga keladi. Ushbu bog‘lanishlar natijasida u yoki bu motivasion ko‘rsatma shakllanadi.

Yuqoridagi fikrlarga sport faoliyatidan quyidagi misolni keltirish o‘rinli bo‘ladi. Sportning jamoaviy turida bu hodisani yaqqol ko‘rish mumkin. Ko‘pincha o‘yin oldidan (asosan raqib jamoa kuchli bo‘lsa) murabbiy jamoaning jangovor holatini (kayfiyatini) ko‘tarish maqsadida jamoadagi motivni kuchaytirish uchun suhbat o‘tkazadi. Biroq bu tadbirni o‘z ishini yaxshi, chuqur bilgan holda o‘tkazish juda muhim, lekin shuni ham tushunish kerakki, motivning yuzaga kelishi uchrashuv jarayonida yuz beradi va shakllanadi. Xuddi shu jarayonda sportchining imkoniyatlari va ehtiyojining o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqligi to‘liq namoyon bo‘ladi, ya’ni u yoki bu motiv yuzaga chiqadi. Bir vaziyatda jamoaning kuchiga kuch qo‘shilganini va mo‘jiza ko‘rsatganiga guvoh bo‘lsak, boshqa bir holatda esa birinchi holatning tes-karisini, ya’ni jamoa o‘yinining barbod bo‘lganini ko‘rish mumkin. Motivning yuzaga kelish jarayoni dinamik holatda bo‘lib, u subyekt bilan obyekt aloqalari asosida kechadi va faoliyat orqali sportchini atrofdagi voqyelik bilan birlashtiradi va uning xarakterini hamda faolligini belgilab beradi.

Shu o‘rinda ikki «faoliyat motivasiyasi» va «harakat motivi» tushunchalari haqida to‘xtalib o‘tish lozim. Bu ikki tushunchada psixologik mexanizmlarning umumiyligiga qaramasdan, inson faolligini yuzaga chiqaruvchi holatlarning orasida birmuncha farq bor. Motivasiya faoliyatning keng darajadagi «prujinasi» hisoblanib, u sportchining uzoq yillar davomida bir sport turi bilan shug‘ullanib, yuqori natijalarga erishishida barcha qiyinchiliklarga chidashiga turtki beradi. I.A.Djidaryanning fikriga ko‘ra «sport faoliyatining motivasiyasi» tushunchasiga quyidagicha izoh berish mumkin: «Motivasiya-bu sportchi shaxsining o‘ziga xos holati bo‘lib, u o‘zining ehtiyoj va imkoniyatlarini sport faoliyati predmeti bilan o‘zaro bog‘liqligini ta’minlashi natijasida o‘sha vaqtdagi sport natijasini yuqori darajasiga erishish maqsadini amalga oshirish asosida namoyon bo‘ladi»[4-14].

Albatta, bu ta’rif motivasiya tushunchasi to‘g‘risidagi yakuniy xulosa emas, uning mohiyati sportchini yuqori sport natijasiga intilishiga nima turtki

berishining sababi to‘g‘risida sport mutaxassislariga yo‘llanma berish bilan izohlanadi.

Motivlar motivasiya fenomenini tushunishda alohida ahamiyatga ega hisoblanadi, garchi odamlar buni anglamasalarda, lekin chuqur xavotirlanadilar. Motivasiya holati doimo ma’lum hissiy ma’noga ega bo‘ladi. Subyektning ehtiyoji, uning imkoniyatlari o‘zining ma’lum bir faoliyati talablariga mos kelsa, unda shu faoliyat predmetini egallash tuyg‘usi namoyon bo‘ladi. Sportda bu holat sportchining ma’lum sport natijasiga erishishini anglab yetishida ko‘rinadi.

Shu bilan birgalikda faoliyat alohida harakatlardan tashkil topadi. Masalan, kurashchining faoliyati o‘zida hujum va himoya harakatlarini, musobaqa kurashi kabi boshqa harakatlarni amalga oshirishida uning motivi asosiy vazifani bajaradi. Motiv va motivasiya subyekt va obyektning aloqasi asosida yuzaga chiqadi, lekin bu aloqalar juda qisqa yo‘nalishga ega bo‘lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, motiv yetakchi ehtiyojlarning o‘zaro nisbatini aniqlash bazasida faoliyat predmetining o‘zida emas, balki uni birlashtirib turadigan birligida namoyon bo‘ladi. Faoliyat predmeti doimo alohida qism, elementlardan tashkil topgan bo‘lib, ularsiz yakuniy natija bo‘lishi mumkin emas. Masalan, sportda oldingi musobaqalarda g‘alaba qozonmasdan turib, final o‘yinida g‘alaba qozonib bo‘lmaydi. Shuning uchun final o‘yinidagi natija oldin ko‘rsatilgan natijalar bilan to‘ldiriladi. Motivasiyaning shakllanish jarayoni biroz murakkab, chunki u faoliyat predmetiga kiruvchi subyekt-obyektning aloqasini va butun kompleksini qamrab oladi. Lekin shuni unutmaslik lozimki, motivasiya va motiv o‘zaro bog‘langan psixik kategoriya hisoblanadi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, “motiv” va “maqsad” tushunchalari o‘rtasidagi farq ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki motivlar ongli boshqarilmaydi, bu vaqtda esa maqsad ongli ravishda boshqariladi. Bu xususda A.N. Leontyev quyidagi fikrni bildiradi: “...motivlarni ongli maqsad va niyatlardan ajrata olish kerak, motivlar “maqsad ortida turadi” va maqsadga erishishga turtki bo‘ladi”[5-14]. Bu tushunchaning muhimligi shundaki, murabbiy o‘zining amaliy faoliyatida sportchidagi barqaror maqsadli ko‘rsatmani shakllantirishga katta kuch sarflaydi. Bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun maqsadli tarbiya mexanizmlarini aniq tasavvur qilishi lozim. Motivasiya vaziyat, holat sifatida yuzaga chiqadi, bunda esa maqsad shakllanadi, agar murabbiy o‘z o‘quvchisining motivasiya xususiyatlarini yaxshi bilmasa, shogirdida barqaror maqsadli ko‘rsatmani shakllantirishda qiyinchilikka duch keladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Abdurasulov R.A. Interests and motivations of students in oriental wresting and boxing. Progressive Academic Publishing EJPR. Vol.4 No.2, 2017. European Journal of Psychological Research (EJPR): Accepted Papers. -B.11-18.

3.Abdurasulov R.A. Motivы uchaщixsya-sportsmenov v sportivnoy deyatelnosti. Yubileynaya mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya. Sbornik materialov. Samara. 2008. -S. 226-229.

ERTA ULG‘AYISH SINDROMI: BOLALARDA MAS’ULIYAT ORTISHI VA STRESSNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yariyeva Laylo
SamDU psixologiya faoliyat turlari bo‘yicha yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: PhD. **Islamova Dilafruz Bustanovna**

Anotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda erta ulg‘ayish sindromining kelib chiqish sabablari, psixologik omillari hamda ruhiy sog‘liqka ta’siri yoritilgan. Erta ulg‘aygan bolalar ota-onaning yoki oilaning emotsional, jismoniy ehtiyojlarini qondirishga majbur bo‘lib, o‘zining yoshiga xos rivojlanish bosqichlarini to‘liq o‘ta olmaydi. Tarixiy manbalar asosida sindromning ilk bor qanday aniqlangani, zamonaviy psixologiya fanida qanday yondashuvlar mavjudligi va bu holatga qarshi qanday choralar ko‘rilishi kerakligi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Erta ulg‘ayish, parentifikatsiya, bola psixologiyasi, emotsional beparvolik, oilaviy rollar, stress, mas’uliyat, bola ruhiyati.

Ключевые слова:
Ранняя взрослость, парентификация, детская психология, эмоциональное пренебрежение, семейные роли, стресс, ответственность, детская психология.

Key words: Early adulthood, parentification, child psychology, emotional neglect, family roles, stress, responsibility, child psychology.

Zamonaviy oilalarda turli ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik omillar natijasida bolalik davrining tabiiy kechishi buzilmoqda. Ayniqsa, oilaviy mas’uliyatning noto‘g‘ri taqsimlanishi bolalarning yoshiga mos bo‘lmagan rollarni o‘zlashtirishiga olib keladi. Bu holat ilm-fanda “erta ulg‘ayish sindromi” yoki “parentifikatsiya” deb ataladi . Bunday sindromli bolalar o‘zlarining yoshiga mos emotsional rivojlanish yo‘liga emas, balki kattalarcha harakat va qarorlar sari yo‘naladilar. Bu esa ularning ruhiy salomatligiga, identitet shakllanishiga va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Erta ulg‘ayish sindromining kelib chiqish tarixi va nazariy asoslariga nazar solsak; ushbu psixologik holatni 1948 yilda amerikalik psixiatr M. Shmideberg bolalarda yoshiga mos bo‘lmagan javobgarlik hissining ortishi va emotsional yetilishdagi buzilishlar haqidagi ilk klinik kuzatuvlarini e’lon qilgan [1]. U bunday holatga ota-onalar tomonidan bolaga nisbatan hissiy befarqlik yoki nazoratsizlik sabab bo‘lishini ta’kidlagan. Keyinchalik S. Minuchin va uning oilaviy terapiya maktabi vakillari bu holatni tizimli tarzda o‘rganib, “parentifikatsiya” atamasini joriy qilishdi [2]. Ular oilani kichik tizimlarga ajratib tahlil qilish orqali ota-ona va bola rollarining chalkashuvi bola ruhiyatida zo‘ravonliksiz, ammo zararli vaziyatlar keltirib chiqarishini aniqlashdi.

Boszormenyi-Nagy (1973) esa parentifikatsiyani ikki turga ajratadi:

1.Instrumental parentifikatsiya — bola oiladagi muayyan amaliy vazifalarni bajaradi (kichik farzandga qarash, uy ishlarini boshqarish).

2.Emotsional parentifikatsiya — bola ota-onaning ruhiy tayanchi, maslahatchisi, ba’zan esa “erkak” yoki “ayol” rolini bajaradi [3].

Zamonaviy ilmiy qarashlar shuni ko‘rsatdiki erta ulg‘aygan bolalarda quyidagi xatti-harakat va psixologik holatlar kuzatiladi:

Misol uchun: •Bolaning o‘z ehtiyojlarini inkor qilishi yoki ularni aybdek his qilishi [4];

•Hozirgi paytda emas, kelajakda bo‘lishi kerak bo‘lgan mas’uliyatni his qilish (masalan: “men onamga yordam berishim kerak, har qanday holatda”);

•Doimiy stress, uyqu buzilishlari, somatik shikoyatlar (bosh og‘rishi, yurak urishining tezlashishi)

•Depressiya, o‘ziga past baho, yaqinlikdan qo‘rqish;

•Perfeksionizm va o‘zini doimiy nazorat qilish holati [5].

Jurkovik (1997) va Chase (1999) tadqiqotlarida bunday bolalar kattalikka o‘tgach ham boshqalarning ehtiyojlarini o‘z hayotidan ustun qo‘yish, o‘zini anglay olmaslik, doimiy aybdorlik hissi bilan yashash holatlarini ko‘rsatib o‘tgan.

O‘zbekiston oilalarida ham ota-onaning mas’uliyatini farzand zimmasiga yuklash holatlari kuzatiladi. Masalan, otasiz yoki onasiz oilalarda, migratsiya sababli ota-onasidan uzoqda yashayotgan bolalarda bu sindromning yashirin shakllari uchrashi mumkin [6]. Ergashev S.R. (2018) oilaviy psixologik muhit bola shaxsining rivojlanishida hal qiluvchi o‘rin tutishini ta’kidlaydi.

Bunday oilalarda bola emotsional jihatdan mustahkam bo‘lmagan tizimga psixologik tayanch sifatida jalb qilinadi.

Zohidova M. (2021) o‘z tadqiqotlarida ota-onasi chet elga ishlagani ketgan bolalarda ongsiz ravishda mas’uliyat hissining ortishi va bu holat bolaning tajovuzkorlik yoki ichki yopilish holatlariga olib kelishini aniqlagan [5].

Parentifikatsiya sindromini bartaraf etishda quyidagi psixologik yondashuvlar muhim:

1. Oilaviy terapiya — ota-onaga o‘z roli va bolaning haqiqiy ehtiyojlari haqida tushuncha berish;

2. Psixopedagogik dasturlar — maktab psixologlari bolani sinchiklab kuzatib, uning mas’uliyati haddan tashqari ortib ketganini aniqlab, psixoprofilaktik ishlar olib borishi zarur [6];

3. Bolaning emotsional holatini tahlil qilish — bolaga o‘z hissiyotlarini ifoda qilish, rad qilish, yordam so‘rash imkoniyatlarini berish;

4. Davolovchi terapiyalar — yoshga mos art-terapiya, drama-terapiya, narrativ yondashuvlar orqali boladagi ichki to‘siqlarni yumshatish.

Xulosa. Demak erta ulg‘ayish sindromi — bolalik davridagi tabiiy psixologik shakllanishning buzilishi bo‘lib, u bolaning ruhiy barqarorligiga, shaxsiy hayotga moslashuviga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalarning noaniq roli, hissiy yetishmovchilik, ijtimoiy bosimlar bunday sindromning asosiy sabablaridan hisoblanadi. Ushbu sindromga nisbatan erta tashxis va tizimli yondashuvlar yordamida bolani yana o‘z tabiiy bolalik holatiga qaytarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Schmidberg M. (1948). The Emotional Problems New York: W.W. Norton & Company[1].
2. Minuchin S. (1967). Families and Family Therapy. Harvard University Press[2].
3. Boszormenyi-Nagy, I., & Spark, G.M. (1973). Invisible Loyalties: Reciprocity in Intergenerational Family Therapy. Harper & Row[3].
4. Ergashev S. R. (2018). Psixologiya asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti[4].
5. Zohidova M. (2021). Oilaviy psixologiya asoslari. Toshkent: “Fan va texnologiya”[5].
6. Mamatova G. (2022). “Bola shaxsining rivojlanishida oilaning psixologik muhitining roli”. // Psixologiya va ijtimoiy fanlar jurnali, №2(7), 18–22[6].

MAGISTRATURA O‘QUV DASTURINI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY TAJRIBASI.

Yusupov Rahimjon Karimovich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining
Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti,
Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi dotsenti,
yusupovraximjon3664@gmail.com

Hozirgi vaqtda, zamonaviy pedagogik ta’lim tizimida, ya’ni O‘zbekiston Respublikasida, aholining ehtiyojmand va barcha toifalariga talab yuqori bo‘lgan milliy davlat ijtimoiy xizmatlarini ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, bolalar va oilalar farovonligini ta’minlash, keksa aholi qatlamlarini himoyalash sohasida faol chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Samarqand davlat universiteti rektori, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a’zosi Rustam Xolmurodovning maqolasida ham ustivor vazifalar sifatida yaxshi fikrlar bildirilgan. Unda, ushbu natijalarga erishish O‘zbekiston Respublikasida davlatning ijtimoiy siyosatini kadrlar bilan ta’minlash, ijtimoiy xodimlar malakasini oshirish muammosini hal qilishga yordam berishi ta’kidlanadi.

Shuningdek, 2025 yildan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida magistraturaning-70920101 yonalishi-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha)-bosqichi uchun qabul yangicha tizimda o‘tkaziladi. Ayni paytda 10 ta o‘rin (4 ta byudjet, 6 ta kontrakt)lar onlayn hujjat topshirish tartibi, abituriyentlar hech qanday imtihonsiz qanday tanlab olinishi, o‘zbek tili va rus til yo‘nalishiga qanday sertifikatlar mos kelishi kabi abituriyentlardan kelib tushayotgan savollarga javoblarni chuqur anglashimiz zarur bo‘lmoqda.

Endilikda nomzodlar bakalavriatda olgan baholarining o‘rtacha ko‘rsatkichi va chet tilini bilish darajasi bo‘yicha milliy yoki xalqaro sertifikat balliga qarab, ballar ketma-ketligi asosida saralab olinadi.

1 iyuldan OTMlarning magistratura bosqichiga qabul uchun vazirlikning magistr.edu.uz sayti orqali onlayn ro‘yxatdan o‘tish boshlanadi va jarayon 30 iyulga qadar (shu kuni ham) davom etadi.

Ariza topshirish jarayoni uch bosqichdan iborat:

- abituriyent tizimdan ro‘yxatdan o‘tib, ariza to‘ldiradi;
- diplom va chet tilini bilish sertifikati ma’lumotlarini kiritadi;
- qabul komissiyasi arizani qabul qiladi.

Hujjatlar qabuli tugagach, abituriyentlarning bakalavriat diplomi ilovasidagi ballarning o‘rtacha ko‘rsatkichi (GPA) va til sertifikatidagi ball asosida reyting tuziladi. Chet tilini bilish sertifikati bo‘lmagan abituriyentlar magistraturaga hujjat topshira olmaydi. Chet tilidan ichki imtihon o‘tkazilmaydi.Nomdor stipendiya sohiblaridan magistraturaga kirish uchun sertifikat talab qilinmaydi.

Shu kabi ta’kidlash joizkim, yuqoridagi holatda rus tili sertifikati yo‘q. Rus tili yo‘nalishini bitirgan talabalarning bu boradagi savoliga quyidagicha javob berilishi ko‘zda tutiladi:

“Magistraturaga qabul qilishda xorijiy tilni bilish sertifikatini talab qilishdan maqsad – OTMlarga eng iqtidorli, bilimli yoshlarni jalb qilish. Magistratura – ilm-fanga yo‘naltiradigan bosqich. Butun dunyoda tan olingan tartibni joriy etdik. Ilmni xorijiy tillarsiz tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda 90 foizdan ortiq ilmiy ma’lumot ingliz tilida. Ko‘plab davlatlarda ingliz tili ustuvor til sifatida belgilanmoqda.

Rus tili to‘g‘risida gapiradigan bo‘sak, tasdiqlangan 10 ta tildan 24 xil sertifikat qabul qilinadi. Bunda asosan ommaviy tillar belgilangan. Nega bularda rus tili yo‘q degan savol turibdi. O‘zbekistonda maktabdan oliy ta’limgacha 7ta til ta’lim tili sifatida belgilangan, bularning ichida rus tili ham bor. 70 foizgacha talabalarimiz o‘zbek tilida, 20 foiz talabamiz rus tilida ta’lim olyapti. Rus tili – O‘zbekistonda ommalashgan til va uni xorijiy til sifatida ko‘rmaymiz”.

2025 yilning yanvar oyida ham qabul bo‘ladi. Endilikda yozgi qabulda kvotalar to‘lmay qolgan taqdirda, yanvarda ham qabul o‘tkazilishi mumkin. Buning uchun hujjatlar dekabr oyida qabul qilinadi.

Agar ayrim OTMlarda qabul kvotalari to‘lsa, qo‘shimcha qabul qilish borasida OTMning o‘zi mustaqil qaror qabul qiladi.

Magistratura – qizlar uchun tekin. Avval qayd etilganidek, 2024 yildan boshlab magistraturaning barcha bosqichlarida xotin-qizlar to‘lov-kontraktdan ozod qilindi. Shu ma’noda abituriyent qizlar uchun grant chizig‘idan pastda yoki yuqorida bo‘lishi faqat ramziy ahamiyatga ega bo‘lgan.

“Oliy ta’limdagi yonalishlar yangilanishi kerakmi?” maqolasida ko‘rsatilishicha TOP-300 OTMlar ta’lim dasturlari asosida oliy ta’lim yo‘nalishlari 40 foizgacha maqbullashtirilgan va buning natijasida 306 ta bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari 183 taga, 645 ta magistratura mutaxassisligi 546 tsga qisqartirilgan.

Ushbu ma’lumot va raqamlardan oliy ta’limda keng ko‘lamli ishlar olib borilayotganini ko‘rish mumkin. Ammo bu hali jahon mamlakatlari bilan

raqobatlasha oladigan daraja deb bo‘lmaydi. Dunyoda yangi-yangi soha yo‘nalishlari va zaminaviy kasblar soni ortib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi, “Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha salmoqli vakolatlarni bajarib kelmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad professional ijtimoiy xizmat va ijtimoiy yordam ko‘rsatish hisoblanadi.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish g‘oyasi o‘z aksini topgan.

Ijtimoiy himoya qilishning yangi modelining shakllanishi sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni chuqur tushunadigan, aholining turli toifalarini ijtimoiy himoya qilishning ko‘p qirrali vazifalarini professional tarzda hal qilishga tayyor bo‘lgan yangi kadrlarning mavjudligini taqozo etadi.

Shu munosabat bilan ijtimoiy sohani kadrlar bilan ta’minlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari bilan ishlash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan ta’minlash va shunga mos ravishda O‘zbekiston Respublikasida “ijtimoiy xodim” kasbiy faoliyatini yanada rivojlantirish zarurati dolzarblashib bormoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy ish rivojlanishining qisqa tarixi qisqa vaqt ichida amalga oshirilgan jadal ishlardan dalolat beradi. Ushbu o‘zgarishlar mamlakatda ijtimoiy ishni rivojlantirish bo‘yicha asosiy hamkorlar: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi (RBIMM), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, BMT Bolalar jamg‘armasining (YUNISEF) O‘zbekistondagi “Bola himoyasi” dasturi, BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD) loyihalari doirasida amalga oshirilmoqda.

2024-yilda oliy ta’lim sohasidagi yo‘nalishlar klassifikatori to‘liq qayta ko‘rib chiqildi va optimallashtirildi. Mazkur chora-tadbirlarning asosi maqsadi ta’lim sifatini oshirish, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash va ta’lim jarayonini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishdir. Demak, maqsad ta’lim sifatini oshirish, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash va ta’lim jarayonini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish uchun 2024 yilning aprel-may oylarida, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsentlari Isoqjon Negmatov, Rahimjon Yusupov va Ma’ruf Sherovlar Panjikent shahridagi pedagogika instituti, Dushanbe shahridagi Tojikiston texnika universiteti hamda Tojikiston Milliy universitetida

va Almati shahridagi Al-Forobiy nomidagi Qozog‘iston Milliy universitetida stajirovkada bo‘lib, ushbu nufuzli oliygohlarning rahbariyati va tegishli kafedralari bilan samarali uchrashuvlar o‘tkazdilar. Ushbu stajirovka va uchrashuvlardagi natijalarga ko‘ra, mazkur OTMlari xalqaro reyting agentliklari oliy ta’limdagi eng ishonchli brendlar sifatida e’tirof etilgan.

Xalqaro reytinglardagi zamonaviy tendensiyalar shuni ko‘rsatmoqdaki, barqaror rivojlanish, ijtimoiy mas’uliyat va innovatsiyalar Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining reyting natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti endi nafaqat an’anaviy ta’lim va ilmiy tadqiqotlarga, balki ularning ijtimoiy ahamiyati va jahon miqyosidagi ta’siriga ham katta e’tibor qaratmoqda. Masalan, Osiyo OTMlari ham bu yo‘nalishlarda samaradorlikka erishayotganligini QS xalqaro reytingida mintaqadan TOP – 30 likka kirganlar soni ortayotganidan yam anglash mumkin. Yurtimizdagi ko‘plab oliy ta’lim muassasalari qatorida Samarqand davlat universiteti ham Italiyadagi universitet va institutlar bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda.

Xalqaro reytinglar universitetlarning jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirish, ilmiy arademik hamjamiyatda o‘z o‘rnini mustamlashida muhim vosita hisoblanadi. QS, THE va ARWU kabi reyting agentliklari mezonlari asosida tadqiqot faoliyati, talim sifati, innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik va barqaror rivojlanish yo‘nalishlaridagi universitetlarning sa’y-harakatlari xalqaro maydonda ularning obro‘si hamda investitsion jozibadorligi oshishiga olib keladi. Xullas, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, Sotsioilogiya va ijtimoiy ish kafedrasida ham zamonaviy tendensiyalarni kuzatib borishi va ularga moslashishi uzoq muddatli muvaffaqiyatning kaliti bo‘lib xizmat qilishi uchun quyida, ushbu tadqiqotga oid yakun, taklif va tavsiyalarni bayon qilamiz.

- Magistraturada ta’lim amaliy faoliyatga tayangan holda, avlodlararo bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni yetkazish vazifasini bajarib keladi.

- Magistraturada ta’lim mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, geografik va ma’naviy xususiyatlarini e’tiborga olgan holda rivojlantirishni talab etadi.

- Magistraturada ta’lim sifatsiz ta’lim nafaqat yoshlar shaxsiy hayotida balki, ekologik muammolarning chuqurlashishiga, ijtimoiy-iqtisodiy xavf sifatida qashshoqlik va jinoyatchilikning oshishiga olib keladi.

- Magistraturada ta’limni ijtimoiy qadriyat sifatida anglashda oila institutining roli beqiyos darajada ahamiyatli hisoblanib, mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ta’limga yetaklovchi, undovchi va nazorat etuvchi vazifalarni bajaradi.

- Magistraturada ta’lim tarixan ijtimoiy qadriyat sifatida jamiyat mavjudligini, taraqqiyotini belgilovchi fenomen sifatida ijtimoiy-individual axloq va taraqqiyotning turli sohalarda o‘sishiga ijobiy ta’sir etadi.

2004-yildan 2025-yilgacha Samarqand davlat universitetida ijtimoiy ish bo‘yicha 1000 dan ortiq bakalavr darajasiga ega mutaxassislar tayyorlandi, ularning aksariyati davlat ijtimoiy himoya xizmatlarida, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida, mahalliy hokimiyat organlarida, bandlik markazlarida, bolalar

institutsional muassasalarida, ichki ishlar organlarida faoliyat ko‘rsatib kelishmoqda.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish tizimining amaldagi xodimlarini ijtimoiy yordam ko‘rsatish sohasidagi kasbiy kompetentligini shakllantirishda hamda uning kadrlar salohiyatini oshirishda magistratura ta’lim bosqichining o‘rni juda muhim hisoblanadi.

Aholining zaif toifalarini, shu jumladan, bolali oilalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish sharoitida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash hamda ularning salohiyatini oshirish nihoyatda dolzarb va zarur.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida ijtimoiy ish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha magistratura ta’lim bosqichining ochilishi quyidagi maqsad va muhim natijalarni taqdim etadi:

- magistr akademik darajasidagi ijtimoiy ish xodimlarning bazaviy ma’lumoti, ish tajribasi, kasbiy majburiyatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbiy kompetentligini oshirish;
- aholining barcha ijtimoiy himoyaga muhtoj va zaif toifalariga, shu jumladan bolalar va oilalarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash;
- ijtimoiy ish bo‘yicha darslik, monografiya, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar yaratish, yozish va ularni xallqaro tajribalar asosida ishlab chiqish.
- Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida yuqori malakali hamda iqtidorli magistr akademik darajasiga ega mutaxassislarni kelgusida ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatini taqdim etish.

Adabiyotlar :

1. Xolmurodov Rustam. Сифатли таълим қайғуси// Xalq so‘zi, 2025-yil 13-may, № 96 (8991)
2. Magistraturaga qabul: o‘zgarishlar katta// https://kun.uz/news/2022/07/14/
3. Yusupova G. Oliy ta’limdagi yonalishlar yangilanishi kerakmi?//Ma’rifat,2025-yil 21-may, №20(9553)
4. Imomova N. Xalqaro reytinglar universitetlarga qanday talablar go‘yadi?//Ma’rifat,2025-yil 21-may, №20(9553)

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTI STRATEGIYASI VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING DEMOGRAFIK OMILLARI

Yusupov Rahimjon Karimovich,
Tarix fanlari nomzodi, Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti Sotsiologiya
va ijtimoiy ish kafedrasi dotsenti.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli islohotlarni 2024 yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish belgilandi. Shu bois Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi va aholi farovonligini oshirishning demografik omillari misollarida, quyidagi mulohazalarimni bayon qilmoqchiman.

O‘zbekiston aholisi so‘nggi 30 yilda 15 mln kishiga ko‘paygan. Prognozlarga ko‘ra, 2030 yilga borib respublikada istiqomat qiluvchilar soni 40 mln kishiga yetadi. Ushbu holat ortayotgan aholi uchun yangi ish o‘rinlari, sifatli ta’lim va tibbiyot muassasalari qurish kabi bir qancha muhim strategik vazifalarni ishlab chiqib, amalga oshirishni nazarda tutadi. O‘zbekiston hukumati yaqin kelajakdagi bu jarayonga qanday tayyorgarlik ko‘ryapti va qanday ishlarni qilishi kerak? - degan masalalarga ham ziyoliylarimiz qanday javob topishlari ko‘ndalang qilib qo‘yilgan muammolardan biri bo‘lib turibdi.

Zero, Samarqand davlat universiteti rektori, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a’zosi Rustam Xolmurodov ochiq da’vatlarida barchamizga murojaat qildilar: “Mustaqil davlatlarga tahdidlar turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lyapti. Ba’zan unga beparvo qaraymiz, ba’zida kampaniyabozlik qilib, kimo‘zarga javob qaytaramiz. Lekin biz millat sifatida anglab yetishimiz zarur bo‘lgan bir haqiqat bor. Mustaqillik uchun kurash qachonki, unga nisbatan tahdidlar yuz bergandagina ko‘zga tashlanmasligi kerak. Bu ojiz qarash bilan mutlaqo murosa qilib bo‘lmaydi. Zero, mustaqillik uchun jang mamlakat va millat bor ekan, hyech qachon to‘xtamaydi”[1].

Ushbu da’vat butun millatimiz, barcha xalqimizga qarab aytilgan bo‘lsada, ayniqsa bu fikrlar ziyolilarga juda tegishlidir. Vaholanki, biz tarixchilar birinchi navbatda Mustaqillikning bebaho imkoniyatlarini, buyuk evrilishlarini, ulug‘ istiqbollarini anglash uchun mustabid tuzumning kirdikorlaridan xabardor bo‘lishimiz kerak. O‘sha ayanchli tarixni chuqur o‘rganishimiz kerak. Bobolarimiz qanchalik xo‘rlanganini, toptalganini, qatag‘on qilinganini, millatning aqli, bilimi, o‘tmishi ayovsiz yo‘q qilinganini taftish etadigan payt allaqachon keldi. Bunday holat O‘zbekiston demografik tarixini yoritiligiga ham

[1] Холмуродов Р.И. Ватан мустақиллиги, миллат тақдири учун кураш – абадий курашдир//Халқ сўзи 2024 йил 27 январь, №21 (8644)

taalluqlidir. Tan olish kerak, O‘zbekiston tarixi haqiqatni ifoda etuvchi yangi sahifalarga juda muhtoj.

Ayni paytda, 2030 yilgacha aholining o‘sish sur’atlarini tahlil etib, buning natijasida ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalariga sifat va son jihatdan tushadigan yuklarni hisob-kitob qilganmiz. Izlanishlarimizga ko‘ra, 2016 yilda 650-700 ming bola maktablarga 1-sinfga qabul qilingan bo‘lsa, yaqin kelajakda mazkur ko‘rsatkich 850-900 ming nafarga yetadi. Bu esa o‘z o‘rnida, maktablar quvvatini oshirishni talab etadi. Hozirda respublikada uch smenada faoliyat yuritadigan maktablar quvvatini ko‘paytirish, o‘qituvchilarga bo‘lgan bosimni kamaytirish maqsadida eng asosiy urg‘u xususiy maktablar, xususiy maktabgacha ta’lim muassasalari va oilaviy bog‘chalarni ochishga qaratilyapti. 2030 yilga qadar maktabgacha ta’limga bolalarni 90 foiz, umumta’limga esa 100 foiz miqdorda qamrab olish rejalashtirilgan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda har bir o‘qituvchiga 12 nafar bola to‘g‘ri kelyapti. AQShda bu ko‘rsatkich 14, Xitoyda esa 17 nafarni tashkil etadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchilarga to‘g‘ri keladigan bola soni normadan oshib ketgani yo‘q. Biroq sifat jihatdan masalalar bor, pedagoglarimizning ta’lim berish qobiliyati ustida ko‘proq ishlashimiz kerak. Umumta’limda ingliz, rus tillari, IT va texnologiya sohalari bo‘yicha o‘qituvchilar yetishmaydi. Umuman olganda, maktablarda o‘quvchilarni o‘qituvchilar bilan ta’minlash, yuqori malakali shifokorlar va o‘rta bo‘g‘in shifokorlari bilan aholini qamrab olish bo‘yicha O‘zbekistondagi natijalar rivojlangan davlatlar ko‘rsatkichlari qatoriga kiritilgan.

Shu bois, ta’kidlash joiz, demografik ko‘rsatkichlarimiz 2016-2018 yildan e’tiboran keskin ko‘tarildi, 2016 yilda har bir ayolga mamlakat hisobida 2,1 nafar farzand to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2022 yilda bu ko‘rsatkich 3,1 nafarga yetdi. Tug‘ilish o‘syapti, o‘lim koeffisiyenti kamayyapti. Mazkur jarayon natijasida har yili davlat aholisi 730-750 mingga ko‘payyapti[1]. Mamlakatda odamlar sonining tez o‘sishi hukumatdan kelgusi yillar uchun strategik tayyorgarlik ishlarini ko‘rish, yangi tug‘ilayotgan aholidan demografik dividend olish uchun ularga to‘g‘ri sarmoya kiritishni talab etyapti. Aminmanki, kelgusida biz O‘zbekiston ziyoliylari dunyoda bo‘layotgan demografik inqirozlardan xulosa chiqargan holda biz tug‘ilishni qisqartirishimiz emas, inson kapitaliga to‘g‘ri sarmoya kiritish orqali demografik dividenddan foyda olish yo‘llarini puxta ishlab chiqishimiz kerak.

Aminmanki, bugungi kunda, O‘zbekistonning tarixiy-demografik muammolarni yechimida eng dolzarb vazifalarndan biri bu – maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim va oliy ta’lim tizimida keng miqyosli islohotlarni davom ettirishimiz shart. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan alohida topib aytganlaridek,”O‘zbekistonning har bir farzandi xalqimizning birdamligi, mamlakat yaxlitligi uchun kurashib yashashni

[1] Ўзбекистон аҳолиси сони 2030 йилда 41 млндан ошади — ПМТИ // https://www.gazeta.uz/uz/2022/10/13/demography/#:~:text=%

o‘z hayotining ma’nosi deb bilmog‘i kerak! Biz bir bo‘lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz!”[1] Darhaqiqat, hyech kim hyech qachon bugun dunyoda imperiyaparastlik va shovinizm bosh ko‘tarayotgan, tajovuz va tahdid tobora ortayotgan, tarixni buzib talqin qilish kuchayayotgan, kamsitish, bosqinchilik, vayronkorlik va bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish, adovat qo‘zg‘ash, urushlarni moliyalashtirish, ichki ishlarga aralashish ochiq-oydinlik kasb etayotgan ziddiyatli va murakkab bir davrda yashayotganimizni unutmasligi kerak.

Albatta, mamlakatimizda o‘tgan qisqa davrda ushbu sohada salmoqli ishlar bajarildi va katta natijalarga erishilayotganini ham ko‘rib turibmiz [2]. Lekin O‘zbekistonning demografik vaziyatida, yani 2016-2023 yillarda keskin o‘zgarish sodir bo‘ldi. Respublikada aholining o‘rtacha yillik o‘sish sur’atida o‘zgarishlar kuzatilmoqda. O‘zbekistonda mehnatga layoqatli yoshdagi aholiniing soni jami aholi soniga nisbatan, o‘tkazilgan tadqiqotlarimizga ko‘ra, demografik jarayon qonuniyatlari va o‘zgarishlari ta’sirida 1,5 martadan ziyod bo‘lgan sur’atlarda o‘smoqda. Masalan, mamlakatda 1991-2000 yillarda jami aholi soni yiliga o‘rtacha 1,9% o‘sgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich mehnatga layoqatli aholi bo‘yicha 2,5 %, 2000-2004 yillarda esa tegishli ravishda 1,2 va 3,2 % tashkil etdi. Buning natijasida mehnatga layoqatli yoshdagi aholining jami aholi sonidagi ulushi muttasil ko‘payib bormoqda [3].

Mustaqillik davrida esa, O‘zbekistonda tug‘ilish va o‘limning kamayishi, aholi o‘rtacha umr ko‘rish muddatining uzayib borishiga olib keldi. Ushbu demografik omillar ta’siri natijasida, aholi tarkibida qariyalar (60 yosh va undan katta) salmog‘ining oshib, bolalar salmog‘ining kamayishiga sababchi bo‘ldi. Bu kabi vaziyat demografiyada «aholining qarishi» deb ataladi. Ya’ni, qaysi bir hudud yoki davlat aholisi qarib borsa, shu joyda mehnatga layoqatli ishlab chiqaruvchi ishchi kuchi bilan ta’minlash, millatni kamayib borishi kabi insoniyat taqdiri uchun tahlikali demografik muammolar paydo bo‘lishi kuchayadi. 2021 - yil boshidan pensiya oluvchilar soni qariyb 158 ming nafarga oshdi. 2021 yil 1 oktyabr holatiga pensiya va nafaqa oluvchilarning umumiy soni 3 983,0 ming nafar (2 260,2 ming (56,8 foiz) ayollar) bo‘lib, bu aholi sonining 11,5 foizni tashkil qildi. Bu ko‘rsatkich 2021 yil 1 yanvar holatiga nisbatan 157,8 ming nafar (4,1 foiz)ga ko‘paygan. Shundan, 2 955,2 ming nafari (74,2 foiz) yoshga doir

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенди Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Давлат мустақиллигининг ўттиз икки йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи//Халқ сўзи 2023 йил 1 сентябрь, №183 (8526)

[2] O’zbekistonda nihoyat Ijtimoiy himoya agentligi tashkil etildi https://www.gazeta.uz/uz/2023/06/03/social-services-agency/; Yusupov R.K., Normamatova M., Negmatov I., Christo Ananth, T.Ananth Kumar. Virtual science is a new scientific paradigm//2023 IEEE Renewable Energy and Sustainable E-Mobility Conference (RESEM) 979-8-3503-1132-7/23/$31.00 c 2023 IEEE/DOI:10.1109/RESEM57584.2023.10236372; Raqamli ijtimoiy ish va aholi himoyasi: muammolar, yechim, istiqbollar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023 y. – 220 b; va boshqalar.

[3] Quyidagi manbalar asosida hisoblab chiqildi: Караханов М.К. Некапиталистический путь развития и проблемы иародонаселения. Ташкент, 1983; "Численность населения Республики Узбекистан", Демографический ежегодник Узбекистана - 2003". - Ташкент, 2004. Statistik yilnomalari va internet saytlaridan: https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasining-demografik-korsatkichlari-raqamlarda-2 ; https://kun.uz/news/2024/02/10/1991-yildan-keyin-possovet-davlatlaridagi-demografik-vaziyat-qanday-ozgardi foydalanildi.

pensiya (bundan, 1 891,6 ming nafari yoki 64 foizi ayollar), 396,5 ming nafari (10,0 foiz) nogironlik pensiya (bundan, 163,0 ming nafari yoki 41,1 foizi ayollar), 196,4 ming nafari (4,9 foiz)ni boquvchisini yo‘qotganlik pensiya oluvchi oilalar va 434,9 ming nafari (10,9 foiz)ni nafaqa oluvchilar tashkil qildi (bundan, 205,6 ming nafari yoki 47,3 foizi ayollar). Bajarilgan ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-2021 yillardagi Farmonlariga muvofiq pensiyalar miqdori 67 barobar oshirilganiga guvoh bo‘ldik.

Shunga qaramasdan, ushbu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarga xos ko‘rsatkichdan ancha past ekanligini e’tirof etish lozim. O‘zbekistonda har 100 kishiga unda band bo‘lmagan 166 kishi to‘g‘ri keladi. Bunday holatning shakllanishida demografik xususiyatlardan tashqari iqtisodiy muammolarning dastavval sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, qishloq joylarda qishloq xo‘jaligi bilan aloqador bo‘lmagan tarmoqlarda ish joylarining yetishmasligi hal qiluvchi rolni o‘ynagan.

Shunday qilib, aholining normal o‘sib borishiga erishish uchun demografik vaziyat omillarini va O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy sohada xizmat ko‘rsatishni muntazam ilmiy tadqiq etib borish zarurdir. Bugungi kunda tarixiy demografik jarayonlarning eng dolzarb muammolardan biri bu aholi bandligini o‘rganish bo‘ldi. O‘zbekistonda 1991 yilda 20708 ming kishiga teng jami aholining 10120 ming kishiga yoki 48,9% teng qismi mehnatga layoqatli yoshga ega bo‘lgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2003 yilda 55,0% tashkil etdi. Xuddi shu kabi, Respublikamizda jami aholi soniga nisbatan iqtisodiyotda band aholi soni va salmog‘i ko‘payishi davom etmoqda. Iqtisodiyotda band aholining jami aholi sonidagi ulushi 1991 yilda 33,2% dan, 2000 yilda 36,0%ga, 2003 yilda esa 37,5% ga yetdi.

Demografik ma’lumotlarga ko‘ra, 2019 yil 1 yanvar holatiga respublika doimiy aholi sonining 30,3%i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 59,5%i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,2%i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelgandi. 2024 yilning 1 yanvar holatida Respublika doimiy aholisining yosh guruhlari bo‘yicha tarkibi: mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar – 11,8 mln kishi (32,1 %); mehnatga layoqatli yoshdagilar – 20,7 mln kishi (56,3 %); mehnatga layoqatli yoshdan kattalar – 4,3 mln kishi (11,6 %)ni tashkil etdi [1]. Demak, O‘zbekistonda aholi sonining o‘sishi mehnatga yaroqli bo‘lgan aholi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi.

Shulardan kelib chiqib, mamlakatimizda mehnatga yaroqli bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari hamda xizmatlaridan to‘laqonli foydalanishlari uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ayniqsa, ularning ishga joylashishiga, ta’lim olishiga ko‘maklashilayapti. Bu har bir inson qayerda yashashi va ishlashidan qat’iy nazar, qadr topishi, farovon yashashi, orzu-maqsadlariga yetishi uchundir.

[1] https://xs.uz/uzkr/109818#:~:text=; https://xs.uz/uzkr/post/category/society; http://xs.uz/uzkr/post/2100-jilga-kelib-dunyoda-tugilish-va-aholi-soni-kamajishi-mumkin va boshqalar.

Xullas, yakuniy fikrga kelganda, O‘zbekistonda davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan maqsad va vazifalar har birimizni yanada faolroq bo‘lishga, ushbu soha rivoji uchun samarali mehnat qilishga undaydi. Shunday ekan, ustivor vazifalarni sa’y-harakatlarimizni birlashtirgan holda ularni bajarishimiz, bu borada samarali nazoratni keng yo‘lga qo‘yish va kelgusidagi faoliyatimizda ijtimoiy himoya tizimi bilan bog‘liq holatlardan aholining xabardorlik darajasini oshirib borishimiz maqsadga muvofiqdir.

IJTIMOIY HIMOYANING YANGI TIZIMIDA-KREATIV G‘OYALARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Юсупов Рахимжон Каримович - доцент, кандидат исторических наук, Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, кафедра социологии и социальной работы. Электронная почта: yusupovraximjon3664@gmail.com ; rahim_6161@mail.ru

Шеров Маъруф Болтаевич - доцент, кафедра социологии и социальной работы Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова. Электронная почта: marufsher80@gmail.com

2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Farmoniga binoan Ijtimoiy himoya milliy agentligi, shuningdek, uning Qaroqalpog‘iston respublikasi, viloyatlar va itoshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar)larda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari ochildi. Qator vazirliklarda bir-biridan tarqoq holda bo‘lgan ijtimoiy xizmat va yordamlar yaxlit tizimga birlashtirildi.

Agentlik tashkil qilinishiga qadar soha mutaxassis-ekspertlari hamkorligida o‘z faoliyatida yagona ijtimoiy tizimni yo‘lga qo‘ygan o‘ndan ortiq davlatlar tajribasi chuqur o‘rganildi. Masalan, ONA UYI XALQARO FONDI (MHIF) Qozog‘iston “ANA UYI” jamoat fondining xalqaro yo‘nalishi hisoblanadi. 10 yil oldin boshlangan tashvish va qo‘llab-quvvatlash tarixi global MHIF tashabbusini ilhomlantirdi. Maqsad ijtimoiy yetimlikni kamaytirish va butun dunyo bo‘ylab mehribonlik uylaridagi bolalar sonini kamaytirish bo‘ldi.

O‘zbekistonda 2024-yil 4-aprelda MHIF filiali davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Ayni paytda “Ona uyi” resurs markazining navbatdagi tashkilotlarining ochilishi va tarbiyalanuvchilarini qabul qilishga tayyorgarlik tadbirlari ko‘rildi. Xususan, bunday tadbirlarning birinchisi, 2024-yil yanvar oyida Toshkentda qozog‘istonlik tadbirkorlar va “Mama’s House” jamoasining yuz nafar o‘zbekistonlik ishbilarmonlar bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda Markaziy Osiyoni yetim bolalarsiz birinchi mintaqaga aylantirish maqsadi muhokama qilindi. Shu tariqa, loyihani O‘zbekistonda amalga oshirish qozoq va

o‘zbekistonlik ishbilarmonlar va xayriyachilarning birgalikdagi sa’y-harakatlari tufayli mumkin bo‘ldi[1].

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yurtimizda bu soha 30 yil oldingi tizim darajasida qolib ketgan, faqat davlat ajratgan pulni taqatish bilan shug‘ullangan, boshqa ish qilmagan. Bu ayrim odamlarni o‘zini o‘zi o‘nglab olishga emas, boqimandalikka o‘rgatib qo‘ygan. Aslida bu tizimning vazifasi aholini og‘ir ahvoldan chiqarish va jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi uchun ko‘mak berishdan iborat bo‘lishi kerak[2].

Bugungi kuda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan xorij tajribasi o‘rganilgan holda mamlakatimining barcha hududida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va ijtimoiy xodimlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 2025-yil 1-fevraldan boshlab og‘ir hayotiy vaziyatda va yaqin qarindoshlari ko‘magisiz qolganligi natijasida farzandini tarbiyalashdan voz kechmoqchi bo‘lgan onalar, shu jumladan, homilador ayollar (keyingi o‘rinlarda og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan onalar) uchun bolalar uylarida “Ona uyi” xizmati yo‘lga qo‘yilgan. Avvalambor ta’kidlash joizkim, ushbu loyiha Qozog‘stondagi “Ana Uyi” (Ona uyi) loyihasi tajribasi asosida tashkil etildi. Qo‘shni davlat tadbirkorlari tomonidan 2013-yilda ishga tushitilgan bu loyiha Markaziy Osiyoda ijtimoiy yetimlik muammosini hal etishni maqsad qilgan . O‘zbekistonda ham bu loyiha tajriba sifatida Toshkent shahri va Samarqand viloyatida ishga tushurilib, samarasini ko‘rsatdi. Mazkur hududlarda ochilgan “Ona uyi”da o‘nlab ayol va bolalarga yordam berildi. Natijada 60 ta bola onasi bilan qoldi(vaholanki, ular tashlab ketilishi ham mumkin edi), 45 ayol esa inqirozli vaziyatda, xususan, oiladagi zo‘ravonlik holatida himoyaga olindi. Ana shu natijalarimizning o‘ziyoq loyihani kengaytirish zarurati borligini ko‘rsatdi. 2026-yilgacha boshqa hududlarda ham “Ona uyi” markazlarini ochish rejalashtirilgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlarini baholash orqali ularga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarni muvofiqlashtiriuvchi elektron modul (e-case) ishga tushurildi.

Elektron modul yordamida ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga ijtimoiy ish (keys) ochish, ularning ehtiyojlarini birlamchi va kompleks baholash orqali individual rejalar asosida ijtimoiy xizmat va yordamlar ro‘yxati shakllantiriladi. Zero, og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan ayollar jamiyatimizning eng zaif va yordamga muhtoj qatlamlaridan biri. Ular ko‘pincha oilaviy zo‘ravonlik, ishsizlik, moddiy muammolar, psixologik jarohat yoki boshpanasizlik kabi xatarlar bilan yuzma-yuz keladi. Shunday holatda: og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan onalar va ularning bolalari (4 yoshga to‘lmagan) 1 yilgacha bo‘lgan muddatga ijtimoiy shartnoma asosida vaqtincha boshpana bilan ta’minlanadi.

[1] ONA UYI XALQARO FONDI (MHIF) Qozog‘iston “ANA UYI” // http://https://dom-mamy.kz/ru/2024/07/26/dom-mamy-v-uzbekistane

[2] Нуруллоҳ Остонов Ижтимоий ҳимоянинг янги тизими-инсон қадри учун//ХАЛҚ СЎЗИ 2025 ЙИЛ 12 март, № 50 (8945)

Darhaqiqat, hayotda hamma narsa bo‘ladi. Kutilmagan vaziyatlar insonni turli holatga solishi mumkin. Ba’zan bunday vaziyatdan chiqib ketish uchun kishiga birgina yordam qo‘li, kichik turtki kifoya.

Yurtimizda o‘tgan yili Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan ilk bor ishga tushirilgan “Ona uyi” loyihasidan maqsad ham shu - og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayollarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy yetimlikning oldini olish. Qisqa muddatda natija ko‘rsatgan mazkur loyiha bugun mamlakatimizning eng yirik tadbirkorlarini qiziqtirib, hayrli tashabbus atrofida birlashtirmoqda.

Amalga oshirilayotgan loyihaga ko‘ra, kelgusida hududlarda maxsus markazlar tashkil etiladi.Bu yerda ayollar va 4 yoshgacha bo‘lgan farzandlariga himoya, boshpana, ijtimoiy, huquqiy hamda psixologik yordam ko‘rsatiladi.

Bu loyiha qiyin ahvoldagi ayollar va bolalarga yordam berish bilan birga oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, shuningdek, ijtimoiy yetimlikni oldini olishga qaratilgan.Chunki, maqsadimiz har bir bola har qanday holatda ham o‘z onasi, oilasi bilan qolishi, sog‘lom muhitda voyaga yetishiga ko‘maklashishdan iborat.

Ayni paytda O‘zbekiston poytaxtida ikkita “Onalar uyi” (“Ona uyi”) eshiklari ochildi. Resurs markazlarining ishga tushirilishi Fondning Markaziy Osiyodagi ta’sirini kengaytirish va oilalar va bolalarni samarali qo‘llab-quvvatlash strategiyasining bir qismidir. Ayni paytda ikki uyda 8 nafar bola, 7 nafar ona bo‘lib, ulardan 2 nafari homilador.

Shuni alohida ta’kidlash joizkim, bu kabi yangi resurs markazlarining ochilishi mahalliy qozoq ishbilarmonlari va o‘zbekistonlik xayriyachilarning ko‘magi tufayli mumkin bo‘ldi. Bugungi kunda 4228 nafar yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar mehribonlik uylarida ota-onasini kutmoqda. Ko‘zlangan maqsad, yana bir farzandning hayotini yanada go‘zal va baxtli qilishdir[1].

Birinchi “Ona Uyi” ijtimoiy markazi 8-10 nafar yosh bolali ayolni qabul qilishi mumkin. Ikkinchi bosqichda Ona uyi natijalari asosida hamda O‘zbekistonning ma’lum bir mintaqasi ehtiyojlariga qarab loyihani mamlakat bo‘ylab kengaytirish belgilangan.

Ona Uyi markazi qiyin ijtimoiy vaziyat va turli salbiy holatlarda onalarga bolalarini o‘zlari tarbiyalash imkoniyatini berish orqali yordam beradi. Bu yerda ularga ma’naviy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatiladi hamda ushbu yordam barcha zarur narsalar, xususan, uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak, shuningdek, ayol va bola uchun tibbiy yordamni o‘z ichiga oladi.

Shu bilan birgalikda, Ona Uyi loyihasi doirasida markazda yashovchi onalarni kasbiy tayyorlash dasturi amalga oshiriladi. Kelgusida Ona uylarida tikuvchilik ustaxonalarini ochish, onalarga turli mutaxassisliklar bo‘yicha ta’lim berish rejalashtirilgan.

[1] http://https://forbes.kz/articles/tsentralnaya-aziya-bez-sirot-sovmestnyy-proekt-biznesmenov-kazahstana-i-uzbekistana-467afe

Natijada, barcha ibratli tadbirlar tufayli Ona Uyi markazida bo‘lgan vaqt davomida ayollar ijtimoiylashishi, professional kasbga ega bo‘lishi hamda o‘zlari va farzandlarini ta’minlash maqsadida kelajak uchun mablag‘ topishlari mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib ta’kidlash lozim. Ayollarning mehnat bozoriga kirishiga ko‘maklashish – kasb-hunarga o‘qitish tizimini kengaytirish va ishga joylashishda qo‘llab-quvvatlash ro‘y beradi.Davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish – korxonalar bilan hamkorlik qilib, ayollarni doimiy ish o‘rinlari bilan ta’minlash amalga oshirilib boradi.

Demak, “Ona uyi” loyihasi O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining muhim qismi sifatida ayollar va bolalarning hayot sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tashabbus orqali ijtimoiy yetimlikning oldini olish, ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga erishilmoqda. Kelgusida ushdu loyihani yanada kengaytirish va uning samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etaveradi. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish – xorijiy tajribalarni o‘rganish va ilg‘or amaliyotlarni tatbiq etish jarayoni qo‘llab- quvvatlantirilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Negmatov I. Ijtimoiy ish tarixi va nazariyasi. Darslik. - Samarqand: SamDU Tahririy nashriyoti, 2024. – 636 bet.
2. Yusupov R.K. Ijtimoiy ishga kirish. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 264 bet.
3. Тошматова Ирода. “Она уйи” тадбиркорларни бирлаштираётган ижтимоий лойиҳа//Янги Ўзбекистон 2025 йил 14 февраль, 32-сон.
4. O‘zbekistonda “Ona uyi” xayriya loyihasi taqdimoti o‘tkazildi// https://kun.uz/01959544?q=%2Fuz%2F01959544
5. Центральная Азия без сирот: совместный проект бизнесменов Казахстана и Узбекистана//https://forbes.kz/articles/tsentralnaya-aziya-bez-sirot-sovmestnyy-
6. ONA UYI XALQARO FONDI (MHIF) Qozog‘iston “ANA UYI” // http://https://dom-mamy.kz/ru/2024/07/26/dom-mamy-v-uzbekistane
7. Центральная Азия без сирот: совместный проект бизнесменов Казахстана и Узбекистана // https://forbes.kz/articles/tsentralnaya-aziya-bez-sirot-sovmestnyy-proekt-
8. O‘zbekistonda “Ona uyi” xayriya loyihasi taqdimoti o‘tkazildi//https://kun.uz/01959544?q=%2Fuz%2F01959544
9. Нуруллоҳ Остонов Ижтимоий ҳимоянинг янги тизими-инсон қадри учун//ХАЛҚ СЎЗИ 2025 ЙИЛ 12 март, № 50 (8945)

OILADA MA’SULIYAT MUAMMOSI VA UNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK ASOSLARI

Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
«Amaliy psixologiya» kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oilada ma’suliyat muammosi xaqida so‘z yuritilgan. Ma’suliyat psixologiyasi chet el olimlari tomonidan qanday talqin qilingani va bu qarqshlar shaxning axloqiy rivojlanishiga ta’siri o‘rganilgan.Olimlar tamonidan olib borilgan eksperimentlar taxlili xam keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Axloqiy ma’suliyat, ijtimoiy xulq-atvorni, avtonom subektiv ma’suliyat, uyushma, shaxsni boshqarish omili.*

Ijtimoiy psixologiyada ma’suliyat tushunchasini o‘rganishda turli yondashuvlar va tadqiqotlarni taxlil qilish orqali erishiladi. Bu borada Chet el olimlarining qarashlari asoslidir. J.Piaje bolaning axloqiy rivojlanish bosqichlarini inobatga olib, tashqi ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtirish orqali ma’suliyatning ichki asosini shakllantirishga e’tibor qaratadi. Muallif ma’suliyatni bolaning axloqiy rivojlanishining umumiy jarayonining qismlaridan biri deb hisoblagan. Axloqiy ma’suliyat nazariyasida J.Piaje ma’suliyatni shakllantirishning ikkita asosiy bosqichini aniqladi: ob’ektiv va subektiv. Birinchisi ijtimoiy xulq-atvorni (o‘yinlar orqali) o‘zlashtirishda yuzaga keladi, ikkinchisi esa shaxsiyatning yuqori darajadagi rivojlanishini aks ettiradi. [1]

L.Kolbergning tadqiqotlarida bu muammo kuyidagicha yoritilgan. Muallif axloqiy ongni rivojlantirishning asosiy omili sifatida shaxsning atrof-muhit bilan faol ijodiy aloqasi muhimligini ta’kidlaydi. Gipotetik axloqiy dilemma mavzularini sub’ektlar tomonidan hal qilingan umumiy ikkita qabul qilingan axloqiy me’yorlarning teskari yechimi tahlilida axloqiy ongning rivojlanishining besh bosqichi ajratib ko‘rsatilgan:

1. «ob’ektiv ma’suliyat»
2. «subektiv ma’suliyat»
3. «asboblar almashinuvi»
4. «ijtimoiy tizim va vijdon axloqi»
5. Jamiyatda qabul qilingan axloq tamoyillariga asoslangan ma’suliyatni tushunish. L. Kolberg kontseptsiyasida shaxsning atrof-muhit bilan faol o‘zaro ta’siri jarayoni sifatida ma’suliyatning shakllanishini tushunishdan tashqari, u ijtimoiy xatti-harakatlarni tartibga soluvchi sifatida ma’suliyatga alohida ahamiyat beradi. K.Xelkama ma’suliyat jarayonini o‘rgangan. U ma’suliyatni rivojlantirishning bir qator bosqichlarini aniqlaydi:

1. Avtonom subektiv ma’suliyat
2. Ma’suliyat ijtimoiy xodisa sifatida
3. Axloqiy ma’suliyat

F. Heyder kauzal atribut tushunchasining asosiy tamoyillarini bayon qildi. Ushbu yo‘nalish xorijiy psixologiyada keng tarqalgan bo‘lib, ma’suliyatning subektiv tomonini ochib beradi. Kauzal atributi (sabablarni aniqlash) odamlarning kundalik hayotida ma’lum bir hodisalarning sabablarini tushuntirishga harakat qilganda yuzaga keladigan hodisa. SHuning uchun kontseptsiya «ko‘chadan kelgan odam» ning ma’suliyatligi namoyon bo‘lishining xatti-harakatlari va xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Kontseptsiya asosidagi uchta asosiy faraz F. Xeyderga shunday xulosaga kelish imkonini berdi, odamlar sababni aktyorga («Aktyor») yoki atrof-muhitga bog‘lashga moyildirlar.

“Birinchisi, insonning ijtimoiy xulq-atvorining munosib xulq-atvori ko‘p jihatdan bu odamning o‘z atrofidagi dunyoni qanday qabul qilishi va tushuntirishini aniqlashga bog‘liq.

Ikkinchisi - odamlar atrof-muhitni, ularning atrof-muhitini bashorat qilishni va boshqarishni xohlashadi. Agar ular boshqa odamlarning xatti-harakatlarining sabablarini to‘g‘ri belgilashga, ijtimoiy hodisalarning kelib chiqish ildizlarini to‘g‘ri belgilashga qodir bo‘lsalar, bu istakni amalga oshirish mumkin. Uchinchidan, ijtimoiy va jismoniy ob’ektlarni idrok etish o‘rtasida qandaydir o‘xshashlik bor. “ [2,196].

Hodisalar, shuning uchun shaxsning tashqi kuchlari va resurslarining nisbati. F. Xayder ta’kidlashicha, bu har ikkala omilning har biri uchun ma’suliyatni olish chorasi shaxsning bahosiga bog‘liq. Axir, inson o‘zi ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan voqealar va ularning oqibatlari uchungina ma’suliyatli bo‘lishi mumkin. F.Xayder ma’suliyatni aniqlashning 5 darajasini belgilaydi:

1. Assotsiatsiya - inson bilan bog‘liq yoki unga tegishli bo‘lgan har qanday natija uchun ma’suliyat.

2. Sabab - inson tomonidan «sabab bo‘lgan» uchun ma’suliyat. Agar biror kishi biron bir voqea uchun zarur shart bo‘lsa, natijani oldindan bilishning iloji bo‘lmagan taqdirda ham qayd etiladi.

3. Bashorat - ma’suliyat, agar u maqsadlar bilan bog‘liq bo‘lmasa ham, oldindan ko‘rilishi mumkin bo‘lgan har qanday hodisaga tegishli.

4. Niyat - inson tashabbusi bilan boshlangan va u nima qilmoqchi ekanligi uchun ma’suliyat.

5. Oqlash - sodir bo‘layotgan narsalar uchun ma’suliyat atrof-muhit bilan taqsimlanadi va qisman u bilan izohlanadi. [2,196]

Birinchidan beshinchi darajaga qadar sodir bo‘layotgan narsalarga shaxsiy hissa ko‘proq og‘irlik qiladi, ammo beshinchi darajada majburlash holatlari hisobga olinadi, bu esa ma’suliyat darajasini pasaytiradi. Ko‘pgina tadqiqotlar vaziyatni ma’suliyatning namoyon bo‘lishiga ta’sir qiluvchi omillarga bag‘ishlangan. Bu xatti-harakatlarga yordam berish, shafoat qilish va notanish odamga yordam berish kerak bo‘lgan vaziyatlarni tadqiq qilishni o‘z ichiga oladi. SHunday qilib, Bibb Latane va Djon Darley [3,4.] izlanishlari yo‘lovchilarning ma’lum xizmatlarni amalga oshirishga bo‘lgan talablariga qanchalik javob berishini aniqlashga bag‘ishlangan (soat nechada ekanligini ayting, ismingizni ayting, marshrutingizni ko‘rsating va hokazo). Tadqiqotchilar so‘rovning tabiati,

shuningdek murojaat shakli va ketma-ketligi javoblarga va javob darajasiga ta’sir qilishini aniqladilar SHuningdek, murojaat qiluvchining jinsi, yoshi, tashqi ko‘rinishi va boshqalar kabi xususiyatlarining ta’siri aniqlandi. Ko‘proq moslashuvchan so‘rovga qo‘shimcha ravishda qo‘shimcha yo‘lovchining joylashuvi. Ushbu qator tadqiqotlardagi yo‘nalishlardan biri ma’suliyatni o‘rganishdir. Allen «yo‘qolgan yo‘lovchi» modelidan foydalangan holda metro poezdlarida tajriba o‘tkazdi. Eksperimentator va yordamchining yordami bilan noto‘g‘ri ma’lumot berish holati yaratildi.»Haqiqiy» yo‘lovchiga yaqin joyda «Yo‘lovchi - eksperimentator». Yo‘lovchini dezinfektsiyalash vositasi guvohi tomonidan tuzatilganligi va uning vaziyatga aralashmaganligi bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida harakat qildi. Allenning ikkinchi seriya tajribalari bir nechta bilan o‘tkazildi dezinfektorning o‘zgargan xatti-harakati, xususan, notekis xatti-harakatlar, shu sababli bu odam deb taxmin qilish uchun, g‘azabga moyil. Bir qator eksperimentlarning natijasi ikkita situatsion omil - ma’suliyatni belgilovchi omillarni shakllantirish edi:

«Birinchi holda - to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat, guvoh va» aqldan ozgan yo‘lovchi «o‘rtasidagi bog‘liqlik munosabatlarini shakllantiruvchi,

ikkinchi holatda - yuzaki xatti-harakatlar yoki dezinfektsiyalash vositasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdidlari tufayli vaziyatning xavfliligi.»

Sh. Shvarts tomonidan ilgari surilgan kontseptsiyaga ko‘ra, yordam berish holatlaridagi ijobiy xatti-harakatlar ko‘proq birgalikda qabul qilingan ijtimoiy me’yorlar va shaxsiy tajriba, shuningdek shaxsiy ma’suliyatning o‘zaro bog‘liqligi natijasi bo‘lgan “shaxsiy normalar” ta’sir qiladi. Shaxsiy ma’suliyat bu erda «... biron bir harakatning bajarilishini va uning natijasini boshqarish uchun ma’lum bir qobiliyat hissi» tushuniladi. [5b.175] Biror kishining me’yorlarga muvofiq harakat qilishga tayyorligi, uning boshqa odamlar uchun voqealar qanday oqibatlarga olib kelishi haqidagi fikrlari va bu oqibatlar uning shaxsiy me’yorlariga qanchalik mos kelishi, shuningdek, o‘z javobgarligini his qilish darajasi qanchalik yuqori ekanligi bilan belgilanadi. Shaxsiy me’yorlar men tasviri bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, me’yorni buzish aybdorlik hissi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotishga olib keladi, va muvofiqlik mag‘rurlikka va o‘z-o‘zini hurmat qilishning o‘sishiga olib keladi. [5]

J. Rotter shaxsni boshqarish omili kontseptsiyasida tashqi omillarga yoki ichki asoslarga yo‘naltirish g‘oyasini umumlashtirdi. Boshqarishning ikki turi: ichki va tashqi - hodisalarning sabablarini tashqi yoki ichki manbalarga bog‘lash uchun shaxsning mulkiga asoslangan shaxsning xatti-harakatlarini tushuntirish uchun ishlatiladi. Hodisalar uchun ma’suliyatni o‘ziga jalb qilish, ularni shaxsiy hissalar nuqtai nazaridan tushuntirish va ularning rivojlanishi va natijalariga ta’sir qilish ichki nazoratning ko‘rsatkichidir. Nima sodir bo‘layotgani uchun tashqi muhit, atrofdagi odamlar va boshqa tashqi omillar uchun ma’suliyatning belgilanishi boshqaruvning tashqi makonidan dalolat beradi. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozim ijtimoiy psixologiyada ma’suliyat masalasi, olimlarning ta’kidlashicha axloqiy me’yorlar bilan ob’ektiv va subektiv tarzda shaxs rivojlanishining ilk bosqichlarida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1.Piaje J. Moralьnoe sujdenie u rebenka. M.:Akademicheskiy proekt, 2006.480 s.

2.Latane B., Darley J.M. Group inhibition of bystander intervention in emergencies. - Journal of Personality and Social Psychology, 1968, 10. 215221.

3.Latane B., Darley J.M. The Unresponsive Bystander: Why Doesn’t He Help?-New Yrk, 1970. 131 p.

4. Muzdыbaev K. Otvetstvennostь lichnosti v proizvodstvennom kollektive. // Sotsialьno-psixologicheskie problemы proizvodstvennogo kollektiva. M., 1983.S. 133-145.

5. Muzdыbaev, K. Psixologiya otvetstvennosti/ Pod red. V.E. Semenova. Izd. 2-e, dop. M.: Knijnыy dom «LIBROKOM», 2010. 248 s.

6. Muzdыbaev K. Ideya spravedlivosti Sotsis. 1992. №11. 94-101.

7. Mukonina M.V. Tipы professionalьno otvetstvennogo otnosheniya rabotnikov opasnogo proizvodstva v raznыx organizatsionno ekonomicheskix usloviyax. Dis... kand. psixol. nauk. M., 2002. 185 s.

NUTQ BUZILISHLARI BILAN BOG‘LIQ PSIXOLOGIK MUAMMOLAR: KICHIK MAKTAB O‘QUVCHILARI MISOLIDA

Shaxobiddinova Umida Utkurbekovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Ijtimoiy va siyosiy fanlar fakulteti
Psixologiya yo‘nalishi magistranti

Anotatsiya:

Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda uchraydigan nutq buzilishlari va ular bilan bog‘liq psixologik muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, bu buzilishlarning o‘quvchilar shaxsiyati, ijtimoiy moslashuvi hamda ta’lim jarayoniga ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar:
nutq buzilishlari, psixologik muammo, kichik maktab o‘quvchilari, logonevroz, ijtimoiy moslashuv, emotsional holat.

Аннотация:

В данной статье анализируются речевые нарушения у младших школьников и связанные с ними психологические проблемы. Также рассматривается влияние этих нарушений на личность учащихся, их социальную адаптацию и образовательный процесс.

Ключевые слова:
речевые нарушения, психологическая проблема, младшие школьники, логоневроз, социальная адаптация, эмоциональное состояние.

Kirish:

Kichik maktab o‘quvchilari shaxsiyati shakllanayotgan davrda psixologik muvozanatning mustahkamligi muhim omillardan biridir. Nutq esa bola fikrlashi, o‘zini ifoda etishi va ijtimoiylashuvining asosiy vositasidir. Shu sababli nutqdagi buzilishlar nafaqat muloqot jarayoniga, balki bolaning umumiy psixologik holatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism

Nutq buzilishlari (logonevroz, dislaliya, dizartriya, alaliya va boshqalar) ko‘pincha bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchsizligi, ijtimoiy chetlashuvi, tajovuzkorlik yoki ichki tortinish holatlari bilan kechadi. Ayniqsa, kichik maktab yoshida o‘z tengdoshlariga o‘xshamaslik holati bolaning ruhiy holatida muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi.

Masalan, logonevroz (tutqanoq nutq) bilan og‘rigan bola o‘z fikrini to‘liq bayon eta olmasligi sababli muloqotdan qochadi, o‘zini izolyatsiya qiladi, ba’zan o‘z tengdoshlariga nisbatan tajovuzkor bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, bu holatlar o‘qituvchi bilan bo‘lgan aloqalarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi, darsga bo‘lgan qiziqish pasayadi, muvaffaqiyatsizlik hissi ortadi.

Shuningdek, nutq buzilishlari bo‘lgan bolalar ko‘pincha o‘zlariga bo‘lgan ishonchsizlikni sezadilar va bu ularning o‘z-o‘zini hurmat qilish darajasini pasaytiradi. Ijtimoiy muloqotda davomiy qiyinchiliklar va do‘stlar bilan bog‘lanishdagi to‘siqlar bolaning ruhiy holatini yanada murakkablashtiradi. Bunday holatlarda, o‘quvchilarning uyatchanligi va o‘zini ifoda etishda qiyinchiliklar ko‘proq kuzatiladi. O‘qituvchilar va psixologlar tomonidan berilgan ijobiy ko‘mak va qo‘llab-quvvatlash bolaning o‘zini anglash va boshqa bolalar bilan muloqot qilishga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Nutq buzilishiga ega bolalarda ko‘pincha quyidagi psixologik muammolar kuzatiladi:

- Past o‘zini baholash;
- Muloqotdan qochish (kommunikativ blok);
- Emotsional labilitet (tez ranjish, yig‘loqilik);
- Ijtimoiy moslashuvning pastligi;
- Depressiv kayfiyat holatlari.

Bu muammolarni bartaraf etishda psixolog, logoped va o‘qituvchining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlabki bosqichda bolaning nutqidagi buzilish darajasi aniqlanadi, undan so‘ng psixologik holatni barqarorlashtirishga qaratilgan mashg‘ulotlar tashkil qilinadi.

Xulosa

Kichik maktab yoshidagi bolalarda nutq buzilishlari nafaqat til rivojiga, balki psixik holatga ham ta’sir qiladi. Ularni erta aniqlash va tizimli ravishda tuzatish ishlari olib borish bolaning sog‘lom ijtimoiylashuvi va ta’limdagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Nutqdagi buzilishlarni bartaraf etish uchun maktabda psixologik-pedagogik xizmatlarning faol ishlashi juda muhimdir. Shu bilan birga, o‘quvchilarning psixologik holatini yaxshilashda, o‘qituvchi va psixologlar o‘rtasida muntazam aloqalar va hamkorlik zarur. Nutqni tiklash uchun

zaruriy pedagogik yondashuvlar va usullarni qo‘llash, o‘quvchilarni o‘zlariga bo‘lgan ishonchni tiklashga yordam beradi va ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatlarini oshiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik va yosh psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2004.
2. Yuldasheva G.M. Logopediya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rechi. – Moskva: Pedagogika, 1983.
4. Davletshin M.R. Psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006.
5. Yakubova M.T. Maktab psixologiyasi. – Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2021.
6. Romanova E.A., Shubina L.I. Logopediya. – Moskva: Akademiya, 2018.
7. Raximov F.M. Kichik maktab yoshidagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2015.

ДЕСТРУКТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ФОРМИРОВАНИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У СОТРУДНИКОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Шамсиев Сардор Аслидинович
Независимый исследователь
Кафедра философии и национальной идеи
Самаркандского государственного
университета имени Шарофа Рашидова
ssamsiev53@.gmail.com
(Узбекистан, Самарканд)

Аннотация

В статье рассматриваются риски и угрозы, связанные с влиянием искусственного интеллекта (ИИ) на развитие креативного мышления у сотрудников органов внутренних дел. Анализируются когнитивные последствия автоматизации, замещения творческой деятельности алгоритмами, снижение мотивации к самостоятельному поиску решений. Особое внимание уделяется философско-психологическим аспектам влияния цифровых технологий на мышление и обучающую среду в учреждениях системы Министерство внутренних дел Узбекистана.

Ключевые слова: искусственный интеллект, креативное мышление, когнитивные риски, органы внутренних дел, автоматизация, мышление, цифровая среда.

Abstract

The article examines the risks and threats related to the influence of artificial intelligence (AI) on the development of creative thinking in law enforcement personnel. It analyzes cognitive consequences of automation, substitution of creative activity by algorithms, and decline in motivation for independent problem-solving. Special attention is paid to the philosophical and psychological aspects of AI’s impact on thinking and the educational environment in the law enforcement system of Uzbekistan.

Key words: artificial intelligence, creative thinking, cognitive risks, law enforcement, automation, thinking, digital environment.

Внедрение искусственного интеллекта в различные сферы деятельности, включая правоохранительные органы, стало неотъемлемой частью современного общества. Однако вместе с очевидными преимуществами появляются риски, которые затрагивают когнитивную и креативную составляющие профессионального мышления сотрудников внутренних дел. Особую актуальность приобретает исследование последствий автоматизации и цифровизации в контексте философии образования и профессиональной подготовки.

Современные технологии искусственного интеллекта выполняют аналитические и прогностические функции, которые ранее были исключительно прерогативой человека. Развитие искусственного интеллекта сопровождается значительными изменениями в профессиональной среде, включая подготовку сотрудников внутренних дел. С одной стороны, искусственный интеллект может служить инструментом повышения эффективности, но с другой — представляет собой угрозу креативной составляющей мышления. Автоматизация рутинных операций приводит к снижению когнитивной нагрузки, однако одновременно формирует интеллектуальную пассивность и зависимость от цифровых алгоритмов [1, с. 42]. Это особенно опасно для представителей профессий, где требуется креативный подход, нестандартное мышление и принятие решений в неопределённой ситуации.

Креативное мышление и его угасание под воздействием искусственного интеллекта настораживает и психологов и философов. Креативность как способность к генерации новых идей и подходов является важным компонентом деятельности сотрудников внутренних дел, особенно в условиях нестандартных оперативных задач. Однако использование искусственного интеллекта - инструментов в качестве готовых решений снижает мотивацию к самостоятельному мышлению и ограничивает воображение [2, с. 71]. Возникает угроза формирования шаблонного мышления и потери инициативности, что противоречит требованиям гибкости и адаптивности в условиях быстро меняющейся среды.

Проблема утраты креативного потенциала в связано развитием искусственного интеллекта. Автоматизация интеллектуальных процессов

снижает потребность в инициативе и оригинальном мышлении. По данным педагогических исследований в Академии Министерство внутренних дел Узбекистана, обучающиеся склонны полагаться на цифровые подсказки, а не развивать собственное аналитическое мышление [3, с. 18].

Философско-психологическое осмысление этой проблемы раскрывает когнитивную и эпистемологическую задачу о философов. Философские традиции, начиная с Сократа, подчёркивают важность самостоятельного мышления как основы личностного развития. Воздействие искусственного интеллекта, по сути, может формировать «когнитивную леность», нарушая способность к дивергентному мышлению [4, с. 66].

Риски в образовательной системе Министерство внутренних дел возрастает постепенно в связи искусственного интеллекта. Образовательные технологии в системе Министерство внутренних дел должны учитывать риски дигитализации. Программы профессиональной подготовки в Самаркандском юридическом институте включают элементы креативного тренинга, что противостоит механистическому мышлению [5, с. 34].

Выводы и рекомендации

Искусственный интеллект требует осознанного подхода в образовательной политике. Только при сохранении и развитии креативных навыков возможно формирование гибких профессионалов, способных к нестандартным решениям в условиях неопределенности.

Искусственный интеллект — неотъемлемая часть будущего, но его влияние на мышление требует осмысленного подхода. Сотрудники внутренних дел должны обладать не только цифровыми компетенциями, но и когнитивной устойчивостью, способностью к критическому анализу и креативному подходу. Образовательные стратегии, направленные на развитие самостоятельного мышления, становятся важнейшим фактором подготовки к профессиональной деятельности в эпоху искусственного интеллекта.

Список литературы:

1. Мещеряков Б.Г., Зинченко В.П. Когнитивная психология. — М.: Логос, 2019. — С. 42.

2. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. — New York: Bloomsbury Academic, 2018. — С. 71–78.

3. Ахмедов Р.Т. Цифровизация и мышление в системе МВД // Проблемы образования, 2022. № 3. — С. 18–22.

4. Нисбет Р. География мышления: как азиаты и западные люди думают по-разному… и почему. — М.: Альпина нон-фикшн, 2019. — С. 66.

5. Юнусова Д.Р. Образовательные инновации в юридических вузах Узбекистана // Современное образование, 2023. № 4. — С. 34–37.

IJTIMOIY TARMOQLARNING RUHIY SALOMATLIKKA TA’SIRI

Shirinova Dilnoza Sobir qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat unversiteti
Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti talabasi

Annotatsiya Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar insonlarning ruhiy salomatligiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. 18-35 yoshdagi 450 nafar respondent ishtirokidagi tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, kundalik 3 soatdan ortiq foydalanish depressiv simptomlarni 34% ga oshiradi. Biroq, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida ishlatganda psixologik bardoshlilik 28% yaxshilanadi. Fear of Missing Out fenomeni respondentlarning 67% ida kuzatilib, tashvish darajasini sezilarli oshiradi, bu esa ijtimoiy mediadan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, ruhiy salomatlik, psixologik well-being, digital wellness, social media addiction, FOMO, depressiya, tashvish, yoshlar psixologiyasi, raqamli texnologiyalar

Kirish

Hozirgi davr raqamli transformatsiya epoxasi sifatida tavsiflanmoqda, bunda ijtimoiy media platformalari global kommunikatsiya tizimining markaziy elementi vazifasini bajarmoqda. Facebook, Instagram, Twitter, TikTok va boshqa platformalar orqali amalga oshiriladigan virtual muloqot zamonaviy jamiyat a’zolarining psixososial rivojlanishiga fundamental ta’sir ko‘rsatmoqda. Statista ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil holatiga ko‘ra dunyo bo‘ylab 4.8 milliard kishi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqda, bu esa global aholining 59.9% ini tashkil etadi. Psixologik tadqiqotlar ijtimoiy media foydalanishining insonning kognitiv, emotsional va behavioral sferalariga ko‘p qirrali ta’sirini isbotlamoqda. Bir tomondan, ushbu platformalar ijtimoiy bog‘lanish, ma’lumot almashish va o‘z-o‘zini ifoda etish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. Boshqa tomondan esa, ularning haddan tashqari yoki noto‘g‘ri ishlatilishi ruhiy salomatlik muammolariga olib kelishi mumkin. Neurokognitivniy tadqiqotlar social media foydalanish jarayonida miyaning reward system faollashishini va dopamin sekretsiyasining o‘zgarishini aniqladi. Ushbu neyroximik jarayonlar addictive behavior shakllanishiga va impulse control buzilishiga olib kelishi mumkin. Primack va hamkasblari tomonidan o‘tkazilgan longitudinal tadqiqot ijtimoiy tarmoqlardan ko‘p foydalanish va depressiv simptomlar o‘rtasida kuchli korrelyatsiya mavjudligini ko‘rsatdi. Fear of Missing Out yoki FOMO fenomeni zamonaviy psixologiya fanida alohida e’tiborga sazovor bo‘lgan. Ushbu psixologik holat doimiy ravishda ijtimoiy tarmoqlardagi yangiliklarni kuzatib borish va boshqalarning hayotida sodir bo‘layotgan voqealardan chetda qolish xavotirini anglatadi. Przybylski va hamkasblarining tadqiqotlariga ko‘ra, FOMO basic psychological needs theory asosida tushuntirilishi mumkin va u autonomy, competence va relatedness ehtiyojlarining qondirillmasligi natijasida yuzaga

keladi. Social comparison theory ijtimoiy tarmoqlarning psixologik ta’sirini tushuntirishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Festinger tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariya bo‘yicha, odamlar o‘zlarini boshqalar bilan taqqoslash orqali o‘z-o‘zini baholaydilar. Ijtimoiy tarmoqlardagi ideallashtitilgan kontentlar upward social comparison jarayonini kuchaytiradi va bu esa self-esteem pasayishiga olib keladi. Echochamber effect va filter bubble fenomenlari ham ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Algorithmic curation tufayli foydalanuvchilar ko‘pincha o‘zlarining qarashlariga mos keladigan ma’lumotlarni oladilar, bu esa cognitive diversity va critical thinking qobiliyatlarining pasayishiga olib keladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarning ruhiy salomatligiga ta’sirini kompleks baholash va samarali intervention strategiyalarini ishlab chiqishga asoslangan tavsiyalar berishdir. Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish tarzl va miqdori ruhiy salomatlik ko‘rsatkichlari bilan statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlikka ega.

Metodlar Tadqiqot dizayni cross-sectional survey methodology asosida qurildi va mixed-methods yondashuvini qo‘lladi. Ushbu uslub kvantitativ ma’lumotlarning statistik qat’iyligini kvalitativ ma’lumotlarning chuqur tushunishi bilan birlashtiradi.

Tadqiqot namunasi stratified random sampling usuli orqali shakllantitildi. Umumiy tanlov 18-35 yosh oralig‘idagi 450 nafar respondentni o‘z ichiga oldi. Yoshlar kategoriyasini tanlashning asosiy sababi ushbu guruhning ijtimoiy tarmoqlardan eng faol foydalanuvchilar ekanligi va ruhiy salomatlik masalalariga ko‘proq moyil ekanligi bilan bog‘liq. Gender taqsimoti quyidagicha edi: ayollar 62.4% (n=281), erkaklar 37.6% (n=169). Yosh bo‘yicha taqsimot: 18-24 yosh 38.2% (n=172), 25-29 yosh 35.6% (n=160), 30-35 yosh 26.2% (n=118).

Ma’lumotlar to‘plash uchun bir necha standartlashtirilgan instrument ishlatildi:

a) Depression Anxiety Stress Scale-21 (DASS-21) - depressiya, tashvish va stress darajasini baholash uchun. Ushbu instrument yaxshi psixometrik xususiyatlarga ega va Cronbach’s alpha koeffitsienti 0.91 ni tashkil etadi.

b) Social Media Addiction Scale (SMAS) - ijtimoiy tarmoqlarga bog‘liqlik darajasini o‘lchash uchun. 29 ta elementdan iborat bo‘lgan ushbu shkala preoccupation, tolerance, withdrawal va relapse komponentlarini baholaydi.

v) UCLA Loneliness Scale (Version 3) - yolg‘izlik hissini baholash uchun. 20 ta savoldan iborat bo‘lgan ushbu instrument subjektiv yolg‘izlik darajasini aniqlaydi.

g) Bergen Social Media Addiction Scale (BSMAS) - ijtimoiy media foydalanishining problematik jihatlarini aniqlash uchun. 6 ta element addiction core komponentlarini (salience, mood modification, tolerance, withdrawal, conflict, relapse) o‘lchaydi.

d) Fear of Missing Out Scale (FoMOS) - FOMO darajasini baholash uchun. 10 ta elementdan iborat bo‘lgan ushbu shkala ijtimoiy voqealardan chetda qolish xavotirini o‘lchaydi.

Ma’lumotlar online platform orqali to‘plandi va respondentlar informed consent berish majburiyatiga ega edi. Tadqiqot Helsinki Deklaratsiyasi talablari va mahalliy etik qo‘mitalar ko‘rsatmalariga muvofiq amalga oshirildi. Statistik tahlil SPSS 28.0 dasturi yordamida amalga oshirildi. Deskriptiv statistika, korrelyatsion tahlil, ko‘p o‘zgaruvchili regression tahlili va variance tahlili (ANOVA) qo‘llanildi. Mediation va moderation analysis uchun PROCESS macro ishlatildi. Statistical significance darajasi $p<0.05$ deb belgilandi. Kvalitativ ma’lumotlar uchun 30 nafar respondent bilan chuqur intervyu o‘tkazildi. Thematic analysis yondashuvi qo‘llanildi va NVIVO 12 dasturi orqali kodlash amalga oshirildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlarning ruhiy salomatlikka murakkab va ko‘p qirrali ta’sirini ko‘rsatdi. Ma’lumotlar tahlili bir necha muhim topilmalarni aniqladi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish davomiyligi bo‘yicha natijalar quyidagicha taqsimlandi: kuniga 1 soatgacha foydalanuvchilar 18.4% (n=83), 1-3 soat 42.2% (n=190), 3-5 soat 28.9% (n=130), 5 soatdan ortiq 10.5% (n=47) ni tashkil etdi. Eng ko‘p ishlatiladigan platformalar Instagram (89.3%), Facebook (76.7%), TikTok (64.2%), Twitter (41.6%) va Snapchat (38.9%) bo‘ldi. DASS-21 shkalasi bo‘yicha natijalar statistik jihatdan ahamiyatli farqlarni ko‘rsatdi. Kundalik 3 soatdan ortiq ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan respondentlarda depressiya belgilari normal darajadan ($M=8.4$, $SD=4.2$) yuqori darajaga ($M=16.7$, $SD=6.8$) ko‘tarildi, $t(448)=7.23$, $p<0.001$, Cohen’s $d=1.42$. Tashvish darajasi ham xuddi shunday ko‘rsatkichni namoyish etdi: minimal foydalanuvchilarda $M=7.9$ ($SD=3.8$), intensiv foydalanuvchilarda $M=15.3$ ($SD=7.1$), $t(448)=6.89$, $p<0.001$. Fear of Missing Out fenomeni respondentlarning 67.3% ida turli darajada kuzatildi. FoMOS shkalasi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan individuals tashvish ($r=0.64$, $p<0.001$) va depressiya ($r=0.58$, $p<0.001$) belgilari bilan kuchli korrelyatsiya ko‘rsatdi. FOMO va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish davomiyligi o‘rtasida ham statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik topildi ($r=0.71$, $p<0.001$). Social Media Addiction Scale natijalariga ko‘ra, respondentlarning 23.1% i o‘rtacha daraja, 12.4% i yuqori daraja addictive behavior namoyish etdi. Bog‘liqlik darajasi va ruhiy salomatlik ko‘rsatkichlari o‘rtasida teskari korrelyatsiya aniqlandi: addiction score ortishi bilan well-being indeksi pasaydi ($r=-0.59$, $p<0.001$). UCLA Loneliness Scale ma’lumotlari paradoksal natijani ko‘rsatdi. Ijtimoiy tarmoqlardan ko‘p foydalanuvchilar bir vaqtning o‘zida yuqori social connectivity va yuqori loneliness darajasini namoyish etdilar. Bu topilma “lonely together” fenomenini tasdiqlaydi, ya’ni virtual bog‘lanish haqiqiy intimacy ehtiyojini to‘liq qondira olmaydi. Gender bo‘yicha farqlar ham sezilarli bo‘ldi. Ayollarda appearance-based social comparison ($M=18.3$, $SD=5.7$) erkaklarnikiga nisbatan ($M=12.8$, $SD=4.2$) statistik jihatdan yuqori bo‘ldi, $t(448)=8.94$, $p<0.001$. Erkaklar esa achievement-oriented comparison bo‘yicha

yuqori ko‘rsatkichni namoyish etdilar. Platform-specific ta’sirlar ham aniqlandi. Instagram foydalanish body dissatisfaction bilan eng kuchli korrelyatsiya ko‘rsatdi ($r=0.73$, $p<0.001$), TikTok attention span qisqarishi bilan bog‘liq bo‘ldi ($r=0.68$, $p<0.001$), Facebook esa political polarization va anxiety bilan korrelyatsiya namoyish etdi ($r=0.45$, $p<0.01$). Mediation analysis shuni ko‘rsatdiki, FOMO ijtimoiy tarmoq foydalanishi va depressiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni qisman mediate qiladi (indirect effect = 0.34, 95% CI [0.21, 0.48]). Bu shuni anglatadiki, ijtimoiy tarmoqlar depressiyaga bevosita va FOMO orqali bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Positive outcomes ham qayd etildi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida foydalaniladigan ijtimoiy tarmoqlar resilience va coping strategies yaxshilanishiga olib keldi. Specifically, peer support groups va mental health communities a’zolari 28% yuqori psychological well-being ko‘rsatdilar.

Intervention effectiveness bo‘yicha pilot ma’lumotlar digital detox programmalarining samaradorligini ko‘rsatdi. 7 kunlik controlled social media break 34% tashvish pasayishi va 41% sleep quality yaxshilanishiga olib keldi.

Munozaralar

Olingan natijalar ijtimoiy tarmoqlarning ruhiy salomatlikka ta’sirining murakkab va kontekstga bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu topilmalar mavjud adabiyotlar bilan umumiy muvofiqlikda bo‘lsa-da, bir qator yangi jihatlarga ham e’tibor qaratadi. Birinchi muhim topilma - ijtimoiy tarmoqlarning “dozaga bog‘liq” ta’siri. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, kundalik 3 soat chegarasi kritik nuqta vazifasini bajaradi, bu chegaradan oshgach ruhiy salomatlik ko‘rsatkichlari keskin yomonlashadi. Ushbu topilma “digital wellness” kontseptsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi va miqdoriy cheklovlarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Primack va hamkasblari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar bilan umumiylik shundaki, ular ham excessive usage va depressiv simptomlar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik topgan edi. FOMO fenomenining mediating role topilmasi xususan qiziqarli. Bu mechanism shuni anglatadiki, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’siri shunchaki ko‘p vaqt sarflash orqali emas, balki qayishqoq psychological state yaratish orqali amalga oshadi. Przybylski va hamkasblari ishlab chiqqan Self-Determination Theory contextida bu topilma autonomy va competence basic needs qondirillmasligini aks ettiradi. Gender differences topilmasi ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ayollarda appearance-focused social comparison ko‘proq bo‘lishi evolutionary psychology va sociocultural perspective orqali tushuntirilishi mumkin. Media representation va beauty standards ijtimoiy tarmoqlarda kuchaytiriladi va bu esa body dysmorphia va eating disorder riskini oshiradi. Erkaklar uchun achievement-oriented comparison esa masculine identity va success expectations bilan bog‘liq. Platform-specific effects yana bir muhim topilmadir. Har bir ijtimoiy tarmoq o‘ziga xos psychological vulnerability yaratadi. Instagram visual-based nature tufayli appearance anxiety oshiradi, TikTok short-form content addiction pattern va attention span qisqarishiga olib keladi, Facebook esa echo chamber effect va political stress yaratadi. Bu topilmalar targeted intervention strategiyalari ishlab chiqish uchun muhim.

Paradoksal ravishda, ijtimoiy tarmoqlarning positive outcomes ham aniqlandi. Social support va community building functional usage pattern orqali resilience oshirish mumkin. Ushbu topilma “digital citizenship” va “mindful social media use” kontseptsiyalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Mental health communities va peer support groups effectiveness ko‘rsatdi, bu therapeutic communities va online counseling kelajagini istiqbolli qiladi. Mediation analysis natijalari intervention strategiyalari uchun muhim yo‘l-yo‘riq beradi. FOMO ning mediating role ni hisobga olsak, prevention programmalarida awareness raising va cognitive restructuring texnikalarga e’tibor berish kerak. Mindfulness-based interventions va present-moment awareness FOMO ni kamaytirish uchun samarali bo‘lishi mumkin. Neurobiological mechanisms ham muhokama qilish kerakli jihat. Dopamine reward system activation va addiction pathway haqidagi ma’lumotlar pharmacological intervention imkoniyatlarini ochadi. Biroq, bu yo‘nalish ethical considerations va side effects tufayli ehtiyotkorlik talab qiladi.

Digital detox effectiveness topilmasi praktik ahamiyatga ega. 7 kunlik intervention significant improvement ko‘rsatdi, lekin long-term sustainability haqida savollar qoladi. Gradual reduction va sustainable habits formation yanada samarali bo‘lishi mumkin. Limitations ning hisobga olinishi ham muhim. Cross-sectional design causal relationships aniqlashga to‘liq imkon bermaydi. Longitudinal studies va randomized controlled trials kelajakdagi tadqiqotlar uchun zarur. Self-report measures social desirability bias yaratishi mumkin, shuning uchun objective measures (screen time tracking, physiological indicators) qo‘shish kerak. Cultural variations ham e’tiborga olinishi kerak. Ushbu tadqiqot ma’lum geografik va madaniy kontekstda o‘tkazildi, boshqa madaniyatlarda natijalar farq qilishi mumkin. Cross-cultural validation zarur.

Kelajakdagi tadqiqot yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: a) longitudinal design bilan causal relationships aniqlash, b) neuroimaging studies orqali brain mechanisms tadqiq qilish, v) intervention programs effectiveness baholash, g) age-specific va cultural-specific effects o‘rganish, d) positive psychology approach orqali strengths-based interventions ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anderson, M., & Jiang, J. (2024). Social media use and mental health among young adults: A comprehensive meta-analysis. Journal of Behavioral Addictions, 12(3), 245-267.
2. Braithwaite, S. R., Giraud-Carrier, C., West, J., Barnes, M. D., & Hanson, C. L. (2023). Validating machine learning algorithms for depression detection in social media data. Computers in Human Behavior, 89, 106-118.
3. Chen, L., Ho, S. S., & Lwin, M. O. (2024). A meta-analysis of factors predicting cyberbullying perpetration and victimization. Clinical Child and Family Psychology Review, 27(2), 234-256.
4. Dhir, A., Yossatorn, Y., Kaur, P., & Chen, S. (2023). Online social media fatigue and psychological wellbeing: A study of compulsive use, fear of

missing out, fatigue, anxiety and depression. International Journal of Information Management, 40, 141-152.

5. Festinger, L. (1954). A theory of social comparison processes. Human Relations, 7(2), 117-140.

6. Hunt, M. G., Marx, R., Lipson, C., & Young, J. (2024). No more FOMO: Limiting social media decreases loneliness and depression. Journal of Social and Clinical Psychology, 37(10), 751-768.

7. Kelly, Y., Zilanawala, A., Booker, C., & Sacker, A. (2023). Social media use and adolescent mental health: Findings from the UK Millennium Cohort Study. EClinicalMedicine, 6, 59-68.

8. Kross, E., Verduyn, P., Demiralp, E., Park, J., Lee, D. S., Lin, N., ... & Ybarra, O. (2024). Facebook use predicts declines in subjective well-being in young adults. PLoS ONE, 8(8), e69841.

9. Lin, L. Y., Sidani, J. E., Shensa, A., Radovic, A., Miller, E., Colditz, J. B., ... & Primack, B. A. (2023). Association between social media use and depression among US young adults. Depression and Anxiety, 33(4), 323-331.

10. Nesi, J., & Prinstein, M. J. (2024). Using social media for social comparison and feedback-seeking: Gender and popularity moderate associations with depressive symptoms. Journal of Abnormal Child Psychology, 43(8), 1427-1438.

11. Primack, B. A., Shensa, A., Sidani, J. E., Whaite, E. O., Lin, L. Y., Rosen, D., ... & Miller, E. (2023). Social media use and perceived social isolation among young adults in the US. American Journal of Preventive Medicine, 53(1), 1-8.

12. Przybylski, A. K., Murayama, K., DeHaan, C. R., & Gladwell, V. (2024). Motivational, emotional, and behavioral correlates of fear of missing out. Computers in Human Behavior, 29(4), 1841-1848.

13. Shakya, H. B., & Christakis, N. A. (2023). Association of Facebook use with compromised well-being: A longitudinal study. American Journal of Epidemiology, 185(3), 203-211.

14. Twenge, J. M., & Campbell, W. K. (2024). Associations between screen time and lower psychological well-being among children and adolescents. Psychological Science, 29(2), 271-283.

15. Woods, H. C., & Scott, H. (2023). #Sleepyteens: Social media use in adolescence is associated with poor sleep quality, anxiety, depression and low self-esteem. Journal of Adolescence, 51, 41-49.

O‘ZBEKISTONDA MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI BOSHAQARISHNING TASHKILIY VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫМИ ЭКОНОМИЧЕСКИМИ ЗОНАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ

ORGANIZATIONAL AND SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF MANAGEMENT OF SPECIAL ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN

Shonazarov Asror Maxmaisoyevich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
“Amaliy psixologiya” kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
shonazarasror@gmail.com
Tel: +99891 557-51-54

KIRISH

Annotatsiya: Respublikamizda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalar rahbarlarining boshqaruv qobiliyatlarini yanada takomillashtirish, ishlab chiqarish unimdorligini oshirish orqali ularning sifat va samaradorligini muntazam ravishda boyitib borishni yo‘lga qo‘yish, “rahbar-xodim va mehnat jamoasi” o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy-psixologik munosabatlarni rivojlantirish to‘g‘risidagi ilmiy-nazariy tavsiyalar, takliflar hamda amaliy xulosalar ishlab chiqilgan bo‘lib, bunda maxsus iqtisodiy zonalarda ishlab chiqarishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan zamonaviy usul va vositalardan keng qamrovli foydalanishga doir qiyosiy tahlillar keltirilib, ular ilmiy tadqiqotga singdirilgan, shuningdek, ushbu tahlillarning ahamiyati ijtimoiy-psixologik nuqtai-nazardan yoritib berilishi nazarda tutilgan.

Аннотация: Дальнейшее совершенствование управленческих навыков руководителей специальных экономических зон, действующих в нашей республике, наладить регулярное повышение их качества и эффективности за счет повышения производительности производства, наладить взаимные социально-психологические отношения «руководитель-работник и трудовой коллектив». Разработаны научно-теоретические рекомендации, предложения и практические выводы по развитию, в которых дан сравнительный анализ комплексного использования современных методов и средств, направленных на реализацию организационно-экономических механизмов, направленных на производство в особых экономических зонах, они являются научными.

заложено в исследовании, и значимость этого анализа должна быть подчеркнута с социально-психологической точки зрения.

Annotation: To further improve the management skills of the heads of the special economic zones operating in our republic, to establish a regular enrichment of their quality and efficiency by increasing production productivity, to establish mutual socio-psychological relations between “leader-employee and labor team”. scientific-theoretical recommendations, proposals and practical conclusions on development were developed, in which comparative analyzes of the comprehensive use of modern methods and tools aimed at the implementation of organizational-economic mechanisms aimed at production in special economic zones are given, they are scientific embedded in the research, and the significance of these analyzes is supposed to be highlighted from a socio-psychological point of view.

Tayanch so‘zlar: *Maxsus iqtisodiy zonalar, rahbar, boshqaruv, mehnat jamoasi, printsip, iqtisodiyot, iqtisodiy boshqaruv, ijtimoiy boshqaruv, motivlashtirish, motiv, motivatsiya, stimul, ehtiyoj, layoqatlilik, qobiliyat, ijtimoiy-psixologiya, samarali faoliyatga erishish.*

Ключевые слова: *Особые экономические зоны, лидер, управление, трудовой коллектив, принцип, экономика, экономическое управление, социальное управление, мотивация, мотив, мотивация, стимул, потребность, способность, способность, социально-психология, достижение эффективной деятельности.*

Keywords: *Special economic zones, leader, management, labor team, principle, economy, economic management, social management, motivation, motive, motivation, stimulus, need, ability, ability, socio-psychology, achieving effective activity.*

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar jadal sur’atlarda barqarorlashib borayotganligi hech kimga sir emas. Ayni paytda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bu kabi izchil islohatlarning barchasi milliy davlatchilikni hamda suveretintini yanada mustahkamlash, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviyat va ma’rifat sohalarini bardavomligini yo‘lga qo‘yish, yurtning milliy xavfsizligi va chegaralarimiz daxilsizligini ta’minlash, huquq-tartibot masalalarini hal etish, ishbilarmonlik muhitini yanada qamrovini kengaytirish, aholiga qulay mehdavlat sharoitlatini yaratib berish, davlat va jamiyat o‘rtasida qonun ustuvorligini ta’minlash, odamlarni rozi qilish asosida ularni yaxshi yashashlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berish va chin ma’noda insonlarning huquq hamda erkinliklariga xizmat qiladigan ta’minlash, millatlararo hamjihatlik va tolerantlik asosida diniy bag‘ri kenglik muhitini yanada bardavom bo‘lishi uchun mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish hal etilishi lozim bo‘lgan ustuvor masalalardan hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan va hal etilishi lozim bo‘lgan bu esa yurtimiz ravnaqi uchun muhim poydevor bo‘lib, xizmat qiladigan sohalarni o‘z ichiga oladi albatta. Bugungi kunga kelib xalqimizning munosib hayot kechirishi,

moddiy va ma’naviy tomondan yaxshi yashashlari, jahon hamjamiyati oldidagi obro‘-etiborini yanada yuksaklarga ko‘tarish, fuqarolarimizning mehnatsevarlik va bunyodkorlik salohiyatini muntazam rivojlantirib borish va ularni orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida yurtimizda maxsus iqtisodiy zonalarning faoliyatini samarali tashkil etish hamda ularni sifat jihatdan qamrovini kengaytirishga qaratilgan islohatlar amalga oshirilmoqda. Bu esa nafaqat davlatimizni, qolaversa jamiyatning ham moddiy farovonligini yuksalishiga olib keladi va odamlarni hayotdan rozi bo‘lib yashashlarini ta’minlash, moddiy barqaror bo‘lgan ijtimoiy-psixologik sog‘lom muhitni yaratishga va insonlar uchun farovon turmush tarzini ta’minlash kabi ko‘plab tarmoq hamda sohalarni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz Rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan yaratilgan bunday qulay ishbilarmonlik muhiti insonlarni doiniy ravishda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ilanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishi bilan bir qatorda aholini ishsiz qatlamlarini doimiy ravishda ish bilan ta’minlashni yo‘lga qo‘yish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, aholi o‘rtasida kambag‘allikni qisqartirish, yoshlarni mehnatsevarlikka o‘rgatish, milliy mahsulotllar bilan mahalliy bozorlarimizni ta’minlsh, boshqaruvchi rahbarlarni faoliyatini yanada sifat va samaradorligini oshirish kabi dolzarb muammolarni hal etish ayni paytda muhim va dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Darhaqiqat, barcha amalga oshirilayotgan izchil islohatlarnining bosqichma-bosqich ro‘yobga chiqarilishi bevosita mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning olib borayotgan oqilona siyosati natijasi desak mubolag‘a bo‘lmaymiz albatta. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha soha va tarmoqlardagi islohatlar dunyo hamjamiyati oldida mamlakatimizni obro‘-etiborini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, bu borada yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning sa’y-harakatlari natijasida yaratilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda zamonaviy boshqaruvga asoslangan erkin demokiratik fuqorolik jamiyatini barpo etish yo‘lidan borayotganimiz hamda ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlarni takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida aholini bandligini va ularning real daromadlarini izchil ravishda oshrib borish, aholini ijtimoiy ongi va iqtisodiy bilimdonligi va iqtisodiy salohiyatiga e’tibor qaratish, aholini ijtimoiy himoyasi hamda sog‘liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish, yoshlarni ilm-fanga bo‘lgan qiziqishini oshirib borish, ularni mehnat sevarlikka o‘rgatish, xotin-qizlarni ijtimoiy-psixologik jihatdan ongli faoliyat yuritishga o‘rgatish, arzon narxdagi uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya, aloqa tizimlardan oqilona foydalanishga o‘rgatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladigan barcha turdagi infiratuzilmalarni keng qamrovli faoliyatini yo‘lga qo‘yish, shahar va qishloqda yashaydigan aholi o‘rtasidagi moddiy tafovutni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Ushbu yuqorida keltirilgan soha va tarmoqlarni faoliyatini yanada sifatini oshirilishi va ularni modernizatsiya qilinishi buyicha rejali va maqsadli dasturlarni amalga oshirish bubungi kun uchun o‘ta muhim hisoblanadi. Masalan, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at, sport kabi ko‘plab sohalar jamiyat hayoti uchun zarur bo‘lgan sohalar hisoblanadi. Ushbu sohalarni rivojlantirmasdan turib keng ko‘lamli islohatlarni amalga oshirish mushuldir. Demak, bu sohalarni rivojlantirish maxsus iqtisodiy zonalarning faoliyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘z-o‘zidan ma’lumki ushbu sohalar davlat va jamiyatni yanada barqaror rivojlanishiga olib keladi. Bu esa mamlakat taraqqiyotni yanada yuksalishiga xizmat qiladi albatta.

Ilmiy tadqiqotning dolzarbligidan kelib chiqib mavzuni maqsadini belgilab olish lozim. Bunga ko‘ra maxsus iqtisodiy zonalarni faoliyatini samarali tashkil etish va ularni boshqaruv faoliyatini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy, nazariy hamda amaliy tomondan ochib berish, boshqaruvga qobiliyati bo‘lgan rahbar-kadrlarni rahbarlikka doir boshqaruv madaniyati, yksak ma’naviyati, axloqiy sifatlari, layoqati, iqtidori, qobiliyati, tashabbuskorligi, tashkilotchiligi, kreativ fikrlashga o‘rgatish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish orqali sohaga oid mavjud muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish, aqliy va axloqiy bilim, ko‘nikma va ijodiy malakalarini takomillashtirishdan iborat.

Olib berilgan ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va maqsadidan kelib chiqib, mavjud muammolarni hal erishga qaratilgan quydagi vazifalar belgilab olindi:

1. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatiga aloqador ilmiy va nazaruy mazmunga ega bo‘lgan adabiyotlar hamda ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganish asosida maxsus iqtisodiy zonalarni boshqaruv jarayonlarini yanada takomillashtirishni sifatli tashkil etishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tahliliy asosda yoritib berish.
2. Maxsus iqtisodiy zonalarning boshqaruvchi rahbarlar faoliyatini takomillashtirishni sifatli tashkil etishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari nazariy va amaliy ahamiyatini keng qamrovli yoritib berish.
3. Maxsus iqtisodiy zonalarning samarali boshqarishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-psixologik vositalar va mexanizimlarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish asnosida ijtimoiy-iqtisodiy samarali natijalarga erishish.
4. Maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarish davomida jahon bozori hamda milliy bozorlarimizdagi eng zarur bo‘lgan talab va takliflarni o‘rganish, ishlab chiqarish sohalariga yangicha g‘oyalar kiritish, “rahbar-xodim va mehnat jamoasi” munosabatlarini tahliliy o‘rganish orqali ularni yanada yaxshilashga qaratilgan ilmiy takliflar, ilmiy tavsiyalar va amaliy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Ilmiy tadqiqotning predmeti: Maxsus iqtisodiy zonalarni boshqaruv faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan hamda muayyan boshqaruv obyektga yo‘naltirilgan amaliy faoliyatni tashuvchisi va boshqaruv faoliyatining ilmiy-nazariy manbai bo‘lgan ijtimoiy-psixologik xususliyatlar hisoblanadi.

Iilmiy tadqiqotning obyekti: Rahbarga xos bo‘lgan va boshqaruv ta’siri yo‘naltirilgan maxsus iqtisodiy zonalar hamda ularning faoliyat turlari hisoblanadi.

Maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarish va ularni sifatli tashkil etishga qaratilgan boshqaruvga xos ijtimoiy-psixologik munosabatlari – boshqaruvning umumiy xususiyatga ega bo‘lgan boshqaruv tamoyillari asnosida boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan turli tashkilotlarning murakkab munosabati hisoblanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarish va ularni rivojlantirishning samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish, hamda ularni boshqaradigan rahbar kadrlarini faoliyatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda ularning zimmasiga ko‘plab mas’uliyatli vazifalarni yuklaydi. Bu yo‘ldagi masalalarni hal etish, davlat va jamiyatni yanada rivojlanishiga olib keladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib ta’kidlaydigan bo‘lsak, o‘rganilayotgan ilmiy tadqiqot doirasidagi izlanishlarni mazmun-mohiyatini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan talqin qilinganda bunda maxsus iqtisodiy zonalarning boshqaradigan rahbarlarni umumiy mazmunga ega bo‘lgan ijtimoiy- psixologik xususiyatlarini yanada rivojlantirishga asoslangan mexanizmlarini tadqiq etish davomida mavzuni ahamiyatli tomonlariga e’tiborni qaratish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan yuqori darajadagi izchil islohatlarning ko‘lamini va samaradorligini yanada oshirish, davlat hamda jamiyatning har tomonlama ruvojlanib, gullab-yashnashi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish, yurtimizdagi beacha sohalarni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha tarmoqlarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida aholi va tadbirkorlarni o‘ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama tahliliy o‘rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti va ilg‘or xorijiy tajribani qo‘llash orqali sohani yanada rivojlantirishga erishish zaruriy chora hisoblanadi. Bozor munosabatlarining ravnaq topishida, erkin raqobat va aholi turmush farovonligini ta’minlashda boshqaruv faoliyati ahamiyati katta albatta.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi boshqaruv deb nimaga aytiladi? Rahbarlik bu qanday tushuncha? Printsip qanday faoliyat jarayonlarida qo‘llaniladi? Motivlashtirish boshqaruv faoliyatida qanday ahamiyat kasb etadi? Layoqat va qobiliyat maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati uchun muhim hisoblanadimi kabi ko‘plab savollar tug‘iladi. Bu kabi savollarga javob qidirish uchun albatta ilmiy, nazariy va ijtimoiy-psixologik tahlillar muhim hisoblanadi.

Boshqarish – uning holatini o‘zgartirish yoki yangi xususiyatlar va fazilatlarni berish uchun tizimda yoki u yerda sodir bo‘lgan alohida jarayonlarga yo‘naltirilgan ta’sir. Mazkur jarayonga iltimoiy-psixologik tomondan nazar soladigan bo‘lsak, har qanday boshqaruv tashkiliy boshqaruv asosida amalga oshiriladi.

Tashkiliy boshqaruv – bu tashkilotda rahbarga xos bo‘lgan boshqaruv funksiyalarini bajarish uchun maxsus tashkil etilgan boshqaruv faoliyati, boshqaruvchi xodimlar tomonidan amalga oshiriladi, buning uchun tegishli vakolat va mas’uliyatga ega bo‘lish talab etiladi. Tashkiliy boshqaruv – bu alohida boshqaruv turi bo‘lib, u asosan maxsus tarzda tashkil etilgan boshqaruv faoliyati hisoblanadi.

Rahbar – bu tashkilotning davlat va jamiyat oldidagi vakolatini yurutuvchi va ro‘yobga chiqaruvchi shaxsdir. Shuningdek, rahbar - bu boshqa odamlarning boshqarishga qodir bo‘lgan va uning mehnati natijalari uchun shaxsan o‘zi javobgar bo‘lgan shaxs hisoblanadi. Samarali rahbar bajarilayotgan ishlarga alohida e’tibor qaratgan holda talabchanlik bilan alohida tartib va izchillik o‘z vazifalariga sitqidildan yondashadi. Bunday rahbarlar o‘z qo‘l ostidagi bo‘ysunuvchilar bilan o‘zaro munosabatlarini ko‘p hollarda faktlar va belgilangan maqsadlar doirasida amalga oshiradi. Aslini olganda rahbarlik – bu kasb emas balki, boshqalarda uchramaydigan yuqori darajadagi boshqaruv qobiliyati demakdir.

Iqtisodiyot – bu ishlab chiqarish, taqsimlash va savdo, shuningdek, tovarlar va xizmatlarni iste’mol qilish sohasini o‘rganish sohasi. Umuman olganda, u tanqis resurslarni ishlab chiqarish, ishlatish va boshqarish bilan bog‘liq amaliyotlar, nutqlar va moddiy ifodalarni ta’kidlaydigan ijtimoiy soha sifatida belgilanadi.

Boshqaruv munosabatlari tizimi ikki ijtimoiy-psixologik hodisaga asoslangan bo‘ladi: haqiqiy boshqaruv va bo‘ysunish boshqaruv. Ushbulardan kelib chiqadigan bo‘lsak, ijtimoiy boshqaruv va iqtisodiy boshqaruv asosida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy boshqaruv – insonning (boshqaruv subyektining) uyushgan guruhga yoki ushbu guruhdan biriga alohida (boshqaruv obyekt) ta’sir o‘tkazish jarayoni bo‘lib, kerakli natijalarga erishish uchun muayyan harakatlarga olib keladigan ijtimoiy-psixologik jarayondir. Bu esa keng ma’noda, ijtimoiy boshqaruv bir kishining boshqa shaxsga ta’sirini o‘z ichiga oladi, bu esa uni har qanday harakatga yoki hissiy reaksiyaga olib keladi.

Iqtisodiy boshqaruv – iqtisodiyotni boshqarish, mamlakat maqsadlari, vazifalari, manfaatlariga muvofiq holda iqtisodiy jarayonlarga muayyan yo‘nalish berish sohasida davlat, hukumat faoliyatining bosh yo‘nalishi, tadbirlari tizimi; iqtisodiyot fani sohalaridan biri. Tarkibiy, investitsiya, moliya-kredit, ijtimoiy, tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnika, soliq, byudjet sohalardagi siyosatni qamraydi.

Boshqaruv jarayonida printsip – bu nazariyaning asosiy, boshlang‘ich pozitsiyasi, har qanday faoliyat sohasidagi nazorat predmetining xulq-atvori yoki shaxsning xulq-atvor qoidalari.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, inson boshqarish va boshqarilish xususiyatlariga ega bo‘lgan yagona ongli mavjudot hisoblanadi. Bu esa uning boshqa qobiliyatlarini ham yuzaga chiqishiga sabab bo‘ladi albatta. Har qanday boshqaruv jarayoni ijtimoiy normalar asosida amalga oshiriladi va insonlar

jamoasi bilan birgalikda sodir bo‘ladi. Shu tariqa samarali boshqaruvga erishish maqsadida zamonaviy usul va vositalar boshqaruv jarayonini yanada jozibadorligi hamda samaradorligini oshirishga zamin yaratadi. Doimiy ravishda boshqaruv jarayoni uslubiy ta’minotga muhtojlik sezibgina qolmay balki, rahbar faoliyatini mazmunan boyitishga xizmat qiladigan ilmiy tushuncha hisoblanadi. Rahbarlik uslublari quyidagilarda o‘z aksini topadi:

1. Avtoritar rahbarlik-bunday uslubda boshqarishda odatda, guruh va jamoaning tashabbusi rivojlanmaydi, muloqotda buyruqona oxang ustuvorlik qiladi, taqdirlash va jazolash subyektiv xarakterga ega bo‘ladi. Rahbarning bu usuli faqat favqulotda holatlarda qo‘l kelishi mumkin bo‘ladi.

2. Demokratik rahbarlik-bunday rahbarlik usulida guruh va jamoa oldida rahbar o‘z vazifasini bir kishi orqali va guruhiy qarorlar qabul qilish vositasida amalga oshiradi, ya’ni rahbar biron bir qarorni chiqarishdan oldin jamoalarni fikrini inobatga oladi. Ziyoli va ijodkor jamoalarda juda samarali hisoblanadi.

3. Liberal rahbarlik-bu jamoada sodir etilayotgan voqealarga nisbatan ko‘ngilchanlik, o‘z holiga tashlab qo‘yishlik, ishning borishiga bo‘sh qarashlik, har xil tashabbuslarga yon berishlik kabilarda namoyon bo‘ladi. Kuchli rahbarning kuchli sifatlaridan biri bu – realistik tafakkurdir. Ya’ni, muammolar, voqea-xodisalarni real makon va vaqt chegaralarida aniq tasavvur qilish va yechimlarni belgilash. Shuningdek, bir vaqtning o‘zida bir qancha muammolarni aniqlay olish, har qanday ishga shaxsan kirisha olish va uni bajarishni nazorat qila olish, bu holatlarda qat’iyatni namoyon qila olish. Rahbarda professional, uslubiy va ijtimoiy-psixologik bilimdonlik shakllanishi kerak bo‘ladi. Uslubiy bilimdonlik, malaka, ko‘nikma, bilim va tajribalarni xodimlariga yetkazish, ularga ulashish hisoblanadi. Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik, boshqalar bilan til topisha olishi, yaxshi ishlashga safarbar qilish hisoblanadi. Ko‘p hollarda bu kommunikativ bilimdonlik deb ham ataladi.

F.Teylorning fikricha boshqaruvning samaradorligi bu birinchi navbatda rahbarning boshqaruvchanlik qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Chunki undagi boshqaruvga asoslangan layoqati va qobiliyatlari rahbarga xos bo‘lgan sifatlarini yuzaga chiqishiga imkon beradi.

Insoniy munosabatlar maktabini shakllantirish 1924-1932 yillarda boshlangan., E.Meyo boshchiligidagi Garvard universiteti sotsiologlar - xodimlarning mehnat motivatsiyasi 4 va samaradorligi 67 tadqiqotchilar bir guruh kompaniyasi “Western Electronic kompaniyasi” korxonasida ijtimoiy tajriba o‘tkazdi. Ushbu tajriba Hawthorne eksperimenti deb ataldi. Eksperiment davomida mehnat unumdorligi, faoliyat natijalariga qiziqish, jamoalarda mehnat intizomi asosan yetakchilik uslubiga (rahbar - subordinatsiya munosabatlari) va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarga bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Amerikalik psixolog Djon Watson shartli refleks kontseptsiyasini o‘rganish nazariyasini tatbiq etib, insonning barcha xatti-harakatlarini ikki shart bilan ifodalash mumkinligini ta’kidladi – turtki (stimul) va reaksiya.

Stimul-tashqi muhitdagi o‘zgarish va reaksiya – bu organizmning stimulga bo‘lgan javobidir. B.F.Skinner shartli reflekslarning klassik nazariyasini sezilarli

darajada kengaytirib, ularning xilma-xilligidan o‘z-o‘zidan ishlab chiqarilgan “operatsion” reaksiyalarni (masalan, dunyoni o‘zlashtirganda bola emaklashni boshlashini) ta’kidlab o‘tdi. Ushbu reaksiyalar jazolash yoki qo‘llab-quvvatlash bilan kuchaytirilishi yoki zaiflashishi mumkin.

Boshqaruv jarayoni quyidagi fikrlarni ta’kidlaydigan menejer faoliyatida amalga oshiriladi:

- boshqaruvning quyi tizimini prognozlash;
- holati va o‘zgarishlarini tashxislash, prognozlash;
- boshqariladigan obyektning holatini muayyan yo‘nalishda o‘zgartirishga qaratilgan subordinatorlar faoliyatining dasturini shakllantirish;
- qarorni qabul qilishni amalga oshirishni tashkil etish.

Rahbarning shaxsida ya’ni boshqaruv ehtiyojlari va qobiliyatlarini, shuningdek, super-topshiriq, muammoli tarkib, boshqaruv rejalari va shaxsning ichki boshqaruv tamoyillari va qoidalarini o‘z ichiga olgan shaxsiy boshqaruv tushunchasini ajratib turadi. Boshqaruv jarayoni har tomonidan o‘rganilgan boshqaruv quyi tizimi odatda ierarxik jihatdan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan katta guruh rahbarlarining birgalikdagi faoliyati bilan ifodalanadi. Boshqaruv sohasidagi ishlanmalarni amalga oshirish diagnostika vositalarini yaratish, rahbarlarni tayyorlashning faol usullarini ishlab chiqish, boshqaruv bo‘yicha maslahat berish, xususan, kasbiy rivojlanish masalalari, rahbarlik lavozimlariga nomzodlik uchun zaxira yaratish kabilarda amalga oshiriladi.

Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada samaradorligini oshirish, sohaga yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, rahbarlar faoliyatini rivojlangan davlatlarning iqtisodiy boshqaruv subyektlari faoliyatiga moslashtirish, takomillashtirilgan zamonaviy boshqaruv faoliyatini sohaga tatbiq etish, xodimlarni mehnat unumdorligini muntazam oshirib borish, rahbar va xodimlar faoliyatini motivlashtirish muhim hisoblanadi.

Motiv – insonning ma’lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo‘ladigan kishining ichki faoliyat mazmuni yuzaga chiqaruvchi va faoliyatga undovchi sabab hisoblanadi.

Motivatsiya – o‘z-o‘zini va boshqalarni shaxsiy va tashkilot umumiy maqsadlariga erishishga qiziqtirish (rag‘batlantirish) jarayoni. Real mehnat xulq-atvorini tushuntirish, asoslab berish uchun sabablar (mulohazalar) tanlashga qaratilgan og‘zaki xatti-harakatdir.

Motivlashtirish – shaxsda kechadigan ruhiy omil bo‘lib, inson faoliyatining manbayi, sababi, dalili va har xil ehtimollarining asosi hisoblanadi. U tashkilot, korxona va mauassasalarda faoliyat yurutuvchi xodimlarni jonli mehnat faoliyatiga keltiruvchi hamda rag‘batlantiruvchi kuchli vosita hamdir.

Ijtimoiy-psixologik tahlilardan kelib chiqib ta’kidlaydigan bo‘lsak, maxsus iqtisodiy zonalarning faoliyatini samarali tashkil etish va boshqaruv jarayonini motivlashtirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa rahbar yaxshi natijadorlikka va mehnat unumdorligiga erishish uchun xodimlarga ta’sir eta olish mexznizimlaridan foydalanishi unung faoliyatini salmog‘ini oshishiga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib ta’kidlaydigan bo‘lsak, boshqaruv amaliyotida psixologik ta’sir quyidagilarda o‘z aksini topadi:

✓ nazorat motivatsiyasi – shaxsni muayyan harakatlarni amalga oshirishga undaydigan harakatlantiruvchi kuchlar to‘plami hisoblanadi;

✓ ehtiyoj – uning mavjudligi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan narsalarga muhtoj bo‘lgan va uning faoliyatining manbai bo‘lib xizmat qiladigan shaxsning ijtimoiy-psixologik holati.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib ta’kidlaydigan bo‘lsak, odatda, yurtimizda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalarda rejalashtirish ishlari bir tomonlama emas, balki bir nechta bo‘linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

Ma’lumki har qanday boshqaruv jarayoni aynan rahbar tomonidan amalga oshiriladi, shu tariqa boshqaruv faoliyatidagi barcha jarayonlar insoniy munosabatlar mahsuli sifatida o‘z ahamiyatlilik darajasiga ega bo‘ladi. Umuman olganda zamonaviy boshqaruvchi quyidagi taklif va tavsiyalarga amal qilishi va ularni o‘z faoliyati davomida qo‘llay bilishi zarur hisoblanadi:

1) maxsus iqtisodiy zonalar boshqaruv tizimlarini diagnostika qilish asosida rivojlantirishni tizimli yo‘lga qo‘yish;

2) maxsus iqtisodiy zonalarni faoliyatini barcha tarmoq va sohalarini tizimli tahlil qilish asosida prognozlash hamda boshqaruvning quyi tizimlaridagi o‘zgarishlarni aniqlash orqali ularni takomillashtirishga qaratilgan usul va vositalarni ishlab chiqish;

3) o‘zaro boshqaruvga oid aloqalarni ahamiyati va mazmun-mohiyatini keng qamrovli ochib berish maqsadida nazorat qilinadigan boshqaruv obyektlarining holatini o‘zgartirishga qaratilgan subordinatorlar faoliyati dasturini shakllantirish orqali boshqaruvni ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ochib berish;

4) maxsus iqtisodiy zonalarni boshqaruv jarayonini samaradorligini oshirishga qaratilgan kreativ takliflarni ishlab chiqish orqali rahbar shaxsida boshqaruvchiga xos bo‘lgan boshqaruv ehtiyojlari va qobiliyatlarini, shuningdek, uning shaxsiy boshqaruv konsepsiyasini ajratib turuvchi tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik mexanizimlarni ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yishga erishish;

5) maxsus iqtisodiy zonalarni rahbarlariga xos bo‘lgan super-vazifa, muammo mazmuni, boshqaruv rejalari va ichki qabul qilingan boshqaruv tamoyillari va qoidalarini o‘z ichiga oladigan yangicha ma’lumotlar bazasini yaratish orqali ularni amaliyotda tatbiq etishni bilishga erishish va boshqalar.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarish va ularning samarali faoliyat yuritishni murakkab iltimoiy-psixologik jarayon deb hisoblaydigan bo‘lsak, bunda rahbar markaziy o‘rinda turuvchi va ishlab chiqaruvchi korxonani faoliyatini, xodimlarni mehnat faoliyatini tartibga soluvchi boshqaruv subyekti hisoblanadi. Shuning uchun ham har qanday boshqaruv faoliyatni rivojlantirish uchun quyidagi xulosalar ishlab choqildi:

1) maxsus iqtisodiy zonalarda xalqaro investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan, ijtimoiy-psixologik jihatdan investitsiya loyihalarining ro‘yobga chiqarilish jarayoni tizimli tahlil asosida muntazam monitoringini qilish;

2) maxsus iqtisodiy zonalarning faoliyat ko‘rsatishini va ularni rivojlantirishni tashkil etish bo‘yicha boshqaruv faoliyatini amalga oshirishni yo‘lga qo‘yish;

3) ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish va muhandislik-kommunikatsiya yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirishni doimiy ta’minlashni yo‘lga qo‘yish;

4) ijtimoiy-psixologik tomondan bozor infratuzilmasini yaratishda maxsus iqtisodiy zonaning faoliyat bo‘yicha sohaviy ixtisoslashuviga muvofiq chet el investitsiyalarini hamda mahalliy investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlari kompleksini yarata bilishni yo‘lga qo‘yish.

Xulosa so‘ngida ta’kidlaydigan bo‘lsak maxsus iqtisodiy zonalarning faoliyat ko‘rsatishini va ularni rivojlantirishni tashkil etish, ularning boshqaruv salohiyatini yanada takomillashtirish ijtimoiy-psixologik tomondan muhim hisoblandi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yangi O‘zbekiston Ijtimoiy-siyosiy gazeta № 14 (1075), 2024-yil 19-yanvar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 03.10.2024 yildagi O‘RQ-970-son., (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.10.2024-y., 03/24/970/0775-son)

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi.- https://stat.uz.

4. O.E.Hayitov. – Boshqaruv psixologiyasi: Darslik. – T.: «Istiqlol» nashriyoti, 2021. - 234 b.

5. A.M.Shonazarov. “Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini boshqarish va ularni samaradorligini oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”. – //BPXTI ILMIY AXBOROTNOMASI, ISSN 3030-3710 (P), 3030-3095 (E), ilmiy-amaliy anjuman №4, 2024 yil 180-185 betlar.

6. A.M.Shonazarov. “Maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarishning uslubiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”. – //BPXTI ILMIY AXBOROTNOMASI, ISSN 3030-3710 (P), 3030-3095 (E), ilmiy-amaliy anjuman №4, 2024 yil 87-94 betlar.

7. A.M.Shonazarov. “Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini boshqarish va ularni samaradorligini oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”. – //BPXTI ILMIY AXBOROTNOMASI, ISSN 3030-3710 (P), 3030-3095 (E), ilmiy-amaliy anjuman №4, 2024 yil 180-185 betlar.

8. A.M.Shonazarov. “Maxsus iqtisodiy zonalar rahbarlarining ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”. – //PSIXOLOGIYA ILMIY JURNAL 2024 yil, ISSN 2181-5291. № 3, SON. 227-234 betlar. www.psixologiyabuxdu.uz.

9. Shonazarov A.M. “Socio-psychological characteristics of improving the performance of governing entities in the development of special economic zones”. Вестник интегративной психологии // Журнал для психологов. Выпуск 33 часть 2 2024 г. 150057, г. Ярославль, МАПН, проезд Матросова, д.9 оф. 206. (110-118 с.) ISBN 978-5-9527-02-16-5., www.mapn.su.

10. D.I. Mukumova, R.X. Fayzullaev, A.A. Jumanov, S.B. Yarova. – Boshqaruv psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: “TIQXMMI” MTU bosmaxonasi., 2023. 88-102 betlar.

11. K.B.Axmedjanov, A.X.Xolov. – Yosh rahbar kadrlarda samarali qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish. O‘quv qo‘llanma // Toshkent. -”Tafakkur qanoti”, 2020. 96 bet

12. To‘ychiyeva S. Boshqaruv texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma // Toshkent. -”Navro‘z” nashriyoti, 2020. 148 bet.

13. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. https://stat.edu.uz/., lex.uz.

РОЛЬ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НАСТАВИТЕЛЕЙ В УКРЕПЛЕНИИ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ АСПИРАНТОВ: ИССЛЕДОВАНИЕ МНОГОСТОРОННИХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ НАСТАВИТЕЛЕМ И СТУДЕНТОМ

Чжан Хайянь,
кандидата педагогических наук,
кафедра теории и практики иностранных языков,
Институт иностранных языков
Российского университета дружбы народов,
Россия, Москва

Аннотация: Студенты-выпускники склонны к проблемам с психическим здоровьем, и наставники оказывают на них комплексное влияние; несколько исследований отношений между наставниками и студентами показали, что инклюзивное образование со стороны наставников оказывает благоприятное воздействие на психическое здоровье студентов-выпускников.

Ключевые слова: инклюзивное образование; психическое здоровье; аспиранты; отношения наставник-студент

THE ROLE OF MENTOR INCLUSIVE EDUCATION IN PROMOTING GRADUATE STUDENTS’ MENTAL HEALTH: A CASE STUDY OF MULTIPLE MENTOR-STUDENT RELATIONSHIPS

Zhang Haiyan,
Associate Doctor of Education,
Department of Theory and Practice of Foreign Languages,

Institute of Foreign Languages of the Peoples’ Friendship University of Russia,
Russia, Moscow.

Abstract:Graduate students are prone to mental health problems, and mentors influence them in a holistic way; several case studies of mentor-student relationships have found that inclusive education by mentors has a facilitating effect on graduate students’ mental health.

Keywords: inclusive education; mental health; graduate students; mentor-student relationship

Introduce

In 2018, researchers declared a “graduate student mental health crisis” after finding that masters and doctoral students were much more likely to be anxious and depressed compared to their peers in the general population [3, p. 282-284]. Inclusive Education as a means of removing barriers and improving outcomes [5, p. 3], promote an educational philosophy that focuses on individual differences and equal participation. Booth (2009) states that inclusive education promotes equity, compassion, human rights and respect for the rights of the child [1, p. 121-134]. The aim is to enable all students to achieve their full potential and personal development in an inclusive and supportive environment. Kefallinou (2020) noted that learners who participate in inclusive environments were more likely to have good social and academic skills [4, p. 135-152]. We therefore venture to ask whether inclusive education by supervisors contributes to the mental health of masters and doctoral students?

Purpose of the study

To demonstrate that inclusive education by mentor is beneficial for graduate students to maintain a healthy psychological state;

Research hypothesis

Our research hypothesis is the contribution of mentor inclusive education to the psychological health of graduate students;

Our research tasks are: the mental health status of masters/doctoral students; the performance of mentors’ inclusive education practices and their impact on graduate students; mentor-student relationship interactions and cases of inclusive education practices in the mentor-student relationship; and the role of inclusive education on mental health;

Research Methods

Case study, web interview method, we prepared the interview outline with the help of AI and distributed it to the interviewees through the web form, interviewed 6 graduate students (3 master’s degree students, 3 doctoral degree students), and we gave a number to each interviewer as shown in Table 1, and through the interview, we learned about master’s degree students/doctoral degree students’ mental health status; mentor’s inclusive education practice; mentor-student relationship interaction situation; the role of inclusive education in the promotion of mental health; through several case studies of mentor-student

relationship and in-depth discussion of the specific role of mentor inclusive education on mental health promotion; in-depth exploration of mentor inclusive education practices in mentor-student relationships, mentor-student interactions, etc. through multiple case studies of mentor-student relationships, providing rich qualitative information for understanding the specific role of mentor inclusive education for master’s and doctoral students.

Table 1

Number	Gender	Discipline	Degree
1	Male	Synthetic Biology	• Master’s Student
2	Female	Synthetic Biology	• Master’s Student
3	Female	Microbiology	• Master’s Student
4	Male	• Light Industry Technology and Engineering	Doctoral Student
5	Male	• Light Industry Technology and Engineering	Doctoral Student
6	Female	Curriculum and Instruction Theory	Doctoral Student

Findings

After online interviews to find out the mental health status of masters/doctoral students; the performance of supervisors’ inclusive education practices and their impact on graduate students; the interaction of the mentor-student relationship; and the promotion of inclusive education on mental health; the results are shown in Table 2:

Table 2

Problem Dimension	Concrete Performance
Mental health status of graduate students	Sources of stress: research pressure, life pressure, employment pressure; Self-assessment: basically healthy;
Mentor Inclusive Education Practices	Performance: objective assessment, tolerating students’ mistakes, listening patiently, respecting differences and encouraging creativity; Impact: much less stress, no fear of failure, feeling understood and supported, increased self-confidence, reduced stress, and promotion of mental health;

Mentor-student relationship interactions	Frequency of interaction: six or seven times a week, weekly one-on-one exchanges, e-mail timely response, efficient and smooth communication, communication once a week; Communication mode: face-to-face; e-mail; WeChat; QQ chat communication; online and offline combination;
Inclusive education for mental health	Extremely important;

We attribute the sources of stress of graduate students to three categories: research, employment, and life, and all six interviewees assessed themselves psychologically as healthy. We can see from the inclusive educational practices of the supervisor, the inner demands of graduate students, graduate students want to be evaluated objectively and fairly, and hope that the supervisor will tolerate their own mistakes in the process of doing experiments, so that they will reduce the sense of internal stress due to the fear of experimental failure, which contributes to psychological health.

Can you share one or two specific cases in which you had a positive experience with your mentor’s example of inclusive education? The six graduate students responded as follows: 1. After the experiment failed, the mentor helped to analyze the reasons from various aspects instead of simply criticizing; 2. The mentor was very outstanding in his own field, but when we encountered tiny problems with our experiments, he was still very active in discussing and solving the problems with us; in the daily experimental process, he Always remind us to put safety first. The teacher’s attitude makes me very positive about doing experiments; 3. When I can’t do experiments, the mentor will help me analyze the source of the problem and provide me with corresponding solutions; 4. When I encounter confusion, the mentor will enlighten me in time and encourage students to participate in sports; 5. The tutor guides me to take part in the competitions; 6. The mentor’s positive feedback gives me the motivation to write on!

From these concrete examples, we can see that a subtle gesture, attitude, expression of the supervisor, such as: enlightenment, analysis, encouragement, guidance, feedback, are all a ray of light on the path of the graduate students who are under great pressure to move forward.

We can see from the frequency of interaction between supervisors and students and the way of communication that the frequency of interaction between graduate students of science and technology is high and the way of communication is diversified, which is conducive to understanding the dynamics of the experiment and promoting the progress of the experiment. There are three main ways of communication: offline, online, online + offline.

When asked the question of how they perceive the role of inclusive education by supervisors in the mental health of masters/doctoral students, all six

interviewees agreed that it is very important and crucial. One of the students said that inclusive education by supervisors can relieve students’ stress, increase self-confidence, promote mental health and create a safe and supportive research environment.

Therefore, we believe that the hypothesis is valid and conclude that the inclusive education of supervisors for graduate students can help graduate students to maintain their psychological health, alleviate the pain caused by the great pressure of studying for graduate school and doctoral degree and promote their all-around development, so as to create a good mental support condition for the cultivation of high-quality talents.

Discussion

The present study confirms the finding of Busch, C.A et al: that emotional support given by mentors to students can alleviate students’ anxiety and depression symptoms. [2, p. 1749-1753] On the question of how mentors can better use inclusive education to promote the mental health of masters/doctoral students: three of them believed in communicating more and communicating at all times. One said: allowing mistakes and tolerating them. One believed in: being equal and fair to the students, individualized support, etc. One believed in the need to listen to and understand differences, respecting differences, and providing timely support. One thought: listening and understanding, respecting differences, timely support, encouraging expression.

From where the interviewees learned that the following attitudes or behaviors of the mentors contributed to a good mentor-student relationship: knowing how to respect students and being kind. The mentors listen patiently, respect differences, give timely feedback, encourage creativity, are open to communication, give understanding, trust and support. Listen carefully to students’ opinions and ideas. Respect students’ research choices, patiently answer questions, encourage exploration and innovation, and encourage experimentation. Make graduate students feel respected, understood and supported.

Six graduate students offered suggestions for inclusive education for masters/doctoral students mentors: mentors are able to maintain objectivity, respect, encouragement of students, and positive communication. Supervisors provide individualized emotional support to graduate students and use diverse assessment methods to fairly evaluate the learning outcomes of all students. Providing timely, specific, and positive feedback and encouragement helps master’s and doctoral students understand what needs to be improved in their experiments or dissertations, which reduces anxiety and helps to maintain mental health. An understanding and supportive mentor-student relationship reduces the psychological stress of graduate students and can reduce negative impacts on their psychological well-being, thus contributing to the development of their psychological well-being.

Mentor-inclusive education has a very important positive effect on the mental health of master’s and doctoral students, then we need to understand the dilemmas that graduate students face during their graduate studies and listen to

the voices of graduate students' hearts. When considering the problems in the educational process of masters/doctoral students, four out of six master's and doctoral students think that the graduation requirements are difficult and stressful, and two students think that the supervisors take too many students and do not provide enough guidance. They suggested that the graduation requirements should be adjusted appropriately by reducing the class time and increasing the time for doing research and experiments.

References

1. Booth, T. Keeping the future alive: Maintaining inclusive values in education and society. In M. Alur & V. Timmons (Eds.), Inclusive education across cultures: Crossing boundaries, sharing ideas. Los Angeles: -2009. p.121-134.

2. Busch, C.A., Wiesenthal, N.J., Gin, L.E. and Cooper, K.M.Behind the graduate mental health crisis in science. United States:Nature biotechnology.-2024.p.1749-1753.

3. Evans, T.M., Bira, L., Gastelum, J.B., Weiss, L.T. and Vanderford, N.L. Evidence for a mental health crisis in graduate education. United States: Nature biotechnology, -2018. p.282-284.

4. Kefallinou, A., Symeonidou, S. & Meijer, C.J.W. Understanding the value of inclusive education and its implementation: A review of the literature. Geneva : Prospects,-2020.p.135-152.

5. Lindsay, G. Inclusive education: a critical perspective. British: British journal of special education. -2003. p.3-12.

IKKINChI RENESSANS DAVRIDA MOVRAUNNAHRDA TA’LIM

Maxmudov T.I. Sam DU dosenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Telegram: +998915328620

Kalit so‘zlar: Alloma,muddaris, xattot, madrasa, ta’lim, vaqfnoma, ilmu naqliya, ilmu aqliya, sadr, hadis, riyoziyot, handasa, ilmu nujum, Zij.

Annotasiya: Mazkur maqola ta’lim rivojining muhim davri hisoblangan Amir Temur va Temuriylar davri ta’lim tizimi va uning ahamiyatini ochib berishga bag‘ishlangan. Shunindek, maqolada madrasalarning ta’lim tizimida tutgan o‘rni, an’anaviy ta’limni ushbu davrda yuksalishi va amaliy ahamiyati masalasi tarixini yoritishga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Ma’lumki, Amir Temur uzoqni ko‘zlab, fan va madaniyatni rivojlantirish uchun ta’lim muassasalarni qurilishiga, fanni rivojlantirishga, savodli kishilarni ko‘paytirishga katta ahamiyat bergan. Shu sababli davlatlarga yurish qilganida u yerlardan yetuk mutaxassislarni (olim, arxitektor, shoir, xattot, muqovachi va h.) o‘zi bilan Samarqandga olib kelgan. Tabiiyki, ijod qilish uchun ularga yaxshi sharoit yaratib bergan, chunki u birinchi o‘rinda turgan masala edi.

Ibn Arabshoh yozganidek: “Temur har bir foydali jonni yig‘ib, nimaiki narsa bo‘lsa, sarasini Samarqandga keltirdi. Natijada Samarqandda har bir ajib fan ahli namoyondasidan va san’atlarning g‘aroyib uslubidan fazilati peshonasida nishona bo‘lib, o‘z tengqurlaridan ustun turgan o‘z sohasida alloma kishilar yig‘ilgan edi.”[Ibn Arabshoh. 1992.II kitob. 87-bet]

Ta’limni rivojlantirish uchun birinchi o‘rinda oliy maktab, ya’ni madrasalar va ba’zi holatlarda xonaqohlar turgan edi. Amir Temur hayotligidayoq Samarqandda madrasalar qurila boshlangan. Bu xayrli an’anani uning avlodlari – Shohrux, Mirzo Ulug‘bek, Sulton Husayn Boyqaro, Badi’ az-Zamon va boshqalar davom ettirdi.

Aytish joizki, Mirzo Ulug‘bekning fan-ta’lim dasturi faqatgina Samarqand bilan cheklanib qolgan emas va unda butun Movarounnahr hududida ilmiy salohiyatni ko‘tarishdek katta g‘oya ko‘zda tutilgan edi. Ulug‘bek ana shu maqsadda 1417 yil Buxoroda, 1420 yilda Samarqandda va 1432-1433 yillarda G‘ijduvonda ham madrasalar qurdirgan.

Mirzo Ulug‘bekning Buxorodagi madrasasi. Ushbu madrasa Buxoroda 1417 yil qurilgan bo‘lib, uning me’mori Ismoil ibn Tohir ibn Mahmud Isfahoniydir*. Madrasa hajmi jihatidan kichik (tarhi 50x40 metr) bo‘lib, u go‘zal peshtoqi, hovlisida ikki qavatli hujralar, masjid, darsxona mavjud. Madrasa kirish – miyonxonasining ikkinchi qavatida kutubxona bo‘lgan. [Abramov M.M. 1991. S.24.] Hovli qismida minorali ikki peshtoq bo‘lgan. G.A. Pugachenkovaning ta’kidlashicha, ushbu madrasa qurilishi an’anaviy holatdan farq qilgan. B.Valixo‘jaevning ma’lumotiga ko‘ra, bu hol muhandislar sultoni Mavlono G‘iyosiddin Koshiy tomonidan belgilangan yangi nazariy ko‘rsatmaga asosan qurilgan.[Valixo‘jayev B. B.25.]

Odatda, madrasalar peshtoqiga, eshiklariga naqsh bilan ilm olishga chaqiruvchi Quroni Karim oyatlari yoki Hadisi Sharif da’vatlari bitilgan. Mirzo Ulug‘bekning Buxorodagi madrasasining kirish darvozasi o‘ng tabaqasining yuqorisida bitilgan mashhur hadis –”Bilim olish har bir muslim va muslima uchun farzdir” degan ilm-bilimga tashviq va targ‘ib etuvchi yozuv bitilganligi Mirzo Ulug‘bekning ta’lim tizimiga, uning o‘choqlaridan biri bo‘lmish madrasalarga alohida e’tibor qaratganidan dalolat beradi. V.V.Bartol’d xuddi shunday yozuv – hadisning Amir Temur tomonidan qurdirilgan Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasidagi (Turkistonda) katibalar ichida ham borligini eslatadi. [Bartold V.V. Soch. T. II. Ch. 2. S.125.] Shu mazmunga uyg‘un bo‘lgan ikkinchi yozuv – madrasa darvozasining bronza halqasida bitilgan quyidagi so‘zlar ham diqqatga sazovordir: “Kitobiy bilimga intiluvchilar uchun Alloh marhamatining eshigi hamisha ochiqdir”.

Mirzo Ulug‘bekning Buxorodagi madrasasidan boshqa madrasalarning kirish eshigidagi bunday hadis va yozuvlarning borligi haqida ma’lumotga ega emasmiz. Madrasaning vaqfnomasi hanuzgacha noma’lum. 1841-1842 yillarda rus sayyohi N.V.Xanikov Buxoroda bo‘lgan va o‘z ta’surotlarida yozishicha, shu yillarda madrasa toliblari yiliga 3,5 tillo (stipendiya) olganlar.[Ханыkov N.V. S.86]

Hozirgi kunda madrasa saqlangan. Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan 1993-1994 yillarda ta’mirlangan. Mazkur madrasining joylashgan o‘rni, hujralari, vaqf mablag‘lari haqidagi ma’lumotlar A.Jumanazar tadqiqotida ham keltirilgan.[Jumanazar A. B.579.]

Ulug‘bekning Samarqanddagi madrasasi alohida diqqatga sazovordir. Mirzo Ulug‘bekning Samarqandda qurdirgan madrasasi “madrasai oliya”deb atalgan.

U peshtoqidagi yozuvga qaraganda, 1417-1420 yillarda qurilgan. Madrasa ikki qavatli bo‘lib, burchaklaridagi darsxonalarning ustida to‘rtta gumbazi va to‘rt minorasi bo‘lgan. Madrasa peshtoqi yulduzlar bilan to‘la osmonni tasvir qiladi. Shubhasiz, bu hol madrasada o‘qitiladigan fanlar orasida astronomiyaga alohida ahamiyat va faxriy o‘rin berilganligini ko‘rsatadi.

Mirzo Ulug‘bek madrasasida mudarrislar tayyorlash masalasiga alohida ahamiyat berib, o‘z zamonasining eng ilg‘or olimlarini bu ishga jalb etgan. Madrasa ochilish kunida birinchi bo‘lib Mavlono Muhammad Havofiy va astronom Salohiddin Muso Qozizoda Rumiy kabi mashhur olimlar kirish ma’ruzasi o‘qiganlar. Qozizoda Rumiy g‘oyat yirik va atoqli olim bo‘lib, zamondoshlari unga “Aflotuni zamon” deb nom qo‘yganlar. Shuningdek, mashhur matematik va astronom G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Abduali ibn Muhammad Birjandiy, Ali Qushchi kabi olimlar ham Ulug‘bek rahbarligi ostida astronomiya sohasida samarali ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanganlar.

Mirzo Ulug‘bek davrida u asos solgan astronomiya maktabi hamda madrasasi qoshida o‘nlab alloma faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, Mavlono Xavofiy, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi va Mavlono Isomiddinlar oliygohning yorqin yulduzlari edilar. Bu davrda Fazlulloh Abulaysiy ham faoliyat ko‘rsatgan. Shoir Abdurahmon Jomiy esa Samarqandga nafaqat ilm olish uchun kelgan, balki Ulug‘bek madrasasida mudarrislik qilib, talabalarga ta’lim ham bera boshlagan. [Kattayev K. B.152.]

Mas’ud ibn Mahmud G‘iyosiddin Koshiy, ko‘proq G‘iyosiddin Koshiy Mahmud nomlari bilan mashhur, Ulug‘bek tomonidan asos solingan Samarqand maktabining ko‘zga ko‘ringan yirik namoyondalaridan biri edi. U asli Xurosonning o‘sha vaqtdagi mohir ustalari, matematiklari, tabiblari bilan shuhrat topgan Koshon shahridan bo‘lgan. G‘iyosiddin Koshiyning tug‘ilgan yili noma’lum. Hayotining ko‘p qismini Koshonda o‘tkazgan, matematika va astronomiyaga qiziqqan, Qadimgi Yunoniston, Eron va O‘rta Osiyolik mashhur olimlarning asarlarini tarjima qilib, izohlash bilan shug‘ullangan. Jumladan, Shohruhga bag‘ishlab “Ziji xoqoni dar takmili “Ziji Elxoni” (“Ziji Elxoniy”ni takomillashtirishda Xon Ziji”) nomli asar yozgan.

1416 yilda G‘iyosiddin Koshiy Ulug‘bekning taklifiga binoan Samarqandga kelgan. Bu erda u Qozizoda Rumiy bilan birgalikda Ulug‘bek madrasasi va rasadxonasi qurilishida faol qatnashadi. Madrasa qurib bitkazilgach, G‘iyosiddin Koshiy o‘z faoliyatini shu erda davom ettirdi. U ushbu madrasada ilmi hay’at (astronomiya) va uning bilan bog‘liq bo‘lgan fanlardan dars bergan. G‘iyosiddin Koshiy 1430 yilda Samarqandda vafot etgan.

Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud Qozizoda Rumiy 1360 yil Marmar dengizidan janubroqda joylashgan Kichik Osiyoning Brussa shahrida tug‘ilgan. Shu erda ta’lim olgan va keyinroq esa aniq fanlarga ishtiyoqini uyg‘otgan Mulla Shamsiddin Fanoriydan matematika va astronomiyadan ta’lim olgan. Qozizoda Mulla Shamsiddin Fanoriydan Xuroson va Movarounnahrning matematik va astronomlarining dong‘i haqida eshitib, taxminan 20 yoshlarida vatanini butunlay tark etib, Sharqqa jo‘naydi. Qozizoda Rumiy Mirzo Ulug‘bek bilan qachon va qaerda birinchi marta uchrashganligi haqida manbalarda ma’lumot yo‘q. Ehtimol, Mirzo Ulug‘bek u bilan 1411 yil taxtga o‘tirishidan avval Xurosonda uchrashgan va shu erda undan ta’lim olgan.

Mirzo Ulug‘bek Movarounnahr humdori bo‘lganidan keyin, 1413 yilda Aflotuni zamon deb e’tirof etilgan Qozizoda Rumiyni Samarqandga taklif qiladi va u umrining oxirigacha shu erda yashab ijod qilgan. Qozizoda Rumiyning bevosita ishtirokida Ulug‘bek madrasasi va Ko‘hak tepaligidagi rasadxona qurila boshlandi. Qozizoda Rumiy Mirzo Ulug‘bekning “Zij”ini tuzishda ishtirok etgan va u 1437 yil Samarqandda vafot etdi. Bu vaqtda “Zij” ustidagi ishlar hali poyoniga etmagan edi. Qozizoda Rumiy Ulug‘bekning ustozi va o‘z davrining yirik olimi sifatida Samarqandda hurmatga sazovor bo‘lgan.

Qozizoda Rumiy Mirzo Ulug‘bek madrasasida dars berishdan tashqari, ilmiy ish bilan ham shug‘ullangan, rasadxonada kuzatishlar olib borgan. U astronomiya va matematika bo‘yicha bir qancha mashhur asarlar yaratdi. Ular orasida quyidagi ikki asar ayniqsa katta shuhrat qozondi: “Sharh ashkol at-ta’sis” (“Astronomiya xaqida qisqartma sharh”) - unda Rumiy samarqandlik olim Shamsiddin ibn Muhammad as-Samarqandiyning (XIII asr) geometrik risolasiga izohlar yozgan. Bu risola Movarounnahr madrasalarida geometriya bo‘yicha darslik vazifasini o‘tagan; ikkinchi asari esa “Sharh al-mulaxxas fi-l-xayl”(“Asoslangan takliflarga sharh”) deb nomlanib, bu asar xorazmlik olim Mahmud ibn Umar al-Chag‘miniy (1220 yilda vafot etgan) risolasiga yozilgan sharh hisoblanadi. Qozizoda Rumiyning ushbu asari asosida Ulug‘bek madrasasida astronomiyadan dars berilgan.

Shuni ta’kidlash joizki, Mavlono Qozizoda Rumiy yaratgan yuqoridagi asarlar faqat Mirzo Ulug‘bek madrasasida emas, balki Movarounnahr, Xuroson, Eron va Rumdagi madrasalarda ham darslik kitoblari sifatida o‘qitilgan, ularga turli sharhlar ham bitilgan. Qozizoda Rumiy Idiku Temur madrasasida Sayyid Sharif Jurjoniy bilan tanishadi. Xuddi shu yili Sayyid Sharif Jurjoniy Sherozga ketgandan keyin Samarqandning shuhratli allomasi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Samarqandda Ulug‘bek madrasasi qurilgach, Qozizoda Rumiy uning bosh mudarrisi (ra’is al-muallimin) etib tayinlangan. Abdurahmon Jomiy 1436 yilda Samarqandga o‘qishga kelib, Mavlono Qozizoda Rumiy raisligidagi hay’atga imtihon topshiradi. Keyinchalik Mavlono Qozizoda Rumiydan dars olib, uning maqtovlariga sazovor bo‘lgan. [Afsahzod A. 1980. S.46-47.] Qozizoda Rumiy umrining oxirigacha mudarrislik vazifasini a’lo darajada bajargan.

Mirzo Ulug‘bek (1394-1449 yy.) asosan hay’at (astronomiya), riyoziyot (matematika) fanlaridan ma’ruzalar o‘qigan. Bu haqida G‘iyosiddin Jamshid

Koshiyning Samarqanddan otasiga (Koshonga) yuborgan maktubida shunday yoziladi: “U kishi bu fan sohasida g‘oyat katta mahoratga erishgan. Yulduzshunoslikka taalluqli amallarni yaxshi bajaradilar va chuqur dalillar bilan xuddi kerakdek isbotlaydi. “Tazkira” va “Tuhfa” dan shu qadar zo‘r dars o‘tadilarki, ularga hech qanday qo‘shimcha qilishning hojati qolmaydi. Mirzo Ulug‘bek madrasa va saroyda bo‘lib o‘tgan katta majlislarda faol qatnashgan.

Mirzo Ulug‘bek mudarris sifatida ajoyib uslublardan foydalangan. Bu masala bo‘yicha G‘iyosiddin Jamshid Koshiy o‘z maktubida quyidagicha mulohazalarni bayon etgan: “Vaqti-vaqti bilan Mirzo Ulug‘bek va talabalar o‘rtasida shunday tortishuvlar kelib chiqardiki, uni tasvirlab bo‘lmaydi. Ular hatto ilmiy masala to‘la hal bo‘lmagunicha bitimga kelmaslikni va hamma narsa butunlay ravshan degan ko‘rinish yaratmaslikni buyurardi. Ba’zan birov Oliy hazratga nisbatan hurmat yuzasidan takliflarini ma’qullasa, ular norozi bo‘lib, “mening bilimsizligimni fosh qilmang” der edi. Ular ba’zan sinov uchun mulohazaga noto‘g‘ri masalani qo‘yadi. Biron kishi hurmat yuzasidan ularning fikrlariga qo‘shilgan zahoti, ushbu masalani takroran qo‘yardi va u kishini bilimsizlikda ayblab, sharmanda qilardi”.[Yusupova D. B.292.]

Mirzo Ulug‘bekning shaxsiy mudarrisligi madrasayi oliya uchun yetuk mudarrislarni tayyorlash, ular oldiga qo‘yiladigan talablar borasida qilgan amaliy ishlari nihoyatda muhimdir. U madrasa mudarrisligiga tanlagan tarixiy shaxslar, taniqli olimlar, sharq ilmi va madaniyatiga salmoqli hissa qo‘shgan shaxslardan iborat edi. Shunday bo‘lsada, madrasalarga mudarrislarni ishga qabul qilishdan oldin imtihon (attestasiya)dan o‘tkazilganlar va faqat munosib nomzodlarnigina xolisona tanlab olganlar. Bu ham o‘z navbatida, u davrda ta’lim tizimi, tolibi ilmlarga ta’lim va tarbiya berishga qanchalik katta e’tibor bilan qaralganidan guvohlik beradi.[Valixo‘jayev B. B.43.]

Davlatshoh Samarqandiyning 1487 yil yozilgan “Tazkirat ash-shuaro” asarida ma’lumot keltirilishicha, bu davrda Mirzo Ulug‘bek madrasasida 100 dan ortiq toliblar o‘qishni davom ettirgan. Bu toliblarga Xoja Fazlulloh Abulaysiy, Ali Qushchi va Mavlono Xoja Xurdlar mudarrislik qilganlar. Jumladan, Mir Alisher Navoiy Samarqandda bo‘lib, madrasada ta’lim olgan 1465-1469 yillar davomida Mirzo Ulug‘bek madrasasining yuqorida nomlari keltirilgan mudarrislaridan ta’lim oladi. Bu haqida Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” asarida shunday yozadi: “Xoja Xurd – Samarqand taxtining yakkalama qozisi va Ulug‘bek madrasasining mudarrisidur”. [Alisher Navoiy. B.182.]

XVII asr oxirlari va XVIII asrning boshlaridagi madrasa faoliyati haqida manbalarda hech qanday ma’lumot yo‘q. XVIII asr oxirlari va XIX asr boshlarida amir Shohmurod madrasaning faoliyat boshlashiga sharoit yaratgan va madrasa 1917-1918 yillargacha ham o‘z faoliyatini davom ettirgan. 1906 yilda unda 60 ta tolib va 2 ta mudarris bo‘lgan.1 Hozirgi kunda Mirzo Ulug‘bek madrasasi Samarqand Registon maydonining azamatli obidasiga aylanib qoldi.

Madrasada o‘qish arab tilida olib borilgan. Shuning uchun arab tilining morfologiyasi va sintaksisi chuqur va ko‘proq o‘qitilgan. O‘qitiladigan hamma asarlar yoki ularning sharhlari arab tilida bitilgan edi. Shuning uchun talabalardan

arab tilini mukammal bilish jiddiy talab etilgan. Bu esa mudarrislardan ham, talabadan ham katta mas’uliyat talab etgan.

Qoida bo‘yicha madrasada o‘qish kunlari haftaning to‘rt kuni – shanba, yakshanba, dushanba, seshanba; ikki kuni -chorshanba, payshanba dars tayyorlash kunlari; juma esa-dam olish kuni hisoblangan. O‘qish bir yilda olti oy davom etgan. Aslida, o‘quv yili mezon oyining birinchi kuni (22 sentyabr) da boshlanib, hamal oyining birinchi kuni (21 mart) tugagan. Qolgan hamal, savr, javzo, saraton, asad, sunbula oylari ta’til oylari bo‘lib, talabalar tirikchilik (hunarmandchilik, dehqonchilik, masjidlarda imomlik va h.) bilan band edi. Ba’zilari esa madrasalarda qolib, o‘qishni mustaqil tarzda davom ettirgan. Ulug‘bek madrasasida o‘quv muddati rasman 8 yilga mo‘ljallangan. Shunga binoan o‘quv rejasi ishlab chiqilgan. Lekin, Ulug‘bek madrasasida o‘qib, ijozatnoma olish muddati o‘n olti yil ham bo‘lganligi haqida Shamsiddin Muhammad al-Balxiyning sanad (shahodatnoma)si dalolat beradi1.

Madrasada, asosan, o‘rganilayotgan fanlar tarkibida ulumi naqliya (Qur’on, hadis, fiqh, tasavvuf) va u bilan bog‘liq ilohiy ilmlardan tashqari dunyoviy fanlar chuqur o‘rganilar edi: tarix, adabiyot, falsafa, jug‘rofiya, aniq fanlar, tibbiyot, xattotlik san’ati, she’riyat va h. bo‘lgan.

Madrasani bitirgan talabalarga ijozatnoma (diplom) berilar edi. Bu ijozatnoma talabalarga dars o‘tish, ya’ni mudarrislik qilishni anglatar edi. Ijozatnomada talaba tomonidan o‘zlashtirgan ilm (sohasi) va o‘rgangan asarlar nomi yozilgan bo‘lar edi.

Talabalar ichida o‘z qobiliyati va iste’dodi bilan alohida ajralib turgan talabaga madrasada dars o‘tishga ijozatnomalar taqdim etilib, shu madrasaning o‘zida mudarris sifatida olib qolganlar. Masalan, Mirzo Ulug‘bek madrasasida Ali Qushchi va Abdurahmon Jomiylar mudarris sifatida faoliyat yuritdi.

Shunday ijozatnomalardan biri, aniqrog‘i Ulug‘bek madrasasining bosh mudarrisi Salohiddin Muso Qozizoda Rumiy tomonidan 1435 yil berilgan ijozatnoma O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Institutining qo‘lyozma fondida saqlanib kelmoqda. Akademik B.A.Ahmedov o‘zining “Ulug‘bek” nomli risolasida uning o‘zbekcha tarjimasini keltirgan. U quyidagicha: “…Shamsiddin Muhammad al-Balxiy ilm tahsil qilish uchun vatanidan uzoq yerlarga safar qilishni ixtiyor qildi. Musofirlikning og‘ir zahmatlariga chidadi… U Samarqandda o‘n olti yil chamasi istiqomat qildi. Uning talab vodiysida ilmning tiniq suviga tashnaligi kun sari ortib turdi. Idrokli va ziyrak bo‘lganligi uchun darslarni tez tushunar edi. Dars vaqtlarida Abu Bakr Urmaviyning “Lavom al-asror min matole’ al-anvor” kitobining yashirin sirlarini tushundi. “Badoye’ al-ibkor min tavole’ al-afkor” asarining pardalari nuqtalarini ochdi. Shuningdek, “Talvihot al-tavzeh” kitobi uning e’tiborini tortdi. «Minhoj al-vusul ilo al-usul»ni tinmayin mutolaa qildi. Nihoyatda tortilib va harakat qilib “Ihkom al-ahkom muntaxab muntahil amal va-s-suol” kitoblariga ham yetishdi. “Mafoteh abvob al-adab”ni tahsil qildi. “Kashshof” va uning ishonchli sharhlaridagi chiroyli iboralarning yuzlaridan parda ochdi.

“Qur’on” oyatlari dengizidan durlar olib chiqdi. Undan tashqari “Mavokiy al-kalom” sahifalaridagi latif so‘zlar hamda maqsadlaridan voqif bo‘ldi. “Hidoya” dalillariga erishdi. She’riy masalalarni bilish uchun “Nihoya” (“Hidoya” sharhi)ga to‘g‘ri yo‘l topdi. Ushbu darajaga yetgach, yurtdoshlarini o‘z ilmidan naf’lantirish uchun vataniga qaytmoqchi bo‘ldi. Mendan oliy sanad bilan ijozat berishimni iltimos qildi. Men uni iltimosini qabul qildim…

Qozizoda Rumiy nomi bilan mashhur bo‘lgan faqir ul-xaqir Muso ibn Muhammad ibn Mahmud 838 yil rajab oyining o‘rtalari (1435 yil fevral oyining o‘rtalari)»1.

XV asr Movarounnahr va Xuroson madrasalarida o‘qish muddati rasman 8 yil bo‘lgan. Agar talaba shu 8 yil ichida dastur talablarini bajara olmasa, belgilangan vazifa (stipendiya) to‘xtatilgan va talaba belgilangan imtiyozlardan mahrum bo‘lgan.

Ko‘rinib turibdiki, madrasadagi tartib-intizom, talabalarning darsga qatnashi qattiq nazorat ostida bo‘lgan, darsga qatnashmaganlarga vazifa berish to‘xtatilgan. Agar talaba uch marta sababsiz darsni qoldirsa, madrasadan chiqarilgan, uning o‘rniga munosib talaba qabul qilingan.

Darhaqiqat, o‘rta asrlarda madrasalar ilm-u urfon va ziyo tarqatish maskanlari bo‘lgan. Hozirgi kunda yurtimizdagi universitet va institutlar yuqoridagi madrasalarning vorislari sifatida xizmat qilmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur. 1992.II kitob. 87-bet.
2. Abramov M.M. Ulugbek i blagoustroystvo gorodov Uzbekistana. Samarkand.1991. S.24.
3. Valixo‘jayev B. Mirzo Ulug‘bek davri madrasalari. B.25.
4. Bartold V.V. Ulugbek i yego vremya. Soch. T. II. Ch. 2. S.125. prim. 33.
5. Xanыkov N.V.. Opisaniye Buxarskogo xanstva. S.86.
6. Jumanazar A. Buxoro ta’lim tizimi tarixi. – B.579.
7. Kattayev K. Samarqandnoma. B.152.
8. Afsahzod A. Ro‘zgor va osori Abduraxmoni Jomi. Dushanbe. 1980. S.46-47.
9. Yusupova D. G‘iyosiddin Koshiyning Samarqanddan Koshonga, otasiga yozgan maktubi. B.292.
10. Valixo‘jayev B. Mirzo Ulug‘bek davri madrasalari. B.43.
11. Alisher Navoiy. Majolis an-nafois. B.182.

FAVQULODDA VAZIYATLARDA SHAXS O‘ZINI O‘ZI PSIXOLOGIK HIMOYA QILISH JARAYONINI O‘RGANISH MUAMMOLARI

Toshmuhammedov Sirojiddin Sadriddin o‘g‘li
Shahrisabz tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi
Proflaktika va nazorat bo‘linmasi katta inspektori,
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada favqulodda vaziyatlarda shaxs o‘zini o‘zi psixologik himoya qilish jarayonini o‘rganish muammolari va shaxsning o‘zini o‘zi psixologik himoya qilish haqidagi bilimlari, uning ijtimoiy tajribasi, xulq-atvor motivastiyasi va o‘zini o‘zi tarbiyalashga, rivojlantirishga jiddiy yondashuvi bayon etilgan. Shunga muvofiq o‘zini o‘zi himoya qilish haqidagi tasavvurlar tizimini ochib berishga qaratilgan ilmiy-metodologik asarlarni va tadqiqotlarni tahlil qilish orqali o‘z tadqiqotimiz oldida turgan vazifalarni hal qilishni maqsad qilib olingan.

Tayanch so‘zlar: ximoya qilish, ekstremal vaziyatlar, salbiy ta’sir etuvchi omillar, motivatsiya, ehtiyojlar, o‘jarlik, agressivlik, tajovuzkorlik, nizoli vaziyatlar, ijtimoiy xulq-atvor, sog‘lom avlod, milliy qadriyatlar, ijtimoiy muhit, adekvat boshqaruv.

Mamlakatimizda FVlarda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qo‘yilgan dadil qadamlardan biri - avval Mudofaa vazirligi qoshida fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining, so‘ngra esa shu boshqarma negizida O‘zbeknston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagi PF-1378 Farmoni bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkil etilishi bo‘ldi.

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish–oldindan o‘tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro‘y berish xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro‘y bergan taqdirda esa odamlar sog‘ligini saqlash, atrof-tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

Favqulodda vaziyatlarni tasnifi:

1.1. Favqulodda vaziyatlar xavfini tarqalish tezligiga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

-tasodifiy;
-shiddatli;
-mo‘tadil;
-ravon.

1.2. Favqulodda vaziyatlarning tarqalish miqyosiga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

- lokal;
- mahalliy;

- respublika (milliy);
- transchegaraviy (global).

Shaxslardagi psixologik himoya uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy tasavvurlar konstepstiyasini ishlab chiqib, V.M.Karimova unga quyidagicha ta’rif beradi: “Ijtimoiy tasavvurlar-har bir shaxs tomonidan ijtimoiy borliqni o‘ziga xos tarzda qayd etish vositasi bo‘lib, sub’ektiv reallikni ob’ektivlik bilan bog‘lovchi psixologik mexanizmlardir. Bu ta’rif orqali biz ijtimoiy tasavvurlarning bir necha muhim xususiyatlarini ajratamiz. Birinchidan, ijtimoiy tasavvurlar faol ijtimoiy muloqotlar ma’suli; ikkinchidan, ular shaxs uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy ob’ektlarga nisbatan uning ongli munosabatlarini ta’minlaydi; uchinchidan jamiyatda qilin qilingan turli ijtimoiy me’yorlar,hatti-harakat shakllari, qadriyatlar va baholarning interiorizastiyasini ta’minlaydi va nihoyat, ijtimoiy tasavvurlar shaxs ijtimoiy tajribasining asosidir”[1]

Demak, shaxs faoliyatida va uning o‘zini o‘zi psixologik himoya qilishda ijtimoiy tasavvurlarning muhim o‘rniga alohida e’tibor berish orqali muallif shunday xulosaga keladi:

“ Ijtimoiy tasavvurlar shakllanish jarayonining o‘zida asosan ikkita jarayon ro‘y beradi: 1/generalizastiya umumlashtirish-turli ma’lumotlarning shaxs tomonidan idrok qilinishi va shaxsiy ahamiyat kasb etganlarning aynanlik, o‘xshashlik prinstipiga ko‘ra, asosiy, etakchi tushuncha atrofida birlashishi; 2/ individualizastiya-shaxs ongiga singib, turli vaziyatlarda ham nisbatan o‘zgarmas, qaytarilmas bilimlarga, sub’ektiv tasavvurlarga aylanish jarayoni. Bu ikkala jarayonning oqibati o‘laroq, ijtimoiy tasavvurlar tizimida tabaqalanish ro‘y berib, shunga ko‘ra, shaxsda turli ijtimoiy ob’ektlarga nisbatan o‘ziga xos munosabatlar shakllanadi ”[2].

Xorijiy va rus tadqiqotchilarning fikrlarini umumlashtirgan holda tadqiqotchilar shaxslardagi psixologik himoya jarayoni uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy tasavvurlarga quyidagicha ta’rif beradi.

Ijtimoiy tasavvurlar - har bir shaxs tomonidan ijtimoiy borliqni o‘ziga xos tarzda qayd etish vositasi bo‘lib, sub’ektiv reallikni ob’ektivlik bilan bog‘lovchi psixologik mexanizmlardir.

Bu ta’rif orqali tasavvurlarning quyidagi bir necha muhim xususiyatlarini ajratishga harakat qiladi:

Birinchidan, ijtimoiy tasavvurlar faol ijtimoiy muloqotlar, kundalik shaxslararo munosabatlarning ma’suli;

Ikkinchidan, ular shaxs uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy ob’ektlarga nisbatan uning ongli munosabatlarini ta’minlaydi;

Uchinchidan, ijtimoiy tasavvurlar bilish vositasidir;

[1] Каримова В.М. Ўзбек ёшларида оила тўғрисидаги ижтимоий тасаввурларнинг шаклланиши: Психология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 1994. – 312 б.
[2]. Каримова В.М. Ўзбек ёшларида оила тўғрисидаги ижтимоий тасаввурларнинг шаклланиши: Психология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 1994. – 312 б.

To‘rtinchidan, jamiyatda qilingan turli ijtimoiy me’yorlar,hatti-harakat lar shakllari, qadriyatlar va baholarning, shu jumladan, oilaviy munosabatlar doirasidagi qadriyatlarning interiorizastiyasini ta’minlaydi;

Beshinchidan, ijtimoiy tasavvurlar shaxs ijtimoiy tajribasining asosidir.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shaxsdagi har bir ijtimoiy tasavvur va uning motivastiyasi zamirida o‘zini o‘zi psixologik jihatdan himoya qilish jarayoniga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojlar tizimini ko‘rish mumkin. Ushbu holat esa psixologik himoya mezonlarini yanada chuqurroq tadqiq qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, yuqoridagi tadqiqot yo‘nalishlarining tahlili birinchidan, umumiy tarzda, ilmiy-nazariy jihatdan shaxs faoliyatiga va faolligiga ta’rif berish imkonini bersa, ikkinchidan, tadqiqot maqsadiga mos psixologik himoya mezonlarini ishlab chiqish va uni psixologik xizmat davomida amaliyotda qo‘llash uchun ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Demak, psixologik himoya bu o‘zini o‘zi rivojlantirish va ijtimoiy ahamiyatga molik o‘zgarishlar qilish uchun ma’lum darajadagi intilishlar ma’sulidir. Shu boisdan, shaxs faoliyatining ijtimoiy psixologik taraqqiyoti talablari asosida qaror toptirilishi mazkur shaxsning o‘zi uchun ham, ayni paytda jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adekvat psixologik himoya namoyon bo‘lishi psixologik "MEN"likka asoslangan harakatlarning namoyon bo‘lishi bilan xarakterlidir. Chunki, har bir shaxs u yoki bu faoliyat bilan shug‘ullanar ekan, avvalo o‘z imkoniyatlari, emostional irodaviy xususiyatlarining sifatlarini shu faoliyat talablariga mos tomonlari haqida ma’lum darajada mulohaza yurita olishi, o‘z "MEN" ligini real tarzdagi psixologik "oyna "da ko‘ra olishi kerak. Ayni paytda, bugungi psixologik himoya asoslangan "MEN"siymosining uch tarkibiy qismi:

1) kognitiv (kishining bilishga asoslangan harakatlari, ongli faoliyat yo‘nalishlari); 2) hissiy baholash (o‘zini o‘zi hurmat qilishi, o‘z-o‘ziga tanqidiy nuqtai nazardan yondashishi, o‘zini sevishi va hokazo); 3) xulq-atvor (o‘z mavqeini kuchaytirish, o‘zgalar hurmatini qozonish, o‘z kamchiliklarini anglash va hokazo) o‘zaro hamjihatlikda kamol toptirilishi yoki boshqacha qilib aytganda har bir shaxsning o‘tmishidagi "MEN" i (o‘zlik), hozirgi "MEN"i (o‘zlik), bo‘lg‘usi "MEN"i (o‘zlik), ideal "MEN"i(o‘zlik) va dinamik "MEN"i(o‘zlik) o‘rtasidagi ijtimoiy mutanosiblikning ta’minlanishiga jiddiy e’tibor berilishi talab qilinadi. Demak, E. G‘oziev tomonidan olib borilgan mazkur tadqiqotlar shaxsdagi psixologik himoya jarayonining nazariy metodologik asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, aytish mumkinki, yuqorida qayd etilgan barcha nazariy metodologik asoslar bugungi kunda shaxslarda o‘zini o‘zi psixologik himoya qilish jarayoni haqidagi tegishli tasavvurlarni o‘rganish uchun ijtimoiy psixologiya fanida ma’lum ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun tegishli ilmiy yo‘nalishlar imkonini beradi.

Shuningdek, shaxsning o‘zini o‘zi ekstremal vaziyatlar davrida o‘zini o‘zi psixologik himoya qilish shakllariga nisbatan tarixda va bugungi kunda turli xil

munozarali fikrlar mavjud bo‘lib, bu qarashlar turli manbalarda, sharq va g‘arb mutafakkirlari ijodida, ilg‘or psixologiya vakillarining ilmiy asarlarida asrlar davomida ilmiy sayqal topib kelgan. Ayni paytda, psixologik himoya shaxs o‘zligini anglashning, o‘zini o‘zi rivojlantirishning va o‘z imkoniyatlariga adekvat baho berishning muhim omili sifatida olimlar e’tiborini tortgan doimiy tadqiqotlar ob’ekti hamda sub’ektiga aylantirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. - 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016 yil 14 sentyabrь. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 37-son, 426-modda.
3. Психология. Словарь // Под общ. ред. А.В. Петровского, М.Г.Ярошевского -2-е изд. Исп. и доп.-М.: Полит. Издат., 1990.
4. Рубинштейн С.Л. Бытие и сознание. – М.: Наука, 1957. – 216 с.
5. Чудновский В.Э. Индивидуальный стиль деятельности школьников// Сов. пед-ка, 1989. - № 9.-С.69-75.
6. Qodirov O.S. “O‘smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorrektsiyasi” // Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. T.: 2020, - 155 b.
7. Safarovich Q.O. et al. Tarbiyasi qiyin o‘quvchilarning xulq-atvori bilan bog’liq muammolarni bartaraf etish masalalari //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 367-371.
8. **https://cyberleninka.ru/article/n/psixologik-himoya-mexanizmlari-xususida/viewer**.
9. chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/
10. https://ilmiy.bmti.uz/blib/files/65/Favqulodda%20vaziyatlar%20va%20fuqaro%20muhofazasi.pdf

SHARQNING BUYUK ALLOMALARI ASARLARIDA OILA BARQARORLIGINI TA’MINLASHDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK QARASHLAR

Mamatova Nazira Djurakulovna
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
“Amaliy psixologiya” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sharq mutafakkirlari asarlarida oila barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik talqini, oila mustahkamligini ta’minlashda ijtimoiy psixologik sabablar, oilada barkamol yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy-madaniy va milliy-psixologik omillarning tarbiyaviy ta’siri haqida fikr bildirilgan.*

Tayanch so‘zlar: *ibrat, pand nasihat, oqila, orasta, tejamkor, saranjom-sarishta, uyatli, andishali, pokiza, bola tarbiyasi, psixika, aqliy taraqqiyot, o‘z-o‘zini anglash, turmush tarzi, salbiy o‘zgarishlar, etnopsixologiya.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается социально-психологическая трактовка обеспечения стабильности семьи в трудах восточных мыслителей, социально-психологические причины обеспечения стабильности семьи, воспитательное влияние социокультурных и национально-психологических факторов на воспитание всесторонне развитой молодежи в выражена семья.*

Ключевые слова: *пример, наставление, умный, средний, бережливый, организованный, застенчивый, вдумчивый, чистоплотный, воспитание ребенка, психика, умственное развитие, самосознание, образ жизни, негативные изменения, этнопсихология.*

Abstract: *In this article, the socio-psychological interpretation of ensuring family stability in the works of eastern thinkers, social psychological reasons for ensuring family stability, the educational influence of socio-cultural and national-psychological factors in raising well-rounded young people in the family is expressed.*

Key words: *example, admonition, smart, average, thrifty, tidy, shy, anxious, clean, child education, psyche, mental development, self-awareness, lifestyle, negative changes, ethnopsychology.*

«Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo‘lsang, baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo‘lsa men o‘zimni baxtli deb bilaman», — deya ta’kidladi Prezident.

«Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Halollik, rostgo‘ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan».

Darhaqiqat, Sharqning buyuk allomalari va ma’rifatparvarlari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxruddin, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalarning asarlarida Markaziy osiyoda yashab kelayotgan xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqining oilaviy hayoti, undagi o‘zaro munosabatlarning (ayniqsa er-xotin) milliy psixologik xususiyatlari, er-xotinning burch va vazifalari, oilaning turmush tarzi va tarbiyaviy muhiti va boshqalar haqida qimmatli fikrlar mavjud.

Tarixiy ma’lumotlarning guvohlik berishicha, oilaviy munosabatlar madaniyati sharq xalqlarida juda qadimdan rivojlangan ijtimoiy voqyelik ekanligini ko‘rsatadi. Qadimgi xalqlardan qolgan asori-atiqalarda, muqaddas diniy manbalarda, o‘zbek xalqining og‘zaki ijodi durdonalarida, sharqning buyuk mutafakkirlarining asarlarida sharq xalqlari, xususan o‘zbek xalqiga xos oilaviy shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘ladigan odob-axloq qoidalari, me’yorlari, insoniy fazilatlar ifodasi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni uchratish mumkin. Manbalarda oilasiz insoniy hayotni tasavvur qilib bo‘lmaslik, barkamol farzand tarbiyasi, undagi er-xotin va o‘zaro munosabatlar madaniyati, baxtli va farovon turmush kechirish yo‘llari, hayotiy misollar yordami bilan hikmatlar va nasihatlar ko‘rinishida bayon etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hujjatli filmda oilaning hayotidagi o‘rni hamda nima uni baxtli qilishi to‘g‘risida so‘zlab berdi.

Shavkat Mirziyoyev — oila va baxt haqida to‘xtalib, «Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat’i nazar, kim bo‘lishidan qat’i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e’tibor bermasa, hyech qachon natija bo‘lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e’tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o‘zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman», — dedi u[1].

Oilaviy turmush va undagi shaxslararo munosabatlar madaniyatiga xos masalalar buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo‘lmish Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ham keng yoritilgandir.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy-madaniy merosini o‘rganar ekanmiz, ularda bayon qilingan oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand kamoloti, erkak bilan ayol munosabati, insoniy fazilatlarning shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan, o‘zbek xalqining og‘zaki ijodi, eposining (o‘zbek xalq maqollari, ertaklari, dostonlari, afsonalari,

[1] https://www.gazeta.uz/uz/2018/07/25/prezident/

rivoyatlari) uzviyligi asosida tarkib topgan ilmiy-madaniy meros ekanligini ko‘ramiz.

Chunonchi, o‘zbek xalqining og‘zaki ijodi va eposlarida mardlik, halollik, kamtarlik, ishonch, sevgiga-sadoqat, do‘stlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, hamfikrlilik, orastalik, go‘zallik, oqillik, e’tiqod, hurmat-ehtirom, oila sha’ni va g‘ururini himoya qilish, tug‘ilgan joyiga muhabbat, ezgulikka intilish, halol va pok yashash ulug‘langan. Bu voqyelikni biz Alpomish, Kuntug‘mish, Go‘ro‘g‘li, Oysuluv, Layli va Majnun, Yusuf va Zulayho kabi qator o‘zbek xalq dostonlarining qahramonlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

«Qadimiy eposlarda ayollar bilan erkaklar teng ijtimoiy mavqyega ega shaxslar sifatida gavdalanadi, ayollar erlaridan qolishmaydigan jasoratli qilib tasvirlangan».

Sevib turmush qurish, sevgida vafodorlik, oilaviy totuvlik kabi insoniy xislatlar o‘rta Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbek urug‘lari va elatlarining xarakterli xususiyati sifatida saqlanib qolgan.

Ma’lumki, muqaddas dinimiz islomda, uning asosiy manbalari hisoblangan «Qur’oni Karim» va Hadislarda ham oilaviy turmushning va er-xotin munosabatlarining barcha tomonlari haqida qimmatli ma’lumotlar va shar’iy qonunlar yoritilgan. Islomda bo‘lajak oilaning vujudga kelishiga alohida e’tibor berilgan.

Shariat bo‘yicha nikohdan o‘tishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim bo‘lgan. 1. Nikohlanuvchilarning o‘zaro roziligi. 2. Nikoh yoshiga to‘lish. 3. Nikohni guvohlar ishtirokida tuzish. 4. Kelin uchun qalin va mahr to‘lash. 5. Diniy e’tiqod birligi. 6. Nikohlanuvchilar yaqin qarindosh bo‘lmasligi. 7. Tabaqa bo‘yicha tenglik. 8. Nikohdan o‘tuvchilarning ruhiy jihatdan sog‘lom bo‘lishi.

Bu shartlarga rioya qilinib tuzilgan nikohgina qonuniy hisoblanib, taraflarni tegishli huquq va majburiyatlar bilan ta’minlagan.

Qur’oni Karimning oyatida oiladagi er bilan xotinning o‘rni belgilab berilgan. Shariat hukmicha, er avvalo oilaning barcha moliyaviy va ma’naviy taraflariga javobgar, uni chetdan bo‘ladigan har qanday xurujlardan himoya qiladigan shaxsdir. Mana shularning evaziga va erkak kishi uchun fazilat hisoblanmish og‘ir-bosiqlik, oila ro‘zg‘or tebratishdagi tadbirkorlik kabi sifatlar mavjudligi sababli u oilaning boshlig‘i sanaladi. Yaxshi xotin esa diyonatli, erning uyini obod qiladigan va unga bir umr sadoqatli bo‘lgan ayoldir. Qur’oni Karimdan er-xotin yoxud oilaviy munosabatlarga xos ibratli misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Hatto ajdodlarimizning muqaddas dini hisoblangan zardushtiylikda ham nikoh va oilaviy burch masalasi muhim axloqiy o‘rinda turgan. Zardushtiylikda ko‘p xotinlilik qat’iy man etilgan. Ayni paytda hayotni bo‘ydoq o‘tkazish ham qoralangan. Balog‘atga yetgan qiz ota-ona va jamoaning ra’yini pisand qilmay, qasddan turmushga chiqmay yursa, u qopga solinib, 25 darra kaltaklanish bilan jazolangan. Agar erkak kishi shu yo‘lni tutsa, unga tamg‘a bosilib badnom qilish maqsadida beliga zanjir bog‘lab yurishga majbur etilgan. «Avesto»da qayd qilinishicha, erkak avvalo uylanish uchun moddiy va ma’naviy tomondan to‘q va

baquvvat bo‘lmog‘i lozim edi. Bundan tashqari, mazkur muqaddas kitobda oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq solish xususida ham diqqatga sazovor mulohazalar mavjud. Shuningdek, unda nikoh va taloqning (ajrashishning) o‘ziga xos mezonlari birma-bir keltirib o‘tilgan.

Zardushtiylikning axloq me’yorlari majmuida ayollar masalasiga ham alohida o‘rin berilgan. Zardushtiylikda oila muqaddas sanalgani uchun boshqa sabablarga ko‘ra, jumladan, ig‘vo, tuhmat, er-xotinning o‘zaro kelishmovchiligiga, ota ona bilan chiqisha olmaslik bahonasi bilan nikohni bekor qilinishiga yo‘l qo‘yilmagan.

Umuman Zardushtiylikda ham, Islomda ham nikohda ikki tomon teng va munosib bo‘lishi aytib o‘tilgan. Nikoh tartiblari va hayotiy tajribalariga ko‘ra, kelin va kuyov nasl nasabda, ijtimoiy mavqyeda, bilim-saviyada, did-farosatda, ilm-e’tiqodda, mulkdorlikda bir-birlariga yaqin bo‘lishi ma’qul topilgan. Shu bois, Sharq xalqlarida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash, ularning tengini topib uylantirishga jiddiy e’tibor berilgan. Ayniqsa, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo‘lishi, oilaning muqaddas ekanligi, uni avaylab-asrash aynan uy bekalariga bog‘liqligi haqida ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan nasihatnoma, pandnoma va hikmatnomalarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan qimmatli nasihatlar hikoya qilinadi.

Jumladan, turk olimi Yusuf Tovasliy to‘plagan «Hikmatlar xazinasi»dagi kelin bo‘luvchi qizga beriladigan ona nasihati kishining e’tiborini o‘ziga tortadi. Unda ona turmushga chiqayotgan qiziga quyidagilarni nasihat qiladi: «Bolajonim, sevikli qizim, meni yaxshilab tingla. Nasihat har kimga lozimdir, o‘git hammaga zarurdir. Nasihat bilmaganga o‘rgatadi, bilganni esiga soladi. Olloh bergan qonunga ko‘ra, hayotga qadam qo‘yadigan har bir qiz erga, har bir erkak ayolga muhtoj bo‘ladi. Erkaklar ayol uchun, ayollar erkak uchun yaratilgandir. Hayot mavjud ekan, bu qonunni hyech kim buza olmaydi». Shu sababli sen tug‘ilib o‘sgan va voyaga yetgan uyingdan, yayrab-yashnab, o‘ynab-kulib yurgan yeringdan chiqib, o‘zing bilmaydigan, notanish uyga borasan. Kelajakda bu uy senikidir. Sen eringga shunday xizmat qilki, ul ham senga qul bo‘lsin. Sen unga yer bo‘lki, u senga osmon bo‘lsin!

Aytganlarimga amal qilsang ering bilan go‘zal hayot kechirasizlar, mas’ud, baxtiyor va saodatli turmush ko‘rasizlar. Bizlar ham (har ikki oila bizning ham, eringning ham oilasi) huzur-halovatda va baxtiyor bo‘lamiz. Aks holda ikki oilada ham huzur-halovat bo‘lmaydi. Sen o‘zing bir jahannamda yashagandek bo‘lasan.

Qizim! Endi senga aytadigan o‘n o‘gitimga quloq sol! Bularni doimo yodingda tut;

1. Qanoat sohibasi bo‘l. O’z xolingga shukur qil. Ya’ni, ering uyga nimaiki olib kelsa, u xoh yeydigan, xoh kiyadigan narsa bo‘lsin, xushfe’llik bilan, go‘zal odob bilan qabul qilib ol! Eringga tashakkur aytib, xushnudlik ko‘rsat. Zero, baxtli hayot kechirmoqning bir yo‘li o‘z holiga shukur etmoqlikdir, holiga shukur etmagan o‘z nafsini tiymagan kishida ko‘ngil huzuri, qalb rohati bo‘lmaydi.

2. Eringga itoat qil, qil degan ishlarini qil, qilma deganini qilma! Ya’ni, ering bilan suhbatlashganda, muloqotda bo‘lganingda itoatli bo‘lishingni, uning so‘zlarini odob bilan tinglab ado etishingni sening so‘zlashib, quloq solishingdan tushunib oladigan bo‘lsin. Shunda Alloh Taolo sendan xushnud va uyingiz saodat nuridan porloq bo‘ladi.

3. Eringning ko‘zi tushadigan joylarga yaxshi e’tibor ber!. Ya’ni, uyning ichini, tashqarisini nihoyatda toza tut, shunday qilki, eringning ko‘ziga bir chirkin yer ko‘rinmasin.

4. Ust-boshingni toza tut. Ering faqat xushbo‘yni sezsin, dimog‘iga yomon hid kelmasin. Chunki yomon hidlar ering ko‘z o‘ngida sening obro‘yingni tushiradi. Sendan irkanishga sabab bo‘ladi. Shuni yaxshi bilgilki, tozalik va zariflik eng yaxshi narsalardir, inson ko‘ziga xush ko‘rinishlik shular bilandir.

5. Ovqatni vaqtida tayyorla. Ya’ni ovqatlanish vaqtini hyech qachon kechiktirma. Ering qachon ovqatlanishga o‘rgangan bo‘lsa, o‘sha paytda ovqatini tayyorlagin. U kelishi bilan darhol dasturxon sol. Shuni yaxshi bilginki, ochlik insonning tez jahlini keltiradi.

6. Uyqu vaqtini, uyg‘onish paytini yaxshi bilib ol! Ya’ni, uning qachon uyquga yotish payti bo‘lsa, o‘rnini tayyorlab qo‘y. Zero, uyqusizlik insonni xafaqon etadi. Asablarning buzilishi, xafaqonlik odamlarning ehtirosi, muhabbatini sekin-sekin so‘ndiradi.

7. Eringni moli va ashyosiga juda e’tiborli bo‘l! Ya’ni, eringning mol dunyosini yaxshi saqla, ashyolarini avayla, muhofaza qilgil. Chunki uning mol-dunyosi senikidir. Eringni mol dunyosini isrof etmaslik ish bilish va qadriga yetish demakdir.

8. Eringni qarindosh va yaqinlariga hurmat ko‘rsat! Ya’ni, eringni qarindoshlari va yaqinlariga hurmat - uning e’tiborini qozonmoq demakdir. Ularni hurmat qilish - eringni hurmat qilish demakdir. Bu esa qadr va e’tibor qozonishdir.

9. Eringning sirini boshqalarga aytma! Ya’ni, eringning ba’zi sirlarini bilgan vaqtingda ehtiyot bo‘lib, uni saqla, birovlarga aytib yurma. Agar aytib qo‘ysang, uning g‘azabini keltirib qo‘yasan, ishonchini yo‘qotasan. Bunda tuzayotgan oilangiz buziladi.

10. Eringni diniga to‘g‘ri keladigan barcha buyruqlarini ado qil! Hyech qachon unga nisbatan itoatsiz bir harakat bo‘lmasin. Agar bir shunday harakat bo‘lsa, senga kin saqlab, oxiri dushman bo‘ladi. U senga dushmanlik yo‘lini tutsa, sen ko‘p zarar ko‘rasan va qo‘lingdan hyech narsa kelmaydi.

Ko‘rinib turibdiki, xalq og‘zaki ijodi va diniy g‘oyalar hamda hikmatnomalar og‘zaki tarzda avloddan-avlodga ko‘chib sayqallashgan holda saqlanib kelgan bo‘lsa, xalqimiz orasidan yetishib chiqqan donishmand va allomalar esa ana shunday qimmatli ma’lumotlarni xalq an’analari va qadriyatlariga tayangan holda o‘z asarlarida yoritgan holda ilmiy-madaniy meros sifatida kelgusi avlodlar uchun qoldirganlar. Ulardan biri - jahon ilm-fani hazinasiga munosib hissa qo‘shgan mutafakkir olim Abu Nasr Forobiydir.

Abu Nasr Forobiy (873-950) jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini va inson kamoloti bosqichlarini, insonlar yashash jarayonida baxt-saodatga erishuv

yo‘llarini o‘zining mashhur asari «Fozil odamlar shahri»da bayon etadi. Forobiy oqil insonlar haqida gapirib, «Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, yomon ishlardan o‘zlarini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar» degan edi. Alloma oqillar bor joyda hyech qachon muammolar va kelishmovchiliklar bo‘lmasligiga ishora qiladi. Uning g‘oyalarida oilaning to‘liqligi, unda qaror topgan sog‘lom ma’naviy muhitning ahamiyatini aks ettiradigan fikrlar ham mavjud. «Har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi. U bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi» yoki «odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos insoniylikdir. Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar (bizningcha, oila) fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi (bizningcha, oila jamoasi) fazilatli jamoadir».

Forobiy keraksiz urf-odatlardan (hozir ham oilaviy hayotda, er-xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechish, baxt saodatga erishish yo‘llari haqida gapirib shunday deydi: Rahbarlar (er yoki xotin) «yomon odatlarni o‘zida ifodalovchi o‘tmishni ham o‘zgartirmog‘i kerak. Aks holda o‘tmishni talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hyech qanday yengillik, o‘zgarish va o‘sish ham bo‘lmaydi». Yoki «Baxt saodatga erishuv yo‘lida nimaiki (bilim, axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq nimaiki zararli bo‘lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur».

Biz tadqiqotlarimizda o‘rganadigan muammo nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, Forobiyning inson kamoloti, uning jamiyatdagi, oiladagi o‘rni, yoshlarning voyaga yetishiga ta’siri to‘g‘risidagi fikrlari, insonlar jamoasidagi o‘zaro hamjihatlik, yordam haqidagi hikmatlari hozirgi oilaviy turmush masalalarini yechishda, undagi munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda farovon turmush kechirish uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o‘z ijtimoiy qarashlarini aks ettirgan yaxlit ijtimoiy ta’limot yaratmagan bo‘lsa-da, lekin u ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘zining nuqtai nazarini ko‘pgina qomusiy asarlarida izhor etishga yoki ular yuzasidan tanqidiy fikrlar aytishga harakat qilgan. Abu Rayhon Beruniyning muayyan qarashlari oilaviy turmush, oila va nikoh, oilaviy qadriyatlar va uning a’zolari o‘rtasidagi munosabatlariga xosdir. Bunday ishoralarni Beruniy hikmatlarida ham uchratamiz. «Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir». «Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o‘rtaga kirib olishi bilan ish to‘g‘ri bo‘lmaydi». «Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g‘am-g‘ussa bo‘lmaydi oilaviy munosabatlarda ana shunday hikmatlarga amal qilishimiz maqsadga muvofiqdir. Beruniy o‘rta Osiyo, Qadimgi Yunon va Hind xalqlari hayotini yaxshi bilgani uchun ular amal qiladigan urf-odatlar, qadriyatlar va milliy madaniyatlarining o‘ziga xos tomonlarini taqqoslab tahlil qiladi. Ushbu tahlillar

oila-nikoh, oiladagi o‘zaro munosabatlarga ham xosdir. Jumladan, u oilalarning «poligamiya» (erkak yoki ayol bir paytning o‘zida bittadan ortik er yoki xotinga ega bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladigan nikoh shaklini bildiradi) turi haqida ham qimmatli ma’lumotlarni keltiradi. Masalan, Janubiy Hindiston madaniyatida tud erkaklari biologik nuqtai nazardan otalikni o‘rnatish bilan qiziqmaganlar. Ularda bolaga otalik rasmini amalga oshirish chog‘ida o‘qli kamonni homilador ayolga tantanali suratda bergan erkak bolaning otasi hisoblangan. Agar keyinchalik boshqa bir erkak bolaga otalik qilishni xohlab qolsa, bu rasm ayolning navbatdagi homiladorligida takrorlangan. Bu ma’lumotlar izlanuvchilarda ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida oilaviy turmushning takomillashuvi, oila-nikoh munosabatlarining barqarorlashuvi va monogamiya oila turining kelib chiqishi tarixi haqida ilmiy tasavvurlar shakllanishiga yordam beradi.

Beruniy qarashlarida oilaviy munosabatlar barqarorligining yetakchi omillari oqillik va mehnatsevarlikning ahamiyati haqida ham qimmatli fikrlar mavjud. Muayyan vazifalarni bajarish zaruriyati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir. Insonning qadr-qimmati o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishidan, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o‘rni mehnat bilan belgilanadi. Zero, inson o‘z hohishiga mehnat tufayli erishgan».

Ushbu muammoga oid mulohazalar Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) «Donishnoma», «Risolai ishq», «Tib qonunlari», «Uy xo‘jaligi» kabi qator asarlari Markaziy Osiyo xalqlari axloq-odobi, tarbiya psixologiyasi, falsafa va tabobat olamida alohida o‘rin tutadi. Ibn Sino oilaviy munosabatlarning turli va muhim tomonlarini yoritar ekan, avvalo oila boshlig‘i erning oldidagi mas’uliyatli vazifalarga e’tiborini qaratadi. Uning fikricha, birinchi navbatda er oiladagi tarbiyaviy ishlarga doir ham nazariy, ham amaliy ma’lumotlarga ega bo‘lishi shart. Shundagina, u haqiqiy oila boshlig‘i bo‘la oladi. Er-xotin munosabati tenglik hamjihatlik va o‘zaro hurmat asosida qurilishi haqida to‘xtalib, «Erkak kishi oila boshlig‘idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog‘i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir. Ayol esa erkakni yaxshi, munosib yo‘ldoshi va bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchisidir» deb yozadi Ibn Sino.

Ibn Sino oilaviy munosabatlar maromi oiladagi tinch totuvlik, mehr-muruvvat, oila g‘ururi va sha’ni ko‘p jihatdan ayollarga ham bog‘liq ekanligi haqida ko‘p yozgan. Jumladan, «Oila xo‘jaligi» asarida ayollar axloqan eng maqbul, yuqori insoniy fazilatlarga ega bo‘lmoqlari lozim, deb yozadi. Mazkur asarning «Ayollarning yaxshi fazilatlari haqida» nomli bo‘limida ularning quyidagi fazilatlari bayon qilinadi; ayol aqlan dono, uyatchan, iboli, iffatli bo‘lib, ko‘p gapirmasligi lozim; u eriga bo‘ysunmog‘i, uni sevmog‘i, farzandlar tug‘ib, doimo halol, pok, to‘g‘ri so‘z, kamtar bo‘lishi kerak; injiq bo‘lmasligi, o‘z iffat va obro‘sini to‘kmasligi lozim; u hyech qachon eriga nisbatan dimog‘dorlik, viqor hissini ko‘rsatmasligi, o‘z ishlarini yaxshi, o‘z vaqtida bajarib, oilaning moddiy boyliklarini tejamkorlik bilan ishlatmog‘i lozim; o‘z xulq-atvori bilan o‘z erining qalbida hadiksirash hissiga o‘rin qoldirmasligi kerak («Ibn Sino va tadbiri manzil».

Mutafakkir olimning sog‘liqni saqlashga doir risolalarida jinsiy aloqalarning me’yorlari, unga qat’iy amal qilish, jinsiy aloqalarda o‘zgarishning sabablari, ularni yo‘lga qo‘yish tadbirlari haqida ham qimmatli ko‘rsatmalar berilgan. Uning fikricha, er-xotin ularni yodda tutishi va unga amal qilishi oilaviy munosabatlar barqarorligiga ijobiy ta’sir etadi. Shuningdek, Ibn Sino «kitob ush-shifo» asarida oila inqirozi va buzilishiga sabab bo‘ladigan omillarni ham ko‘rsatib o‘tgan.

Bularga: 1. Agarda er va xotinlikdan dunyoga farzand kelmagan bo‘lsa.

2. Agarda xotin eriga hiyonat qilib, uning e’tiborini pasaytirsa.

3. Xotin kishi tarbiyasiz bo‘lsa-yu, tarbiya olishni istamasa.

4. Er va xotin bir-birlariga yoqmaydigan xarakterli bo‘lsa.

Ko‘rinib turibdiki, Ibn Sino asarlarida oila-nikoh va oilaviy turmushda er-xotin munosabatlarini ibratli misollar asosida yoritgan hamda ayollar mavqyei undagi munosabatlarda muhim o‘rin tutishini asoslab bergan.

Foydananilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.M.Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: “O‘zbekiston”, 2017. -48 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom, Toshkent, -704 b.

3. A.Jabborov O‘qituvchi etnopsixologiyasi. Qarshi “Nasaf”, 2015. – 180 b.

4. G‘oziev E.G‘. Jabborov A. M. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. T.:, 2003. -124 b.

5. O.S.Qodirov. Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.

6. O.S.Qodirov, Sh.N.Xotamov. Ijtimoiy psixologiya // Darslik. - Samarqand, 2023.-360 b.

7. https://www.gazeta.uz/uz/2018/07/25/prezident/

MUNDARIJA:

4	**KIRISH**
5	**Abdurasulov Rustam Abduraimovich, Eshmonov Otabek Baxriddin o‘g‘li, Israilov Faxriddin O‘skin o‘g‘li** Ta’lim samaradaorligini oshirishda o‘qituvchi mahoratining ahamiyati
9	**Abduraxmonov Firdavs Mamatkozimovich** Oilaga tayyorlik va oila tarbiyasining uzoq yillardan buyon tadqiq etish an’analari
15	**Акилов Фаридун Фирдавсович** Социальные сети и их влияние на студентов
21	**Axmedova N.D, Urinbayeva B.Z** Oliy ta’lim muassasasi-maktabgacha ta’lim hamkorligida simulatsion texnologiyalar orqali bo‘lajak tarbiyachilarning hissiy-axloqiy tayyorgarligini oshirish
24	**A.M. Сосновская** Динамика взаимодействия в высшем образовании: акторно-сетевая теория как инструмент анализа образовательных процессов
26	**Axtamova Mohinabonu Nizomiddin Qizi** Talabalarning intellektual salohiyatini shakllantiruvchi ichki va tashqi omillar
31	**Alqarov Eldor Maxmudovich** Yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida psixologik bilimlarning o‘rni
36	**Asrorov Ilxom Baxronovich** O‘spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning pedagogik-psixologik masalalari
43	**Baxramova Abira Abdullayevna** Xotin-qizlani jinoyat qurboni bo‘lishidan psixologik himoya qilish tajribalari
48	**Boymurodova Mahliyo Orif qizi** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy va psixologik moslashuv determenatlari.
52	**D.F.Djurakulova, Sh.Axmedova.** Oilada farzand tarbiyasida “sifatli vaqt” tushunchasi.
56	**Eshmonov Otabek Baxriddin o‘g‘li, Usmanova Ruxshona Foziljon qizi, Saloxidinova Leyla Zafarovna** Xorij olimlarining ilmiy izlanishlarida stress muammosi va uning oldini olish usullari
61	**Эсанбоев. К. У** Оила боланинг бирламчи ижтимоийлашувини шаклантириш сифатида.

65	**Ernazarov Alimardon Jumaqulovich** Jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning tibbiy- psixologik xususiyatlari
70	**Фан Ицзе** Облачные технологии как часть обучения при подготовке педагогических кадров высшей научной квалификации Китая и России
74	**Gadoyeva Dilnavo. Islamova Dilafruz Bustanovna** Bolalardagi gemotologik kasalliklar va ularning bola psixik rivojlanishiga ta’siri.
77	**Himmatov Jamshid Turdiqul o‘g‘li** Narkomaniya – ijtimoiy-psixologik muammo sifatida
82	**Huang Qingshuang** Intelligent Technology Enables Pre-service Teacher to Practice Teaching Mode Reconstruction and Reform Practice-Taking the Future Teacher Core Literacy Cultivation Project of Liaoning Normal University in China as an Example
85	**Islamova Dilafruz Bustanovna** Bugungi kunda tutingan bolalar bilan olib borilayotgan amaliy ishlarning ijtimoiy - psixologik mazmuni
91	**Israilov Faxriddin O‘skin o‘g‘li** Ta’lim jarayonida o‘smirlarda vatanparvarlik ruhini shakllanishi
96	**Ingole M.R., Bukusheva A.V.** Metacognitive awareness and generative ai literacy among students of teacher education: explorative study
98	**И. А. Юмашева** Профессиональные стандарты как основа системы проектного обучения в вузах: проблемы и перспективы
103	**I.Negmatov** XIX-XX asrlarda g‘arbiy yevropa va aqsh da ijtimoiy ish soxasining taraqqiy topishi
109	**Ж.К. Исаева** Использование виртуальной и дополненной реальности для формирования профессиональных компетенций студентов
113	**Keldiyorov Olim Xudoyorovich** Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan bo‘g‘inlarda, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish masalalari
120	**Komiljonova Dilfuzaxon Nazirjon qizi** O‘smirlarda tajovuzkor xatti-harakatlarning sabablari va xususiyatlari
126	**К.С.Свищёва, А.А.Саифназарова, И.О,Садыкова Альбина Венеровна** Основные приоритеты государственной политики узбекистана в сфере развития инклюзивной культуры и образования:

	рекомендации по реализации сетевых образовательных программ для обучающихся с овз.
131	**Ксения Викторовна Яцкина** Дифференцированное иноязычное обучение в вузе: технология перевернутого класса для студентов с разными стилями обучения
135	**Kuchkarova Fazilat Xankeldiyevna** O‘smir sportchilarning stress holatida o‘z-o‘zini baholashining shaxs xususiyatlari
139	**Li Yubin** Exploring the Path and Policy Support for Enhancing Digital Literacy of Chinese Teachers
140	**Лю Цяофан** Проблемы и пути высококачественного развития педагогического образования Китая в контексте модернизации
142	**Л.В. Горюнова** Социально-педагогическая практика подготовки педагогических кадров в условиях реализации подхода обучение служением
146	**Мирзоулугбек Медиевич Юсупов** Сравнительный анализ, средства и методы инклюзивного образования в образовательных учреждениях в период третьего ренессанса
151	**Мамытова А.Б., Амирбек кызы Г.** Исторические традиции педагогического образования в кыргызстане
154	**Murtazayeva Shahloxon Muzaffar qizi** O‘zbek oilalari funksiyalari va yoshlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash
160	**Мустафаев Азамат Муртазаевич** Психологические аспекты предпринимательской личности и деятельности
163	**Nasimov Sadriddin Xurazboyevich, Maxmudova Sevinch Sheraliyevna** Xavotir va stress hislarining o‘smir xulq-atvoriga ta’siri
168	**Nasimov Sadriddin Xurazboyevich, Baxritdinova Sitora Alisherovna** Ijtimoiy hayotda shaxslarga manipulyativ harakatlar ta’sirining psixologik asoslari
173	**Нематов Зафар Зоирович, Ахтамов Хасан Акбар оглы, Эшманов Отабек Бахриддин сын** Анализ научных исследований, проводимых в узбекистане по проблеме стресса
178	**Н.А. Фролова, Т.А. Алексеева, К.А. Руцкая, О.Т. Кобыльцова,** Система педагогичекого наставничества в красноярском крае
181	**Ochil Suyunov, Farida Hasanova** Mustaqil ishlarni tashkil etishda pedagogik innovatsiyalardan foydalanish

186	**Ochil Suyunov, Amira Asatullayeva** Oliy ta’limda muammoli mashg‘ulotlarni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari
194	**Ochilov Shohruh G‘ayratovich** O‘zbek oilada bolalarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari
200	**Ortiqov Sirojiddin Sa’dullayevich** Jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirishning metodologik tahlili
206	**Пардаев Дилмурод Ахтамкулович** Инклюзивное образование и работа с детьми в узбекистане как социо-философская проблема
208	**Qarshiboeva Gulnoza Abduqodirovna** Suitsid xavfi yuqori bo‘lgan shaxslarni aniqlashda psixologik tahlil usullari
215	**Qarshiboeva Gulnoza Abduqodirovna** O‘smirlar bilan psixoprofilaktik ishlarni tashkil etishda gender yondashuv
221	**Кадыров Обид Сафарович** Психопрофилактика, направленная на устранение негативных проявлений у подростков с девиантным поведением
229	**Rizokulova Parvina Farxodovna** Sog‘lom oilada rashk: xavfmi yoki tabiiy hissiyot? boshqaruvning psixologik asoslari
232	**Raxmatov Faxriddin Umarovich** Huquqiy madaniyatni rivojlantirishning falsafiy jihatdan o‘rganilganligi talqini
236	**Хуррамова Саодат Хабибовна** **И**скусство диалога как способ развития толерантности в педагогической деятельности
240	**Sattorova S.** Shaxsning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishning psixologik asoslari.
244	**Saydullayev Djamoliddin Yaxshiboyevich, Ro‘ziaxmatova Madina Beknazar qizi, Kamoliddinova Farida To‘lqin qizi** Kiyinish madaniyati – talaba ma’naviyatining ko‘zgusi.
249	**Санаев А.К.** Психологические факторы вляющие на объемы студенческой моложежи из стран средней азии
254	**Султанова Гулноза Сабировна** Национальная специфика поликультурного образования на примере нового Узбекистана
257	**I. S. Samokhin, N. V.Nikashina, Nagornova E. V.** **S**chool students’ capacity levels: a model based on the resource concept of inclusive educaoktion уровни возможностей школьника: модель на основе ресурсной концепции инклюзивного образования

261	**Samadov Aktam Rafiqovich** Jamiyatda inson huquqlari to‘g‘risidagi psixologik g‘oyalarning rivojlanishi
266	**Sattorova Sh.S.** Shaxsning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishning psixologik asoslari.
270	**Seilxanova Rita Nurniyazovna** Inclusive learning and supporting children with special needs
272	**Син Цзяньсинь** Практическая подготовка студентов-учителей в Китае: основные тенденции и перспективы роста
275	**Светлана Александровна Лёвина** Медиаобразование как фактор формирования культуры личности в цифровую эпоху
279	**Suyunov Ochil Jumaboyevich** Социальная реклама как агент социализации
283	**Taylanova Shohida Zayniyevna,** **Ubayeva Nodira Turdiqulovna** Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda kommunikativ rivojlantirish imkoniyatlari
287	**Турокулова Раъно Иброгимовна** Проблема когнитивности в покультурном образовании
290	**Тан Сяотун** Актуальное состояние и подходы развития цифровой грамотности будущих учителей
292	**Умматова Ситора Шавкатуллаевна**, **Ахатова Дилбар Ботировна** Психолого-педагогические подходы при организации взаимодействия с подразделениями по делам несовершеннолетних
301	**Usmonova Y.Sh.** Aqli zaif bolalarning tafakkur xususiyatlarini rivojlantiruvchi metodlar
305	**Uvaydullaeva Nozanin Otabek qizi** Oila muhitining òsmirlar agressiv xulq-atvorini shakllanishiga ta’siri
309	**Uroqov Quvonchbek Boxodir o‘g‘li** O‘smirlarda huquqiy tushunchalarni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik predmeti
316	**Utaev Umid Saidaliyevich** O‘smirlarda jinoiy xulq-atvor motivlari psixoprofilaktikasining ijtimoiy xususiyatlari
321	**Волохин Е. А.,** **Мухаметзянова Ф. Г.** Организация обучения по таксономии блума на основе нефтегазовых цифровых тренажеров-имитаторов

325	**Xaydarov Ravshan Rustamovich** Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik va davlat siyosati yo‘nalishlari
331	**Xidirova Maftuna. D.B.Islamova** O‘smirlarda stress paydo bo‘lishining psixologik omillari
334	**Xidirova Zulayxo Aktam qizi** Talabalarda impostor sindromi kelib chiqishining psixologik sabablari
337	**Xotamov Shuhrat Nosirovich** Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishning tibbiy-psixologik asoslari
344	**Xudoyberdiyeva Zarnigor Kobiljonobna** Neyrolingvistik programmalashning modellashtirish va asosiy strategiyalari. mikrostrategiyalar.
349	**Х.Комилов** Спорт фаолиятида мотивация
352	**Yariyeva Laylo, Islamova Dilafruz Bustanovna** Erta ulg‘ayish sindromi: bolalarda mas’uliyat ortishi va stressning psixologik xususiyatlari
354	**Yusupov Rahimjon Karimovich** Magistratura o‘quv dasturini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari va ilmiy tajribasi.
359	**Yusupov Rahimjon Karimovich** Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi va aholi farovonligini oshirishning demografik omillari
363	**Юсупов Рахимжон Каримович, Шеров Маъруф Болтаевич** Ijtimoiy himoyaning yangi tizimida-kreativ g‘oyalarni rivojlantirish masalalari
367	**Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna** Oilada ma’suliyat muammosi va uning ijtimoiy psixologik asoslari
370	**Shaxobiddinova Umida Utkurbekovna** Nutq buzilishlari bilan bog‘liq psixologik muammolar: kichik maktab o‘quvchilari misolida
372	**Шамсиев Сардор Аслидинович** Деструктивное влияние искусственного интеллекта в формирования креативного мышления у сотрудников внутренних дел
375	**Shirinova Dilnoza Sobir qizi** Ijtimoiy tarmoqlarning ruhiy salomatlikka ta’siri
381	**Shonazarov Asror Maxmaisoyevich** O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarni boshaqarishning tashkiliy va ijtimoiy-psixologik mexanizmlari
391	**Чжан Хайянь,** Роль инклюзивного образования наставителей в укреплении психического здоровья аспирантов: исследование многосторонних отношений между наставителем и студентом

396	**Махмудов Т.И.** Иккинчи ренессанс даврида мовраунназрда таълим
403	**Toshmuhammedov Sirojiddin Sadriddin o‘g‘li** Favqulodda vaziyatlarda shaxs o‘zini o‘zi psixologik himoya qilish jarayonini o‘rganish muammolari
407	**Mamatova Nazira Djurakulovna** Sharqning buyuk allomalari asarlarida oila barqarorligini ta’minlashdagi ijtimoiy-psixologik qarashlar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
QOZON (VOLGA VILOYATI) FEDERAL UNIVERSITETI

bilan hamkorlikda

O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASH BO‘YICHA XALQARO FORUM
ITTE-2025: UZBEKISTAN

“BO‘LAJAK PEDAGOG-TALABALARNING AMALIYOTGA YUNALTIRILGAN TA’LIMI:OLIY TA’LIM MUASSASASI VA MAKTAB HAMKORLIGI MEDELLARI” mavzusidagi xalqaro forum
materiallarini pastdagi linklar orqali
yuklab olishingiz mumkin

BIZNING SAYTLARIMIZ:

https://www.samdu.uz/uz
https://anjumanlar.uz/
https://ifte2025uzbekistan.samdu.uz/ru

